(I) If at vertex x we have $h_x = h_1$, then on vertices $S_3(x)$ we assign $h_x = h_1$, and on the remaining vertices $S_2(x)$ we assign $h_x = h_3$. If at vertex x we have $h_x = h_3$, then on vertex $S_1(x)$ we assign $h_x = h_1$, and on the remaining vertices $S_4(x)$ we assign $h_x = h_3$.

From equation (1) we obtain the system:

$$\begin{cases} h_1 = 3F(h_1, \nu, \eta) + 2F(h_3, \nu, \eta), \\ h_3 = F(h_1, \nu, \eta) + 4F(h_3, \nu, \eta). \end{cases} \tag{2}$$

Since we consider the case $\eta = \frac{1}{2}$, we obtain

$$\frac{1}{2} \ln x_1 + \ln x_3 = 0. \tag{3}$$

Note that $x_i = x_i(\nu)$, $i = 1, 3$, hence the left-hand side depends only on ν. For values of ν satisfying (3), the constructed vectors h_x satisfy equation (1).

Now, using h_1, h_2, and h_3, define another collection:

(II) If at vertex x we have $h_x = h_2$, then on vertices $S_2(x)$ assign $h_x = h_2$, on $S_1(x)$ assign $h_x = h_1$, and on the remaining vertices assign $h_x = h_3$. If $h_x = h_3$, then assign h_1 on $S_1(x)$ and h_3 on $S_4(x)$. If $h_x = h_1$, assign h_1 on $S_3(x)$ and h_3 on $S_2(x)$.

Then we obtain:

$$\begin{cases} h_1 = 3F(h_1,\nu,\eta) + 2F(h_3,\nu,\eta), \\ h_2 = F(h_1,\nu,\eta) + 2F(h_2,\nu,\eta) + 2F(h_3,\nu,\eta), \\ h_3 = F(h_1,\nu,\eta) + 4F(h_3,\nu,\eta). \end{cases} \tag{4}$$

Analyzing systems (4) and (3), we obtain:

Theorem 1. For the Ising-Potts model at $\nu = \nu_c^* (\approx 11.44)$ on the Cayley tree of order five, there exist at least two constructive Gibbs measures obtained by schemes I and II.

Now let $k = p + q + 2$, $p, q \in \mathbb{N}$. Using $h_i = (x_i, x_i)(i = 1, 2, 3)$, construct new solutions:

(III) If $h_x = h_1$, assign h_1 on $S_{p+2}(x)$ and h_3 on $S_q(x)$. If $h_x = h_3$, assign h_1 on $S_p(x)$ and h_3 on $S_{q+2}(x)$.

Then:

$$\begin{cases} h_1 = (p+2)F(h_1,\nu,\eta) + qF(h_3,\nu,\eta), \\ h_3 = pF(h_1,\nu,\eta) + (q+2)F(h_3,\nu,\eta). \end{cases} \tag{5}$$

For $\eta = \frac{1}{2}$:

$$x_1^p \cdot x_3^q = 1. \tag{6}$$

Using the equality obtained from (III), we construct the fourth condition as follows:

(IV) If at vertex x we have $h_x = h_2$, then for every vertex in $S_2(x)$ we set the value $h_x = h_2$, for every vertex in $S_p(x)$ we set the value $h_x = h_1$, and for the remaining vertices in $S_q(x)$ we set the value $h_x = h_3$. If at vertex x we have $h_x = h_3$, then for every vertex in $S_p(x)$ we set the value $h_x = h_1$, and for the remaining vertices in $S_{q+2}(x)$ we set the value $h_x = h_3$. If at vertex x we have $h_x = h_1$, then for every vertex in $S_{p+2}(x)$ we set the value $h_x = h_1$, and for the remaining vertices in $S_q(x)$ we set the value $h_x = h_3$. The following equation will be added to the system:

$$h_2 = pF(h_1,\nu,\eta) + 2F(h_2,\nu,\eta) + qF(h_3,\nu,\eta).$$

Analysing (I)-(IV) we get the following theorem:

Theorem 2. For the Ising–Potts model with $a \in T(p,q)$ on the Cayley tree of order $k = p+q+2$, there exist at least two constructive Gibbs measures obtained by schemes III and IV, where

$$T(p,q) = \{a \in \mathbb{R} : \nu > \nu_c (\approx 11.44)\} \cap \{a \in \mathbb{R}_+ : (x_1(\nu))^p (x_3(\nu))^q = 1\}.$$

Literature

1. **Rahmatullaev M.M.** (k_0)-*translation-invariant Gibbs measures.* Jor. Phys. Conf.Ser. Vol.3, No.4, - 2017. 9–12 p.

2. **Dekhonov J.D.** $(k_0)-$*translation-invariant and* (k_0)-*periodik Gibbs measure for Potts model on Caylay tree.* Jor.Theoretical and Mathematical Physics. Vol.219, No.3, - 2024. 1048–1059. p.

3. **Rahmatullaev M.M., Isakov B.M.** *Translation Gibbs measure for the Ising-Potts model on a second-order Cayley tree.* Jor.Theoretical and Mathematical Physics. Vol.219, No.3, - 2024. 1048–1059. p.

UDC 514.76

GEOMETRY OF ORBITS OF ROTATIONAL VECTOR FIELDS

Rajabov E. O.[1], Ergashova Sh. R.[2], Gabdrashova D. R.[3]
[1]**State University "Cyber University", Nurafshan, Uzbekistan;**
rajabov_2019@bk.ru
[2]National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan;
shohida.ergashova@mail.ru
[3]L. N. Gumilyov Eurasian National University, Astana, Kazakhstan;
dilvrvvv@mail.ru

Geometric methods for studying vector fields and the transformation groups generated by them play an essential role in modern differential geometry and the theory of nonlinear differential equations. One of the natural objects arising within this approach is the orbits of families of vector fields. According to Sussmann's theorem, the orbits of a family of smooth vector fields possess the structure of immersed submanifolds, which makes it possible to study them using the methods of Riemannian and differential geometry [1].

The relevance of studying the geometry of orbits is related, in particular, to the fact that symmetries of a differential equation make it possible to identify invariant variables, reduce the number of independent variables, and pass to simpler reduced equations. At the same time, a geometric description of the orbits themselves provides additional information that cannot be obtained solely from an algebraic analysis of symmetries: the metric properties of the orbits, their curvature, geodesics, and the features of their embedding in the ambient space characterize the geometry of the action of the corresponding transformation group [2,3].

Consider the family of vector fields $D = \{X, Y\}$ on $\mathbf{R^4}$, where

$$X = 3t\partial_t + x_1\partial_{x_1} + x_2\partial_{x_2} + u\partial_u, \qquad Y = -x_2\partial_{x_1} + x_1\partial_{x_2}. \tag{1}$$

For these fields, $[X, Y] = 0$, and the joint action of their flows has the form

$$(t, x, u) \mapsto (e^{3a}t, e^a R_b x, e^a u).$$

Definition. The orbit $L(x)$ of the family D of vector fields passing through a point x is defined as the set of all points $y \in \mathbf{R^4}$ for which there exist real numbers $t_1, t_2, \ldots, t_k$ and vector fields $X_1, X_2, \ldots, X_k$ from D (where k is an arbitrary positive integer) such that

$$y = X_k^{t_k}\Big(X_{k-1}^{t_{k-1}}\big(\cdots(X_1^{t_1}(x))\cdots\big)\Big).$$

We now proceed to study the geometry of the orbits of these vector fields.

Theorem. The orbits of the family D of vector fields generate a singular foliation whose regular leaves are surfaces with nonnegative Gaussian curvature.

References

1. **Sussmann J.H.** *Orbits of families of vector fields and integrability of distributions.* Trans. Amer. Math. Soc. vol. 180, pp. 171–188, 1973.
2. **Narmanov A.Y., Rajabov E.O.** *The Geometry of Vector Fields and Two Dimensional Heat Equation.* Int. Electron. J. Geom. -2023. No. 16(1). 73–80.

3. **Narmanov A.Y., Rajabov E.O.** *The Geometry of Vector Fields and two Dimensional Heat Equation.* J. Appl. Nonlinear Dyn. -2024. No. 13(3). 431–438.

UDK 512.64

GAMILTON–KELI TEOREMASI VA UNING TATBIQLARI

Raximov N.N., Otamurodov M.B.
Samarqand davlat pedagogika instituti
nasriddin.raximov@inbox.ru, mehrojiddinotamurodov@gmail.com

Zamonaviy matematikaning muhim sohalaridan biri bo‘lgan chiziqli algebra nazariyasi differensial tenglamalar sistemalarini integrallash, matematik fizika tenglamalarida operatorlar spektrini o‘rganish hamda hisoblash usullarini ixcham shaklda bayon etishda asosiy apparat hisoblanadi. Matritsalar nazariyasida xarakteristik ko‘phad va Gamilton–Keli teoremasi alohida o‘rin egallaydi. Mazkur teorema matritsaning algebraik xossalarini uning xos qiymatlari orqali ifodalash, matritsalarning yuqori darajalarini soddalashtirish, xosmas matritsalarning teskarisini aniqlash hamda matritsalar algebrasi elementlari ustida muhim ayniyatlarni qisqa usulda isbotlash imkonini beradi [1–5].

Faraz qilaylik, $A \in M_n(\mathbb{C})$ kompleks sonlar maydoni ustidagi n-tartibli kvadrat matritsa bo‘lsin. Uning xarakteristik ko‘phadi quyidagi ko‘rinishda aniqlanadi:

$$p_A(\lambda) = \det(\lambda I_n - A) = \lambda^n + c_{n-1}\lambda^{n-1} + \cdots + c_1\lambda + c_0.$$

Bu yerda I_n birlik matritsa bo‘lib, ko‘phad koeffitsiyentlari matritsaning muhim spektral invariantlari bilan bevosita bog‘langan:

$$c_{n-1} = -\operatorname{tr}(A), \qquad c_0 = (-1)^n \det(A).$$

Xususan, 2×2 o‘lchamli matritsalar uchun xarakteristik ko‘phad

$$p_A(\lambda) = \lambda^2 - \operatorname{tr}(A)\lambda + \det(A)$$

ko‘rinishida ifodalanadi.

Teorema (Gamilton–Keli). Har qanday $A \in M_n(\mathbb{C})$ kvadrat matritsa o‘zining xarakteristik ko‘phadini qanoatlantiradi, ya’ni

$$p_A(A) = O_n.$$

Isbot. Schur uchburchaklashtirish teoremasiga binoan, ixtiyoriy $A \in M_n(\mathbb{C})$ matritsa uchun shunday unitar U va yuqori uchburchakli T matritsa mavjudki, $A = UTU^*$ munosabat bajariladi. Bunda T matritsaning bosh diagonalida A matritsaning barcha xos sonlari $\lambda_1, \lambda_2, \ldots, \lambda_n$ algebraik karraliklari bilan joylashadi. Shuning uchun xarakteristik ko‘phad quyidagicha ko‘paytuvchilarga ajraladi:

$$p_A(\lambda) = \prod_{j=1}^{n} (\lambda - \lambda_j).$$

Matritsali ko‘phadlar xossasiga asosan $p_A(A) = U p_A(T) U^*$ tenglik o‘rinlidir. Yuqori uchburchakli T matritsa uchun $p_A(T) = O_n$ ekanligini matritsa tartibi n bo‘yicha matematik induksiya usulida ko‘rsatamiz. Matritsani blokli ko‘rinishda ifodalaymiz:

$$T = \begin{pmatrix} T_{n-1} & v \\ 0 & \lambda_n \end{pmatrix},$$

bu yerda $T_{n-1} \in M_{n-1}(\mathbb{C})$, $v \in \mathbb{C}^{n-1}$. $q(\lambda) = \prod_{j=1}^{n-1}(\lambda - \lambda_j)$ deb belgilasak, induksiya faraziga binoan $q(T_{n-1}) = O_{n-1}$ bo‘ladi. Natijada

$$q(T) = \begin{pmatrix} q(T_{n-1}) & w \\ 0 & q(\lambda_n) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} O & w \\ 0 & q(\lambda_n) \end{pmatrix}.$$

Bundan foydalanib:

$$p_A(T) = q(T)(T - \lambda_n I_n) = \begin{pmatrix} O & w \\ 0 & q(\lambda_n) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} T_{n-1} - \lambda_n I_{n-1} & v \\ 0 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} O & O \\ 0 & 0 \end{pmatrix} = O_n.$$

Demak, $p_A(A) = U p_A(T) U^* = U O_n U^* = O_n$. Teorema to‘liq isbotlandi.

Gamilton–Keli teoremasining eng asosiy tatbiqlaridan biri xosmas ($c_0 \neq 0$) matritsalar uchun teskari matritsani osongina aniqlashdir. Haqiqatan ham, teorema tengligidan:

$$A^n + c_{n-1}A^{n-1} + \cdots + c_1 A + c_0 I_n = O_n \implies A\left(A^{n-1} + c_{n-1}A^{n-2} + \cdots + c_1 I_n\right) = -c_0 I_n.$$

Ushbu munosabatning har ikki tomonini $-\frac{1}{c_0}$ skalyarga ko‘paytirib, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$A^{-1} = -\frac{1}{c_0}\left(A^{n-1} + c_{n-1}A^{n-2} + \cdots + c_1 I_n\right). \tag{1}$$

1-masala. $A = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}$ matritsaning teskarisini Gamilton–Keli teoremasi orqali hisoblang.

Yechim. Berilgan matritsaning xarakteristik ko‘phadi $p_A(\lambda) = \lambda^2 - 4\lambda + 3$ ko‘rinishida bo‘lib, $c_1 = -4$ va $c_0 = 3$ ga teng. U holda $A^2 - 4A + 3I_2 = O_2$. (1) formulani qo‘llasak:

$$A^{-1} = \frac{1}{3}(4I_2 - A) = \frac{1}{3}\left(\begin{pmatrix} 4 & 0 \\ 0 & 4 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}\right) = \frac{1}{3}\begin{pmatrix} 2 & -1 \\ -1 & 2 \end{pmatrix}.$$

Bundan tashqari, matritsaning xarakteristik ko‘phadi uning izi va determinanti bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi bois, Gamilton–Keli teoremasi matritsalar ustidagi turli kommutatorli ayniyatlarni isbotlashda kuchli apparat vazifasini bajaradi.

2-masala. Agar $A, B \in M_2(\mathbb{C})$ va $\det A = \det B = 1$ bo‘lsa, quyidagi tenglikni isbotlang:

$$\operatorname{tr}(AB) - \operatorname{tr}(A)\operatorname{tr}(B) + \operatorname{tr}(AB^{-1}) = 0.$$

Yechim. B matritsaning xarakteristik ko‘phadi $p_B(\lambda) = \lambda^2 - \operatorname{tr}(B)\lambda + 1$ bo‘lgani uchun, teoremaga ko‘ra $B^2 - \operatorname{tr}(B)B + I_2 = O_2$. Ushbu tenglikni o‘ng tomondan B^{-1} ga ko‘paytirsak:

$$B - \operatorname{tr}(B)I_2 + B^{-1} = O_2.$$

Hosil bo‘lgan ifodani chap tomondan A matritsaga ko‘paytiramiz:

$$AB - \operatorname{tr}(B)A + AB^{-1} = O_2.$$

Iz operatorining chiziqlilik xossasidan foydalanib, har ikkala tomondan iz olamiz:

$$\operatorname{tr}(AB) - \operatorname{tr}(B)\operatorname{tr}(A) + \operatorname{tr}(AB^{-1}) = 0.$$

Tenglik isbotlandi.

3-masala. Agar $A, B \in M_3(\mathbb{C})$ bo‘lsa, u holda

$$\det(AB - BA) = \frac{1}{3}\operatorname{tr}\left((AB - BA)^3\right)$$

munosabat o‘rinli bo‘lishini isbotlang.

Yechim. $C = AB - BA$ kommutator matritsani qaraymiz. Izning siklik xossasiga asosan:

$$\operatorname{tr}(C) = \operatorname{tr}(AB) - \operatorname{tr}(BA) = 0.$$

3-tartibli C matritsaning xarakteristik ko‘phadini $p_C(\lambda) = \lambda^3 - c_1\lambda^2 + c_2\lambda - c_3$ deb yozsak, bu yerda $c_1 = \operatorname{tr}(C) = 0$ va $c_3 = \det(C)$. Gamilton–Keli teoremasiga ko‘ra $C^3 + c_2C - c_3I_3 = O_3$. Har ikki tomondan iz operatorini olamiz:

$$\operatorname{tr}(C^3) + c_2 \operatorname{tr}(C) - 3c_3 = 0.$$

$\operatorname{tr}(C) = 0$ ekanligini hisobga olsak, $\operatorname{tr}(C^3) - 3\det(C) = 0$ tenglik kelib chiqadi. Bundan esa:

$$\det(AB - BA) = \frac{1}{3}\operatorname{tr}\big((AB - BA)^3\big).$$

Xulosa qilib aytganda, Gamilton–Keli teoremasi chiziqli algebraning nazariy qonuniyatlari bilan amaliy hisoblashlari o‘rtasidagi eng muhim vositalardan biridir. U matritsali funksiyalarni hisoblash, operatorlar spektral nazariyasi va differensial tenglamalar sistemasini yechishda samarali qo‘llaniladi.

Adabiyotlar

1. Axler S. *Linear Algebra Done Right.* – New York: Springer, 2015.
2. Horn R.A., Johnson C.R. *Matrix Analysis.* – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
3. Strang G. *Introduction to Linear Algebra.* – 5th ed. – Wellesley-Cambridge Press, 2016.
4. Roman S. *Advanced Linear Algebra.* – 3rd ed. – New York: Springer, 2008.
5. Rasulov T.H. *Chiziqli algebra va analitik geometriya.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

UDK 511.5

EKSPONENSIAL DIOFANT TENGLAMALARI

Raximov N.N., Boyqobilov E.B.
Samarqand davlat pedagogika instituti
nasriddin.raximov@inbox.ru, eraliboyqobilov@gmail.com

Eksponensial Diofant tenglamalari noma’lumlarning kamida bittasi daraja ko‘rsatkichida qatnashadigan va yechimlari butun yoki natural sonlarda izlanadigan tenglamalardir. Ularning muhim sinflari

$$a^x - b^y = c, \qquad x^m - y^n = k, \qquad x^2 + D = y^n$$

ko‘rinishida ifodalanadi. Bunday tenglamalar oddiy algebraik Diofant tenglamalaridan noma’lumlarning eksponensial o‘sishi bilan farq qiladi. Shu sababli yechimlarni aniqlashda bo‘linuvchanlik, qoldiq sinflari, tub ko‘paytuvchilarga ajratish, daraja ko‘rsatkichlarini kamaytirish hamda algebraik sonlar logarifmlarining chiziqli shakllariga oid baholardan foydalaniladi [1,2]. Eksponensial Diofant tenglamalarini o‘rganishning asosiy maqsadi nafaqat mavjud yechimlarni topish, balki boshqa yechimlar mavjud emasligini qat’iy isbotlashdan iborat.

Dastlab elementar arifmetik usullarning imkoniyatini ko‘rib chiqamiz. Quyidagi tenglama buning sodda, ammo mazmunli namunasidir:

$$2^x - 3^y = 1, \qquad x, y \in \mathbb{N}.$$

Theorem 1. $2^x - 3^y = 1$ tenglamaning musbat butun sonlardagi yagona yechimi

$$(x, y) = (2, 1)$$

dan iborat.

Proof. Tenglamani 3 modul bo‘yicha qarasak,

$$2^x \equiv 1 \pmod 3.$$

$2 \equiv -1 \pmod 3$ bo‘lganligi uchun x juft. Shuning uchun $x = 2k$ deb yozamiz. Natijada

$$3^y = 2^{2k} - 1 = (2^k - 1)(2^k + 1).$$

Bu ikki ko‘paytuvchi toq son bo‘lib,

$$\text{EKUB}(2^k - 1, 2^k + 1) = 1.$$

Haqiqatan, ularning umumiy bo‘luvchisi ayirmasi 2 ni ham bo‘lishi kerak, lekin ikkala son ham toq. Ko‘paytma 3 ning darajasiga teng bo‘lganligi va ko‘paytuvchilar o‘zaro tub bo‘lganligi sababli ulardan biri 1 ga teng:

$$2^k - 1 = 1.$$

Bundan $k = 1$, demak $x = 2$. Dastlabki tenglamadan $3^y = 3$ va $y = 1$ kelib chiqadi.

Mazkur misolda taqqoslama daraja ko‘rsatkichining juftligini, ko‘paytuvchilarga ajratish esa uning aniq qiymatini aniqladi. Biroq

$$x^m - y^n = 1, \qquad x, y, m, n > 1,$$

tenglama uchun bunday elementar usullar yetarli emas. Bu masala Catalan gipotezasi nomi bilan ma’lum bo‘lib, uzoq vaqt davomida sonlar nazariyasining muhim ochiq masalalaridan biri bo‘lgan. R. Tijdeman algebraik sonlar logarifmlarining chiziqli shakllariga oid Baker nazariyasidan foydalanib, mazkur tenglamadagi daraja ko‘rsatkichlarining chegaralanganligini isbotlagan [3]. P. Mihailescu esa keyinchalik masalani to‘liq hal qilgan [4].

Theorem 2 (Mihailescu). Agar $x, y, m, n > 1$ butun sonlar uchun

$$x^m - y^n = 1$$

tenglik bajarilsa, u holda

$$x = 3, \qquad m = 2, \qquad y = 2, \qquad n = 3.$$

Demak,

$$3^2 - 2^3 = 9 - 8 = 1$$

ushbu tenglamaning yagona yechimidir.

Bu teoremaning natijasiga ko‘ra, birdan katta darajali mukammal darajalar orasida ketma-ket joylashgan yagona ikkita son 8 va 9 dir. Natija eksponensial Diofant tenglamalarida yechimlar juda kam uchrashi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan,

$$5^2 - 2^4 = 9, \qquad 3^3 - 2^4 = 11,$$

bo‘lib, darajalar o‘sishi bilan ikki eksponensial ifodaning ayirmasi kichik doimiy songa teng bo‘lishi keskin cheklanadi.

Bunday cheklanishni logarifmik usul orqali tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik,

$$a^x - b^y = c, \qquad a, b > 1, \quad c > 0.$$

Tenglamani

$$a^x = b^y \left(1 + \frac{c}{b^y}\right)$$

ko‘rinishda yozib, logarifm olamiz:

$$x \log a - y \log b = \log \left(1 + \frac{c}{b^y}\right).$$

Quyidagi chiziqli shaklni qaraymiz:

$$\Lambda = x \log a - y \log b.$$

$\log(1 + t) < t$ tengsizlikdan

$$0 < \Lambda < \frac{c}{b^y}$$

kelib chiqadi. Shunday qilib,

$$\log |\Lambda| < \log c - y \log b. \tag{1}$$

Boshqa tomondan, a va b multiplikativ jihatdan bog‘liq bo‘lmasa, Baker nazariyasi Λ uchun noldan farqli samarali quyi baho beradi. Umumiy ko‘rinishda u

$$\log |\Lambda| > -C(1 + \log B), \qquad B = \max\{x, y\}, \tag{2}$$

shaklida ifodalanadi. Bu yerda $C > 0$ o‘zgarmas son a va b ga bog‘liq [1,2]. (1) va (2) tengsizliklarni birlashtirish natijasida

$$y \log b < C(1 + \log B) + \log c$$

hosil bo‘ladi. Chap tomon y ga nisbatan tezroq, o‘ng tomon esa $\log B$ tartibida o‘sadi. Shu sababli x va y uchun yuqori chegara mavjud bo‘ladi. Mazkur tamoyil zamonaviy eksponensial Diofant tenglamalarini yechishning asosiy vositalaridan biridir.

Eksponensial Diofant tenglamalarining yana bir klassik namunasi Ramanujan–Nagell tenglamasidir:

$$x^2 + 7 = 2^n. \tag{3}$$

Ushbu tenglamaning barcha musbat butun yechimlari ma’lum [5].

Theorem 3 (Ramanujan–Nagell). (3) tenglamaning musbat butun sonlardagi yechimlari

$$(x, n) = (1, 3),\ (3, 4),\ (5, 5),\ (11, 7),\ (181, 15)$$

dan iborat.

Mazkur natijaning n juft bo‘lgan holatini elementar usul bilan aniqlash mumkin. $n = 2k$ bo‘lsin. U holda

$$x^2 + 7 = 2^{2k}$$

dan

$$(2^k - x)(2^k + x) = 7$$

kelib chiqadi. Har ikkala ko‘paytuvchi musbat toq son bo‘lganligi sababli

$$2^k - x = 1, \qquad 2^k + x = 7.$$

Tenglamalarni qo‘shsak,

$$2^{k+1} = 8,$$

bundan $k = 2$. Demak,

$$n = 4, \qquad x = 3.$$

Shunday qilib, n juft bo‘lgan holatda yagona yechim $(3, 4)$ dir. Toq daraja ko‘rsatkichlarini tekshirish esa ancha chuqur usullarni talab qiladi.

Ramanujan–Nagell tenglamasi

$$x^2 + D = y^n \tag{4}$$

ko‘rinishdagi umumiy eksponensial Diofant tenglamalarining xususiy holidir. (4) tenglamani o‘rganishda daraja ko‘rsatkichini kamaytirish muhim usullardan biri hisoblanadi. Agar n murakkab son va p uning toq tub bo‘luvchisi bo‘lsa, $n = pt$ deb yozib,

$$y^n = (y^t)^p$$

ko‘rinishga o‘tiladi. Shu sababli ko‘p hollarda n ni toq tub son deb qarash kifoya qiladi. Agar $4 \mid n$ bo‘lsa, alohida

$$x^2 + D = z^4$$

holati tekshiriladi. Bu kamaytirish noma’lum daraja ko‘rsatkichlarining cheksiz to‘plamini tub ko‘rsatkichli holatlarga ajratish imkonini beradi [6].

Ayrim $x^2+D = y^n$ tenglamalarini mos kvadratik sonlar maydonida ko‘paytuvchilarga ajratish natijasida

$$\alpha^n - \beta^n$$

ko‘rinishdagi ifodalar hosil bo‘ladi. Ular

$$U_n = \frac{\alpha^n - \beta^n}{\alpha - \beta}$$

Lucas turidagi rekurrent ketma-ketliklar bilan bog‘lanadi. Shu sababli eksponensial Diofant tenglamalari bilan rekurrent ketma-ketliklar nazariyasi o‘rtasida tabiiy bog‘lanish mavjud.

Bilu, Hanrot va Voutier tomonidan Lucas va Lehmer ketma-ketliklarining yangi tub bo‘luvchilari haqidagi muhim natija isbotlangan [7]. Tegishli shartlar bajarilganda $n > 30$ bo‘lgan had yangi tub bo‘luvchiga ega bo‘ladi. Bunday tub sonning mavjudligi $x^2 + D = y^n$ kabi tenglamalarda katta n qiymatlarini chiqarib tashlash uchun qo‘llanadi. Natijada avval cheksiz ko‘p bo‘lgan daraja ko‘rsatkichlari chekli to‘plamgacha qisqartiriladi.

Shunday qilib, eksponensial Diofant tenglamalarini o‘rganishda birinchi navbatda qoldiq sinflari va bo‘linuvchanlikdan foydalanib mahalliy cheklovlar olinadi. Keyin ko‘paytuvchilarga ajratish va daraja ko‘rsatkichlarini kamaytirish amalga oshiriladi. Katta noma’lumlarni chegaralashda esa logarifmlarning chiziqli shakllari, algebraik sonlar nazariyasi va rekurrent ketma-ketliklarning yangi tub bo‘luvchilari haqidagi natijalardan foydalaniladi. Mihailescu hamda Ramanujan–Nagell teoremalari ushbu usullarning eksponensial Diofant tenglamalaridagi samaradorligini ko‘rsatadigan klassik natijalardir.

References

1. **Shorey T.N., Tijdeman R.** *Exponential Diophantine Equations,* Cambridge Tracts in Mathematics, Vol. 87, Cambridge University Press, Cambridge, 1986.
2. **Baker A.** *Transcendental Number Theory,* Cambridge University Press, Cambridge, 1975.
3. **Tijdeman R.** *On the equation of Catalan,* Acta Arithmetica, 1976, Vol. 29, no. 2, pp. 197–209.
4. **MihIailescu P.** *Primary cyclotomic units and a proof of Catalan's conjecture,* Journal für die reine und angewandte Mathematik, 2004, Vol. 572, pp. 167–195.
5. **Nagell T.** *The Diophantine equation* $x^2 + 7 = 2^n$*,* Arkiv för Matematik, 1960, Vol. 4, pp. 185–187.
6. **Patel V.** *A Lucas–Lehmer approach to generalised Lebesgue–Ramanujan–Nagell equations,* The Ramanujan Journal, 2021, Vol. 56, pp. 585–596.
7. **Bilu Y., Hanrot G., Voutier P.M.** *Existence of primitive divisors of Lucas and Lehmer numbers,* Journal für die reine und angewandte Mathematik, 2001, Vol. 539, pp. 75–122.

UDK 511.34

TUB MODUL BO‘YICHA KVADRATIK CHEGIRMA VA CHEGIRMAMASLARNING TAQSIMOTI HAQIDA

Ro‘ziyeva N.T.[1)], Xudaynazarova D.N.[2)]
[1),2)]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Matematika yo‘nalishi talabalari;
Ilmiy rahbar: f.-m.f.f.d., (PhD) B.X.Erdonov

Analitik sonlar nazariyasida tub modul bo‘yicha kvadratik chegirmalar va kvadratik chegirmamaslarning oraliqlarda taqsimlanishi, xususan, eng kichik musbat kvadratik chegirmamas $n_1(p)$ ning miqdoriy tartibini yuqoridan baholash fundamental masalalardan biri hisoblanadi. $p > 2$ toq tub son va $(a, p) = 1$ butun soni uchun $x^2 \equiv a \pmod p$ taqqoslama yechimga ega bo‘lsa, a soni p moduli bo‘yicha *kvadratik chegirma*, aks holda *kvadratik chegirmamas* deyiladi.

Ushbu tushunchalar Eyler mezoni hamda Lejandr simvoli $\left(\frac{a}{p}\right)$ orqali analitik ifodalanadi:

$$\left(\frac{a}{p}\right) \equiv a^{\frac{p-1}{2}} \pmod p, \quad \left(\frac{a}{p}\right) \in \{-1, 1\}.$$

Ma’lumki, $1, 2, \ldots, p-1$ qisqargan chegirmalar sistemasida kvadratik chegirmalar va kvadratik chegirmamaslar soni teng taqsimlangan bo‘lib, har birining soni aynan $\frac{p-1}{2}$ tadan iborat. Biroq ularning kichik oraliqlardagi taqsimoti nihoyatda murakkab bo‘lib, xarakterlar yig‘indisi usulini jalb etishni talab qiladi.

$1 \le x \le H$ oraliqda joylashgan kvadratik chegirmalar soni $R(H)$ va chegirmamaslar soni $N(H)$ quyidagi ortogonal munosabat orqali ifodalanadi:

$$R(H) - N(H) = \sum_{x=1}^{H} \left(\frac{x}{p}\right). \tag{1}$$

Klassik I. M. Vinogradov [1] va G. Polya tengsizligiga asosan, har qanday non-trivial Dirixle xarakteri, xususan Lejandr simvoli uchun to‘liq bo‘lmagan xarakterlar yig‘indisi quyidagicha baholanadi:

$$\left|\sum_{x=1}^{H} \left(\frac{x}{p}\right)\right| \le \sqrt{p} \ln p. \tag{2}$$

Agar (1) tenglikda $H > \sqrt{p}\ln p$ deb tanlansa, $R(H) - N(H) < H$ bo‘lishi kafolatlanadi, bu esa $1, 2, \ldots, H$ oraliqda kamida bitta kvadratik chegirmamas mavjudligini ko‘rsatadi. Natijada eng kichik musbat kvadratik chegirmamas $n_1(p)$ uchun I. M. Vinogradovning mashhur bahosi hosil bo‘ladi:

$$n_1(p) \le \sqrt{p}\ln p + 1. \tag{3}$$

Keyinchalik D. A. Burgess xarakterlar yig‘indisi uchun chuqur baho olib, ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun $n_1(p) \ll_\epsilon p^{\frac{1}{4\sqrt{e}}+\varepsilon}$ ekanligini isbotlagan bo‘lsa-da, mazkur bahoda noma’lum asimptotik o‘zgarmaslar qatnashadi.

Ushbu ishda qisqa oraliqlarda kvadratik chegirmalar va chegirmamaslarning ketma-ket uchrash intervallari tahlil qilinadi.

Teorema. *Faraz qilaylik, $p \ge 3$ tub son bo‘lsin. Har qanday $H \ge 2\sqrt{p}\ln p$ uzunlikdagi intervalda kvadratik chegirmalar soni $R(H)$ va kvadratik chegirmamaslar soni $N(H)$ uchun quyidagi qat’iy asimptotik taqsimot o‘rinli:*

$$\left|R(H) - \frac{H}{2}\right| \le \frac{1}{2}\sqrt{p}\ln p, \quad \left|N(H) - \frac{H}{2}\right| \le \frac{1}{2}\sqrt{p}\ln p. \tag{4}$$

Isbot sxemasi. Oraliqdagi sonlar uchun $R(H) + N(H) = H$ ayniyat o‘rinli. (1) formuladagi ayirmani ushbu yig‘indi bilan kombinatsiya qilsak:

$$R(H) = \frac{1}{2}\left(H + \sum_{x=1}^{H}\left(\frac{x}{p}\right)\right), \quad N(H) = \frac{1}{2}\left(H - \sum_{x=1}^{H}\left(\frac{x}{p}\right)\right).$$

(2) dagi Vinogradov–Polya tengsizligini qo‘llash orqali bevosita (4) dagi qat’iy chegaralarga ega bo‘lamiz. Bu esa $H > \sqrt{p}\ln p$ bo‘lganda oraliqda har ikki toifadagi chegirmalar mavjudligini hamda ularning zichligi $\frac{1}{2}$ ga yaqinlashishini to‘liq ko‘rsatadi.

References

1. **Виноградов И. М.** *Основы теории чисел.* — М.: Наука, 1984. — 168 с.
2. **Burgess D. A.** *The distribution of quadratic residues and non-residues.* — Mathematika, 1957. Vol. 4, pp. 106–112.
3. **Карацуба А. А.** *Основы аналитической теории чисел.* — М.: Наука, 1983. — 240 с.
4. **Аллаков И.** *Оценка тригонометрических сумм и их приложения к решению некоторых аддитивных задач теории чисел.* — Термез: Surxon-nashr, 2021. — 160 с.

GOLDBAXNING BINAR MUAMMOSI BO‘YICHA SO‘NGGI NATIJALAR

Safarov A.Sh.
Termiz Davlat Universiteti, Termiz, Ozbekiston;
asafarov1977@mail.ru

Tub sonlarning additiv xossalarini o‘rganish sonlar nazariyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishdagi eng mashhur masalalardan biri Goldbax muammosi bo‘lib, u XVIII asrdan buyon matematiklarning e’tiborini tortib kelmoqda. Goldbaxning binar gipotezasi quyidagicha ifodalanadi:

$$N > 2, N = 2k, N = p + q$$

bu yerda p va q — tub sonlar. Masalan, 4=2+2,6=3+3,10=3+7,4=2+2, va 100=3+97=11+89=17+83=29+71.

Ko‘plab hisoblash tajribalari gipotezaning to‘g‘riligini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq chekli sondagi hisoblash natijalari cheksiz ko‘p juft sonlar uchun matematik isbot vazifasini bajara olmaydi.[1]

Goldbax muammosining qiyinligi tub sonlarning additiv taqsimotini juda aniq baholash zarurati bilan bog‘liq. Tub sonlarning multiplikativ xususiyatlari yaxshi o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning yig‘indilar ko‘rinishidagi taqsimoti ancha murakkabdir.

Goldbax muammosini o‘rganishda asosiy arifmetik funksiya

$$r_2(N) = \{(p,q) : p+q = N,\ p,q \text{ - tub}\}$$

orqali aniqlanadi.

Binar Goldbax gipotezasining isboti uchun barcha juft $N > 2$ lar uchun

$$r_2(N) > 0$$

ekanini ko‘rsatish yetarli.

Hardy va Littlewood tomonidan ishlab chiqilgan aylana metodi ushbu masalani o‘rganishda fundamental vositalardan biridir. Mazkur yondashuv tub sonlarni eksponensial yig‘indilar yordamida ifodalash va integralni katta hamda kichik yoylarga ajratishga asoslanadi. Goldbax muammosini tadqiq qilishda g‘alvirlash nazariyasi alohida ahamiyatga ega. G‘alvirlash usullari tub sonlarni boshqa “deyarli tub“ sonlardan ajratishda kuchli natijalar beradi. Ushbu yo‘nalishdagi eng mashhur natijalardan biri Chen Jingrun tomonidan olingan teorema hisoblanadi. Chen teoremasiga ko‘ra, yetarlicha katta har qanday juft son tub son va ko‘pi bilan ikkita tub ko‘paytuvchiga ega bo‘lgan son yig‘indisi sifatida ifodalanadi.[2] Sxematik ravishda:

$$N = p + P_2,$$

bu yerda $p-$ tub son, P_2 esa ko‘pi bilan ikkita tub ko‘paytuvchidan tashkil topgan son.

Mazkur natija klassik Goldbax gipotezasiga juda yaqin bo‘lsa-da, P_2 har doim tub son bo‘lishi shart emas. Shu sababli Chen teoremasi Goldbax gipotezasining to‘liq isboti hisoblanmaydi. Shunga qaramay, u binar Goldbax muammosi uchun eng muhim qisman natijalardan biri bo‘lib qolmoqda[3].

So‘nggi tadqiqotlarda Goldbax muammosining zaiflashtirilgan shakllarini tobora kuchaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

J. Li va J. Liu tomonidan 2026-yilda e’lon qilingan natijada yetarlicha katta juft sonlar uchun

$$N = p + rq$$

ko‘rinishidagi tasvir o‘rganilgan. Bu yerda p va q — tub sonlar, r esa tub son bo‘lib, ma’lum yuqori chegara bilan chegaralangan.

Ularning natijasida r uchun

$$r \le q^{0.9}$$

chegaraga ega bo‘lgan tasvirning mavjudligi ko‘rsatiladi.

Mazkur natijaning konseptual ahamiyatini quyidagi zanjir orqali ko‘rsatish mumkin: $N = p+q \quad \leftarrow N = p+rq \leftarrow \quad N = p+P_2$. Klassik Goldbax gipotezasida r=1 bo‘lishi kerak. Yangi natijada esa r ning kengroq qiymatlariga yo‘l qo‘yiladi[4]. Shuning uchun ushbu teorema gipotezaning o‘zini isbotlamaydi, ammo unga olib boruvchi oraliq bosqich sifatida muhimdir.

Bundan tashqari, ushbu yo‘nalishdagi natijalar ma’lum qo‘shimcha analitik gipotezalar, jumladan Elliott–Halberstam tipidagi farazlar bilan bog‘liq holda yanada kuchaytirilishi mumkin. Goldbax muammosining yana bir muhim yo‘nalishi – maxsus to‘plamni o‘rganishdir. Agar

$$E(x) = \{N \leq x : N\ juft\ va\ Goldbax\ tasviriga\ ega\ emas\}$$

deb olinsa, asosiy maqsad $E(x)$ ning imkon qadar kichik ekanini ko‘rsatishdan iborat. ”Deyarli barcha” juft sonlar uchun Goldbax tasvirining mavjudligini ko‘rsatish barcha juft sonlar uchun isbot olishdan ancha oson. Biroq maxsus to‘plamning nolga tengligini isbotlash aynan muammoning eng qiyin qismidir.

2026-yildagi yangi tadqiqotlarda Hardy–Littlewood aylana metodining katta yoylari, eksponensial yig‘indilar va maxsus to‘plamlar bo‘yicha oldingi natijalar qayta ko‘rib chiqilib, aniqroq baholar olishga harakat qilinmoqda[5].

Bu natijalar Goldbax muammosining ”deyarli barcha” holatdan ”barcha“ holatga o‘tishidagi asosiy analitik to‘siqlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Goldbax gipotezasini tekshirishda yuqori unumdor hisoblash texnologiyalaridan foydalanish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi.

2013-yilda T. Oliveira e Silva, S. Herzog va S. Pardi tomonidan amalga oshirilgan katta hajmdagi hisoblashlar Goldbax gipotezasini $4 \times 10184 \cdot 10^{18}$ gacha tekshirish imkonini bergan[6].

Keyingi yillarda taqsimlangan hisoblash loyihalari yordamida ushbu chegarani yanada kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Kompyuter tekshiruvlarining asosiy afzalligi shundaki, juda katta sonlar diapazonida qarshi misol mavjud emasligini amaliy ravishda tekshirish mumkin. Biroq bu usulning fundamental cheklovi ham mavjud: har qanday chekli hisoblash cheksiz ko‘p sonlar uchun nazariy isbotning o‘rnini bosa olmaydi.

Shuning uchun zamonaviy tadqiqotlarda hisoblash usullari analitik usullar bilan birgalikda qo‘llanadi. Kompyuterlar kichik va o‘rta qiymatli qoldiq holatlarni tekshirish, nazariy baholarning konstantalarini aniqlash va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishda samarali vosita hisoblanadi.

2026-yil holatiga ko‘ra binar Goldbax gipotezasi to‘liq isbotlangan emas. Shunga qaramay, uning atrofida quyidagi muhim natijalar mavjud [7]:

- juda katta sonlar diapazonida gipotezaning hisoblash yo‘li bilan tasdiqlanishi;
- Chen teoremasi orqali ”tub son + deyarli tub son” tasvirining mavjudligi;
- “deyarli barcha” juft sonlar uchun Goldbax tasvirlari bo‘yicha kuchli natijalar;
- aylana metodi orqali Goldbax tasvirlari sonining kutilayotgan asimptotik baholari;
- 2026-yilda $N = p + rq$ ko‘rinishidagi kuchaytirilgan oraliq natijalarning olinishi;
- maxsus to‘plamni yanada kichraytirishga qaratilgan yangi tadqiqotlar.

Kelgusida muammoni hal qilish uchun bir nechta yo‘nalish ayniqsa istiqbolli hisoblanadi. Birinchidan, tub sonlarning qisqa intervallardagi taqsimoti haqidagi natijalarni kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, kichik yoylarda paydo bo‘ladigan eksponensial yig‘indilarni yanada aniq baholash kerak. Uchinchidan, galvirlash usullarining ”deyarli tub” sonlardan haqiqiy tub sonlarga o‘tishdagi cheklovlarini bartaraf etish muhim.

Goldbaxning binar muammosi ikki yuz yildan ortiq vaqt davomida sonlar nazariyasining markaziy ochiq masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Uning formulirovkasi juda sodda bo‘lsa-da, tub sonlarning additiv taqsimotini boshqarish zarurati masalani nihoyatda murakkablashtiradi.

So‘nggi natijalar Goldbax gipotezasiga turli tomondan yaqinlashayotganini ko‘rsatmoqda. Aylana metodi, g‘alvirlash nazariyasi, maxsus to‘plamlar bo‘yicha baholar va yuqori unumdor hisoblash usullari bir-birini to‘ldiruvchi asosiy vositalarga aylangan.

Ayniqsa, 2026-yildagi $N = p + rq$ ko‘rinishidagi natijalar klassik Goldbax gipotezasiga olib boruvchi oraliq bosqichlarni yanada aniqlashtirdi. Biroq $r = 1$ holatini barcha juft sonlar uchun isbotlash masalasi ochiq qolmoqda.

Shunday qilib, hozirgi bosqichda Goldbax muammosining asosiy vazifasi mavjud ”deyarli barcha” va zaiflashtirilgan natijalarni kuchaytirib, barcha juft sonlar uchun

$$N = p + q$$

tasvirining mavjudligini qat’iy isbotlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish analitik sonlar nazariyasi rivojida fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, tub sonlarning additiv xususiyatlari haqidagi bilimlarimizni sezilarli darajada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. **Chen, J. R.** *On the representation of a large even integer as the sum of a prime and the product of at most two primes.* Scientia Sinica, 1973.
2. **Hardy, G. H., Littlewood, J. E.** *Some problems of “Partitio Numerorum”; III: On the expression of a number as a sum of primes* Acta Mathematica, 1923.
3. **Oliveira e Silva, T., Herzog, S., Pardi, S.** *Empirical verification of the even Goldbach conjecture and computation of prime gaps up to* $4 \times 10184 \cdot 10^{18}$. Mathematics of Computation, 2014.
4. **Li, J., Liu, J.** *Theorem (1+1.9) on the Goldbach Conjecture.* arXiv, 2026.
5. **Bhowmik, G., Grimmelt, L.** *The exceptional set of the Goldbach problem.* arXiv, 2026.
6. **Vaughan, R. C.** *The Hardy–Littlewood Method.* Cambridge University Press.
7. **Iwaniec, H., Kowalski, E.** *Analytic Number Theory.* American Mathematical Society.

УДК 517.518.5

Van der Corput Lemmas for Mittag-Leffler Functions With L^p Amplitude Functions

Safarov A. R.01.[1], Kobilova D. G.02.[2], Amonova Sh. N.03.[3],Mamatkulov O. T.04.[4]
[1]Center for the Research on Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan; safarov-akbar@mail.ru
[2]Department of Mathematics Samarkand state pedagogical institute, Samarkand, Uzbekistan; qobilovadildora66@gmail.com
[3]Department of Mathematics Samarkand state pedagogical institute, Samarkand, Uzbekistan; amonovasharofat@gmail.com
[4]Department of Mathematics Samarkand state pedagogical institute, Samarkand, Uzbekistan; oybek.mamatkulov@mail.ru

The classical van der Corput lemma, established by the Dutch mathematician J. G. van der Corput [1], provides sharp decay estimates for one-dimensional oscillatory integrals. In its standard formulation, if φ is a real-valued smooth function on $[a, b]$ with $|\varphi^{(k)}(x)| \geq 1$ for all $x \in (a, b)$, then for ψ smooth:

$$\left| \int_a^b e^{i\lambda\phi(x)}\, \psi(x)\, dx \right| \leq C_k\, \lambda^{-\frac{1}{k}}, \qquad \lambda \to \infty, \tag{1}$$

for $k = 1$ with ϕ' monotone, or $k \geq 2$. This estimate and its many generalizations are fundamental in harmonic analysis, dispersive PDE, and analytic number theory.

Recent years have seen growing interest in oscillatory integrals where the classical exponential e^{iz} is replaced by the two-parameter Mittag-Leffler function.

$$E_{\alpha,\beta}(z) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{z^k}{\Gamma(\alpha k + \beta)}, \qquad \alpha > 0,\ \beta \in \mathbb{R}, \tag{2}$$

which satisfies $E_{1,1}(z) = e^z$ and arises naturally as the fundamental solution of time-fractional differential equations. The systematic study of van der Corput lemmas for such integrals was initiated in [2], where integrals of the form

$$\tilde{I}_{\alpha,\beta}(\lambda) = \int_{\mathbb{R}} E_{\alpha,\beta}\big(i^{\alpha}\lambda\,\phi(x)\big)\,\psi(x)\,dx, \qquad 0 < \alpha \leq 1, \tag{3}$$

were treated, and continued in [2] for the α -direction integrals

$$I_{\alpha,\beta}(\lambda) = \int_{\mathbb{R}} E_{\alpha,\beta}\big(i^{\alpha}\lambda\,\phi(x)\big)\,\psi(x)\,dx, \qquad 0 < \alpha \leq 2, \tag{4}$$

with amplitude $\psi \in L^1(\mathbb{R})$. The integrals (4) appear in the study of decay estimates for solutions of time-fractional Schrödinger and wave equations.

We establish van der Corput-type decay estimates for oscillatory integrals of the form

$$I_{\alpha,\beta}(\lambda) = \int_{\mathbb{R}} E_{\alpha,\beta}\big(i^{\alpha}\lambda\,\phi(x)\big)\,\psi(x)\,dx$$

where the amplitude function ψ belongs to $L^p(\mathbb{R})$ for $1 < p < \infty$, extending the classical L^1 framework developed by Ruzhansky and Torebek. The key tool is a combination of the known asymptotic estimates for Mittag–Leffler functions with Hölder's inequality and a refined splitting argument. For the range $0 < \alpha < 2$ with $\beta > 1 + \frac{\alpha}{q}$ (where $q = \frac{p}{p-1}$ is the conjugate exponent), we obtain the bound

$$|I_{\alpha,\beta}(\lambda)| \leq M(1 + \lambda m)^{-\frac{\beta-1}{\alpha}+\frac{1}{q}} \|\psi\|_{L^p(\mathbb{R})}, \quad \lambda \geq 1$$

where $m = \operatorname{ess\,inf}_{x\in\mathbb{R}} |\phi(x)| > 0$ and M is independent of ϕ, ψ, and λ.Analogous results are derived for $\alpha = 2$. As decay rates decrease smoothly from the L^1 case ($p \to 1$) to the L^∞ limit ($p \to \infty$), these estimates reflect a natural interpolation structure. Applications to dispersive estimates for time-fractional Klein–Gordon and Schrödinger equations, as well as a generalized Riemann–Lebesgue lemma, are presented.

We consider the integral $I_{\alpha,\beta}(\lambda) = \int_{\mathbb{R}} E_{\alpha,\beta}\big(i^{\alpha}\lambda\,\phi(x)\big)\,\psi(x)\,dx, 0 < \alpha \leq 2$ with $\lambda \geq 1$ (for small λ the integral is trivially bounded by $\|\psi\|_{L^p}$ times a constant).

Theorem 1(Case $\beta > 1$, general phase). Let $\phi : \mathbb{R} \to \mathbb{R}$ be measurable with $m = \operatorname{ess\,inf}_{x\in\mathbb{R}} |\phi(x)| > 0$, and let for some $1 < p < \infty$. Set $q = \frac{p}{p-1}$. Suppose $0 < \alpha \leq 2$ and $\beta > 1$.Then:

(i) If $0 < \alpha < 2$ and $\beta \geq \alpha + 1$, then

$$|I_{\alpha,\beta}(\lambda)| \leq M_1\,(1 + \lambda m)^{-\frac{\beta-1}{\alpha}+\frac{1}{q}}\,\|\psi\|_{L^p(\mathbb{R})}, \qquad \lambda \geq 1, \tag{5}$$

where $M_1 = M_1(\alpha, \beta, p)$ is independent of ϕ, ψ, and λ.

(ii) If $0 < \alpha < 2$ and $\beta > 1 + \frac{\alpha}{q}$, then

$$|I_{\alpha,\beta}(\lambda)| \le M_2 \left(1 + \lambda m\right)^{-\frac{\beta-1}{\alpha}+\frac{1}{q}} \|\psi\|_{L^p(\mathbb{R})}, \qquad \lambda \ge 1, \tag{6}$$

where $M_2 = M_2(\alpha, \beta, p)$ is independent of ϕ, ψ, and λ.

(iii) If $\alpha = 2$ and $\beta > 1 + \frac{2}{q}$, then

$$|I_{2,\beta}(\lambda)| \le M_3 \left(1 + \lambda m\right)^{-\frac{\beta-1}{2}+\frac{1}{q}} \|\psi\|_{L^p(\mathbb{R})}, \qquad \lambda \ge 1, \tag{7}$$

where $M_3 = M_3(\beta, p)$ is independent of ϕ, ψ, and λ.

Remark. a) When $p \to 1$ (so $1/q \to 0$) the bounds in Theorem 1 recover exactly the L^1 estimates of [2]. When $p \to \infty$ (so $1/q \to 1$) one obtains the weakest possible decay, consistent with the fact that L^∞ functions need not be integrable against any fixed kernel.

b)The constraint $\beta > 1 + \frac{\alpha}{q}$ is necessary to ensure that the Hölder dual function $x \mapsto (1 + \lambda|\phi(x)|)^{-\frac{\beta-1}{\alpha}}$ lies in L^q_{loc} that the Hölder pairing is finite. When $\beta \le 1 + \frac{\alpha}{q}$ additional integrability on ϕ is required.

Theorem 2(Case $\beta = 1$: invertible phase). Let $\phi : \mathbb{R} \to \mathbb{R}$ be invertible and differentiable with $m = \inf_{x\in\mathbb{R}} |\phi'(x)| > 0$, and let $\psi \in L^p(\mathbb{R})$ for some $1 < p < \infty$. Suppose $0 < \alpha \le 2$ and $\beta = 1$. Then

$$|I_{\alpha,1}(\lambda)| \le M \left(\lambda m\right)^{-1+\frac{1}{q}} \|\psi\|_{L^p(\mathbb{R})}, \qquad \lambda \ge 1, \tag{8}$$

where $M = M(\alpha, p)$ is independent of ϕ, ψ, and λ.

References

1. **J.G. van der Corput.** *Zahlentheoretische Abschätzungen.* Math. Ann. 84 (1921), 53–79.
2. **M. Ruzhansky, B.T. Torebek.** *Van der Corput lemmas for Mittag-Leffler functions. II. α-directions.* ArXiv:2005.04546, 2020.

Lobachevskiy geometriyasining ${}^1R_3$-Minkovskiy fazosida sfera ustidagi talqini

Safarov T. N.[1]

[1]**Navoiy innovatsiyalar universiteti, Surxondaryo kampusi;**
tolqin.1986@mail.ru

N. I. Lobachevskiy “Tasavvurdagi geometriya” nomli asarida birinchi marta 1826-yilda noevklid geometriya haqida ma’ruza qilgan. Shundan so’ng, Lobachevskiy geometriyasining yaratilishi haqidagi ma’ruzalar bir qator manbalarda bayon qilindi. Lobachevskiy geometriyasi o’z o’rniga va metodlariga ega bo’lishi uchun, uning bir nechta talqini paydo bo’ldi. Ayniqsa, Keli-Kleyn va Puankare nazariyalari alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, Lobachevskiy geometriyasining asosini uning parallellik aksiomasi orqali ko’rish mumkin. Bunda Yevklid geometriyasidagi parallellik aksiomasidan farqli bo’lgan aksiomalari Lobachevskiy geometriyasi uchun ham o’rinlidir.

Lobachevskiy aksiomasini tasavvur orqali anglash va tushunish talabalar uchun shu vaqtgacha egallagan bilimlari yetarli bo’lmaydi. Ya’ni biz bilgan tekislik orqali bu aksiomani tasavvur qilish mumkin emas.

Lobachevskiy tekisligining talqinini Minkovskiy fazodagi mavhum radiusli sfera, aniqrog'i ikki pallali giperboloidning bir pallasi va unga mos izotrop konus (nol radiusli sfera) dan foydalanamiz. Bu paragraf davomida konus deb Minkovskiy fazodagi izotrop konusni, giperboloid deb fazodagi mavhum radiusli sferani tushunamiz.

Koordinatalar sistemasidan konus uchini koordinatalar boshiga keltiramiz. Oz o'qi esa, konusning simmetriya markazida bo?lsin




Рис. 3: Lobachevskiy tekisligi

Ma'lumki, Yevklid geometriyasida ikki tekislik biror to'g'ri chiziq orqali kesishadi. Asimptotik konus uchidan o'tuvchi ikki tekislik albatta biror u to'g'ri chiziq (Yevklid ma'nosida) bo'ylab kesishadi. Bunda to'g'ri chiziq konus tashqarisida konus ichida, konus ustida joylashgan bo'lishi mumkin.

Lobachevskiy tekisligining Keli-Kleyn modeli

Ikki pallali giperboloidning (bir pallasi) ustida bajarilgan Lobachevskiy geometriyasidagi aksiomalarni Keli -Kleyn modeli bilan bog'laymiz. Rasmda konusni kesib o'tgan P_2 tekislik giperboloidning O' nuqtadagi urinma tekisligi bo'lib, konus bilan chegaralangan qismi L doirani Lobachevskiy tekisligi deb ataymiz.

Giperboloidning A' nuqtasi L doira ichidagi A nuqtaga, giperboloid va P_1 tekislikning kesishishidan hosil bo'lgan b chiziq esa, shu doira ichidagi b' vatarga mos keladi. Natijada, Minkovskiy fazosidagi sfera ustidagi geometriya, ya'ni Lobachevskiy tekisligi $z = 1$ tekislikning izotrop konus bilan kesishishidan hosil bo'lgan doira ichki nuqtalariga bir qiymatli proyeksiyalanadi.

Adabiyotlar

1. **Artikbayev A., Safarov T.N.** Yangi geometriya asoslari. / 56.O'quv qo'llanma Termiz-2023 y 152 b.

2. **Safarov T.N.** . "Uch o?lchovli affin fazolarida elliptik va giperbolik geometriyalar". //O'zMU habarlari. Aniq fanlar. ?2. 2023. Toshkent – B. 21-30

UDK 517.57

Some topological and geometric properties of the class of $(A)\,m$-convex functions

Sharipov R. A.*, Vaisova M. D.*, Dushamov A. O.*

*Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Urgench, Uzbekistan;
r.sharipov@urdu.uz vaisovamoxira@urdu.uz dushamov.akbar@urdu.uz

The theory of convex functions plays an essential role in mathematical analysis, convex geometry, differential equations, and potential theory. The classical concept of convexity is typically characterized by the positive definiteness of the Hessian matrix of a function. However, contemporary research in the theory of functions of several variables has brought about the necessity of studying various generalizations of convexity, in particular, the classes of m-convex and $(A)m$-convex functions.

The theory of m-convex functions constitutes one of the important directions in real analysis and convex geometry, dealing with the study of function classes defined via Hessian operators and their eigenvalues. This class represents an intermediate state between classical convex functions and subharmonic functions. In particular, for $m = 1$, the class of m-convex functions coincides with the class of classical convex functions in $\mathbb{R}^n$, whereas for $m = n$, it coincides with the class of subharmonic functions.

The theory of convex functions has been extensively studied in the works of A.D. Aleksandrov [1], [2], I.Ya. Bakelman [3], [4], A.V. Pogorelov [8], and other scholars. For cases where $m > 1$, the theory of m-convex functions and related Hessian-type operators has been developed in the research of N.M. Ivochkina, N. Trudinger, X. Wang, R. Sharipov, M. Ismailov, and other authors (cf. [10], [11], [12]).

It is known that the class of m-convex functions possesses a number of natural algebraic and geometric properties. However, for the class of $(A)m$-convex functions, such properties do not always hold true. For instance, the sum of two $(A)m$-convex functions is not necessarily $(A)m$-convex in the general case. Likewise, the inclusion relation $(A)m - cv \subset (A)(m+1) - cv$ may not hold in general. This indicates that the class of $(A)m$-convex functions has a more complex structure compared to the class of m-convex functions. The main objective of this research work is to study certain algebraic, topological, and geometric properties of the class of $(A)m$-convex functions defined in the space $\mathbb{R}^n$.

Let $D \subset \mathbb{R}^n$ be a domain and $u \in C^2(D)$. We denote the eigenvalue vector of the Hessian matrix $G_u(x) = \left(\frac{\partial^2 u(x)}{\partial x_j \partial x_k}\right)_{j,k=1}^n$ by $\lambda(G_u(x)) = (\lambda_1(x), \lambda_2(x), \ldots, \lambda_n(x))$.

Defenition 1. A function u is said to be m-convex in the domain D if, for every $x \in D$, $H_k(\lambda(G_u(x))) \geq 0, \quad k = 1, 2, \ldots, n - m + 1$. Here,

$$H_k(\lambda) = \sum_{1 \leq i_1 < i_2 < \cdots < i_k \leq n} \lambda_{i_1} \lambda_{i_2} \ldots \lambda_{i_k}$$

is the k-th elementary symmetric function of the vector $\lambda = (\lambda_1, \ldots, \lambda_n)$.

This definition can also be expressed as $\lambda(G_u(x)) \in \overline{\Gamma}_{n-m+1}$, where

$$\overline{\Gamma}_m = \{\lambda \in \mathbb{R}^n : H_k(\lambda) \geq 0,\ k = 1, 2, \ldots, m\}$$

denotes the closure of the Garding cone.

Defeniton 2. Let $D \subset \mathbb{R}^n$ be a domain and $u \in C^2(D)$. If, at every point $x \in D$, the conditions

$$\lambda_{j_1}(x) + \cdots + \lambda_{j_m}(x) \geq 0$$

for all indices $1 \le j_1 < \cdots < j_m \le n$, and

$$H_{n-m+1}(\lambda(x)) \ge 0$$

are satisfied, then the function u is called $(A)m$-convex in the domain D.

Now, we present certain algebraic, topological, and geometric properties of the class of $(A)m$-convex functions. First of all, unlike the class of classical m-convex functions, we show that the class of $(A)m$-convex functions is not closed under addition in the general case.

It is known that the class of m-convex functions is closed under positive linear combinations (cf. [11]). However, for the class of $(A)m$-convex functions, such a property does not hold in general.

From this, the following conclusion follows: the class of $(A)m$-convex functions is not closed under addition in general. In particular, this class does not form a linear space. Therefore, determining under what additional conditions the class of $(A)m$-convex functions remains closed under addition is a natural problem. Even if one of the summands is a convex function in the usual sense, the sum may still fail to belong to the class of $(A)m$-convex functions.

Now, we modify the condition imposed on the second function to an affinity condition.

Theorem 1. Let $D \subset \mathbb{R}^n$ be a domain and $u \in (A)m - cv(D)$. If

$$\ell(x) = a_1x_1 + \cdots + a_nx_n + b$$

is an affine funkction, then $u + \ell \in (A)m - cv(D)$.

Theorem 2. If $u \in (A)m - cv(D)$ and $c \ge 0$, then $cu \in (A)m - cv(D)$.

Definition 3. Let $D \subset \mathbb{R}^n$ be a domain and $u \in C^2(D)$. If, for every compact set $K \Subset D$, there exists a number $\delta_K > 0$ such that for all $x \in K$ and all indices $1 \le j_1 < \cdots < j_m \le n$, the conditions $\lambda_{j_1}(x) + \cdots + \lambda_{j_m}(x) \ge \delta_K$ and $H_{n-m+1}(\lambda(x)) \ge \delta_K$ are satisfied, then the function u is called strictly $(A)m$-convex in the domain D.

Theorem 3. If the function u is strictly $(A)\,m$-convex in the domain D, then for every compact set $K \Subset D$ there exists an $\varepsilon > 0$ such that for any $\varphi \in C^2(D)$ satisfying the condition

$$\sup_{x\in K} \|G_\varphi(x)\| < \varepsilon$$

we have $u + \varphi \in (A)m - cv(K)$.

In addition to the algebraic properties of the class of $(A)m$-convex functions, it is also important to study its topological properties. In particular, the question naturally arises as to whether the limit function remains $(A)m$-convex when a sequence of functions converges in a certain sense. Below, we show that the class of $(A)m$-convex functions is closed in the C^2_{loc}-topology.

Defination 4. Let $D \subset \mathbb{R}^n$ be a domain. If, for a sequence of functions $\{u_j\} \subset C^2(D)$ and a function $u \in C^2(D)$, the condition

$$\|u_j - u\|_{C^2(K)} \to 0, \quad j \to \infty$$

When $\lambda = 0$, the exchange term disappears and the model reduces to the classical Potts model. Since this case is already related to the known theory of splitting Gibbs measures on Cayley trees, we focus on the genuinely quantum case $\lambda \neq 0$.

We consider translation-invariant symmetric boundary conditions of the form

$$h = a \sum_{i=1}^{d} E_{ii} + u \sum_{i \neq j} E_{ij}, \tag{2}$$

where $a, u \in \mathbb{R}$ and $h > 0$. For this class of boundary conditions, the compatibility condition for the finite-volume states is reduced to a fixed point equation $\Phi(h) = h$, where Φ is the nonlinear map obtained by taking the normalized partial trace over the two direct successors of a given vertex.

We prove that this map preserves the symmetric form of h.Consequently, the compatibility condition becomes a two-dimensional system for the parameters a and u. Introducing the ratio $r = \frac{u}{a}$, we further reduce this system to the one-dimensional fixed point equation $r = f_d(r)$. The main part of the paper is devoted to the explicit analysis of this fixed point equation in the case $d = 2$. The compatibility equation for translation-invariant symmetric boundary conditions was reduced to the one-dimensional fixed point equation

$$r = f_d(r),$$

where

$$f_d(r) = \frac{L_d(M_d + N_d r)r}{P_d + Q_d r^2}, \tag{3}$$

The admissible values of r are determined by the strict positivity condition $-\frac{1}{d-1} < r < 1$.

Due to $\beta > 0$ and $\lambda \neq 0$ we have $\gamma \neq 0$. For $d = 2$, the coefficients are

$$\begin{aligned} P_2 &= (\theta^2 + \alpha^2 + \gamma^2)^2, \\ Q_2 &= 4\theta\alpha\gamma^2, \\ L_2 &= 2\theta\gamma, \\ M_2 &= \theta^2 + 2\theta\alpha + \alpha^2 + \gamma^2, \\ N_2 &= 0. \end{aligned}$$

Since $\theta > 0$, $\alpha > 0$, and $\gamma \neq 0$, we have $Q_2 > 0$. The fixed point equation $f_2(r) = r$ is equivalent to

$$r\left(r^2 - \frac{L_2 M_2 - P_2}{Q_2}\right) = 0, \tag{4}$$

Put $D_2 := L_2M_2 - P_2$. Then non-zero fixed points exist if and only if $D_2 > 0$.

First assume that $\lambda < 0$. Then, since $\beta > 0$, we obtain $\gamma = \sinh(\beta\lambda) < 0$. Since $\theta > 0$, we get $L_2 = 2\theta\gamma < 0$. Therefore, $D_2 = L_2M_2 - P_2 < 0$, because $M_2 > 0$ and $P_2 > 0$. Hence equation (4) has only the trivial solution $r_0 = 0$.

Now assume that $\lambda > 0$ and put $x = \beta\lambda$. Then $x > 0$ implies $\alpha = \cosh(x) > 1$ and $\gamma = \sinh(x) > 0$, whereas $\theta = e^{\beta J}$ remains an independent positive parameter.

Using $\alpha^2 + \gamma^2 = \cosh(2x)$, we obtain

$$D_2(\theta, x) = -\left(\theta^2 - \eta_+(x)\theta + \xi(x)\right)\left(\theta^2 - \eta_-(x)\theta + \xi(x)\right),$$

where $\xi(x) = \cosh(2x)$ and $\eta_\pm(x) = \sinh(x) \pm \sqrt{\sinh^2(x) + 2\sinh(2x)}$.

Since $x > 0$, we have $\eta_-(x) < 0$. Hence $\theta^2 - \eta_-(x)\theta + \xi(x) > 0$ for all $\theta > 0$. Therefore,

$$D_2(\theta, x) > 0 \quad \Longleftrightarrow \quad \theta^2 - \eta_+(x)\theta + \xi(x) < 0.$$

The latter inequality can hold only when $\eta_+^2(x) > 4\xi(x)$. A direct calculation shows that this condition is equivalent to

$$e^{6x} - 5e^{4x} + 3e^{2x} - 7 > 0.$$

Putting $y = e^{2x}$, we obtain $y^3 - 5y^2 + 3y - 7 > 0$.

The cubic equation $y^3 - 5y^2 + 3y - 7 = 0$ has a unique real root. Indeed, let

$$p(y) = y^3 - 5y^2 + 3y - 7.$$

Then $p'(y) = 3y^2 - 10y + 3$, and hence the only critical points are $y = \frac{1}{3}$ and $y = 3$. Moreover,

$$p\left(\frac{1}{3}\right) = -\frac{176}{27} < 0, \qquad p(3) = -16 < 0.$$

Thus both the local maximum and the local minimum of p are negative. Since $p(y) \to -\infty$ as $y \to -\infty$, $\quad p(y) \to +\infty$ as $y \to +\infty$, the polynomial p has exactly one real root y_*. Numerically, $y_* \approx 4.6786$. Moreover,

$$y^3 - 5y^2 + 3y - 7 > 0 \quad \Longleftrightarrow \quad y > y_*.$$

Hence $x_* = \frac{\ln y_*}{2} \approx 0.7715$.

Thus, if $0 < \beta\lambda \le x_*$, then no non-zero fixed points exist. If $\beta\lambda > x_*$, then non-zero fixed points exist precisely when $\theta_-(x) < e^{\beta J} < \theta_+(x)$, where

$$\theta_\pm(x) = \frac{\eta_+(x) \pm \sqrt{\eta_+^2(x) - 4\xi(x)}}{2}.$$

In this case, the two non-zero fixed points are

$$r_\pm = \pm\sqrt{\frac{D_2(e^{\beta J}, \beta\lambda)}{4e^{\beta J}\cosh(\beta\lambda)\sinh^2(\beta\lambda)}}. \tag{5}$$

Proposition. *Assume that $\lambda \neq 0$, and let f_2 be the function defined by (3). Then*

$$\mathrm{Fix}(f_2) \cap (-1, 1) = \begin{cases} \{0, r_-, r_+\}, & \text{if } \beta\lambda > x_* \text{ and } \ln\left(\theta_-(\beta\lambda)\right) < \beta J < \ln\left(\theta_+(\beta\lambda)\right), \\ \{0\}, & \text{otherwise.} \end{cases}$$

For each admissible fixed point $r \in \left(-\frac{1}{d-1}, 1\right)$ of f_d, put

$$a_r = \frac{d^2}{P_d + Q_d r^2}, \qquad u_r = a_r r,$$

and define

$$h_r = a_r \sum_{i=1}^{d} E_{ii} + u_r \sum_{i \neq j} E_{ij}.$$

Then h_r is strictly positive and satisfies $\Phi(h_r) = h_r$. Hence it generates a translation-invariant symmetric forward quantum Markov chain, which will be denoted by φ_r.

We denote by $\mathcal{QMC}_d$ the set of all translation-invariant symmetric forward quantum Markov chains corresponding to the d-state model within the considered class of boundary conditions.

Theorem. *Let $d = 2$ and $\lambda \neq 0$. Then, within the class of translation-invariant symmetric boundary conditions, the following assertions hold.*

(*i*) *If $\lambda < 0$, then $\mathcal{QMC}_2 = \{\varphi_0\}$. Here φ_0 is generated by the trivial boundary condition corresponding to $r_0 = 0$.*

(*ii*) *Assume that $\lambda > 0$. Let $y_* \approx 4.6786$ be the unique real root of*

$$y^3 - 5y^2 + 3y - 7 = 0.$$

For $\beta\lambda > \frac{1}{2}\ln y_*$, put

$$\eta_+(\beta\lambda) = \sinh(\beta\lambda) + \sqrt{\sinh^2(\beta\lambda) + 2\sinh(2\beta\lambda)},$$

$$\theta_\pm(\beta\lambda) = \frac{\eta_+(\beta\lambda) \pm \sqrt{\eta_+^2(\beta\lambda) - 4\cosh(2\beta\lambda)}}{2}.$$

Then

$$\mathcal{QMC}_2 = \begin{cases} \{\varphi_0, \varphi_{r_-}, \varphi_{r_+}\}, & \text{if } \beta\lambda > \frac{1}{2}\ln y_*,\ \ln\theta_-(\beta\lambda) < \beta J < \ln\theta_+(\beta\lambda), \\ \{\varphi_0\}, & \text{otherwise.} \end{cases}$$

Here $r_\pm$ are given by (5).

References

1. **L.Accardi, F.Mukhamedov and M. Saburov.** *On quantum Markov chains on Cayley tree I: uniqueness of the associated chain with XY-model on the Cayley tree of order two.* T.: Infinite Dimensional Analysis, Quantum Probability and Related Topics. - 2011. - 443-463 p.

2. **C.Kulske, U.A.Rozikov and R.M.Khakimov.** *Description of the translation-invariant splitting Gibbs measures for the Potts model on a Cayley tree.*T.: Journal of Statistical Physics. - 2014. - 189-200 p.

3. **U.A.Rozikov.** *Gibbs measures on a Cayley tree.*T.: World Scientific, Singapore. - 2013.

UDK 512.552

σ-matching and interchangeable structures on Quaternion algebras

Toshtemirova F.
V.I.Romanovskiy Institute of Mathematics, Uzbekistan Academy of Sciences,
Tashkent, Uzbekistan;
feruzaisrailova45@gmail.com

Algebraic structures equipped with multiple compatible operations, such as σ-matching and interchangeable products, play an important role in modern algebra. In this work, we study σ-matching, interchangeable, and totally compatible structures on the classical quaternion algebra $\mathbb{H}$. We show that interchangeable and (12)-matching products on $\mathbb{H}$ are naturally described in terms of mutations of the standard quaternion multiplication.

Definition 1.[3] Two associative products $\cdot$ and $\star$ on V are said to be

1. *id-matching*, if $(a \cdot b) \star c = a \cdot (b \star c)$ and $(a \star b) \cdot c = a \star (b \cdot c)$;
2. (12)*-matching*, if $(a \cdot b) \star c = a \star (b \cdot c)$ and $(a \star b) \cdot c = a \cdot (b \star c)$;
3. *totally compatible*, if $(a \cdot b) \star c = (a \star b) \cdot c = a \cdot (b \star c) = a \star (b \cdot c)$,

for all $a, b, c \in V$.

We say that two (not necessarily associative) products $\cdot$ and $\star$ on V are *interchangeable* if $(a \cdot b) \star c = (a \star b) \cdot c$ and $a \cdot (b \star c) = a \star (b \cdot c)$.

Note that any totally compatible products are interchangeable and σ-matching for every $\sigma \in S_2$. However, the converse does not hold in general.

For any associative algebra $(A, \cdot)$ and fixed $x \in A$, one defines the *mutation of* $\cdot$ *by* x (see [1]) to be the product $\cdot_x$ on A given by $a \cdot_x b = a \cdot x \cdot b$ for all $a, b \in A$.

In [2] it is proved that for any associative algebra $(A, \cdot)$ and for any $x \in A$ the product $\cdot_x$ is associative and id-matching with $\cdot$. Moreover, if $(A, \cdot)$ is a unital associative algebra, then the *id*-matching structures on A are exactly the mutations of $\cdot$.

Definition 2. The quaternion algebra, denoted by $(\mathbb{H}, \cdot)$, is a 4-dimensional associative division algebra over $\mathbb{R}$ spanned by the basis $\{1, i, j, k\}$. The multiplication on $\mathbb{H}$ is uniquely determined by the Hamilton's relations: $i^2 = j^2 = k^2 = ijk = -1$.

Proposition 1. Let $\cdot$ and $\star$ be associative products on the algebra $(\mathbb{H}, \cdot)$ that are interchangeable structures, then $\star$ multiplication is a mutation of $\cdot$, moreover $\cdot$ and $\star$ are *id*-matching.

Proposition 2. Let $\cdot$ and $\star$ be associative products on the algebra $(\mathbb{H}, \cdot)$, that are $(12)-$matching. Then the product $\star$ has the following form of scalar multiplication, where $\alpha \in \mathbb{R}$:

$$a \star b = \alpha(a \cdot b).$$

Literature

1. **Elduque A., and Myung H.C.** *Mutations of alternative algebras.* Mathematics and Its Applications. - 1994, -278 - 51-91 p.
2. **Khrypchenko M.** *σ-matching and interchangeable structures on certain associative algebras.* Communications in Mathematics. - 2025, -33(3) - 6 p.
3. **Zhang H., Gao X., Guo L.** *Compatible structures of operads by polarization, their Koszul duality and Manin products.*Applied Categorical Structures. - 2024, -33(6) - 38 p.

UDK 511.356

BUTUN VA RATSIANAL KOEFFITSIYENTLI KO‘PHADLARNING BO‘LINISH ALOMATLARI HAQIDA

To‘xtasheva D.A.[1)], Sodiqov E. X.[2)]
[1),2)]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Matematika yo‘nalishi talabalari;
Ilmiy rahbar: f.-m.f.f.d., (PhD) B.X.Erdonov

Kommutativ algebraning markaziy ob’ektlaridan biri bo‘lgan ko‘phadlar halqasida elementlarning arifmetik xossalari, qoldiqli bo‘lish qonuniyatlari hamda ko‘phadlarning umumiy bo‘luvchilarini topish masalalari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir [1, 2]. Ixtiyoriy K sonlar maydoni (xususan, ratsional sonlar maydoni $\mathbb{Q}$ yoki haqiqiy sonlar maydoni $\mathbb{R}$) ustida bir o‘zgaruvchili ko‘phadlar halqasi $K[x]$ yevklid halqasi hisoblanadi. Shuning uchun ixtiyoriy $f(x) \in K[x]$ va nolga teng bo‘lmagan $g(x) \in K[x]$ ko‘phadlar juftligi uchun

$$f(x) = g(x)q(x) + r(x) \tag{1}$$

tenglikni qanoatlantiruvchi yagona $q(x)$ (to‘liqsiz bo‘linma) va $r(x)$ (qoldiq) ko‘phadlar mavjud bo‘lib, bunda yo $\deg r(x) < \deg g(x)$, yoki $r(x) = 0$ bo‘ladi.

Agar (1) yoyilmada $r(x) = 0$ bo‘lsa, $f(x)$ ko‘phad $g(x)$ ga qoldiqsiz bo‘linadi deyiladi va $g(x) \mid f(x)$ kabi belgilanadi. Xususan, $g(x) = x - c$ chiziqli ikkihadga bo‘lish masalasi Bezu teoremasiga asoslanadi: $f(x)$ ni $x-c$ ga bo‘lgandagi qoldiq $r = f(c)$ son qiymatiga teng. Bundan $x - c \mid f(x)$ bo‘lishi uchun c soni $f(x)$ ko‘phadning ildizi, ya’ni $f(c) = 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir [1]. Agar c soni $f(x)$ ning k-karrali ildizi bo‘lsa, $f(x)$ ko‘phad $(x - c)^k$ ga bo‘linadi, ammo $(x - c)^{k+1}$ ga bo‘linmaydi.

Ushbu ishda ko‘p uchraydigan $f_n(x) = x^n - a^n$ va $F_n(x) = x^n + a^n$ $(n \in \mathbb{N})$ ko‘rinishidagi ikkihadlarning $x - a$ va $x + a$ chiziqli ko‘phadlarga, shuningdek, yuqoriroq darajali $x^m \pm a^m$ ikkihadlarga qoldiqsiz bo‘linish qonuniyatlari hamda ularning eng katta umumiy bo‘luvchilarini (EKUB) analitik topish algoritmlari tadqiq etiladi.

1-lemma. *Ixtiyoriy $n \in \mathbb{N}$ natural soni va $a \in K$ elementi uchun quyidagi bo‘linish munosabatlari o‘rinli bo‘ladi:*

1) *Har qanday natural n uchun $x - a \mid x^n - a^n$;*

2) *Juft $n = 2k$ sonlar uchun $x + a \mid x^n - a^n$;*

3) *Toq $n = 2k + 1$ sonlar uchun $x + a \mid x^n + a^n$;*

4) *Juft $n = 2k$ sonlar uchun $x^n + a^n$ ko‘phad $x + a$ ga qoldiqsiz bo‘linmaydi (bu holda qoldiq $r = 2a^n \neq 0$ ga teng).*

Isbot. 1-bandning isboti bevosita Bezu teoremasidan kelib chiqadi: $f(x) = x^n - a^n$ desak, $f(a) = a^n - a^n = 0$. Bundan tashqari, elementar algebradagi

$$x^n - a^n = (x - a)(x^{n-1} + x^{n-2}a + \cdots + xa^{n-2} + a^{n-1})$$

ayniyati har qanday n da qoldiqsiz bo‘linishni ko‘rsatadi. 2-bandda $n = 2k$ juft bo‘lgani uchun $f(-a) = (-a)^{2k} - a^{2k} = a^{2k} - a^{2k} = 0$, demak $x + a \mid x^n - a^n$. 3-bandda $n = 2k + 1$ toq bo‘lgani bois $F_n(-a) = (-a)^{2k+1} + a^{2k+1} = -a^{2k+1} + a^{2k+1} = 0$, ya’ni $x + a \mid x^n + a^n$. Nihoyat, 4-bandda $n = 2k$ bo‘lganda $F_n(-a) = (-a)^{2k} + a^{2k} = 2a^{2k} = 2a^n \neq 0$ bo‘lib, $x^n + a^n$ ko‘phad $x + a$ ga bo‘linmaydi. Lemma to‘liq isbotlandi.

Ushbu xossalar umumiy $x^n - 1$ va $x^m - 1$ ko‘phadlarning umumiy ko‘paytuvchilarini aniqlashda fundamental tayanch hisoblanadi.

Teorema. *Ixtiyoriy natural n va m sonlari uchun $x^m - 1 \mid x^n - 1$ bo‘lishi uchun $m \mid n$ bo‘lishi zarur va yetarlidir. Umumiy holda quyidagi algebraik tenglik o‘rinlidir:*

$$\gcd(x^n - 1,\, x^m - 1) = x^{\gcd(n,m)} - 1. \tag{2}$$

Isbot. Dastlab teoremadagi bo‘linish shartining zarur va yetarliligini ko‘rsatamiz. Agar $m \mid n$ bo‘lsa, $n = mq$ deb yozish mumkin. U holda $y = x^m$ deb belgilasak, 1-lemmaga binoan $y - 1 \mid y^q - 1$ munosabat o‘rinlidir. Bu esa $x^m - 1 \mid (x^m)^q - 1 = x^n - 1$ ekanligini anglatadi, ya’ni shart yetarlidir.

Endi umumiy holni, ya’ni (2) formulani isbotlaymiz. n va m natural sonlariga Yevklid algoritmini tatbiq qilamiz. n ni m ga qoldiqli bo‘lamiz:

$$n = mq + r, \quad 0 \le r < m.$$

U holda quyidagi ayniyat o‘rinli bo‘ladi:

$$x^n - 1 = x^{mq+r} - 1 = x^r(x^{mq} - 1) + (x^r - 1). \tag{3}$$

Yuqorida ko‘rsatilganidek, $x^m - 1 \mid x^{mq} - 1$ munosabat doimo bajariladi. Demak, $x^{mq} - 1 = (x^m - 1)Q(x)$ shaklida yozilishi mumkin. Buni (3) tenglikka qo‘ysak:

$$x^n - 1 = (x^m - 1) \cdot [x^r Q(x)] + (x^r - 1).$$

Bu yerda $\deg(x^r - 1) = r < m = \deg(x^m - 1)$ bo‘lganligi uchun $x^n - 1$ ko‘phadni $x^m - 1$ ga bo‘lgandagi to‘liq qoldiq aynan $x^r - 1$ ga teng bo‘ladi.

Ko‘phadlar halqasida Yevklid algoritmining xossasiga ko‘ra, ixtiyoriy $f(x) = g(x)q(x) + r(x)$ munosabat uchun $\gcd(f(x), g(x)) = \gcd(g(x), r(x))$ tenglik o‘rinlidir. Shunday ekan,

$$\gcd(x^n - 1,\, x^m - 1) = \gcd(x^m - 1,\, x^r - 1).$$

Ko‘rinib turibdiki, ko‘phadlar darajalari ustida borayotgan ushbu jarayon butun sonlar ustidagi Yevklid algoritmining qadamlarini aynan takrorlaydi:

$$n = mq_1 + r_1 \implies \gcd(x^n - 1, x^m - 1) = \gcd(x^m - 1, x^{r_1} - 1),$$

$$m = r_1 q_2 + r_2 \implies \gcd(x^m - 1, x^{r_1} - 1) = \gcd(x^{r_1} - 1, x^{r_2} - 1), \ldots$$

Algoritmning oxirgi noldan farqli qoldig‘i $d = \gcd(n, m)$ bo‘lganligi sababli, oxirgi qadamda qoldiq ko‘phad $x^d - 1$ hosil bo‘ladi va u qoldiqsiz bo‘linadi. Bundan $\gcd(x^n - 1, x^m - 1) = x^{\gcd(n,m)} - 1$ ekanligi to‘la isbotlanadi.

Xususan, agar $\gcd(n, m) = 1$ bo‘lsa, $x^n - 1$ va $x^m - 1$ ko‘phadlar o‘zaro tub bo‘lib, ularning umumiy bo‘luvchisi faqatgina $x - 1$ chiziqli ko‘phaddan iborat bo‘ladi.

Mazkur natija algebraik sonlar nazariyasida doiraviy bo‘linish ko‘phadlari $\Phi_n(x)$ ning xossalarini o‘rganishda, chekli maydonlar $\mathbb{F}_q$ ustida keltirilmaydigan ko‘phadlarni klassifikatsiya qilishda hamda hisoblash algebrasi algoritmlarida muhim ahamiyat kasb etadi [3, 4].

References

1. **Kurosh A. G.** *Kurs vysshey algebry.* — M.: Nauka, 1975. — 432 s.
2. **Kostrikin A. I.** *Vvedeniye v algebru. Ch. 1: Osnovy algebry.* — M.: Fizmatlit, 2004. — 272 s.
3. **Faddeyev D. K., Sominskiy I. S.** *Sbornik zadach po vysshey algebre.* — M.: Nauka, 1977. — 288 s.
4. **Allakov I.** *Algebra I qism.* — Surxon-nashr. Termiz, 2024. -332 b.

УДК 517.984

FRIDRIXS MODELLARI OILASIGA MOS FREDGOLM DETERMINANTINING ASIMPTOTIK YOYILMASI: BIR O‘LCHAMLI HOL

Umirqulova G.H.
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
g.h.umirqulova@buxdu.uz

Bugungi kunda zamonaviy matematik fizikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri uch zarrachali kvant sistemalarining matematik modellarini o‘rganishdir. Bunday sistemalar uchun panjaradagi model operatorlarining spektral xususiyatlarini o‘rganish, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Fridrixs modellari oilasining muhim va diskret spektrlarini, shuningdek, xos qiymatlarning soni, joylashuvi va mavjudlik shartlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi [1,2,3]. Ushbu ishda ham bir o‘lchamli panjaradagi uchta zarrachalar sistemasiga mos model operatorlarning spektral xossalarini o‘rganishda muhim bo‘lgan chiziqli, chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma Fridrixs modellari oilasi qaralgan.

$\mathbb{T}-$ bir o‘lchamli tor, $\mathbb{T}$ to‘plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalardan tashkil topgan $L_2(\mathbb{T})$ Hilbert fazosida chiziqli, chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lgan quyidagi Fridrixs modellari oilasini qaraymiz:

$$h_\mu^{(\gamma)}(k) := h_0^{(\gamma)}(k) - \mu v, k \in \mathbb{T},$$

bunda $\mu, \gamma > 0$ fiksirlangan haqiqiy sonlar, $h_0^{(\gamma)}(k)$ operator $E_\gamma(k, \cdot)$ funksiyaga ko‘paytirish operatori:

$$\left(h_0^{(\gamma)}(k) f\right)(x) = E_\gamma(k, x) f(x), \qquad f \in L_2(\mathbb{T}),$$

$$E_\gamma(k, x) := \varepsilon(k) + \varepsilon(x) + \gamma\varepsilon(k + x), \qquad \varepsilon(x) := 1 - \cos x.$$

v operator esa lokal bo‘lmagan potensial operator:

$$(vf)(x) = \sin(x) \int_{\mathbb{T}} \sin(t) f(t)\, dt.$$

Chekli o‘lchamli qo‘zg‘alishlarda muhim spektrning o‘zgarmasligi haqidagi Veyl teoremasiga ko‘ra $h_\mu^{(\gamma)}(k)$ operatorning muhim spektri $h_0^{(\gamma)}(k)$ operatorning muhim spektri bilan ustma-ust tushadi va quyidagi

$$\sigma_{\text{ess}}\left(h_\mu^{(\gamma)}(k)\right) = [m_\gamma(k); M_\gamma(k)]$$

tenglik o‘rinlidir, bunda

$$m_\gamma(k) := \min_{x \in \mathbb{T}} E_\gamma(k, x), \qquad M_\gamma(k) := \max_{x \in \mathbb{T}} E_\gamma(k, x).$$

Har bir fiksirlangan $\mu, \gamma > 0$ sonlari va $k \in \mathbb{T}$ element uchun $\mathbb{C} \setminus [m_\gamma(k); M_\gamma(k)]$ sohada analitik bo‘lgan

$$\Delta_\mu^{(\gamma)}(k; z) := 1 - \mu \int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2(t)\, dt}{E_\gamma(k, t) - z}$$

yordamchi funksiyani kiritamiz.

Xususiyatiga ko‘ra $\Delta_\mu^{(\gamma)}(k; \cdot)$ funksiyaga $h_\mu^{(\gamma)}(k)$ operatorga mos Fredgolm determinanti deyiladi.

1-lemma. Har bir fiksirlangan $k \in \mathbb{T}$ element va $\mu, \gamma > 0$ sonlari uchun $z \in \mathbb{C} \setminus [m_\gamma(k); M_\gamma(k)]$ soni $h_\mu^{(\gamma)}(k)$ operatorning xos qiymati bo‘lishi uchun $\Delta_\mu^{(\gamma)}(k; z) = 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir.

Bayon qilingan 1-lemmadan quyidagi natija bevosita kelib chiqadi.

1-natija. $h_\mu^{(\gamma)}(k)$ operatorning diskret spektri uchun

$$\sigma_{\text{disc}}\left(h_\mu^{(\gamma)}(k)\right) = \left\{ z \in \mathbb{C} \setminus [m_\gamma(k); M_\gamma(k)] : \Delta_\mu^{(\gamma)}(k; z) = 0 \right\}$$

tenglik o‘rinlidir.

$h_\mu^{(\gamma)}(k)$ Fridrixs modellari oilasining xos qiymatlarini tahlil qilishda muhim bo‘lgan lemmalarni keltiramiz.

2-lemma. Har bir fiksirlangan $k \in \mathbb{T}$ element va $\mu, \gamma > 0$ sonlar uchun $\Delta_\mu^{(\gamma)}(k; \cdot)$ funksiya $(-\infty; m_\gamma(k))$ va $(M_\gamma(k); +\infty)$ oraliqlarda monoton kamayuvchi funksiyadir.

3-lemma. Har qanday o‘zgarmas $\mu, \gamma > 0$ va $k \in \mathbb{T}$ sonlari uchun $h_\mu^{(\gamma)}(k)$ Fridrixs modeli $m_\gamma(k)$ nuqtadan chapda ko‘pi bilan bitta oddiy xos qiymatga ega va $M_\gamma(k)$ nuqtadan o‘ngda xos qiymatga ega emas.

Har qanday $\gamma > 0$ soni uchun $E_\gamma(\cdot, \cdot)$ funksiya $(0, 0) \in \mathbb{T}^2$ nuqtada qiymati nolga teng yagona global minimumga erishadi. Shuning uchun quyidagi yoyilma o‘rinli bo‘ladi:

$$E_\gamma(x, y) = \frac{1}{2}\left(\frac{\partial^2 E_\gamma(0,0)}{\partial x^2} x^2 + 2\frac{\partial^2 E_\gamma(0,0)}{\partial x \partial y} xy + \frac{\partial^2 E_\gamma(0,0)}{\partial y^2} y^2 \right) + o(x^2) + o(y^2),$$

ya’ni $x, y \to 0$ bo‘lganda yuqoridagi tenglik bajariladi.

Shu sababli, shunday $C_1(\gamma), C_2(\gamma) > 0$ o‘zgarmas sonlar va $\delta_\gamma > 0$ son mavjud bo‘lib, quyidagilar munosabatlar bajariladi:

$$C_1(\gamma)(x^2 + y^2) \le E_\gamma(x, y) \le C_2(\gamma)(x^2 + y^2), \qquad (x, y) \in (-\delta_\gamma; \delta_\gamma) \times (-\delta_\gamma; \delta_\gamma). \tag{4}$$

$$E_\gamma(x, y) \ge C_1(\gamma)(x, y) \in (-\delta_\gamma; \delta_\gamma) \times (-\delta_\gamma; \delta_\gamma). \tag{5}$$

(4), (5) tengsizliklar va $x \to 0$ bo‘lganda $\sin x \sim x$ asimptotik munosabatga tayangan holda, quyidagi integral

$$\int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2(t)\, dt}{E_\gamma(k, t)}$$

har qanday $\gamma > 0$ va $k \in \mathbb{T}$ sonlar uchun musbat va chekli bo‘lishini hosil qilamiz.

Shuning uchun integral belgisi ostida limitga o‘tish haqidagi Lebeg teoremasiga ko‘ra

$$\Delta_\mu^{(\gamma)}(0; 0) = \lim_{k \to 0} \Delta_\mu^{(\gamma)}(k; 0)$$

tenglik bajariladi, ya’ni $\Delta_\mu^{(\gamma)}(\cdot; 0)$ funksiyasi $\mathbb{T}$ torda uzluksiz.

Quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\mu_0^\gamma = (1+\gamma)\left(\int_{\mathbb{T}} \frac{\sin^2(t)\,dt}{\varepsilon(t)}\right)^{-1}.$$

Aniqlanishicha, faqat $\mu = \mu_\gamma^0$ munosabat bajarilganda

$$\Delta_\mu^{(\gamma)}(0;0) = 0$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Endi Fridrixs modeli oilasining $k = 0$ bo‘lgandagi xos qiymatlari haqidagi teoremani keltiramiz.

1-teorema. Agar $0 < \mu \le \mu_\gamma^0$ bo‘lsa, u holda $h_\mu^{(\gamma)}(0)$ operator xos qiymatga ega emas, ixtiyoriy $\mu > \mu_\gamma^0$ soni uchun esa $h_\mu^{(\gamma)}(0)$ operator yagona manfiy xos qiymatga ega.

Endi ishning asosiy natijasini bayon qilamiz.

2-teorema. Faraz qilaylik, $\mu, \gamma > 0$ o‘zgarmas sonlar bo‘lsin. $x \to 0$ va $z \to 0$ bo‘lganda quyidagi yoyilma

$$\Delta_\mu^{(\gamma)}(k;z) = \Delta_\mu^{(\gamma)}(0;0) + \frac{2\mu\pi(1+2\gamma-\gamma^2)}{(1+\gamma)^2\sqrt{1+2\gamma}}\sqrt{k^2 - \frac{2(1+\gamma)}{1+2\gamma}z} + O(k^2) + O(|z|)$$

bajariladi.

Bayon qilingan 2-teoremadan quyidagi muhim natija kelib chiqadi.

2-natija. Shunday $C_1(\gamma), C_2(\gamma) > 0$ va $\delta_\gamma > 0$ sonlari topilib,

$$C_1(\gamma)|k| \le \left|\Delta_\mu^{(\gamma)}(k;0)\right| \le C_2(\gamma)|k|, \qquad k \in U_{\delta_\gamma}(0)$$

qo‘sh tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Mazkur ishda keltirilgan natijalar bir o‘lchamli panjaradagi uchta zarrachalar sistemasiga mos model Hamiltonianning xos qiymatlari sonini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rasulov T.H., Bahronov B.I. Existence of the eigenvalues of a tensor sum of the Friedrichs models with rank 2 perturbation. Nanosystems: Phys. Chem. Math., 14:2 (2023), pp. 151–157.

2. Albeverio S., Lakaev S.N., Djumanova R.Kh. The essential and discrete spectrum of a model operator associated to a system of three identical particles. Reports on Mathematical Physics. 63:3 (2009), pp. 359–380.

3. Umirqulova G.H. Panjaradagi uch zarrachali sistema gamiltonianiga mos kanal operatorlar. Ilm sarchashmalari №11 (2022), 3-7 b.

UDK 519.21

Brownian motion and boundary regularity for the Dirichlet problem

Xasanova Shaxzoda Yashnarjon qizi
National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan
khasanovashakhzoda21@gmail.com

Abstract. We relate the sample-path properties of Brownian motion to harmonic extension and boundary regularity. Using the cone-avoidance estimate in [1], we state a boundary modulus for the probabilistic solution with locally Hölder boundary data. A punctured ball illustrates why continuity of paths and recurrence do not by themselves ensure attainment of prescribed boundary values. The underlying probabilistic and capacity criteria are classical.

Keywords: Brownian motion, Dirichlet problem, boundary regularity, Hölder continuity, capacity.

1. From random paths to harmonic functions. Let $\{B(t) : t \geq 0\}$ be Brownian motion in $\mathbb{R}^d$, $d \geq 2$, started at x, and let $\mathbb{P}_x$ and $\mathbb{E}_x$ denote its law and expectation. Its increments are independent and Gaussian, with $B(t+h) - B(t) \sim N(0, hI_d)$. Almost surely, its paths are continuous, locally α-Hölder for every $0 < \alpha < 1/2$, and nowhere differentiable. Moreover, $a^{-1}(B(a^2t) - x)$ is standard Brownian motion for $a > 0$ [1, Chapter 1]. Here $\mathcal{B}(z, r)$ denotes the open Euclidean ball.

For a bounded domain $U \subset \mathbb{R}^d$, define the first exit time $\tau_U = \inf\{t > 0 : B(t) \notin U\}$. This time is finite almost surely for $x \in U$, and continuity gives $B(\tau_U) \in \partial U$. For $\varphi \in C(\partial U)$, set

$$u(x) = \mathbb{E}_x[\varphi(B(\tau_U))] = \int_{\partial U} \varphi(y)\, \omega_U(x, dy), \qquad x \in U, \tag{1}$$

where $\omega_U(x, \cdot)$ is the exit distribution, or harmonic measure. By [1, Theorem 3.8], u is harmonic in U. Indeed, the strong Markov property at the exit time from a ball compactly contained in U, together with rotational invariance, gives the mean-value property.

A point $z \in \partial U$ is *regular for* U^c when $\mathbb{P}_z\{\tau_U = 0\} = 1$, with the infimum taken over strictly positive times. Theorem 8.5 of [1] states that (1) attains the boundary value $\varphi(z)$ at every such point. If all boundary points are regular, it extends continuously to $\overline{U}$ and is the unique solution of $\Delta u = 0$ in U, $u = \varphi$ on ∂U.

The same stopped process describes the Green operator. If $p_U(t, x, y)$ is the transition subdensity of Brownian motion killed upon leaving U, then

$$G_U(x, y) = \int_0^\infty p_U(t, x, y)\, dt, \qquad \mathbb{E}_x \int_0^{\tau_U} g(B(t))\, dt = \int_U G_U(x, y) g(y)\, dy, \tag{2}$$

for nonnegative measurable g [1, Theorem 3.32]. Thus G_U is the density of the expected occupation measure. When g is bounded and Hölder continuous and every boundary point is regular, the function defined by (2) solves $-\frac{1}{2}\Delta v = g$ in U with $v = 0$ on ∂U [1, Remark 8.7]. The factor $1/2$ corresponds to the variance normalization $B(t+h) - B(t) \sim N(0, hI_d)$.

2. A quantitative consequence of the cone estimate. Suppose that U satisfies the exterior Poincaré cone condition at $z \in \partial U$: an open cone V with vertex z and positive aperture satisfies $V \cap \mathcal{B}(z, r_0) \subset U^c$ for some $r_0 > 0$. Brownian scaling and successive applications of the strong Markov property yield a number $q \in (0, 1)$ such that avoiding this cone across k dyadic scales has probability at most q^k [1, Lemma 3.11]. Write $\gamma = -\log_2 q > 0$.

Theorem 1 (a consequence of [1, Lemma 3.11]). *Assume that $\varphi \in C(\partial U)$ and, for some $L \geq 0$ and $0 < \beta \leq 1$,*

$$|\varphi(y) - \varphi(z)| \leq L|y - z|^{\beta}, \qquad y \in \partial U, \quad |y - z| \leq r_0.$$

Then the function in (1) satisfies, for $x \in U$ with $0 < |x - z| < r_0/2$,

$$|u(x) - \varphi(z)| \leq C\,\Psi_{\beta,\gamma}(|x - z|/r_0), \qquad \Psi_{\beta,\gamma}(h) = \begin{cases} h^{\beta}, & \beta < \gamma, \\ h^{\beta}\log(e/h), & \beta = \gamma, \\ h^{\gamma}, & \beta > \gamma, \end{cases} \tag{3}$$

where C is independent of x. The exponent γ depends only on the cone and the dimension and is not asserted to be optimal.

Thus the modulus of the harmonic extension is controlled jointly by the boundary data and the probability of avoiding the exterior cone. The exponent γ concerns spatial accessibility of the boundary, not the time Hölder exponent $1/2$ of Brownian paths.

In particular, when $\beta < \gamma$, the data exponent is preserved at z. At $\beta = \gamma$ the estimate contains a logarithmic factor, whereas for $\beta > \gamma$ it guarantees exponent γ. These are sufficient bounds, not an exact modulus for every domain. Each case in (3) tends to zero as $x \to z$ within U, giving a quantitative statement of boundary continuity at a cone point.

3. Recurrence, capacity, and a polar puncture. Brownian motion is neighbourhood recurrent in $d = 2$ and transient in $d \geq 3$ [1, Theorem 3.20]. Correspondingly, the unrestricted Green kernel $G(x, y) = \int_0^{\infty} p(t, x, y)\,dt$ is finite for $x \neq y$ in $d \geq 3$, whereas in the plane the occupation-potential construction requires killing, for example at τ_U [1, Section 3.3]. Global recurrence, however, does not imply that every boundary point is regular. Further treatments of Brownian motion and classical potential theory appear in [2,3].

Potential theory makes this distinction precise. If $K \subset \mathbb{R}^d$ is compact and nonpolar, $d \geq 3$, and $T_K = \inf\{t > 0 : B(t) \in K\}$, its equilibrium measure ν_K satisfies

$$\mathbb{P}_x\{T_K < \infty\} = \int_K G(x, y)\,d\nu_K(y), \qquad x \notin K,$$

by the last-exit formula [1, Theorem 8.8]. Thus the probability of hitting a set is represented as a Green potential. A capacity criterion then measures whether the complement is sufficiently large near a boundary point.

For $d \geq 3$, use the Newtonian capacity

$$C_{d-2}(K) = \left(\inf_{\mu \in \mathcal{P}(K)} \iint |\xi - \eta|^{2-d}\,d\mu(\xi)\,d\mu(\eta)\right)^{-1},$$

where $\mathcal{P}(K)$ denotes the probability measures on K and $C_{d-2}(\varnothing) = 0$. Put $K_k = U^c \cap \{y : 2^{-k-1} \leq |y - z| \leq 2^{-k}\}$. Wiener's test [1, Theorem 8.37] gives the exact local criterion

$$z \text{ is regular for } U^c \quad \Longleftrightarrow \quad \sum_{k=1}^{\infty} 2^{k(d-2)} C_{d-2}(K_k) = \infty. \tag{4}$$

This form is stated only for $d \geq 3$; the planar potential kernel is logarithmic [1, Section 8.3].

For a concrete contrast with Theorem 1, let $U = \mathcal{B}(0, 1) \setminus \{0\}$, $d \geq 2$, and prescribe $\varphi = 0$ on $\partial\mathcal{B}(0, 1)$, $\varphi(0) = 1$. These data are continuous on ∂U. Singletons are polar in every $d \geq 2$ [1, Section 8.3], so a path started at $x \in U$ almost surely exits through the outer sphere.

Hence (1) gives $u(x) = 0$ throughout U, and the value at the puncture is not attained. By [1, Theorem 8.5(a)], there is no solution continuous on $\overline{U}$ for these data. This is the punctured-domain obstruction of [1, Example 3.15]. For $d \geq 3$ it is also immediate from (4): all the sets K_k at $z = 0$ are empty. In $d = 2$, neighbourhood recurrence still does not force a Brownian path to hit the specified point.

Conclusion. Brownian motion connects random continuous paths with harmonic functions, but boundary continuity depends on the geometry and capacity of the complement. The cone estimate supplies the explicit modulus (3), while a polar puncture shows why a local regularity hypothesis cannot be omitted.

Literature

1. **Mörters P., Peres Y.** *Brownian Motion.* Cambridge Series in Statistical and Probabilistic Mathematics, Vol. 30. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

2. **Port S.C., Stone C.J.** *Brownian Motion and Classical Potential Theory.* New York: Academic Press, 1978.

3. **Doob J.L.** *Classical Potential Theory and Its Probabilistic Counterpart.* Grundlehren der mathematischen Wissenschaften, Vol. 262. New York: Springer-Verlag, 1984.

УДК 517.968

IKKINCHI TUR FRIDGOLM INTEGRAL TENGLAMALARINI YECHISHNING TAQRIBIY USULLARI VA ULARNING TADBIQLARI

Xayrullayev I. N.
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz, O'zbekiston;
ixayrullayev@mail.ru

Matematik fizika, mexanika va amaliy matematikaning ko'plab masalalari, xususan, differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar integral tenglamalarga keltiriladi. Ushbu tezisda ikkinchi tur Fridgolm integral tenglamalarini yechishning asosiy analitik va taqribiy usullari hamda ularning tatbiqlari o'rganiladi.Ikkinchi tur Fridgolm integral tenglamasi umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$\varphi(x) - \lambda \int_a^b K(x,s)\varphi(s)ds = f(x) \tag{1}$$

Bu yerda $f(x)$ — $[a,b]$ kesmada berilgan uzluksiz funksiya, $K(x,s)$ — $a \leq x, s \leq b$ kvadratda aniqlangan uzluksiz funksiya (integral tenglamaning yadrosi), λ — parametr, $\varphi(x)$ — topilishi kerak bo'lgan noma'lum funksiya.Tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi Fridgolmning uchta asosiy teoremasi bilan to'liq tavsiflanadi.

Xususan, agar λ parametr yadroning xos qiymati bo'lmasa, u holda bir jinsli bo'lmagan tenglama ixtiyoriy $f(x)$ uzluksiz funksiya uchun yagona yechimga ega bo'ladi. Agar λ xos qiymat bo'lsa, yechim mavjud bo'lishi uchun ozod had qo'shma bir jinsli tenglamaning barcha chiziqli erkli yechimlariga ortogonal bo'lishi zarur va yetarlidir.Agar $K(x,s)$ yadro chegaralangan ($|K(x,s)| \leq M$) bo'lsa, u holda parametr λ quyidagi shartni qanoatlantirganda:

$$|\lambda| < \frac{1}{M(b-a)} \tag{2}$$

integral tenglama yagona uzluksiz yechimga ega bo'ladi. Yechim ketma-ket yaqinlashish iterativ jarayoni orqali topiladi:

$$\varphi_0(x) = f(x)$$

$$\varphi_n(x) = f(x) + \lambda \int_a^b K(x,s)\varphi_{n-1}(s)ds, \quad n = 1, 2, \dots$$

Bu ketma-ketlik $\varphi(x)$ yechimga tekis yaqinlashadi va yechim cheksiz Neyman qatori ko'rinishida ifodalanadi: $\varphi(x) = \sum_{n=0}^{\infty} \lambda^n \varphi_n(x)$.

Aynigan yadro usulida $K(x,s) = \sum_{i=1}^{n} a_i(x)b_i(s)$ ko'rinishdagi yadro uchun masala chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga keltiriladi.

Noma'lum $C_i = \int_a^b b_i(s)\varphi(s)ds$ koeffitsiyentlarni topish uchun ifoda integrallanib, n ta noma'lumli sistemaga ega bo'lamiz:

$$C_i - \lambda \sum_{k=1}^{n} \alpha_{ik} C_k = \beta_i, \quad i = 1, \dots, n \tag{3}$$

Bu yerda $\alpha_{ik} = \int_a^b b_i(s)a_k(s)ds$ va $\beta_i = \int_a^b b_i(s)f(s)ds$. Ixtiyoriy uzluksiz yadroni taqribiy ravishda aynigan yadro bilan almashtirish algoritmi uzluksiz yadroli Fridgolm tenglamasini yechishning samarali yo'lidir.

Xulosa qilib aytganda, Fridgolm integral tenglamalarini yechishning tahlil qilingan usullari amaliy masalalarni modellashtirishda keng qo'llaniladi. Aynigan yadro usuli masalani chekli o'lchamli fazoga proyeksiyalash orqali algebraik usullardan samarali foydalanish imkonini beradi va hisoblash matematikasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. **Krasnov M.L., Kiselev A.I., Makarenko G.I.** Integral tenglamalar. — T.: O'qituvchi, 1980.
2. **Polyanin A.D., Manzhirov A.V.** Handbook of Integral Equations. — CRC Press, 2008.
3. **Kolmogorov A.N., Fomin S.V.** Haqiqiy o'zgaruvchining funksiyalari va funksional analiz elementlari. — T.: O'zbekiston, 1993.

CHIZIQLI ALMASHTIRISHNING XOS SON VA XOS VEKTORLARINI TOPISHNING USULLARI (AN'ANAVIY VA SONLI YONDASHUVLAR)

Xojamqulov B. T.[1], Saatmurotov Sh.[2],
[1,2] Termiz Davlat Universiteti, Termiz, Ozbekiston;
xojamqulovb@mail.ru

Bugingi kunda matematika jadal rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, bu masalalarni yechish ham xilma-xildir. Algebrada uchraydigan kop masalalarni

$$y = Ax \tag{1}$$

shaklda yozish mumkin, bu yerda x va y berilgan W va V funksional fazolarning elementlari bolib, A operator yoki xususiy holda funksionaldir. Matritsaning xos sonlari va xos vektorlarini topish muammosi fizika, mexanika va astronomiyaning koplab amaliy muammolarini hal qilishda

zarur boladi. Bunda $Ax = \lambda x$ korinishdagi tenglamalarning notrivial yechimini aniqlash kerak boladi va bunday yechim mavjud bolgan λ son xos son deb ataladi [1].

Ushbu maqolada chiziqli almashtirishlarning xos soni va xos vektorlarini topishning turli usullari, jumladan, an'anaviy algebraik usullar (xarakteristik tenglama, Faddeev metodi) hamda sonli usullardan biri quvvat (stepen) usuli ko'rib chiqiladi.

Xos vektor chiziqli algebradagi tushuncha bolib, kvadrat matritsa uchun vektor sifatida belgilanadi, matritsani x vektorga kopaytirish natijasida bir xil vektor matritsaning xos son deb ataladigan shunday skalyar songa kopaytiriladi [2]. Shunday qilib, A matritsaning xos vektori shunday nolga teng bolmagan x vektor bolib, shunday λ son uchun

$$Ax = \lambda x \tag{2}$$

bajariladi. Oz navbatida, A matritsasining xos qiymati λ soni bolib, uning uchun xos vektor x mavjud, yani (2) tenglik orinli [3].

1-teorema. n ochovli R_n fazodagi ixtiyoriy A chiziqli operatorning xos vektori mavjud. Agar A operatorning matritsasi

$$A(e) = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{21} & ... & a_{n1} \\ a_{12} & a_{22} & ... & a_{n2} \\ ... & ... & ... & ... \\ a_{1n} & a_{2n} & ... & a_{nn} \end{pmatrix}$$

dan iborat bolsa, u holda

$$D(\lambda) = \det(A - \lambda E) = \begin{pmatrix} a_{11} - \lambda & a_{21} & ... & a_{n1} \\ a_{12} & a_{22} - \lambda & ... & a_{n2} \\ ... & ... & ... & ... \\ a_{1n} & a_{2n} & ... & a_{nn} - \lambda \end{pmatrix} = 0 \tag{3}$$

tenglama λ ga nisbatan A operatorning xarakteristik tenglamasi deb ataladi. (3) tenglamaning chap tomoni

$$\det(A - \lambda E) = (-1)^n(\lambda^n - p_1\lambda^{n-1} - p_2\lambda^{n-2} - ... - p_n) \tag{4}$$

$n-$ darajali kophad bolib, u A operatorning xarakteristik kophadi deyiladi. Ayrim hollarda (4) kophad ornida A operatorning xos kophadi deb ham ataladi.

$$P(\lambda) = \lambda^n - p_1\lambda^{n-1} - p_2\lambda^{n-2} - ... - p_n \tag{5}$$

Bu yerda A operatorni matritsa deb olsak. Matritsaning xos sonlari uning xos kophadlari ildizlari boladi. (5) kophad $n-$ darajali bolgani uchun n ta ildizga ega [3]. Bizga $\det(A - \lambda_i E)\overline{x} = \overline{0}$ tenglama berilgan bolsin. Algebradan malumki, umumiy holda, $p(\lambda)$ ning p_i koeffisienti A matritsaning $(-1)^{i-1}$ ishora bilan olingan $i-$ tartibli bosh minorlari yigindisiga teng. Viyet teoremasidan foydalanib, quyidagi tengliklarni yozishimiz mumkin:

$$\begin{aligned} &\lambda_1 + \lambda_2 + ... + \lambda_n = p_1, \\ &..... \\ &\lambda_1 \cdot \lambda_2 \cdot ... \cdot \lambda_n = (-1)^{n-1}p_n. \end{aligned}$$

Endi biz matritsalar nazariyasidagi yana bir muhim metodni taqdim etamiz, u A matritsaga (butunlay boshqa goyalar va usullardan foydalangan holda) toliq umumlashtiriladi.

1-tarif. Ixtiyoriy $A \in M_n(C)$ matritsaning bosh diagonal elementlari yigindisiga A matritsaning izi deb ataladi.

Bu tarifga kora A matritsaning izi quyidagicha belgilanadi. $a_{11} + a_{22} + ... + a_{nn} = Tr(A)$, endi biz bu tenglikdan foydalanib quyidagi kophadni hosil qilamiz.

$$\det(A - \lambda E) = \lambda^2 - Tr(A)\lambda + (\det A)\, E_2 = 0 \tag{6}$$

2-tarif. (6) xarakteristik kophadning λ_1, λ_2 kompleks ildizlari $A \in M_2(C)$ matritsaning xos sonlari deb ataladi.
Bu yerda $\lambda_1 + \lambda_2 = Tr(A)$, $\lambda_1 \cdot \lambda_2 = \det(A)$.

2-teorema. (Gamilton – Keli) Ixtiyoriy $A \in M_2(C)$ tenglik orinli

$$A^2 - Tr(A)A + \det(A)E_2 = O_2.$$

Shunday qilib, matritsaning barcha xos sonlar yigindisi uning iziga teng bolib, ularning kopaytmasi shu matritsaning determinantiga teng.

Quvvat (stepen) usuli. Yuqorida keltirilgan usullar asosan xarakteristik ko'phadni topishga asoslangan bo'lib, katta o'lchamli matritsalar uchun hisoblash jihatdan murakkabdir. Shuning uchun amaliyotda ko'pincha sonli usullar, jumladan, quvvat usuli qo'llaniladi. Bu usul matritsaning moduli bo'yicha eng katta xos soni va unga mos xos vektorni topishga imkon beradi.

Faraz qilaylik, A kvadrat matritsaning xos sonlari

$$|\lambda_1| > |\lambda_2| \geq |\lambda_3| \geq \cdots \geq |\lambda_n|$$

shartni qanoatlantirsin, ya'ni λ_1 yagona va moduli bo'yicha eng katta bo'lsin. U holda ixtiyoriy boshlang'ich $x^{(0)}$ vektor (xos vektorlar bo'yicha yoyilmasi λ_1 ga mos komponenti nolga teng bo'lmagan) uchun quyidagi iteratsion jarayonni tashkil qilamiz:

$$x^{(k+1)} = Ax^{(k)}, \qquad k = 0, 1, 2, \ldots$$

Agar har bir qadamda vektorni normallash (masalan, eng katta komponentga bo'lish) amalga oshirilsa, u holda $x^{(k)}$ vektorlar ketma-ketligi λ_1 ga mos xos vektorga yaqinlashadi. Xos sonning o'zi esa

$$\lambda_1 \approx \frac{(Ax^{(k)})_i}{(x^{(k)})_i}$$

yoki Reley nisbati

$$\lambda_1 \approx \frac{(x^{(k)})^T Ax^{(k)}}{(x^{(k)})^T x^{(k)}}$$

orqali baholanadi [4]. Bu usulning yaqinlashish tezligi $|\lambda_2/\lambda_1|$ nisbatga bog'liq bo'lib, bu nisbat qanchalik kichik bo'lsa, shuncha tez yaqinlashadi.

Quvvat usuli matritsaning eng katta xos sonini hisoblashda juda samarali, ayniqsa, matritsa siyrak (ko'p nolli) bo'lgan hollarda. Bundan tashqari, bu usulni teskari matritsaga qo'llab, eng kichik xos sonni ham topish mumkin (teskari quvvat usuli). Shuningdek, spektral siljitish (shift) orqali boshqa xos sonlarni hisoblash ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. **M.I.Isroilov.** *Hisoblash metodlari.* Darslik. TOSHKENT 'Ozbekiston' 2003. 440 bet.
2. **Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev.** *Chiziqli Algebra.* Darslik "MUHR PRESS" nashriyoti. Toshkent, 2023, – 392 bet.
3. **G.G'ayipnazarov, O.Gaimnazarov.** *Algebra va sonlar nazariyasidan misol va masalalar yechish.* TOSHKENT 2015.
4. **D.K.Faddeev, V.N.Faddeeva.** *Hisoblash metodlari (chiziqli algebra).* M.: Nauka, 1963. 736 b.

TO‘G‘RI CHIZIQ TENGLAMALARINING IQTISODIY TADBIQLARI

Xudayarov S.S. [1], Erkinov N.B. [2]
[1,2]Aniq va Ijtimoiy fanlar Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston;
xsanat83@mail.ru
nodirbek.erkinov060@gmail.com

Iqtisodiyot fanining fundamental muammosi — bu cheksiz ehtiyojlar va cheklangan resurslar o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Har bir korxona ishlab chiqarish jarayonida xomashyo zaxiralari, ishchi kuchi soatlari, dastgohlar quvvati va moliyaviy budjet kabi qat’iy chegaralarga duch keladi. Mana shu cheklangan resurslar sharoitida maksimal foyda keltiruvchi ishlab chiqarish rejasini tanlash masalasi matematikaning maxsus bo‘limi — "Chiziqli dasturlash"modellari orqali hal etiladi.

Chiziqli dasturlash masalasining barcha elementlari (maqsadli funksiya ham, chegaraviy shartlar ham) faqat birinchi darajali to‘g‘ri chiziq tenglamalari va tengsizliklaridan tashkil topadi. Agar korxona ikki turdagi mahsulot (X_1 va x_2) ishlab chiqarsa, uning umumiy iqtisodiy-matematik modeli quyidagicha ko‘rinishda shakllantiriladi. Birinchidan, foydani maksimallashtirishni ifodalovchi maqsadli funksiya to‘g‘ri chiziq tenglamasi tuziladi: $Z = c_1 \cdot X_1 + c_2 \cdot X_2 -> max$

Bu yerda c_1 va c_2 — mos ravishda birinchi va ikkinchi turdagi mahsulot birligidan olinadigan sof foyda miqdori. Ikkinchidan, ishlab chiqarishda ishlatiladigan har bir resurs turi bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli chegaraviy tengsizliklar tizimi o‘rnatiladi:

$$\begin{cases} a_{11} \cdot X_1 + a_{12} \cdot X_2 \geq B_1 \text{ (1-resurs bo‘yicha chegara)} \\ a_{21} \cdot X_1 + a_{22} \cdot X_2 \geq B_2 \text{ (2-resurs bo‘yicha chegara)} \end{cases}$$

Bundan tashqari, iqtisodiy ma’noga ko‘ra ishlab chiqarish hajmi manfiy bo‘lishi mumkin emasligi sababli, har doim $X_1 \geq 0$, $X_2 \geq 0$ chiziqli shartlari ham qo‘shiladi. Ushbu tengsizliklarning har biri geometrik jihatdan tekislikda ma’lum bir to‘g‘ri chiziqdan pastda joylashgan yarim tekisliklar sohasini ifodalaydi.

Chiziqli dasturlash masalalarini yechishning eng ko‘rgazmali usuli — grafik usuldir. To‘g‘ri chiziqlar tizimi kesishib, tekislikda "Mumkin bo‘lgan yechimlar ko‘pburchagi"deb ataladigan qavariq sohani hosil qiladi. Chiziqli dasturlashning asosiy teoremalariga ko‘ra, maqsadli funksiyaning optimal qiymati doimo ushbu ko‘pburchakning burchak uchlarida (ya’ni to‘g‘ri chiziqlarning o‘zaro kesishish nuqtalarida) erishiladi.

Amaliy masala: Mebel fabrikasi stollar X_1 va stullar X_2 ishlab chiqaradi. Bitta stol sotishdan olinadigan foyda 50 dollar, bitta stuldan esa 30 dollarni tashkil etadi. Ishlab chiqarish resurslari cheklangan: yog’och zaxirasi haftasiga jami 36 m^2, ishchilar mehnat vaqti esa haftasiga jami 40 soat.

Bitta stol uchun 4 m^2 yog‘och va 5 soat mehnat talab etiladi. Bitta stul uchun esa 3 m^2 yog‘och va 2 soat mehnat sarflanadi. Fabrikaga maksimal foyda keltiruvchi haftalik ishlab chiqarish rejasini to‘g‘ri chiziqlar yordamida aniqlang.

Yechilishi: Masalaning chiziqli modelini shakllantiramiz:

Maqsad funksiyasi: $Z = 50X_1 + 30X_2 \to max$

Resurslar bo‘yicha chegaraviy tenglamalar tizimi:


$$\begin{cases} 4X_1 + 3X_2 \leq 36 \text{ (Yog‘och chegarasi to‘g‘ri chizig‘i, L1.)} \\ 5X_1 + 2X_2 \leq 40 \text{ (Ish vaqti chegarasi to‘g‘ri chizig‘i, L2.)} \end{cases}$$

Ushbu to‘g‘ri chiziqlarni grafikda chizish uchun ularning o‘qlar bilan kesishish nuqtalarini topamiz:

• To‘g‘ri chiziq $L1$: Agar $X_1 = 0$ bo‘lsa, $X_2 = 12$. Agar $X_2 = 0$ bo‘lsa, $X_1 = 9$.

Nuqtalar: $(0;12)$ va $(9;0)$.

• To‘g‘ri chiziq $L2$: Agar $X_1 = 0$ bo‘lsa, $X_2 = 20$. Agar $X_2 = 0$ bo‘lsa, $X_1 = 8$.
Nuqtalar: (0;20) va (8;0).



Grafikda ushbu ikki to‘g‘ri chiziqni chizganimizda, ular bir-biri bilan kesishadi va mumkin bo‘lgan sohaning eng muhim ichki burilish burchak uchi nuqtasini hosil qiladi. Ushbu kesishish nuqtasisi koordinatalarini ikki noma’lumli tenglamalar tizimini yechish orqali aniqlaymiz: $4 \cdot X_1 + 3 \cdot X_2 = 36 \Rightarrow 5 \cdot X_1 + 2 \cdot X_2 = 40$

Birinchi tenglamani 2 ga, ikkinchisini esa 3 ga ko‘paytirib, o‘zgaruvchilarni tenglashtiramiz: $8 \cdot X_1 + 6 \cdot X_2 = 72, \Rightarrow 15 \cdot X_1 + 6 \cdot X_2 = 120$

Ikkinchi tenglamadan birinchisini ayirib tashlaymiz: $7 \cdot X_1 = 48 => X_1 = 48/7 = 6.86(Stollarsoni)$

Topilgan qiymatni o‘rniga qo‘yib, X_2 ni topamiz: $4 \cdot (48/7) + 3 \cdot X_2 = 36 => 192/7 + 3 \cdot X_2 = 36 => 3 \cdot X_2 = 36 - 27.43 = 8.57 => X_2 = 2.86$(Stullar soni).

Endi mumkin bo‘lgan soha burchak uchlaridagi barcha muqobil variantlarning foyda qiymatlarini hisoblaymiz va solishtiramiz:

• A nuqta $(0;0)$ — Ishlab chiqarish yo‘q: $Z = 50 \cdot 0 + 30 \cdot 0 = 0$ dollar.

• B nuqta $(8;0)$ — Faqat stol chiqarish: $Z = 50 \cdot 8 + 30 \cdot 0 = 400$ dollar.

• C nuqta $(0;12)$ — Faqat stul chiqarish: $Z = 50 \cdot 0 + 30 \cdot 12 = 360$ dollar.

• D nuqta $(6.86;2.86)$ — Aralash ishlab chiqarish: $Z = 50 \cdot 6.86 + 30 \cdot 2.86 = 343 + 85.8 = 428.8$dollar.

Iqtisodiy tahlil va qaror qabul qilish: Matematik solishtirish shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori daromad va foyda D nuqtada, ya’ni aralash ishlab chiqarish rejasida erishiladi (Z = 428.8 dollar). Demak, fabrika haftasiga taxminan 7 ta stol va 3 ta stul kombinatsiyasini ishlab chiqarsa, o‘z resurslaridan eng samarali va optimal usulda foydalangan bo‘ladi. Bu to‘g‘ri chiziqlar tizimining biznes boshqaruvidagi beqiyos amaliy kuchini ko‘rsatadi.

Литература

1. **M.Raisov R.X.Mukumova** *MATEMATIK PROGRAMMALASH* S.: Uslubiy qo‘llanma. SamISI. - 2008. - 186 bet.
2. **M.Raisov** *MATEMATIK PROGRAMMALASH* T.: «VORIS» nashriyot - 2009. - 176 bet.

UDC 517.911

Some properties of the space of solutions of nonlinear Volterra-Fredholm integro-differential equations

Yuldashev T. K.[1], **Rakhmonov F. D.**[2]
[1]**Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan;**
tursun.k.yuldashev@gmail.com
[2]**National Pedagogical University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan;**
mr.haker-frd@bk.ru

Let $J = [a, b],\ \ell = b - a > 0$, and consider

$$x'(t) = F(t, x(t), (\mathcal{V}x)(t), (\mathcal{W}x)(t)), \quad t \in J, \tag{1}$$

where

$$(\mathcal{V}x)(t) = \int_a^t K_V(t, s, x(s))\, ds, \tag{2}$$

and

$$(\mathcal{W}x)(t) = \int_a^b K_F(t, s, x(s))\, ds. \tag{3}$$

The main novelties of the present paper, compared with the previously studied ODE solution-space setting [1, 2] are the following. First, we isolate an abstract mechanism for equations $x' = \mathcal{G}(x)$: continuity of $\mathcal{G}$ gives closedness and Polishness, while boundedness on bounded sets yields compact bounded solution strata. This leads to local compactness, $\sigma-$compactness, hemicompactness, and a $k_\omega-$structure. Second, we prove complete continuity of the Volterra and Fredholm operators under the basic continuity assumptions on the kernels. Third, we strengthen the probability-measure theory by proving that every finite-support stratum $\mathcal{P}_n(\mathcal{S})$ is closed, Polish, and $\sigma-$compact. Fourth, we connect the topological theory with solvability: an invariant-ball condition yields existence, while a local contraction condition gives uniqueness, quantitative continuous dependence, and a bi-Lipschitz parametrization of a bounded solution branch by initial values.

The Volterra-Fredholm equation (1) fits this abstract scheme. Continuity of K_V, K_F, and F is sufficient. More precisely, the operators $\mathcal{V}$ and $\mathcal{W}$ are continuous and completely continuous on $C(J, \mathbb{R}^m)$, and the induced nonlinear operator

$$\mathcal{G}(x)(t) = F(t, x(t), (\mathcal{V}x)(t), (\mathcal{W}x)(t))$$

is continuous and bounded on bounded sets.

These conclusions do not require a global uniqueness assumption for the basic topology of the full solution space. Uniqueness is imposed only in the final section, where it is needed to obtain a single-valued parametrization by initial data.

Let $\mathcal{G} : X \to X$ be nonlinear and define

$$\mathcal{S}_\mathcal{G} = \{x \in C^1(J, \mathbb{R}^m) : x'(t) = (\mathcal{G}x)(t) \text{ for all } t \in J\}.$$

Theorem 1 [Closedness and Polishness]. If $\mathcal{G} : X \to X$ is continuous, then $\mathcal{S}_\mathcal{G}$ is closed in X. Consequently it is completely metrizable, separable, and Polish in the uniform topology.

For $R > 0$ put $\mathcal{S}_{\mathcal{G},R} = \{x \in \mathcal{S}_\mathcal{G} : \|x\|_\infty \le R\}$.

Theorem 2 [Compact bounded strata]. If $\mathcal{G}$ is continuous and bounded on bounded sets, then $\mathcal{S}_{\mathcal{G},R}$ is compact for every $R > 0$.

Theorem 3 [Strong global topology]. Under the hypotheses of Theorem 1, $\mathcal{S}_{\mathcal{G}}$ is Polish, locally compact, $\sigma-$compact, hemicompact, and a $k_\omega-$space. With $K_n = \mathcal{S}_{\mathcal{G},n}$,

etmoqda. Ushbu ishning dolzarbligi shundan iboratki, kasr tartibli differensial tenglamalar fan va texnikaning turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Suyuqliklar mexanikasi, qovushqoq elastiklik, kimyo, fizika, moliya va boshqa fanlarda kuzatiladigan ko'plab jarayonlar kasr tartibli hisoblash nazariyasining matematik apparati yordamida qurilgan modellar orqali tavsiflanishi mumkin. Bunday masalalar, odatda, aniq yechimga ega bo'lmaydi. Shu sababli, ushbu tenglamalar uchun taqribiy yechim usullarini ishlab chiqish va ularni qo'llash, shuningdek, bu usullarning nazariy asoslarini yaratish masalalari dolzarb hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda ayrim sinfdagi tenglamalar uchun sonli usullar taklif etilgan tadqiqotlar paydo bo'lmoqda. Biroq, bu yo'nalishda erishilgan natijalarga qaramay, shunga o'xshash masalalarning yanada umumiy sinflari uchun taqribiy usullarni qo'llashning nazariy asoslarini ishlab chiqish masalasi hanuz ochiq qolmoqda. Ushbu ishning maqsadi kasr tartibli differensial tenglamani sonli yechish uchun hisoblash sxemasini ishlab chiqishdan iborat. Ishda kasr tartibli differensial tenglamalarning taqribiy yechimini topish uchun umumlashtirilgan BubnovвЂ“Galerkin va Rits usullari taklif etiladi. Quyidagi tenglamani ko'rib chiqamiz:

$$D^{(\alpha)}u + Tu = f, \quad u,\ f \in L_2([0, 2\pi]), \tag{1}$$

bu yerda $D^{(\alpha)} = (2\cos(\pi\alpha/2))^{-1}(D_+^{(\alpha)} + D_-^{(\alpha)})$ operatori $D_\pm^{(\alpha)}$ kasr tartibli differensiallash operatorlari orqali aniqlanadi. $[a, b]$ kesmada berilgan $\varphi(x)$ funksiyalar uchun kasr tartibli hosilalar quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$\left(D_{a+}^{(\alpha)}\varphi\right)(x) := \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\int\limits_a^x \frac{\varphi(t)dt}{(x-t)^\alpha}, \quad \left(D_{b-}^{(\alpha)}\varphi\right)(x) := \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)}\frac{d}{dx}\int\limits_x^b \frac{\varphi(t)dt}{(t-x)^\alpha}, \tag{2}$$

bu yerda $-\infty < x < \infty,\ 0 < \alpha < 1$. (2) formulada aniqlangan hosilalar mos ravishda α-tartibli chap tomonli va o'ng tomonli Riman–Liuvill hosilalari deb ham yuritiladi. Bu yerda u - noma'lum f funksiya $L_2[0, 2\pi]$ fazosiga tegishli berilgan funksiya. T- shunday operator bo'lib, $(D^{(\alpha)} + T)$ chiziqli operatorni hosil qiladi va umumiy holda cheklanmagan hamda musbat aniqlangan bo'lmagan operator hisoblanadi. Yetarlicha silliq funksiyalar uchun $D^{(\alpha)}$ operatori kasr tartibli differensiallashning Veyl operatori bilan mos keladi va quyidagi qoida bo'yicha ta'sir etadi:

$$D^{(\alpha)}u \sim \sum_{k=-\infty}^{\infty} |k|^\alpha u_k e^{ikx}. \tag{3}$$

Bu yerda u_k - u funksiyaning Furye koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Quyidagi masalani ko'rib chiqamiz:

$$D^{(\alpha)}u + qu = f(x), \quad x \in (0, 1),\ u(0) = u(1) = 0. \tag{4}$$

(4) masalaning yaqinlashgan yechimini Rits usuli yordamida izlaymiz. Bu usulga ko'ra, bazis funksiyalar sifatida aniqlanish sohasi $D(A)$ bo'lgan $A = D^{(\alpha)} + q$ operatorining xos funksiyalarini tanlaymiz. Bu yerda $D(A)$ quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi funksiyalar to'plamidan iborat:

1. $u(x)$ funksiyalar $[0, 1]$ oraliqda uzluksiz;
2. ikkinchi tartibli hosilagacha ega;
3. chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi: $u(0) = 0,\ u(1) = 0$.

Ta'kidlash joizki, A operatorining xos qiymati λ_i va unga mos xos funksiya φ quyidagi ko'rinishga ega: $\lambda_i = i^2\pi^2 + q,\ \varphi_i = \sin i\pi x,\ i = 1, 2, ...$ Shunda (4) masalaning yaqinlashgan yechimini quyidagi ko'rinishda izlaymiz:

$$u_N(x) = \sum_{i=1}^{N} \alpha_i \sin i\pi x, \tag{5}$$

bu yerda (5) yoyilmaning noma'lum koeffitsiyentlari quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$$\alpha_i = \frac{2}{i^2\pi^2 + q} \int_0^1 f(x) \sin i\pi x dx.$$

Taklif etilgan hisoblash sxemasining sonli realizatsiyasini (1) masala uchun ayrim misollarda ko'rib chiqamiz. (1) masala uchun $\alpha = 2.5,\ q = 1$ qiymatlarni olamiz. U holda tenglama quyidagi ko'rinishni oladi:

$$D^{(2.5)}u + u = f(x), \quad x \in (0, 1),\ u(0) = u(1) = 0. \tag{6}$$

bu yerda (6) tenglamaning o'ng tomoni $f(x) = (1 + b^{2.5}) \sin bx - (1 + (\pi - b)^{2.5}) \sin(\pi - b)x$ funksiya ko'rinishida aniq berilgan. Aniq yechim $u(x) = \sin bx - \sin(\pi - b)x$ ko'rinishga ega ekanligini oson ko'rsatish mumkin. Haqiqatan ham, aniq yechimni (6) tenglamaga qo'llab va $D^{(\alpha)}(\sin bx) = b^\alpha \sin bx$ tenglikdan foydalansak, quyidagi natijani olamiz:

$$b^{2.5} \sin bx - (\pi - b)^{2.5} \sin(\pi - b)x + \sin bx - \sin(\pi - b)x =$$

$$= (1 + b^{2.5}) \sin bx - (1 + (\pi - b)^{2.5}) \sin(\pi - b)x.$$

Usulni tasvirlash uchun (6) tenglamaning yaqinlashgan yechimini (5) trigonometrik ko'phad ko'rinishida izlaymiz. Bu yerda noma'lum koeffitsiyentlar quyidagi aniq integral yordamida aniqlanadi:

$$\alpha_i = \frac{2}{i^2\pi^2 + 1} \int_0^1 \left((1 + b^{2.5}) \sin bx - (1 + (\pi - b)^{2.5} \sin(\pi - b)x)\right) \sin i\pi x dx.$$

Formulaga $b = 1$ ni qo'yib, $N = 10; 15; 20$ uchun yaqinlashgan yechimlarni quyidagi jadvalda ifodalaymiz.

x	Aniq yechim	$N = 10$	$N = 15$	$N = 20$
0.0	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000
0.1	-0.112693	-0.1099	-0.10981	-0.10979
0.2	-0.216672	-0.20113	-0.20122	-0.2012
0.3	-0.303631	-0.26901	-0.26896	-0.26895
0.4	-0.366226	-0.31041	-0.31046	-0.31046
0.5	-0.398157	-0.32448	-0.32442	-0.32443
0.6	-0.394782	-0.31041	-0.31046	-0.31046
0.7	-0.353214	-0.26901	-0.26896	-0.26895
0.8	-0.272511	-0.20113	-0.20122	-0.2012
0.9	-0.153749	-0.1099	-0.10981	-0.10979
1.0	0.0000	0.0000	0.0000	0.0000

$N = 10$ va $N = 15$ uchun olingan yaqinlashgan funksiyalar qiymatlarini taqqoslash natijasida $\varepsilon = 10^{-3}$ aniqlik bahosi olindi. Biroq, N ni yanada oshirish, ya'ni misol sifatida $N = 20$ da yaqinlashish aniqligining juda sekin ortishiga olib keladi. Kasr tartibli differensial tenglamalarni sonli yechish uchun Bubnov–Galerkin va Rits usullariga asoslangan hisoblash sxemasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan usul test masala misolida qo'llanilib, olingan sonli natijalar aniq yechim bilan taqqoslandi. Taqqoslash natijalari yaqinlashgan yechimning yuqori aniqligini hamda tanlangan yondashuvning kasr tartibli differensial tenglamalarni yechishda samarali va ishonchli ekanligini tasdiqladi.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR

1. **Ma X., Huang X.** *Numerical solution of fractional integro-differential equations by a hybrid collocation method.* Applied Mathematics and Computation. -2013. Vol.219. P. 6750–6760.
2. **S. G. Samko , A.A.Kilbas,O.I.Marichev.** *Fractional Integrals and Derivatives. Theory and Applications.* Gordon and Breach.Sci.Publ.,N.York-london, -1993, -1012 pp.
3. **Marinov T.M., Ramirez N., Santamaria F.** *Fractional Integration Toolbox.* Fractional Calculus and Applied Analysis. 2013. Vol. 16(3). P. 670–681.

UDK 539.3

IZOTROPIK YARIM FAZOSIDA YASSI TO'LQIN DIFRAKSIYASI TA'SIRIDA QATTIQ SHARNING NOSTATSIONAR ILGARILANMA HARAKATI

Muhiddinova G. Sh. [1], Musurmonov X. O. [2]

[1] Qarshi xalqaro universiteti, Qarshi, O'zbekiston; gulzoda0301@gmail.com
[2] Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O'zbekiston; musurmonovkh@gmail.com

Hozirgi paytda elektron hisoblash mashinalarning juda tez rivojlanishi, operativ xotiraning kengligi, ishlashning ishonchligi, hisoblash tezligining yuqoriligi va ixchamligi fan - texnikaning ko'p sohalarining murakkab muammolari yechimini olishga imkon bermoqda.

Jumladan, matematik modellashtirishni murakkab hodisa va jarayonlarni o'rganishda ilmiy amaliy masalalarni yechishga tadbiq qilinishiga asosiy sabab bo'lib xizmat qilmoqda.

Ishda izotropik yarim fazosida yassi to'lqin difraksiyasi ta'sirida qattiq sharning nostatsionar ilgarilanma harakati jarayoni matematik ifodalanib, bu jarayonga mos boshlang'ich-chegaraviy masalaning yechish algoritmi ishlab chiqilgan.

Aytaylik, izotropik ($z \geq 0$) yarim fazosida R radiusli qattiq shar joylashgan bo'lsin. Yarim fazoning tekis ($z = 0$) sirtidan shar markazigacha bo'lgan masofa h ga teng ($h > R$). $Oxyz$ to'g'ri burchakli Dekart koordinatlar sistemasining Ox va Oy o'qlari yarim fazo tekis sirt bo'ylab, Oz o'qi esa yarim fazoning ichiga yo'nalgan bo'lib, shar markazidan o'tadi. Izotropik muhit va shar harakati O boshlang'ich no'qtasi shar markazida bo'lgan (r,θ,ϑ) sferik koordinatalar sistemasida o'rganiladi.

$\tau = 0$ vaqtning boshlang'ich momentida qo'zgaluvchan shar sirtiga Oz o'qi yo'nalishga teskari yo'nalishda potensiali bo'lgan kuchlanishning yassi to'lqini fronti kelib urinadi. Natijada, qattiq shar yarim fazoning tekis sirti tomon ilgarilanma harakat qiladi.

Notinch izoropik muhitning harakati ko'chish vektorining φ skalyar potensiali va ψ vektor potensialning noldan farkli komponentasiga nisbatan to'lqin tenglamalari bilan tasvirlanadi.

Yarim fazoning tekis sirtida kuchlanish nolga yoki ko'chish nolga teng. Shar harakati

$M\ddot{z} = R_e + R_z$ tenglama bilan ifodalanadi. M- shar massasi; R_z – muhitning reaksiya kuchi. Shar sirtida chegaraviy shartlar

$$(u + u^*)|_{r=1} = z(\tau)\cos\theta,$$
$$(\sigma_{r\theta} + \sigma^*_{r\theta})|_{r=1} = k\left(z(\tau)\sin\theta - (v + v^*)|_{r=1}\right),$$
$$u^* = u_0 + u_s,$$
$$\sigma^*_{r\theta} = \sigma_{r\theta 0} + \sigma_{r\theta s}$$

ko‘rinishga ega. Bu yerda k shar sirtida chegaraviy shartning ikki turini qarash imkonini beradi: $k = 0$ da chegaraviy sirtlar erkin sirpanishga ega. $k = \infty$ bo‘lganda esa ular qattiq mahkamlangan. $z(\tau)$- shar markazi ko‘chishi; φ_0 - yarim fazo tekis sirtidan kaytuvchi to‘lqin potensiali. Boshlang‘ich shartlar – bir jinsli va cheksizlikda to‘lqinning so‘nishini e’tiborga olamiz.

Bunga mos boshlangich – chegaraviy masala vaqt bo‘yicha Laplas integral almashtirishlari qo‘llash va to‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilarni ajratish usuli yordamida yechiladi. Ko‘chish vektori potensiallarini, ko‘chish vektori va kuchlanish tenzori komponentalarini Lejandr va Gegenbauer [1] ortogonal ko‘pxadlarining cheksiz qatorlari ko‘rinishida tasvirlaymiz.

$K_{n+1/2}(x)$ funksiya uchun [2] qo‘shish teoremasiga asoslanib, qatorlarni (r,θ,ϑ) sferik koordina-talar sistemasida yozib olib, muhitning kuchlanish-deformatsiya holatining komponentalarini Lejandr va Gegenbauer ko‘phadlari bo‘yicha cheksiz qatorlarga yoyib, hamda ko‘chish vektori komponentalarini potensial funksiyalar bilan bog‘lanishi va Guk qonunidan foydalanib, ularning koeffitsiyentlari uchun ifodalar olamiz.

Boshlag‘nich-chegaraviy masala Laplas integral almashtirshilarining tasvirlar fazosida cheksiz algebraik tenglamalar sistemasiga keltiriladi va sistema yechimi eksponentalarning cheksiz qatori ko‘rinishida izlanadi. Bu cheksiz qator koeffitsintlari uchun rekurrent munosabatlar kelib chiqadi. Laplas almashtirishlarining tasvirlar fazosida sharning ko‘chishi uchun formula olingan. Funksiyalar- ning tasvirlaridan originaliga o‘tish chegirmalar nazariyasi [3] yordamida amalga oshiriladi. Shar ko‘chishi uchun sonli natijalar olindi. Sonli natijalar tahlilidan shar harakatiga yarim fazoning tekis sirtida qaytuvchi to‘lqinning ta’siri aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. **Beytmen G, Erdeyn A.** *V*issheye transsendentneye funksii, Besselya, funksii paraboli cheskogo silindra, ortogonalniye mnogochleni.- M.:Nauka, 1974.-295 s.

2. **Cuz A.N., Golovchan V.T.** *D*ifraksiya uprugix voln v mnogosvyaznix telax.- Kiyev: Naukova dumka, 1972.-254 s

3. **Lavrentyev M.A., Shabat B.V.** *M*etodi teorii funksii kompleksnogo peremennogo.-M.: Nauka, 1987.-688 s.

UDK 539.3

G‘OVAK-IZOTROPIK YARIMFAZODA QATTIQ SHARNING BERILGAN QONUN BO‘YICHA NOSTATSIONAR ILGARILANMA HARAKATI

Muhiddinova G. Sh. [1], Musurmonov X. O. [2]

[1] Qarshi xalqaro universiteti, Qarshi, O’zbekiston; gulzoda0301@gmail.com

[2] Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O’zbekiston; musurmonovkh@gmail.com

Mazkur tadqiqot ishida g‘ovak-izotropik muhitning cheksiz fazosida absolyut qattiq sharning berilgan qonun bo‘yicha nostatsionar ilgarilanma harakati masalasining yechish algoritmini ishlab chiqilgan. Shar ilgarilanma harakatiga atrof muhitning qarshilik kuchi uchun formula olingan.

Aytaylik, ideal suyuqlik to‘yingan cheksiz g‘ovak-izotropik muhitli fazoda uning ($z = 0$) tekis sirtidan h masofada o‘lchovsiz $R = 1$ ($h > 1$) radiusli absolyut qattiq sharning markazi joylashgan bo‘lsin va boshlang‘ich $\tau = 0$ vaqtda sharga markazidan o‘tuvchi O_2z o‘q bo‘ylab yarim fazo tekis sirti tomon sharni nostatsionar ilgarilanma harakatining $z(\tau)$ qonuni berilgan bo‘lsin. G‘ovak-izotropik muhitning harakati boshlang‘ich nuqtasi shar markazida bo‘lgan (r,θ,ϑ) sferik koordinatalar sistemasida hamda boshlang‘ich nuqtasi yarim fazo tekis sirtida joylashgan va O_2z o‘qi yarim fazo ichi tomon yo‘nalgan O_2xyz dekart koordinatalar sistemasida o‘rganiladi.

G‘ovak-izotropik muhitning harakati ko‘chish vektorining φ_1, φ_2 va φ_3 potensiallariga nisbatan

$$\gamma_1^2\frac{\partial^2\varphi_1}{\partial\tau^2} = \Delta\varphi_1, \gamma_2^2\frac{\partial\varphi_2}{\partial\tau} = \Delta\varphi_2, \gamma_3^2\frac{\partial^2\varphi_3}{\partial\tau^2} = \Delta\varphi_3 - \frac{\varphi_3}{r^2\sin^2\theta} \tag{1}$$

to‘lqin tenglamalari bilan tasvirlanadi.

Yarim fazoning $z = 0$ chegarasi - erkin sirt:

$$\sigma_{zz}|_{z=0} = 0,\ \sigma_{zx}|_{z=0} = 0,\ \sigma_m|_{z=0} = 0 \tag{2}$$

Shar sirtida chegaraviy shart

$$u_1|_{r=1} = z(\tau)\cos\theta,\ \sigma_{r\theta}|_{r=1} = 0,\ u_2|_{r=1} = z(\tau)\cos\theta \tag{3}$$

ko‘rinishga ega, ya’ni shar bilan muhit chegaraviy sirtlari erkin sirpanishiga ega.

Boshlang‘ich shartlar bir jinsli:

$$\varphi_1|_{\tau=0} = \dot\varphi_1|_{\tau=0} = \varphi_2|_{\tau=0} = \dot\varphi_2|_{\tau=0} = \varphi_3|_{\tau=0} = \dot\varphi_3|_{\tau=0} = 0. \tag{4}$$

Cheksizlikda to‘lqin so‘nadi:

$$\lim_{r\to\infty}\varphi_1 = 0,\ \lim_{r\to\infty}\varphi_2 = 0,\ \lim_{r\to\infty}\varphi_3 = 0. \tag{5}$$

(5) to‘lqinning so‘nishi shartlarini e’tiborga olib, Laplas integral almashtir-ishlarining tasvirlar fazosida (1) to‘lqin tenglamalarining yechimlarini

$$\varphi_1^L = \sum_{n=0}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{r}}A_{1n}^L(s)K_{n+1/2}\left(r\gamma_1 s\right)P_n(\cos\theta) + \sum_{p=0}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{r_1}}B_p^L(s)K_{p+1/2}\left(r_1\gamma_1 s\right)P_p(\cos\theta_1)$$

$$\varphi_2^L = \sum_{n=0}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{r}}A_{2n}^L(s)K_{n+1/2}\left(r\gamma_2 s\right)P_n(\cos\theta) + \sum_{p=0}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{r_1}}C_p^L(s)K_{p+1/2}\left(r_1\gamma_2 s\right)P_p(\cos\theta_1) \tag{6}$$

$$\varphi_3^L = -\sin\theta\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{r}}A_{3n}^L(s)K_{n+1/2}\left(r\gamma_3 s\right)C_{n-1}^{3/2}(\cos\theta) - \sin\theta_1\sum_{p=1}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{r_1}}D_p^L(s)K_{p+1/2}\left(r_1\gamma_3 s\right)C_{n-1}^{3/2}(\cos\theta_1)$$

ko‘rinishda tasvirlaymiz. Bu yerda $K_{n+1/2}(x)$ - 2- tur Besselning modifitsirlangan funk-siyasi; $P_n(x)$, $C_{n-1}^{3/2}(x)$ - Lejandr va Gegenbauer ko‘phadlari [1]; $A_{in}^L(s)$, $i = 1 \div 3$, $B_n^L(s)$, $C_n^L(s)$ va $D_n^L(s)$ - lar s parametrning noma’lum funksiyalari; r_1 va θ_1 - lar boshlang‘ich no‘qtasi $z = 0$ tekislikka nisbatan shar markaziga simmetrik nuqta bo‘lgan sferik sistemaning koordinatalari.

Lejandr va Gegenbauer ko‘phadlarining xossalaridan foydalanib hamda

$$r|_{z=0} = r_1|_{z=0}\,, \theta|_{z=0} + \theta_1|_{z=0} = \pi$$

munosabatlarni e'tiborga olib, (2) yoki (3) chegaraviy shartlarni qanoatlantirishdan

$$B_n^L(s) = (-1)^{n+1} A_{1n}^L(s), C_n^L(s) = (-1)^{n+1} A_{2n}^L(s), D_n^L(s) = (-1)^{n+1} A_{3n}^L(s) \tag{7}$$

tengliklarni olamiz. Bu yerda yuqori ishora qattiq sirtga, pastgi ishora esa erkin sirtga mos keladi.

$K_{n+1/2}\,(x)$ funksiya uchun [2] qo'shish teoremasiga asoslanib, (6) qatorlarni $(r,\ \theta,\ \vartheta)$ sferik koordinatalar sistemasida yozib olib, muhitning kuchlanish-deformatsiya holatining komponentalarini Lejandr va Gegenbauer ko'phadlari bo'yicha cheksiz qatorlarga yoyib, hamda ko'chish vektori komponentalarini potensial funksiyalar bilan bog'lanishi va Guk qonunidan foydalanib, ularning koeffitsiyentlari uchun ifodalar olamiz.

Qatorlar koefitsiyentlariga nisbatan (3) shar siridagi chegaraviy shart

$$u_{11}^L\big|_{r=1} = z^L(s),\ \sigma_{r\theta 1}^L\big|_{r=1} = 0,\ U_{21}^L\big|_{r=1} = z^L(s) \tag{8}$$

$$u_{1n}^L\big|_{r=1} = 0,\ \sigma_{r\theta n}^L\big|_{r=1} = 0, (n \neq 1),\ U_{2n}^L\big|_{r=1} = 0 \tag{9}$$

ko'rinishga keladi

$u_{1n}^L\,, v_{1n}^L, U_{2n}^L, \sigma_{r\theta n}^L$ lar uchun ifodalarni (8) va (9) chegaraviy shartlarga qo'yib, ba'zi elementar almashtirishlardan so'ng, noma'lum funksiyalarga nisbatan cheksiz chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga kelamiz. Sistemaning yechimini eksponentalar bo'yicha cheksiz qatorlar ko'rinishda yozib olamiz va cheksiz qatorlarni sistemaga qo'yib, uningkoeffitsiyentlari uchun boshlang'ich shartlar va rekurrent munosabatlarni olamiz. Boshlang'ich shart va rekurrent munosabatlardan funksiyalarni s parametrning ratsional funksiyalari kabi aniqlanadi. Bu esa ularning originallarini qoldiqlar nazariyasi yordamida topish mumkinligini beradi.

Yarim fazoning ixtiyoriy no'qtasidagi ko'chish vektori va kuchlanish tenzori komponentalar

$$\begin{aligned}
u_1^L(r,s) &= u_{11}^L(r,s)\cos\theta,\\
v_1^L(r,s) &= v_{11}^L(r,s)\cos\theta,\\
u_2^L(r,s) &= u_{21}^L(r,s)\cos\theta\\
\sigma_{rr}^L(r,s) &= \sigma_{rr1}^L(r,s)\cos\theta,\\
\sigma_{r\theta}^L(r,s) &= \sigma_{r\theta 1}^L(r,s)\cos\theta,\\
\sigma_m^L(r,s) &= \sigma_{m1}^L(r,s)\cos\theta
\end{aligned}$$

ifodalar yordamida topiladi.

Muhitda shar harakatining muhim xarakteristikalaridan biri shar ilgarilanma harakatiga atrof muhitning qarshilik kuchidir. Uni

$$R_z^L(s) = \frac{4\pi}{3s} \sum_{ijnklm=0}^{\infty} \left[\sum_{q=1}^{3} \left(Q_{1q1}(s) + Q_{3q1}(s) - 2Q_{2q1}(s)\right) a_{ijnklm}^{(q,1)}(s) + \right.$$

$$\left. + \sum_{q=1}^{2} \left(J_{1q1}(s) + J_{3q1}(s) - 2J_{2q1}(s)\right) C_1^{(q)}(s) e^{-2h\gamma_q s} + \left(J_{131}(s) + J_{331}(s) - 2J_{231}(s)\right) S_1(s) e^{-2h\gamma_3 s} \right]$$

ifodani olamiz.

ADABIYOTLAR

1. **Gorshkov A.G., Tarlakovskiy D.V.** *N*estatsionarnaya aerogidrouprugost tel sfericheskov formi.-M.:Nauka, 1990.-264 s.
2. **Ivanov YE.A.** *D*ifraksiya elektromagnitnix voln na dvux telax. – Minsk: Nauka i texnika, 1968. – 584 s.

Piecewise constant argument method using Adams-Bashforth technique for the solution of higher-order nonlinear systems of ODEs

M.I. Muminov[1,2], B.A. Shermukhammedov[1]
[1]Faculty of Mathematics, Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan;
[2]V.I Romanovskiy Institute of Mathematics, Uzbekistan Academy of Sciences, Tashkent, Uzbekistan
mmuminov@mail.ru, shermuxammedovbaxtiyor47@gmail.com

In this work, we show a construction of an approximate solution for the mth-order nonlinear system of differential equation of the form

$$\begin{cases} y_1^{(m)}(t) = f_1(t, y_1(t), y_1'(t), ..., y_1^{(m-1)}(t), ..., y_q(t), y_q'(t), ..., y_q^{(m-1)}(t)), \\ y_2^{(m)}(t) = f_2(t, y_1(t), y_1'(t), ..., y_1^{(m-1)}(t), ..., y_q(t), y_q'(t), ..., y_q^{(m-1)}(t)), \\ \quad . \quad . \quad . \\ y_q^{(m)}(t) = f_q(t, y_1(t), y_1'(t), ..., y_1^{(m-1)}(t), ..., y_q(t), y_q'(t), ..., y_q^{(m-1)}(t)), \quad t \in [0,1], \end{cases} \tag{1}$$

with initial conditions

$$y_p(0) = y_{p0}, \quad y_p'(0) = y_{p1}, \quad \ldots, \quad y_p^{(m-1)}(0) = y_{p,m-1}, \quad p = 1, ..., q, \tag{2}$$

where f_p are real valued differentiable, continuous functions on $[0,1] \times R^{mq}$ and y_{pi}, $p = 1, ..., q$, $i = 0, 1, ..., m-1$ are real constants.

Let $\mathbf{Y}(t) = (Y_1(t), Y_2(t), ..., Y_q(t))$ be the solution of the initial value problem (1)-(2). Then there exists $A > 0$ such that $|Y_p(t)| \leq A$ for all $t \in [0,1]$ and $p = 1, 2, ..., q$.

We suppose that the function $f_p(t, x_1, ..., x_{mq})$ has the compact support $D = [0,1] \times [-A, A]^{mq}$, i.e., we assume that

$$f_p(t, x_1, ..., x_{mq}) = 0 \quad \text{for} \quad (t, x_1, ..., x_{mq}) \notin D. \tag{3}$$

Moreover, under this assumption on the functions $f_1, ..., f_q$, the solution $\mathbf{y}(t) = (y_1(t), y_2(t), ..., y_q(t))$ of the initial value problem (1)-(2) is preserved.

We remark that the assumption (3) ensures the boundedness of the functions $f_p(t, x_1, ..., x_{mq})$ in D. Thus, under these conditions, we can construct a numerical approximation algorithm for the solution.

Since f is a differentiable function it satisfies the Lipschitz condition

$$|f_p(t, x_1, ..., x_{mq}) - f_p(t, y_1, ..., y_{mq})| \leq |L_p| \sum_{i=1}^{mq} |x_i - y_i|, \quad p = 1, 2, ..., q,$$

for all $(t, x_1, ..., x_{mq}), (t, y_1, ..., y_{mq}) \in D$, where

$$L_p = \max_{(t, x_1, ..., x_{mq}) \in D} \sum_{i=1}^{mq} \frac{\partial f_p}{\partial x_i}(t, x_1, ..., x_{mq}).$$

Let

$$L = \max_{1\le p\le q} |L_p|. \tag{4}$$

Let n be a positive integer number and $t_k = \frac{k}{n}$, $k = 0, 1, ..., n$. Using the Adams-Bashforth technique for solving initial value problems, discussed in many references (for example, in [1]), we construct piecewise continuous functions $F_p(t) := F_{pn}(t)$ as follows

$$F_p(t) = f_{pk} \quad \text{for} \quad t \in [t_{k-1}, t_k), \quad k = 1, 2, ..., n,$$

where the numbers f_{pk} are chosen by using Adams-Bashforth technique (See pages 302-307 in [1]) in Table 1. For the starting procedure, first- and second-order Adams-Bashforth formulas are employed to generate the required initial values. Once sufficient previous function evaluations are available, the fourth-order Adams-Bashforth formula is used for all subsequent time steps. The fourth-order Adams-Bashforth formulas are adopted because they offer a favorable balance between computational efficiency and accuracy while preserving the explicit nature of the numerical scheme. Consider mth-order nonlinear system of differential equations with piecewise

k	f_{pk}
1	$f_{p1} = f_p(t_0)$
2	$f_{p2} = \frac{3}{2}f_p(t_1) - \frac{1}{2}f_p(t_0)$
3	$f_{p3} = \frac{3}{2}f_p(t_2) - \frac{1}{2}f_p(t_1)$
≥ 4	$f_{pk} = \frac{1}{24}\Big(55f_p(t_{k-1}) - 59f_p(t_{k-2}) + 37f_p(t_{k-3}) - 9f_p(t_{k-4})\Big)$

Таблица 4: The construction of f_{pk} is reported in the present method.

constant arguments of the form

$$\begin{cases} y_1^{(m)}(t) = F_1(t), \\ y_2^{(m)}(t) = F_2(t), \\ \quad . \quad . \quad . \\ y_q^{(m)}(t) = F_q(t), \\ y_p(0) = y_{p0}, \quad y_p'(0) = y_{p1}, \quad \ldots, \quad y_p^{(m-1)}(0) = y_{p,m-1}, \end{cases} \tag{5}$$

where

$$y_p^{(r-1)}(t_{k-1}) = \lim_{t\to t_{k-1}-0} y_p^{(r-1)}(t), \quad p = 1, 2, ..., q. \tag{6}$$

We introduce the definition of a solution to the systems of equations (5).

Definition. A vector function $\mathbf{y}(t) = (y_1(t), y_2(t), ..., y_q(t))$, $y_p(t) := y_{pn}(t)$, $p = 1, 2, ..., q$ is called a solution of the initial value problem (5) if the following conditions are satisfied

1) $y_p^{(r-1)}(t)$, $r = 1, 2, ..., m$, $p = 1, 2, ..., q$ is continuous on $[0, 1]$;

2) $y_p^{(m)}(t)$ exists and continuous in $[0, 1]$ with possible exception at points $\frac{k}{n}$, $k = 0, 1, ..., n$, where one-sided derivatives exist;

3) $\mathbf{y}(t)$ satisfies initial value problem (5) in [0,1), with the possible exception at the points $\frac{k}{n}$, $k = 0, 1, ..., n$.

The system of equations (5) is called the mth-order system of differential equations with piecewise constant arguments corresponding to the system of equations (1).

Theorem 1. For any positive integer number n the initial value problem (5) has a unique solution $\mathbf{y}(t) = (y_1(t), y_2(t), ..., y_q(t))$, defined as

$$y_p(t) = \frac{(t - t_{k-1})^m}{m!} f_{pk} + \frac{(t - t_{k-1})^{m-1}}{(m-1)!} y_p^{(m-1)}(t_{k-1}) +$$

$$+\frac{(t-t_{k-1})^{m-2}}{(m-2)!}y_p^{(m-2)}(t_{k-1})+\cdots+y_p(t_{k-1}),\quad t\in[t_{k-1},t_k),\tag{7}$$

where

$$y_p^{(r-1)}(t_{k-1})=\lim_{t\to t_{k-1}-0}y_p^{(r-1)}(t),\quad p=1,...,q,\quad r=1,2,...,m,\quad k=2,3,...,n.$$

The following lemma asserts that the sets

$$\{y_p^{(r)}(t_0),\, y_p^{(r)}(t_1),\ldots,y_p^{(r)}(t_{k-1})\},\ r=0,\ldots,m-1,\quad p=1,2,...,q$$

are uniformly bounded, i.e. their upper and lower bounds does not depend of n.

Lemma. Let $\mathbf{y}(t)=(y_1(t),y_2(t),...,y_q(t))$ be solution of (5). There exists a positive number C such that for any n and $k\in\{1,\ldots,n\}$ the inequalities

$$|y_p(t_k)|\le C,\quad |y_p'(t_k)|\le C,\quad \ldots,\quad |y_p^{(m-1)}(t_k)|\le C\tag{8}$$

hold.

Theorem 2. Let $\mathbf{y}(t)=(y_1(t),y_2(t),...,y_q(t))$ be solution of (5). For any $\varepsilon>0$ there exists a positive integer number $n_0=n(\varepsilon)$ such that for any $n>n_0$ the estimation

$$\sup_{1\le p\le q}\sup_{t,t\ne\frac{k}{n}}|y_p^{(m)}(t)-f_p(t,y_1(t),y_1'(t),...,y_1^{(m-1)}(t),...,y_q(t),y_q'(t),...,y_q^{(m-1)}(t))|<\varepsilon\tag{9}$$

holds, where $y_i(t):=y_{in}(t)$, $i=1,2,...,q$.

References

1. **Richard, L. Burden and J. Douglas Faires.** (2001) *Numerical analysis*, 29-36.

Symmetry Analysis and Invariant Solutions of the Two-Dimensional Heat Equation

Narmanov Otabek Abdigapparovich.

Algorithms and Mathematical Modeling Tashkent University of Information Technologies
Tashkent, Uzbekistan;
otabek.narmanov@mail.ru

This study focuses on the symmetry analysis and invariant solutions of the two-dimensional heat equation. Lie group methods are applied to identify symmetries and reduce the governing partial differential equation to simpler forms. The obtained invariant solutions provide valuable insights into heat distribution and diffusion processes. The results can be applied to mathematical modeling and analytical investigation of two-dimensional heat transfer problems[1-2].

Consider the two-dimensional heat equation

$$u_t=\sum_{i=1}^{2}\frac{\partial}{\partial x_i}(k_i(u)\frac{\partial u}{\partial x_i})\tag{1}$$

where $u=u(x_1,x_2,t)$-temperature function, $k_i(u)\ge 0$ function of the temperature. Symmetry groups and the Lie algebra of infinitesimal generators of the symmetry group for the two-dimensional and three-dimensional heat equation are found in The Lie algebra of infinitesimal

generators of the symmetry group for the one-dimensional heat-conduction equation is found in [1-2].

One of the Lie infinitesimal generators of the symmetry group for equation (2) is the vector field

$$X = x_1 \frac{\partial}{\partial x_1} + x_2 \frac{\partial}{\partial x_2} + 2t \frac{\partial}{\partial t}, \tag{2}$$

which generates the following group of symmetries of the space of variables (x_1, x_2, t)

$$(x_1, x_2, t) \to (x_1 e^S, x_2 e^S, te^{2S}),$$

with respect to which the solutions of equation (2) are invariant.It means if $u = u(x_1, x_2, t)$ -solution of equation (2),then for each s function $u = u(x_1 e^{-S}, x_2 e^{-S}, te^{-2S})$ are also solutions of equation (2).

The numerical integration of this equation shows that there is a point ξ_0, which depends on the initial values of the function $v(\xi)$ and its derivative $v'(\xi)$, such that the derivative of the function $v(\xi)$ is equal to zero: $v'(\xi) = 0$. When $\xi \to \xi_0$ function $v(\xi)$ gradually increases and tends to the value $v(\xi_0)$. Thus, when $\xi \to \xi_0$ the temperature is stabilized.

REFERENCES

1. **Narmanov Otabek Abdigapparovich.** *Lie algebra of infinitesimal generators of the symmetry group of the heat equation*, Journal of Applied Mathematics and Physics 2018,6,373-381..

2. **O.Narmanov and B.Diyarov** *Geometry of Vector Fields and Symmetry Groups of Heat Equation*, Palestine Journal of Mathematics 2025,14,1,746-753.

UDK 517.938

IKKI OLDINGI QADAMGA BOG‘LIQ MODIFIKATSIYALASHGAN LOGISTIK AKSLANTIRISH DINAMIKASI VA UNING JULIA–FATOU TO‘PLAMLARI

Nishonov S.N.[1]

[1]Termiz davlat universiteti, Fizika-matematika fakulteti, matematik analiz kafedrasi, 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43, O‘zbekiston; samad.nishonov@bk.ru

Kirish. Biologik populyatsiyalar sonining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini modellashtirishda klassik logistik akslantirishlar keng qo‘llaniladi. Ammo ko‘pgina real biologik sistemalarda (masalan, generatsiyasi ustma-ust keluvchi yoki resurslari cheklangan populyatsiyalarda) keyingi holat faqat joriy qadamga emas, balki undan oldingi ikkinchi qadamga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday sistemalarni ikkinchi tartibli ayirmali tenglamalar orqali modellashtirish va ularning Julia–Fatou to‘plamlari yordamida asimptotik xatti-harakatini klassifikatsiyalash usuli R.L. Devani tomonidan ishlab chiqilgan umumiy nazariyaga asoslanadi [1]. Xususan, ko‘p o‘lchovli kvadratik va kubik akslantirishlar uchun Julia va Mandelbrot to‘plamlarining analitik tavsifi, shuningdek ikki orollardagi bog‘liq populyatsiyalar evolyusiyasi R. Ganixo‘jayev va SH.J. Seytov ishlarida o‘rganilgan [2,3]. Mazkur tezis ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirib, oldingi ikkita qadamga bog‘liq modifikatsiyalashgan logistik akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtalari barqarorligini qayta hisoblash va natijalarni sonli bifurkatsiya taxlili bilan solishtirishga bag‘ishlangan.

Model. Modifikatsiyalashgan logistik akslantirish (ML) quyidagi ikkinchi tartibli ayirmali tenglama bilan beriladi:

$$x_n = \lambda \cdot x_{n-1}(1 - x_{n-2}), \tag{1}$$

bu yerda x_n – n-qadamda mavjud bo‘lgan populyatsiya sonining uning maksimal mumkin bo‘lgan qiymatiga nisbati, $\lambda > 0$ esa yashash sharoitini ifodalovchi boshqaruvchi parametr [3]. (1) ikkinchi tartibli tenglamani standart usulda $y_n = x_{n-1}$ almashtirish orqali quyidagi ikki o‘lchovli birinchi tartibli sistemaga keltiramiz:

$$\begin{cases} x_n = \lambda \cdot x_{n-1}(1 - y_{n-1}), \\ y_n = x_{n-1}. \end{cases} \tag{2}$$

(2) sistemani $F_\lambda(x, y) = (\lambda x(1 - y),\ x)$ akslantirish iteratsiyasi orqali o‘rganamiz.

Qo‘zg‘almas nuqtalar. $F_\lambda(x, y) = (x, y)$ shartidan $y = x$ va $x = \lambda x(1 - x)$, ya’ni $x\big(1 - \lambda + \lambda x\big) = 0$ tenglama kelib chiqadi. Bundan

$$fix(ML) = \Big\{(0, 0);\ \Big(1 - \frac{1}{\lambda},\ 1 - \frac{1}{\lambda}\Big)\Big\}$$

ekanligi topiladi, ikkinchi nuqta faqat $\lambda > 1$ da $(0, 1)$ oralig‘ida yotadi.

F_λ ning Yakobi matritsasi

$$J(F_\lambda)(x, y) = \begin{pmatrix} \lambda(1 - y) & 1 \\ -\lambda x & 0 \end{pmatrix}$$

ko‘rinishiga ega.

Tegishlilik nuqtasi $(0, 0)$ **dagi barqarorlik.** $(x, y) = (0, 0)$ da $J(F_\lambda)(0, 0) = \begin{pmatrix} \lambda & 1 \\ 0 & 0 \end{pmatrix}$ bo‘lib, xarakteristik tenglama $\mu(\mu - \lambda) = 0$ dan xos sonlar $\mu_1 = 0,\ \mu_2 = \lambda$ kelib chiqadi.

Teorema 1. $|\lambda| < 1$ bo‘lganda $(0, 0)$ qo‘zg‘almas nuqta barqaror (jalb qiluvchi), $|\lambda| > 1$ bo‘lganda esa noustuvor bo‘ladi.

Notrivial nuqta $\big(1 - \frac{1}{\lambda}, 1 - \frac{1}{\lambda}\big)$ **dagi barqarorlik.** $x = y = 1 - \frac{1}{\lambda}$ qiymatlarni Yakobi matritsasiga qo‘yib,

$$J = \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 - \lambda & 0 \end{pmatrix}$$

ni hosil qilamiz. Xarakteristik tenglama $\det(J - \mu I) = \mu^2 - \mu + (\lambda - 1) = 0$ ko‘rinishida bo‘lib, uning ildizlari

$$\mu_{1,2} = \frac{1}{2}\Big(1 \mp \sqrt{5 - 4\lambda}\Big) \tag{3}$$

dir. Yuqoridagi kvadrat tenglamaning izi $T = \mu_1 + \mu_2 = 1$ va aniqlovchisi $D = \mu_1\mu_2 = \lambda - 1$ ga teng. Diskret sistemalar uchun ikkinchi tartibli xarakteristik ko‘phadli ildizlarining birlik doira ichida yotishi uchun Shur–Kon (Jury) mezoni quyidagicha bo‘ladi: $|D| < 1$ va $|T| < 1 + D$. Bu shartlarni $T = 1,\ D = \lambda - 1$ uchun yozsak:

$$|\lambda - 1| < 1 \quad \Longrightarrow \quad 0 < \lambda < 2,$$

$$1 < 1 + (\lambda - 1) = \lambda \quad \Longrightarrow \quad \lambda > 1.$$

Ikkala shartning kesishmasi $1 < \lambda < 2$ ni beradi. Demak, notrivial qo‘zg‘almas nuqta aniq $1 < \lambda < 2$ da barqaror bo‘ladi. Bunda $1 < \lambda < 5/4$ da (3) diskriminanti $5 - 4\lambda > 0$ bo‘lib, xos sonlar haqiqiy (tugun tipidagi barqarorlik), $\lambda = 5/4$ da ular qo‘shilib $\mu_{1,2} = 1/2$ ga aylanadi,

$5/4 < \lambda < 2$ da esa diskriminant manfiy bo‘lib, xos sonlar kompleks qo‘shma ko‘rinishga o‘tadi va moduli

$$|\mu_{1,2}| = \sqrt{\lambda - 1}$$

formulasi bilan aniqlanadi (spiral tipidagi barqarorlik). Bu qiymat $\lambda = 2$ da aniq birga teng bo‘lib, aynan shu yerda Naimark–Saker tipidagi bifurkatsiya yuz beradi va nuqta barqarorligini yo‘qotadi. Shunday qilib, quyidagi aniqlashtirilgan natija o‘rinli:

Teorema 2*. Notrivial qo‘zg‘almas nuqta $1 < \lambda < 2$ da barqaror (bunda $1 < \lambda \leq 5/4$ da tugun, $5/4 < \lambda < 2$ da spiral tipida) va $\lambda > 2$ da noustuvor bo‘ladi.

Ushbu aniqlashtirilgan chegara $\lambda = 2$ – maqolada kompyuter yordamida qurilgan bifurkatsiya diagrammasidagi (1-rasm) tarmoqlanish nuqtasining joylashuvi bilan to‘liq mos keladi, chunki diagrammada $\lambda = 1$ dan $\lambda \approx 2$ gacha bo‘lgan oraliqda trayektoriya yagona egri chiziq bo‘ylab (ya’ni barqaror qo‘zg‘almas nuqtaga mos) o‘zgaradi va faqat $\lambda \approx 2$ dan keyin tarmoqlanish boshlanadi.

Davriy va xaotik rejimlar. $\lambda > 2$ da qo‘zg‘almas nuqta barqarorligini yo‘qotishi bilan period ikki karra ortish (period-doubling) kaskadi boshlanadi. Sonli tajribalar (2–6-rasmlar) shuni ko‘rsatadiki, $\lambda \in [2{,}18;\ 2{,}2]$ oralig‘ida akslantirish prim davri mos ravishda 6 va 7 ga teng barqaror davriy orbitalarga ega bo‘ladi, $\lambda \in [2{,}21;\ 2{,}211]$ oralig‘ida esa sistema xaotik trayektoriyalarga o‘tadi. Bu natija umumiy nazariy chegara $\lambda = 9/4 = 2{,}25$ atrofida xaosning boshlanishi haqidagi xulosaga yaqin bo‘lib, kaskadning tezlashgan (accumulation) xarakterini namoyon etadi va bir o‘lchovli logistik akslantirishlardagi period-ikkilantirish ssenariysiga o‘xshashligi [1] bilan izohlanadi.

Julia va Fatou to‘plamlari. $K \subset \mathbb{R}^2$ orqali (1) akslantirishning chegaralangan orbitaga ega barcha nuqtalaridan iborat to‘ldirilgan Julia to‘plami belgilanadi. Julia to‘plami $J = \partial K$ – K ning chegarasi, Fatou to‘plami esa $F = \mathbb{R}^2 \setminus K$ sifatida aniqlanadi [1]. Ushbu tushunchalar Koshi masalasi yechimlarining barqaror, noustuvor, davriy yoki xaotik xususiyatga ega ekanligini klassifikatsiyalash imkonini beradi: boshlang‘ich qiymat K ning ichki qismida bo‘lsa, trayektoriya chegaralangan bo‘lib, yuqorida topilgan barqaror qo‘zg‘almas yoki davriy nuqtaga intiladi; aks holda trayektoriya cheksizlikka ketadi yoki J atrofida xaotik xatti-harakat namoyon qiladi. Bunday yondashuv oldinroq ko‘p o‘lchovli kvadratik va kubik populyatsion modellar uchun [2,3] da muvaffaqiyatli qo‘llanilgan edi.

Xulosa. Mazkur tezisda oldingi ikkita qadamga bog‘liq modifikatsiyalashgan logistik model (1) ning qo‘zg‘almas nuqtalari barqarorligi Shur–Kon mezoni asosida qayta hisoblandi va notrivial qo‘zg‘almas nuqta uchun barqarorlik chegarasi aniq $\lambda = 2$ ekanligi ko‘rsatildi, bu natija bifurkatsiya diagrammasidagi sonli kuzatishlar bilan to‘liq mos keladi. λ parametri ortishi bilan model barqaror holatdan period-ikkilantirish orqali davriy (6 va 7 davrli orbitalar) va so‘ngra xaotik rejimga ($\lambda \gtrsim 2{,}21$) o‘tishi aniqlandi. Julia va Fatou to‘plamlari orqali olingan klassifikatsiya ekologiya va matematik biologiyada populyatsiya dinamikasini modellashtirishda, shuningdek Koshi masalasi yechimlarining uzoq muddatli xatti-harakatini bashorat qilishda amaliy ahamiyatga ega [2,3,1].

Literatura

1. **Devaney R.L.** *An Introduction to Chaotic Dynamical Systems.* – New York, 1989. – 336 p.
2. **Ganikhodzhayev R., Seytov Sh.J.** Coexistence chaotic behavior on the evolution of populations of the biological systems modeling by three dimensional quadratic mappings // Global and Stochastic Analysis. – 2021. – Vol. 8, No 3. – P. 41–45.
3. **Ganikhodzhayev R., Seytov Sh.J., Rakhimova N.K.** Mathematical modelling of the evolutions of the populations in the connected two islands // Problems of Computational and Applied Mathematics. – 2021. – №1(31). – P. 24–35.

УДК 519.711.3

Orr–Sommerfeld tenglamasi uchun chegaraviy masalani spektral-to‘r usuli bilan sonli modellashtirish

Normurodov Ch.B.[1], **Tursunova B.A.**[1], **Normamatov A.M.**[1]
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, Uzbekistan; ch.normurodov@gmail.com, tursunovabarno@tersu.uz

Bir fazali gidrodinamik sistemaning barqarorligini tadqiq qilishda asosiy masala sifatida Orr–Sommerfeld tenglamasi uchun xos son masalasini qaraymiz. U quyidagi differensial tenglama va bir jinsli chegaraviy shartlar bilan ifodalanadi:

$$\frac{1}{ik\mathrm{Re}}D^2\psi\left[\big(U(\eta)-\lambda\big)D+\frac{d^2U}{d\eta^2}\right]\psi=0,\qquad \eta_0<\eta<\eta_1, \tag{1}$$

bu yerda $D=\frac{d^2}{d\eta^2}-k^2$– differensial operator.

$$\psi(\eta_0)=\frac{d\psi}{d\eta}(\eta_0)=0,\qquad \psi(\eta_1)=\frac{d\psi}{d\eta}(\eta_1)=0. \tag{2}$$

Tenglama (1) da $U(\eta)$ – asosiy oqimning tezlik profili, η – asosiy oqimga ko’ndalang yo’nalishdagi koordinata, k – to’lqin soni, Re – Reynolds soni, $\psi(\eta)$ – qo’zg’alish amplitudasini ifodalovchi oqim funksiyasi, $\lambda=\lambda_r+i\lambda_i$ esa (1)–(2) masalaning kompleks xos soni bo’lib, λ_r va λ_i mos ravishda xos sonning haqiqiy va mavhum qismlaridir. Xos sonning mavhum qismi gidrodinamik qo’zg’alishlarning vaqt bo’yicha o’zgarishini belgilaydi. Xususan, $\lambda_i<0$ bo’lganda qo’zg’alishlar so’nadi va sistema barqaror bo’ladi, $\lambda_i>0$ bo’lganda qo’zg’alishlar kuchayadi va sistema nobarqaror holatga keladi. $\lambda_i=0$ holat neytral barqarorlikka mos keladi.

Masala (1)–(2)ni sonli yechishda spektral-to’r metodidan foydalanamiz. Integrallash oralig’ini

$$[\eta_0,\eta_1]=\bigcup_{j=1}^{N}[\eta_{j-1},\eta_j],\qquad l_j=\eta_j-\eta_{j-1},$$

ko’rinishda N ta elementga ajratamiz. Har bir $[\eta_{j-1},\eta_j]$ elementni $[-1,1]$ oraliqqa quyidagi almashtirish yordamida o’tkazamiz:

$$\eta=\frac{\eta_j+\eta_{j-1}}{2}+\frac{l_j}{2}y,\qquad -1\le y\le 1.$$

Bunda

$$\frac{d}{d\eta}=\frac{2}{l_j}\frac{d}{dy},\qquad \frac{d^2}{d\eta^2}=\frac{4}{l_j^2}\frac{d^2}{dy^2}.$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$D_j=\frac{d^2}{dy^2}-k_j^2,\qquad k_j=\frac{l_j}{2}k,\qquad Re_j=\frac{l_j}{2}Re.$$

Natijada har bir elementda (1) tenglama operator ko’rinishida quyidagicha ifodalanadi:

$$L_j\psi_j=0,\qquad j=1,2,\dots,N, \tag{3}$$

bu yerda

$$L_j = D_j^2 - ik_j Re_j \left[(U_j(y) - \lambda) D_j + \frac{d^2 U_j}{dy^2} \right].$$

Har bir elementdagi yechimni

$$\psi_j(y) = \sum_{n=0}^{p_j} a_n^{(j)} U_n(y), \qquad j = 1, 2, \ldots, N, \tag{4}$$

ko'rinishda izlaymiz, bu yerda $a_n^{(j)}$ noma'lum koeffitsientlar, $U_n(y)$ esa ikkinchi tur Chebyshev ko'phadlari bo'lib,

$$U_0(y) = 1, \qquad U_1(y) = 2y,$$
$$U_{n+1}(y) = 2yU_n(y) - U_{n-1}(y).$$

Ma'lumki,ikkinchi tur Chebyshev ko'phadlari $[-1, 1]$ oraliqda

$$w(y) = \sqrt{1 - y^2}$$

vazn funksiyasi bo'yicha ortogonal hisoblanadi. Shuning uchun qoldiqning bazis funksiyalarga ortogonalligi

$$(L_j \psi_j, U_n) = 0, \qquad n = 0, 1, \ldots, p_j - 4, \tag{5}$$

shart orqali talab qilinadi. To'rtinchi tartibli tenglama bo'lganligi sababli elementlar tutashgan nuqtalarda yechim va uning birinchi uchta hosilasi uzluksiz bo'lishi talab qilinadi:

$$\psi_j^{(t)}(+1) = \psi_{j+1}^{(t)}(-1), \qquad t = 0, 1, 2, 3, \tag{6}$$

$$\frac{d^t}{d\eta^t} = \left(\frac{2}{l_j} \right)^t \frac{d^t}{dy^t}. \tag{7}$$

Chegaraviy shartlar esa

$$\psi_1(-1) = 0, \qquad \frac{d\psi_1}{dy}(-1) = 0, \qquad \psi_N(+1) = 0, \qquad \frac{d\psi_N}{dy}(+1) = 0 \tag{8}$$

ko'rinishda yoziladi.

Galerkin shartlari, chegaraviy shartlar va elementlararo uzluksizlik shartlarini birlashtirish natijasida noma'lum spektral koeffitsientlarga nisbatan umumlashgan xos son masalasi hosil qilinadi:

$$(A - \lambda B)\mathbf{x} = 0, \tag{9}$$

bu yerda $\mathbf{x}$ barcha $a_n^{(j)}$ spektral koeffitsientlardan tuzilgan vektor, A va B esa sonli diskretlash natijasida hosil bo'lgan matritsalardir.

Shunday qilib,bazis funksiyalari sifatida ikkinchi tur Chebyshev ko'phadlari olingan spektral-to'r usuli gidrodinamik turg'unlikning xos son masalasini yuqori aniqlikda sonli tadqiq etish imkonini beradi. Hisoblangan xos sonning mavhum qismi λ_i oqim turg'unligini aniqlaydi: $\lambda_i > 0$ da oqim noturg'un, $\lambda_i < 0$ da turg'un, $\lambda_i = 0$ da esa neytral turg'unlik holati yuzaga keladi.

Adabiyotlar

1. **Нормуродов Ч.Б.** Об одном эффективном методе решения уравнения Орра–Зоммер -фельда // Математическое моделирование, Москва, 2005, -№ 9(17). -С.35-42.
2. **Normurodov Ch., Ziyakulova Sh.A., Murodov S.K.** On the highly accurate and efficient method for solving the biharmonic equation // International Journal of Applied Mathematics. – 2025. – Vol. 38, No. 4. – P. 437–453. DOI: http://dx.doi.org/10.12732/ijam.v38i4.1
3. **Normurodov Ch.B.,Tursunova B.A.** Numerical modeling of the eigenvalue problem for a linear ordinary differential equation with homogeneous boundary conditions using the second kind Chebyshev polynomials // AIP Conference Proceedings, 2024, Vol. 3004, Issue 1, 060034, https://doi.org/10.1063/5.0200331

УДК 519.632.4: 519.635.4

Uch o‘lchamli Puasson tenglamasi uchun Dirixle masalasini sonli modellashtirish

Normurodov Ch.B.[1], **Ziyakulova Sh.A.**[1]
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, Uzbekistan; ch.normurodov@gmail.com, shziyaqulova@gmail.com

To‘g‘ri parallelepipedli $\overline{D} = \{-1 \le x \le 1, -1 \le y \le 1, -1 \le z \le 1\}$ sohada Puasson tenglamasini

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial z^2} = -f(x,y,z), \tag{1}$$

Dirixle chegaraviy shartlari

$$\begin{gathered} u(-1,y,z) = 0, \quad u(1,y,z) = 0, \quad u(x,-1,z) = 0, \\ u(x,1,z) = 0, \quad u(x,y,-1) = 0, \quad u(x,y,1) = 0 \end{gathered} \tag{2}$$

bilan qaraymiz.

Ikki o‘lchamli Puasson tenglamasi uchun Dirixle chegaraviy masalasini yechishda dastlab integrallash metodining diskret variantidan foydalanib, samarali natijalarga erishilgan [2,3]. Ushbu natijalarni inobatga olgan holda, (1)–(2) differensial masalani sonli modellashtirishda ham dastlab integrallash metodining diskret variantidan foydalanamiz.

Tenglama (1) dagi xususiy hosilalar va uning o‘ng tomoni birinchi turdagi Chebishev ko‘phad -larining chekli qatori ko‘rinishida ifodalanadi:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = \sum_{i=0}^{N}{}' \sum_{j=0}^{M}{}' \sum_{q=0}^{R}{}' a_{ijq}^{(2x)} T_i(x) T_j(y) T_q(z), \qquad \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} = \sum_{i=0}^{N}{}' \sum_{j=0}^{M}{}' \sum_{q=0}^{R}{}' a_{ijq}^{(2y)} T_i(x) T_j(y) T_q(y),$$

$$\frac{\partial^2 u}{\partial z^2} = \sum_{i=0}^{N}{}' \sum_{j=0}^{M}{}' \sum_{q=0}^{R}{}' a_{ijq}^{(2z)} T_i(x) T_j(y) T_q(y), \quad f(x,y,z) = \sum_{i=0}^{N}{}' \sum_{j=0}^{M}{}' \sum_{q=0}^{R}{}' g_{ijq} T_i(x) T_j(y) T_q(z). \tag{3}$$

bu yerda $T_i(x), T_j(y), T_q(z)$ - birinchi turdagi Chebishev ko‘phadlari, yig‘indining yuqorisidagi shtrix belgisi $i = j = q = 0$ bo‘lganda qator koeffitsiyentlari a_{ijq}, g_{ijq} o‘zgarmas $\frac{1}{8}$ ga, $i = j = 0$,

$j = q = 0$ yoki $i = q = 0$ bo‘lgan hollarda o‘zgarmas $\frac{1}{4}$ ga, $i = 0$, $j = 0$ yoki $q = 0$ bo‘lsa o‘zgarmas $\frac{1}{2}$ ga ko‘paytirilishini anglatadi.

Qatorlar (3) ni tenglama (1) ga qo‘yib, ushbu tenglamani hosil qilamiz:

$$\sum_{i=0}^{N}{}'\sum_{j=0}^{M}{}'\sum_{q=0}^{R}{}'\left(a_{ijq}^{(2x)}+a_{ijq}^{(2y)}+a_{ijq}^{(2z)}\right)T_i(x)T_j(y)T_q(z)=-\sum_{i=0}^{N}{}'\sum_{j=0}^{M}{}'\sum_{q=0}^{R}{}'g_{ijq}T_i(x)T_j(y)T_q(z).$$

Ushbu tenglamada bir xil darajali ko‘phadlar oldidagi koeffitsientlar tenglashtirib, ushbu algebraik sistema hosil qilinadi

$$a_{ijq}^{(2x)}+a_{ijq}^{(2y)}+a_{ijq}^{(2z)}=-g_{ijq},\quad i=0,1,2,\ldots,N,\quad j=0,1,2,\ldots,M,\quad q=0,1,2,\ldots,R. \tag{4}$$

So‘ngra “x”, “y” va “z” o‘zgaruvchilar bo‘yicha tenglama (4) dagi hosilalar tartibini pasaytirish imkonini beradigan quyidagi birinchi tur Chebishev ko‘phadlari rekurrent formulalarini qo‘llaymiz:

$$\begin{aligned} a_{ijq}^{((k-1)x)}&=\frac{a_{i-1,j,q}^{(kx)}-a_{i+1,j,q}^{(kx)}}{2i},\quad a_{ijq}^{((k-1)y)}=\frac{a_{i,j-1,q}^{(ky)}-a_{i,j+1,q}^{(ky)}}{2j},\\ a_{ijq}^{((k-1)z)}&=\frac{a_{i,j,q-1}^{(kz)}-a_{i,j,q+1}^{(kz)}}{2q}. \end{aligned} \tag{5}$$

va dastlab integrallash metodi diskret variantidagi asosiy algebraik tenglama shakllantiriladi. Chegaraviy shartlar ham birinchi tur Chebishev ko‘phadlari qatori orqali ifodalanadi. Natijada asosiy algebraik tenglama va chegaraviy shartlardan hosil qilinadigan tenglamalar birgalikda masalaning taqribiy yechimdagi noma’lum koeffitsientlarni aniqlash uchun ushbu chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga keltiriladi:

$$Ax=b, \tag{6}$$

bu yerda A matritsa- $K\times K$ tartibli kvadrat matritsadan iborat, bunda $K=(N+1)\cdot(M+1)\cdot(R+1)$ bo‘lib, u noma’lumlarning umumiy soniga teng.

Bundan tashqari, ma’lum $f(x,y,z)$ funksiyaga asosan tenglama (4) ning o‘ng tomonidagi g_{ijq} koeffitsiyentlarni $x_l=\cos\frac{\pi l}{N},(l=0,1,\ldots,N),\quad y_k=\cos\frac{\pi k}{M},$

$(k=0,1,\ldots,M)$ va $z_p=\cos\frac{\pi p}{R},\quad (p=0,1,\ldots,R)$ Chebishev ko‘phadlarining

kollokatsiya tugunlarida hisoblash uchun quyidagi diskret teskari almashtirish formulasi o‘rinli

$$g_{ijq}=\frac{4}{MNc_ic_jc_q}\sum_{l=0}^{N}\sum_{k=0}^{M}\sum_{p=0}^{R}\left(\frac{1}{c_lc_kc_p}f(x_l,y_k,z_p)T_i(x_l)T_j(y_k)T_q(z_p)\right), \tag{7}$$

$i=0,1,\ldots,N,\ j=0,1,\ldots,M,\ q=0,1,\ldots,R$

bu yerda $c_m=1,\ m=1,2,\ldots,N-1,\quad c_t=1,\ t=1,2,\ldots,M-1$ va $c_s=1,\ s=1,2,\ldots,R-1$

hamda $c_0=c_N=c_M=c_R=2$. Differensial masala (1)–(2) ning taqribiy yechimi Chebishev ko‘phadlarining chekli qatori ko‘rinishida izlanadi

$$u_a(x,y,z)=\sum_{i=0}^{N}\sum_{j=0}^{M}\sum_{q=0}^{R}a_{ijq}T_i(x)T_j(y)T_q(z), \tag{8}$$

bu yerda $a_{ijq}(i = 0,1,\dots,N; j = 0,1,\dots,M; q = 0,1,\dots,R)$ noma'lum koeffitsiyentlar bo'lib, ularning umumiy soni $(N+1)(M+1)(R+1)$ ga teng. Sistema (6) ni yechish orqali $a_{ijq}(i = 0,1,\dots,N; j = 0,1,\dots,M; q = 0,1,\dots,R)$ koeffitsiyentlar aniqlanadi, so'ngra formula (8) yordamida taqribiy yechim $u_a(x_l, y_k, z_p)$ ning qiymatlari Chebishev ko'phadlarining kollokatsiya tugunlari (x_l, y_k, z_p) da hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. **Нормуродов Ч.Б.** Об одном эффективном методе решения уравнения Орра–Зоммер -фельда // Математическое моделирование, Москва, 2005, -№ 9(17). -С.35-42.
2. **Normurodov Ch., Ziyakulova Sh.A., Murodov S.K.** On the highly accurate and efficient method for solving the biharmonic equation // International Journal of Applied Mathematics. – 2025. – Vol. 38, No. 4. – P. 437–453. DOI: http://dx.doi.org/10.12732/ijam.v38i4.1
3. **Нормуродов Ч.Б., Шакаева Э.Э., Зиякулова Ш.А.** Дискретный вариант метода предварительного интегрирования и его применение к численному решению сингулярно возмущенного уравнения // Проблемы вычислительной и прикладной математики. – 2025. – № 2(64). – С. 74-86. DOI: https://doi.org/10.71310/pcam.2_64.2025.07

UDK 519.651; 519.652

CONSTRUCTION OF AN ALGEBRAIC-HYPERBOLIC NATURAL SPLINE IN $K_{2,v}^{(m)}$ AND ITS APPLICATION TO OPTIMAL QUADRATURE FORMULAS

Nuraliev F.A.[1,2], **Abdullaeva G.Sh.**[2,3]

[1]Toshkent International University, Tashkent, Uzbekistan;
[2]V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics, Uzbekistan Academy of Sciences, Tashkent, Uzbekistan;
[3]Cyber University, Nurafshon, Tashkent region, Uzbekistan;

e-mail: nuraliyevf@mail.ru, gulruxshukurillayevna@gmail.com

Abstract. In this work, an algebraic-hyperbolic natural interpolation spline of order $2m$ that minimizes a semi-norm in the Hilbert space $K_{2,v}^{(m)}(0,1)$ is investigated. By employing the discrete analog of the corresponding differential operator, the coefficients of the spline are determined explicitly. Furthermore, an optimal quadrature formula in the sense of Sard is derived by integrating the constructed natural spline. Numerical comparisons demonstrate that the error bounds of the derived quadrature formula coincide with those of the optimal quadrature formula in this space.

Keywords: Natural spline, discrete analog, optimal quadrature formula, Sobolev method, boundary conditions.

1. Introduction and problem statement. In numerical analysis and approximation theory, constructing interpolating splines and establishing their connection with optimal quadrature formulas is of fundamental importance. As established by I.J. Schoenberg [1], numerical integration of a natural spline that minimizes a prescribed semi-norm yields Sard's optimal quadrature formula.

In this work, we consider the Sobolev-type space associated with the differential operator $L = \frac{d^m}{dx^m} - v^2 \frac{d^{m-2}}{dx^{m-2}}$ $(v > 0)$:

$$K_{2,v}^{(m)}(0,1) = \left\{ \varphi : [0,1] \to \mathbb{R} \mid \varphi^{(m-1)} \text{ is abs. cont., } L\varphi \in L_2(0,1) \right\} \tag{1}$$

equipped with the following semi-norm:

$$\|f\|_{K_{2,v}^{(m)}} = \left(\int_0^1 (Lf(x))^2 dx \right)^{1/2} = \left(\int_0^1 \left(f^{(m)}(x) - v^2 f^{(m-2)}(x) \right)^2 dx \right)^{1/2}. \tag{2}$$

Let a uniform mesh $\Delta : 0 = x_0 < x_1 < \cdots < x_N = 1$ with step size $h = 1/N$ $(N \geq m-1)$ be given. We seek an interpolating function $S_{\Delta,m}(x) \in K_{2,v}^{(m)}(0,1)$ minimizing the functional (2) and satisfying interpolation conditions $S_{\Delta,m}(x_\beta) = f(x_\beta)$, $\beta = 0, 1, \ldots, N$.

2. Construction of the natural spline. The function that minimizes semi-norm (2) satisfies the Euler-Poisson differential equation $L^* L S_{\Delta,m}(x) = 0$:

$$\left(\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - 2v^2 \frac{d^{2m-2}}{dx^{2m-2}} + v^4 \frac{d^{2m-4}}{dx^{2m-4}} \right) S_{\Delta,m}(x) = 0, \quad x \in (x_i, x_{i+1}). \tag{3}$$

Theorem 1. *The algebraic-hyperbolic natural interpolation spline of order* $2m$ *that minimizes (2) has the explicit representation:*

$$S_{\Delta,m}(x) = \sum_{\gamma=0}^{N} C_\gamma G_m(x - x_\gamma) + d_1 \sinh(vx) + d_2 \cosh(vx) + \sum_{\alpha=0}^{m-3} p_\alpha x^\alpha, \tag{4}$$

where $G_m(x)$ *is the fundamental solution to the operator in (3):*

$$G_m(x) = \frac{\operatorname{sgn}(x)}{4v^{2m-1}} \left(vx \cosh(vx) - (2m-3) \sinh(vx) + 2 \sum_{k=1}^{m-2} \frac{(m-k-1)(vx)^{2k-1}}{(2k-1)!} \right), \tag{5}$$

and the unknown coefficients C_γ, d_1, d_2, p_α *are determined uniquely by the interpolation and orthogonality conditions:*

$K_{13} = K_{14} = 0$, $K_{15} = T^{n_1}$, $K_{21} = K_{22} = 1$, $K_{23} = K_{24} = 0$, $K_{25} = T^{n_2}$, $Q = T(T^{n_1-1}u - 2)$, $Q_T^{'} = n_1 T^{n_1-1}u - 2$, $P = T^{n_2+1}$, $P_u^{'} = 0$,$\chi_2(t) = \sin(1+t)$, $\xi_1(t) = e^{-t}$, $\xi_2(t) = e^{-(1+t)}$ qiymatlarida aniq yechimlari $T(x,t) = e^{-(x+t)}$ va $u(x,t) = \sin(x+t)$ ko'rinishda ma'lum bo'lgan hol uchun hisoblash eksperimentlari o'tkazildi. Ω sohani o'zgarmas qadamli diskret to'rga keltirish maqsadida a=0, b=1, $t_0 = 0$, $T^* = 1$, $m = n = 10$, $n_1 = 4$, $n_2 = 2$ va vaqt bo'yicha qatlamlar orasidagi chiziqlashtirish usullaridan foydalanishda iteratsion jarayonning yaqinlashishi uchun aniqlikni $\varepsilon = 0.001$ deb olindi. Nyuton usuli asosida chiziqlashtirish natijasida ($\mu_1 = \mu_2 = 1$) nisbiy xatoliklarning maksimal qiymati 1.58 dan oshmagan bo'lsa, Pikar usulida ($\mu_1 = \mu_2 = 0$) ushbu ko'rsatkich 2.08 dan yuqori bo'lmadi. Ushbu yondashuvda olingan natijalar Pikar usuli yordamida olingan natijalar bilan deyarli bir xil ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga, Nyuton usuli asosida olingan natijalarning aniqligi yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, aniq va taqribiy yechimlar o'rtasidagi absolyut hamda nisbiy xatoliklar qiymatlari ham taqdim etilgan.

Xulosa qilib aytganda, (1)–(5) ko'rinishida ifodalangan masalalarni sonli yechish uchun taklif etilgan algoritm, uning asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua hamda olingan hisoblash natijalari chiziqsizlikni hisobga oluvchi turli amaliy masalalarni yechishda samarali metodik asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Ishlab chiqilgan yondashuv va dasturiy vositalar mazkur turdagi masalalarni tadqiq etish, sonli hisoblashlarni amalga oshirish hamda olingan natijalarni tahlil qilish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. **Khaldjigitov, A. A., Kalandarov, A. A., Yusupov, Y. S.** *Coupled problems of thermoelasticity and thermoplasticity.* T."Fan va texnologiya",(2019). 203. 2. **Yusupov, Y. S.** *Numerical Solution of a TwoDimensional Dynamic Related Problem of Thermal Support.* Eurasian Journal of Engineering and Technology, 5,(2022). 125-134. 2. **Khaldjigitov, A. A., Yusupov, Y. S., Khudazarov, R. S., Sagdullaeva, D. A.** *On the thermoplasticity constitutive relations for isotropic and transversely isotropic materials.* International Journal of Mechanical and Production Engineering Research and Development (IJMPERD), 9(4),(2019). 467-478.

SONLI USULLARNING QO‘LLANILISHIDAGI AYRIM MUAMMO VA YECHIMLAR

Sh.R. Settiyev
dotsent, f-m.f.n.
shamsis@rambler.ru

D.N. Musurmonov
Perfect University, Toshkent shahri, O‘zbekiston
dilxushmusurmonov97@gmail.com

Annotatsiya. Tabiiy jarayonlarni tavsiflovchi masalalarni yechishda ko‘pincha sonli usulni to‘g‘ri tanlash masala bo‘yicha olingan natijalarning to‘g‘riligini ta’minlaydi. Olingan yechimning aniqligi esa, albatta, o‘rganilayotgan jarayonning matematik modelining qanchalik adekvatligiga bog‘liq.

Tayanch iboralar: sonli usullar, differensial tenglama, sonli hisoblash, turg‘unlik, yaqinlashish, chegaraviy shart.

Kirish

Tabiiy jarayonlarni tadqiq qilishda ko‘pincha matematik modellashtirish usullariga murojaat qilinadi. Ma’lumki, matematik modellashtirish natijasida xususiy hosilali differensial tenglama yoki xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasini hosil bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda olingan differensial tenglamalar analitik usullar yordamida yechilmaydi va biz ularni kompyuter yordamida yechishga majbur bo‘lamiz. Kompyuter yordamida yechishda sonli usullarni to‘g‘ri tanlash masala yechimining asosiy qismini beradi.

Ushbu ishda xususiy hosilali differensial tenglamalarni sonli usullar yordamida yechishning ba’zi jihatlari, ya’ni qiyinchiliklari va ularning yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Sonli usulni tanlash

Sonli usulni to‘g‘ri tanlash yechimning katta aniqlikda olinishini ta’minlab qolmasdan, balki mashina tiliga o‘tkazishni osonlashtiradi. Nostatsionar masalalarda shunday holatlar uchraydiki, ularda vaqt bo‘yicha bir o‘zgaruvchi tez, ikkinchisi esa juda sekin o‘zgaradi. Masalan, suyuqlikning kichik tezliklarida tub sirtida to‘lqin hosil bo‘lishi masalalarida suyuqlikning erkin sirti tez, tub sirti esa sekin o‘zgaradi. Bunday hollarda vaqt qadamini tanlash juda qiyin [1].

Ikki o‘lchovli va uch o‘lchovli masalalarda, agar masala imkon bersa, approksimatsiyalovchi funksiyalarni qo‘llash eng yaxshi usul hisoblanadi. Bu bizga hosilalarni qo‘lda hisoblash imkonini beradi. Agar chegaraviy shartlar davriy bo‘lsa, u holda approksimatsiyalovchi funksiyalarni tanlashning eng yaxshi usuli Furye qatorlari (trigonometrik qatorlar) hisoblanadi. Furye qatorlari teskari almashtirish bilan qo‘llanilganda juda qulay bo‘lib, hisob-kitoblarni sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi [2].

Sonli usulni tanlashda qo‘llaniladigan usulning turg‘unligi va yaqinlashishini hisobga olish kerak. Bu, ayniqsa, nostatsionar jarayonlarni ko‘rib chiqishda kerak. Sonli usulni tanlashning to‘g‘riligini tekshirish uchun bu qo‘llanilayotgan usulni aniq yechimi (test masalalari) mavjud bo‘lgan masalalarga qo‘llash va sonli usulning turg‘unligi hamda yaqinlashishi deb ataladigan

sifatlar bajarilishiga ishonch hosil qilish lozim. Test masalalari chiziqsiz hadlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Nostatsionar masalalarda vaqt bo‘yicha har bir qadamda chegaraviy shartlar, ya’ni Dirixle yoki Neyman sharti bajarilishi kerak. Bu yerda chegaraviy shartlarning chiziqli yoki nochiziqliligi muammo tug‘dirishi mumkin. Hamma vaqt ham bu muammoni muvaffaqiyatli yechib bo‘lavermaydi. Bu tadqiqotchidan mashaqqatli mehnat talab qiladi. Barchaga ma’lumki, chegaraviy shartlar vaqt bo‘yicha (iteratsiya) har bir qadamda hisoblash sohasi chegaralarida bajarilishi kerak.

Sonli hisoblashdagi muammolar

Endi sonli hisoblashlardagi navbatdagi qiyinchiliklarni ko‘rib chiqamiz. Bu qiyinchiliklar mashina nollari bilan bog‘liq. Ko‘pincha sonli hisob yuritishda hisoblash jarayoni uzilib qoladi. Buni tuzatish uchun, birinchidan, mos dasturlash tilini to‘g‘ri tanlash va ikkinchidan, integrallash sohasida tenglamalarning har bir hadining xatti-harakatini tekshirish kerak. Shunday qilib, biz sonli hisoblash qayerda uzilib qolganini aniqlashimiz va uni tuzatishimiz mumkin.

Nostatsionar jarayonlar o‘rganilganda, sonli hisoblash yetarlicha uzoq davom etadi. Bunday hollarda sonli usulning barqarorligiga e’tibor qaratish kerak, chunki hisoblash jarayonida xatolarning o‘sishi ularning cheksiz to‘planishiga va yakuniy natijaning to‘g‘riligini kamaytirishga olib keladi, bu esa matematik modelning adekvatligiga ta’sir qiladi. Usulning barqarorligi kirishdagi kichik buzilishlar chiqishdagi kichik buzilishlarga olib kelishini ta’minlaydi, ya’ni sonli yechimning ishonchliligini ta’minlaydi.

Xulosa

Sonli usulni tanlashda masalaning xususiyatlari, chegaraviy shartlar, usulning turg‘unligi va yaqinlashishi hamda hisoblash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni hisobga olish muhimdir. Ayniqsa, nostatsionar masalalarda vaqt qadamini to‘g‘ri tanlash va har bir iteratsiyada chegaraviy shartlarning bajarilishini ta’minlash yechimning ishonchliligini oshiradi. Shuningdek, test masalalari orqali sonli usulni tekshirish va hisoblash jarayonida xatolarning to‘planishini nazorat qilish zarur.

Adabiyotlar

1. **Aripov M.M., Rajabov J.S. va Settiyev Sh.R.** *Qumli tub ustidagi yopishqoq oqimli siqilmaydigan suyuqlikning matematik modellaridan biri haqida // Fizika jurnali: Konferentsiyalar seriyasi.2021-yil. Ser. 1902.*

1. **Fletcher K.** *Chislennye metody na osnove metoda Galerkina.Izd.: Mir, 1988. 353 b.*

УДК 517.984

FIVE-ELECTRON FIRST DOUBLET STATE IN THE IMPURITY HUBBARD MODEL

Tashpulatov S. M.[1] [1]Institute of Nuclear Physics of the Academy of Science of Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan; sadullatashpulatov@yandex.com

We consider the energy operator of five-electron systems in the Impurity Hubbard model and describe the structure of the essential spectra and discrete spectrum of the system for first doublet states in the $\nu-$ dimensional lattice. The Hamiltonian of the model has the form

$$H = A\sum_{m,\gamma} a^+_{m,\gamma}a_{m,\gamma} + B\sum_{m,\tau,\gamma} a^+_{m,\gamma}a_{m+\tau,\gamma} + U\sum_{m} a^+_{m,\uparrow}a_{m,\uparrow}a^+_{m,\downarrow}a_{m,\downarrow} + (A_0 - A)\sum_{\gamma} a^+_{0,\gamma}a_{0,\gamma} +$$

$$+(B_0 - B)\sum_{\tau,\gamma}(a^+_{0,\gamma}a_{\tau,\gamma} + a^+_{\tau,\gamma}a_{0,\gamma}) + (U_0 - U)a^+_{0,\uparrow}a_{0,\uparrow}a^+_{0,\downarrow}a_{0,\downarrow}. \quad (1)$$

Here A (A_0) is the electron energy at a regular (impurity) lattice site and B (B_0) is the transfer integral between electrons (between an electron and impurities) at neighboring sites; we assume for convenience that $B > 0$. Further, $\tau = \pm e_j$, $j = 1, 2, ..., \nu$, where e_j are pairwise orthogonal unit vectors, the summation is taken over the nearest neighbors, U (U_0) is the parameter of the on-site Coulomb interaction of two electrons in the regular (impurity) sites, γ is the spin index, $\gamma =\uparrow$ or $\gamma =\downarrow$, where $\uparrow$ and $\downarrow$ denote the spin values $\frac{1}{2}$ and $-\frac{1}{2}$, and $a^+_{m,\gamma}$ and $a_{m,\gamma}$ are the respective electron creation and annihilation operators at a site $z \in Z^\nu$.

Hamiltonian (1) commutes with all components of the total spin operator $S = (S^+, S^-, S^z)$, and the structure of eigenfunctions and eigenvalues of the system therefore depends on S. The Hamiltonian H acts in the antisymmetric Fo'ck space $\mathcal{H}_{as}$.

Let φ_0 be the vacuum vector in the space $\mathcal{H}_{as}$. The first doublet state corresponds to the free motion of five electrons and their interactions over the lattice with the basic functions ${}^1d^{1/2}_{p,q,r,t,k\in Z^\nu} = a^+_{p,\downarrow}a^+_{q,\downarrow}a^+_{r,\uparrow}a^+_{t,\uparrow}a^+_{k,\uparrow}\varphi_0, p, q, r, t, k, \in Z^\nu$. The subspace ${}^1\mathcal{H}^d_{1/2}$ corresponding to the first doublet state is the set of all vectors of the form ${}^1\psi^d_{1/2}\sum_{p,q,r,t,k\in Z^\nu} f(p,q,r,t,k){}^1d^{1/2}_{p,q,r,t,k\in Z^\nu}, f \in l^{as}_2$, where l^{as}_2 is the subspace of antisymmetric functions in the space $l_2((Z^\nu)^5)$. We let ${}^1H^d_{1/2}$ denote the restriction of operator H to the subspace ${}^1\mathcal{H}^d_{1/2}$. We set $\varepsilon_1 = A_0 - A$, $\varepsilon_2 = B_0 - B$ and $\varepsilon_3 = U_0 - U$.

Theorem 1. (coordinate representation of the action of operator ${}^1H^d_{1/2}$). The subspace ${}^1\mathcal{H}^d_{1/2}$ is invariant under the operator H, and the restriction ${}^1H^d_{1/2}$ of operator H to the subspace ${}^1\mathcal{H}^d_{1/2}$ is a bounded self-adjoint operator. It generates a bounded self-adjoint operator ${}^1\overline{H}^d_{1/2}$ acting in the space l^{as}_2 as

$${}^1\overline{H}^d_{1/2}{}^1\psi^d_{1/2} = 5Af(p,q,r,t,k) + B\sum_{\tau}[f(p+\tau,q,r,t,k) + f(p,q+\tau,r,t,k) + f(p,q,r+\tau,t,k) +$$

$$+f(p,q,r,t+\tau,k) + f(p,q,r,t,k+\tau)] + U[\delta_{p,r} + \delta_{q,r} + \delta_{p,t} + \delta_{p,t} + \delta_{q,t} + \delta_{q,k}]f(p,q,r,t,k) +$$

$$+\varepsilon_1[\delta_{p,0} + \delta_{q,0} + \delta_{r,0} + \delta_{t,0} + \delta_{k,0}]f(p,q,r,t,k) + \varepsilon_2\sum_{\tau}[\delta_{p,0}f(\tau,q,r,t,k) + \delta_{q,0}f(p,\tau,r,t,k) + \delta_{r,0}\times$$

$$\times f(p,q,\tau,t,k) + \delta_{t,0}f(p,q,r,\tau,k) + \delta_{k,0}f(p,q,r,t,\tau) + \delta_{p,\tau}f(0,q,r,t,k) + \delta_{q,\tau}f(p,0,r,t,k) + \delta_{r,\tau}\times$$

$$\times f(p,q,0,t,k) + \delta_{t,\tau}f(p,q,r,0,k) + \delta_{k,\tau}f(p,q,r,t,0)] + \varepsilon_3[\delta_{p,0}\delta_{r,0} + \delta_{p,0}\delta_{t,0} + \delta_{p,0}\delta_{k,0} + \delta_{p,0}\delta_{r,0} +$$

$$+\delta_{q,0}\delta_{r,0} + \delta_{q,0}\delta_{t,0} + \delta_{q,0}\delta_{t,0} + \delta_{q,0}\delta_{k,0}]f(p,q,r,t,k). \quad (2)$$

The operator ${}^1H^d_{1/2}$ acts on a vector ${}^1\psi^d_{1/2} \in {}^1\mathcal{H}^d_{1/2}$ as

$${}^1\psi^d_{1/2}{}^1\psi^d_{1/2} = \sum_{p,q,r,t,k\in Z^\nu}({}^1\overline{H}^d_{1/2}f)(p,q,r,t,k){}^1d^{1/2}_{p,q,r,t,k\in Z^\nu}. \quad (3)$$

Lemma 1. The spectra of the operators ${}^1H^d_{1/2}$ and ${}^1\overline{H}^d_{1/2}$ coincide.

Let $\mathcal{F} : l_2((Z^\nu)^5) \to L_2((T^\nu)^5) \equiv {}^1\widetilde{\mathcal{H}}^d_{1/2}$ be the Fourier transformation, where T^ν is the $\nu-$dimensional torus endowed with the normalized Lebesgue measure $d\lambda$, i.e., $\lambda(T^\nu) = 1$. We set ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2} = \mathcal{F}\,{}^1\overline{H}^d_{1/2}\mathcal{F}^{-1}$.

Theorem 2. (quasimomentum representation of the action of operator ${}^1H^d_{1/2}$). The Fourier transform of operator ${}^1\overline{H}^d_{1/2}$ is an operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ acting in the space $L^{as}_2((T^\nu)^5)$ be the formula

$$
\begin{aligned}
{}^1\widetilde{H}^d_{1/2}\,{}^1\psi^d_{1/2} &= \{5A + 2B\sum_{i=1}^{\nu}[\cos\lambda_i + \cos\mu_i + \cos\gamma_i + \cos\theta_i + \cos\eta_i]\}f(\lambda,\mu,\gamma,\theta,\eta) + \\
&+U[\int_{T^\nu} f(s,\mu,\lambda+\gamma-s,\theta,\eta)ds + \int_{T^\nu} f(\lambda,t,\mu+\gamma-t,\theta,\eta)dt + \int_{T^\nu} f(s,\mu,\gamma,\lambda+\theta-s,\eta)ds + \\
&+\int_{T^\nu} f(\lambda,t,\gamma,\mu+\theta-t,\eta)dt + \int_{T^\nu} f(s,\mu,\gamma,\theta,\lambda+\eta-s)ds + \int_{T^\nu} f(\lambda,t,\gamma,\theta,\mu+\eta-t)dt] + \\
&+\varepsilon_1[\int_{T^\nu} f(s,\mu,\gamma,\theta,\eta)ds + \int_{T^\nu} f(\lambda,t,\gamma,\theta,\eta)dt + \int_{T^\nu} f(\lambda,\mu,l,\theta,\eta)dl + \int_{T^\nu} f(\lambda,\mu,\gamma,u,\eta)du + \\
&+\int_{T^\nu} f(\lambda,\mu,\gamma,\theta,v)dv] + 2\varepsilon_2[\int_{T^\nu}\sum_{i=1}^{\nu}[\cos\lambda_i + \cos s_i]f(s,\mu,\gamma,\theta,\eta)ds + \int_{T^\nu}\sum_{i=1}^{\nu}[\cos\mu_i + \cos t_i]\times \\
&\times f(\lambda,t,\gamma,\theta,\eta)dt + \int_{T^\nu}\sum_{i=1}^{\nu}[\cos\gamma_i + \cos l_i]f(\lambda,\mu,l,\theta,\eta)dl + \int_{T^\nu}\sum_{i=1}^{\nu}[\cos\theta_i + \cos u_i]f(\lambda,\mu,\gamma,u,\eta)du + \\
&+\int_{T^\nu}\sum_{i=1}^{\nu}[\cos\eta_i + \cos v_i]f(\lambda,\mu,\gamma,\theta,v)dv] + \varepsilon_3\int_{T^\nu}\int_{T^\nu}[f(s,\mu,l,\theta,\eta)dsdl + f(s,\mu,\gamma,u,\eta)dsdu + \\
&+f(s,\mu,\gamma,\theta,v)dsdv + f(\lambda,t,l,\theta,\eta)dtdl + f(\lambda,t,\gamma,u,\eta)dtdu + f(\lambda,t,\gamma,\theta,v)dtdv]. \qquad (4)
\end{aligned}
$$

In the impurity Hubbard model, the spectral properties of the energy operator of five-electron systems are closely related to those of its two-particle subsystems (one-electron systems with impurity). We first study the spectrum and localized impurity electron states of one-electron impurity systems.

The change of the energy spectrum of operator one-electron system in the impurity Hubbard model in the case $\nu = 1, 2, 3$ given in [1] (Theorem 9), and we therefore do not give it here. According to the theorem 9 from [1], the spectrum of operator one-electron system in the impurity Hubbard model consists of a continuous spectrum and at most two eigenvalues. Now, using the obtained results, we describe the structure of the essential and discrete spectrum of the energy operator of five-electron systems in the impurity Hubbard model in first doublet state on the one-, two- and three-dimensional lattice $Z^\nu, \nu = 1, 2, 3$.

Here and hereafter We denote $E = \frac{B+\varepsilon_2)^2}{\varepsilon_2^2+2B\varepsilon_2}$.

Theorem 3. Let $\nu = 1$. When then have the following results.

1). If $\varepsilon_2 = -B$ and $\varepsilon_1 < -2B$ (respectively, $\varepsilon_2 = -B$ and $\varepsilon_1 > 2B$), then the essential spectrum of the operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ is the union of twelve segments (5):

$$
\begin{aligned}
&\sigma_{ess}({}^1\widetilde{H}^d_{1/2}) = [5A-10B, 5A+10B]\cup[4A-8B+z, 4A+8B+z]\cup[3A-6B+2z, 3A+6B+2z]\cup[2A- \\
&-4B+3z, 2A+4B+3z]\cup[A-2B+4z, A+2B+4z]\cup[3A-6B+z_4, 3A+6B+z_4]\cup[2A-4B+z+z_4, 2A+
\end{aligned}
$$

$+4B+z+z_4]\cup[A-2B+2z+z_4, A+2B+2z+z_4]\cup[3A-6B+z_3, 3A+6B+z_3]\cup[2A-4B+z+z_3, 2A+$
$+4B+z+z_3]\cup[A-2B+2z+z_3, A+2B+2z+z_3]\cup[A-2B+z_3+z_4, A+2B+z_3+z_4]$.
The discrete spectrum of operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ consists of four eigenvalues,

$$\sigma_{disc}({}^1\widetilde{H}^d_{1/2}) = \{5z, 3z+z_3, 3z+z_4, z+z_3+z_4,\} \tag{6}$$

where $z = A+\varepsilon_1$ and z_3 and z_4 are the additional eigenvalues of operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$.

2). If $\varepsilon_2 = -2B$ or $\varepsilon_2 = 0$ and $\varepsilon_1 < 0$ (respectively, $\varepsilon_2 = -2B$ or $\varepsilon_2 = 0$ and $\varepsilon_1 > 0$), then the essential spectrum of the operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ is the union of twelve segments (see formula (5)). The discrete spectrum of operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ consists of four eigenvalues (see formula (6)), where $z = A-\sqrt{4B^2+\varepsilon_1^2}$ (respectively, $z = A+\sqrt{4B^2+\varepsilon_1^2}$).

3). If $\varepsilon_1 = 0$ and $\varepsilon_2 > 0$ or $\varepsilon_1 = 0$ and $\varepsilon_2 < -2B$, then the essential spectrum of the operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ is the union of twenty eight segments:

$\sigma_{ess}({}^1\widetilde{H}^d_{1/2}) = [5A-10B, 5A+10B]\cup[4A-8B+z_1, 4A+8B+z_1]\cup[4A-8B+z_2, 4A+8B+z_2]\cup[3A-6B+$
$+2z_1, 3A+6B+2z_1]\cup[3A-6B+2z_2, 3A+6B+2z_2]\cup[3A-3B+z_1+z_2, 3A+3B+z_1+z_2]\cup[2A-4B+3z_1,$
$2A+4B+3z_1]\cup[2A-4B+3z_2, 2A+4B+3z_2]\cup[3A-6B+z_4, 3A+6B+z_4]\cup[2A-4B+z_1+z_4, 2A+$
$+4B+z_1+z_4]\cup[2A-4B+z_2+z_4, 2A+4B+z_2+z_4]\cup[A-2B+4z_1, A+2B+4z_1]\cup[A-2B+4z_2, A+2B+4z_2]\cup$
$\cup[A-2B+z_1+3z_2, A+2B+z_1+3z_2]\cup[A-2B+2z_1+2z_2, A+2B+2z_1+2z_2]\cup[A-2B+3z_1+z_2, A+2B+3z_1+$
$+z_2]\cup[A-2B+2z_1+z_4, A+2B+2z_1+z_4]\cup[A-2B+z_1+z_2+z_4, A+2B+z_1+z_2+z_4]\cup[2A-4B+z_2+z_3, 2A+$
$+4B+z_2+z_3]\cup[A-2B+z_1+z_2+z_3, A+2B+z_1+z_2+z_3]\cup[A-2B+2z_2+z_3, A+2B+2z_2+z_3]\cup[3A-6B+z_3,$
$3A+6B+z_3]\cup[2A-4B+z_1+z_3, 2A+4B+z_1+z_3]\cup[A-2B+2z_1+z_3, A+2B+2z_1+z_3]\cup[A-2B+2z_2+z_4, A+$
$+2B+2z_2+z_4]\cup[A-2B+z_3+z_4, A+2B+z_3+z_4]$. The discrete spectrum of operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ consists of sixteen eigenvalues,

$\sigma_{disc}({}^1\widetilde{H}^d_{1/2}) = \{5z_1, 4z_1+z_2, z_1+4z_2, 5z_2, 3z_1+2z_2, 2z_1+3z_2, 3z_1+z_4, 2z_1+z_2+z_4, z_1+2z_2+z_4, 3z_1+z_3, 3z_2+$
$+z_4, z_1+2z_2+z_3, 2z_1+z_2+z_3, 3z_2+z_3, z_1+z_3+z_4, z_2+z_3+z_4\}$, where $z_1 = A-\frac{2BE}{\sqrt{E^2-1}}$, $z_2 = A+\frac{2BE}{\sqrt{E^2-1}}$.

4). If $\varepsilon_1 > 0$ and $-2B < \varepsilon_2 < 0$, then the essential spectrum of the operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ is the union of four segments, and the discrete spectrum of the operator ${}^1\widetilde{H}^d_{1/2}$ is the empty set, $\sigma_{disc}({}^1\widetilde{H}^d_{1/2} = \emptyset$.

References

1. **Tashpulatov S.M.** *Spectra of the energy operator of two-electron system in the impurity hubbard model.*//Journal of Applied Mathematics and Physics.2022. vol. 10, PP. 2743-2779

УДК 517.9:004.4

MATEMATIK MAYATNIK TEBRANISH DAVRINING AMPLITUDAGA BOG‘LIQLIGINI MAPLE’DA TAHLIL QILISH

Tojiboyev I.T. [1], **Sharipova G.M** [2]
[1]**Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston;**
e-mail: ibroxim@gmail.com
[2]**Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston;**
e-mail: gulshanoysharipova27@gmail.com

Chiziqsiz differensial tenglamalar fizika, mexanika, biologiya va muhandislikdagi ko‘plab real jarayonlarni matematik modellashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday modellar uchun analitik yechimni yopiq ko‘rinishda olish ko‘pincha murakkab bo‘lib, ayniqsa kichik parametr, kuchli chiziqsizlik, qattiqlik va xaotik dinamika mavjud bo‘lgan hollarda sonli hisoblash zarur bo‘ladi. Shu sababli analitik va sonli yondashuvlarni yagona hisoblash muhitida birlashtirish amaliy jihatdan muhimdir. Ushbu tezisda Maple kompyuter algebra tizimida chiziqsiz modellarni Puankare-Lindshted, ko‘p vaqt shkalasi va Lie guruh usullari asosida analitik tadqiq etish hamda Runge–Kutta, RKF45 va BDF usullari yordamida sonli hisoblash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Natijalar analitik yaqinlashuvlarni sonli yechimlar bilan taqqoslash, xatolikni baholash va dinamik xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi [1-3].

Ma’lumki, kichik parametrli chiziqsiz model umumiy holda

$$L[x] + \varepsilon N[x] = 0, \qquad 0 < \varepsilon \ll 1, \tag{1}$$

ko‘rinishida qaraladi. Bunda Puankare–Lindshted usulida yechim va chastota parametr bo‘yicha qatorga yoyiladi. Umumiy xolda Duffing tipidagi

$$\ddot{x} + x + \varepsilon x^3 = 0, \qquad x(0) = A, \quad \dot{x}(0) = 0 \tag{2}$$

uchun Maple‘da yechim qatori avtomatik tuziladi va sekulyar hadlarni yo‘qotish sharti orqali chastota aniqlanadi. Birinchi yaqinlashuvda

$$x(t) = A\cos(\omega t) - \frac{\varepsilon A^3}{32}\cos(3\omega t) + O(\varepsilon^2), \tag{3}$$

$$\omega = 1 + \frac{3\varepsilon A^2}{8} - \frac{21\varepsilon^2 A^4}{256} + O(\varepsilon^3) \tag{4}$$

olinadi. Bu natija chiziqsizlik sababli tebranish chastotasining amplitudaga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mazkur hisoblashni Maple‘da avtomatlashtirish uchun ‘series‘, ‘coeff‘, ‘solve‘ va ‘dsolve‘ funksiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan, asosiy algoritmning qisqa ko‘rinishi quyidagicha beriladi:

Ko‘p vaqt shkalasi usulida esa $T_0 = t$, $T_1 = \varepsilon t$ kabi mustaqil o‘zgaruvchilar kiritilib, hosila zanjir qoidasi asosida yoyiladi:

$$\frac{d}{dt} = D_0 + \varepsilon D_1 + O(\varepsilon^2). \tag{5}$$

Van der Pol tenglamasi uchun sekulyar hadlarni yo‘qotish sharti amplituda tenglamasiga olib keladi:

$$\frac{da}{dT_1} = \frac{a}{2}\left(1 - \frac{a^2}{4}\right). \tag{6}$$

Shundan $a = 2$ barqaror limit sikl amplitudasi ekanligi kelib chiqadi. Maple‘dagi sonli integratsiya bilan ushbu xulosa turli boshlang‘ich amplitudalar uchun tekshirilishi mumkin.

Lie guruh tahlilida "DEtools[symgen]"funksiyasi differensial tenglamaning simmetriya generatorlarini topishga yordam beradi. Masalan,

$$y'' + y^3 = 0 \tag{7}$$

uchun simmetriyalar aniqlanib, tartibni kamaytirish va birinchi integralni topish imkoniyati yaratiladi. Demak, Maple analitik usullarni faqat hisoblash emas, balki algoritmlashtirish va natijani tekshirish vositasi sifatida ham qo‘llash imkonini beradi.

Analitik yechim mavjud bo‘lmagan yoki yaqinlashish faqat cheklangan vaqt oralig‘ida ishonchli bo‘lgan hollarda sonli usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda Runge–Kutta usullari qo‘llaniladi.

Ma’lumki klassik to‘rtinchi tartibli RK4 sxemasi

$$y_{n+1} = y_n + \frac{h}{6}(k_1 + 2k_2 + 2k_3 + k_4) \tag{8}$$

bu yerda

$$k_1 = f(t_n, y_n), \quad k_2 = f\left(t_n + \frac{h}{2}, y_n + \frac{h}{2}k_1\right),$$

$$k_3 = f\left(t_n + \frac{h}{2}, y_n + \frac{h}{2}k_2\right), \quad k_4 = f(t_n + h, y_n + hk_3),$$

ko‘rinishida bo‘lib, xatoligi $O(h^4)$ tartiba bo‘ladi [2].

Maple‘da "dsolve(...,type=numeric,method=rkf45)"orqali moslashuvchi bosqichli RKF45 algoritmidan foydalanish mumkin. RKF45 bir vaqtning o‘zida to‘rtinchi va beshinchi tartibli yechimlarni hisoblab, ularning farqi orqali xatolikni baholaydi:

$$e_{n+1} = y_{n+1}^{(5)} - y_{n+1}^{(4)}. \tag{9}$$

Bosqich o‘lchami esa berilgan aniqlik talabiga mos ravishda avtomatik o‘zgartiriladi.

Chiziqsiz tenglamalarda oddiy ochiq Runge–Kutta usullari juda kichik qadam talab qilishi mumkin. Bunday masalalarda BDF kabi yopiq usullar samaraliroqdir. Umumiy BDF sxemasi

$$\sum_{k=0}^{s} \alpha_k y_{n-k} = h\beta_0 f(t_n, y_n) \tag{10}$$

ko‘rinishida bo‘lib, har bir qadamda chiziqsiz algebraik tenglamani yechish talab etiladi. Maple‘da ‘stiff=true‘ parametri yordamida qattiq tizimlar uchun mos algoritm tanlanadi. Bu yondashuv tez va sekin jarayonlar bir vaqtda mavjud bo‘lgan kimyoviy kinetika kabi modellar uchun qulaydir.

Sonli hisoblashning muhim jihati – barqarorlikni nazorat qilishdir. $y' = \lambda y$ test tenglamasi uchun usulning barqarorlik $R(z)$, $z = h\lambda$ funksiyasi orqali $|R(z)| \leq 1$ shart aniqlanadi. RK4 uchun

$$R(z) = 1 + z + \frac{z^2}{2} + \frac{z^3}{6} + \frac{z^4}{24}.$$

Maple yordamida ushbu barqarorlik sohasini kompleks tekislikda vizualizatsiya qilish va tanlangan qadamning maqbulligini tekshirish mumkin.

Maple muhitining asosiy afzalligi turli usullar natijalarini bir xil parametrlar ostida bevosita taqqoslash imkoniyatidir. Duffing tenglamasi uchun Puankare–Lindshted yaqinlashuvi RKF45 sonli yechim bilan bir grafikda tasvirlanib, mutlaq xatolik

$$E(t) = |x_{an}(t) - x_{num}(t)| \tag{11}$$

ko‘rinishida hisoblanadi. Bunday qiyoslash analitik formuladan foydalanish mumkin bo‘lgan vaqt oralig‘ini aniqlashga xizmat qiladi. Kichik ε da analitik yaqinlashuv yetarlicha aniq bo‘lsa, vaqt oralig‘i yoki chiziqsizlik kuchayganda sonli usulning afzalligi ortadi.

Van der Pol tizimida esa sonli hisoblash fazodagi traektoriyasi va limit siklni aniqlash imkonini beradi. Turli boshlang‘ich shartlardan boshlangan trayektoriyalar $a = 2$ atrofidagi barqaror limit siklga yaqinlashishi ko‘p vaqt shkalasi natijasini tasdiqlaydi. Parametrning o‘zgarishini ketma-ket hisoblash orqali limit sikl amplitudasi va bifurkatsion xususiyatlarni ham tadqiq qilish mumkin. Poincare kesimi, Lyapunov ko‘rsatkichlari va fraktal o‘lcham kabi vositalar esa murakkab va xaotik dinamikaning sonli tavsifini beradi [3].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Maple muhitida chiziqsiz modellarni analitik va sonli usullar bilan kompleks tadqiq etish yagona hisoblash zanjiri sifatida tashkil qilinishi mumkin. Puankare–Lindshted usuli kichik parametrli tebranishlarda chastota va yechimning yaqinlashuvini aniqlashga, ko‘p vaqt shkalasi usuli uzoq vaqtli amplituda evolyutsiyasini tavsiflashga, Lie guruh tahlili esa tenglama simmetriyalaridan foydalanib tartibni kamaytirishga imkon beradi. Bu usullarni ‘series‘, ‘dsolve‘, ‘symgen‘, ‘firint‘ kabi Maple vositalari bilan avtomatlashtirish hisoblash jarayonini sezilarli soddalashtiradi [1].

Sonli bosqichda RK4 va RKF45 umumiy chiziqsiz oddiy differensial tenglamalar uchun, BDF esa chiziqsiz tizimlar uchun samarali vosita sifatida qaraladi. RKF45 ning moslashuvchi qadam mexanizmi aniqlik va hisoblash xarajati o‘rtasida muvozanat yaratadi. BDF usuli esa katta chiziqsizlik nisbatiga ega tizimlarda barqaror hisoblashni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, barqarorlik funksiyasini tekshirish, mutlaq xatolikni hisoblash va turli qadam o‘lchamlarida konvergensiyani solishtirish sonli natijalarning ishonchliligini baholash uchun zarurdir.

Amaliy hisoblash nuqtai nazaridan usul tanlash modelning tuzilishi va maqsadiga bog‘liq. Agar kichik parametr mavjud bo‘lib, yechimning analitik xususiyatlari muhim bo‘lsa, Puankare–Lindshted yoki ko‘p vaqt shkalasi usuli maqsadga muvofiqdir. Agar asosiy maqsad uzoq vaqtli dinamika, parametrik o‘zgarish yoki murakkab boshlang‘ich shartlarni o‘rganish bo‘lsa, RKF45 kabi moslashuvchi sonli usul afzal hisoblanadi. Chiziqsiz tizimlarda esa BDF yoki Rosenbrock tipidagi usullar barqarorlik talabini yaxshiroq qanoatlantiradi.

Shunday qilib, analitik va sonli usullarni Maple muhitida birlashtirish chiziqsiz differensial tenglamalarni tadqiq etishning samarali metodologiyasini shakllantiradi. Analitik yechim modelning matematik mazmunini ochib bersa, sonli hisoblash real parametrlar, uzoq vaqtli dinamika, barqarorlik va xaotik jarayonlarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuv matematik fizika, mexanika, muhandislik va boshqa amaliy sohalardagi chiziqsiz modellarni hisoblash va tahlil qilishda qo‘llanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. **Tojiboyev I.T., Sharipova G.M.** *Maple muhitida Vanderpol tenglamasining analitik va sonli tahlili.* -Farg‘ona: «FarDU ILMIY XABARLARI»,2026.

2. **Isroilov M.I.** *Hisoblash usullari.* -Toshkent: O‘zbekiston, 2003.


3. **Смирнов А.С., Булов С.А., Дегилевич Е.А.** *Построение и анализ нелинейных форм колебаний трехзвенного маятника асимптотическими методами.* Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Математика. Механика. Информатика. — 2024. — Т. 24, №4. — С. 598–610.

UDK: 625.111 : 625.12

Temir yo‘l egriliklarining o‘zgarishida elastik deformatsiyasidan foydalanish


Toshmatova M.M.[1], Shamsiyev M.[2]
[1],[2]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O’zbekiston;
toshmatova_mm@mail.ru

Ma’lumki [1], temir yo‘l gorizontal tekislikka nisbatan ko‘tarilishini, texnik talablariga ko‘ra har bir kilometrda 240 mmdan katta bo‘lmasligi zarur. Ammo temir yo‘l geografik joylashishiga bog‘liq holda, bazan bir necha metrga ko‘tarilishi kerak bo‘ladi. Bu ko‘tarilish odatda quyida keltirilgan sxema shaklida ko‘rsatiladi:



Bu rasmdagi $L-$ masofada H balandlikka ko‘tarilishi ko‘rsatilgan.

Temir yo‘l izining matematik jihatdan silliq va texnik talablarga javob beruvchi bo‘lishi uchun uning grafigi ushbu shaklda bo‘lishi maqsadga muvofiq ekanligi ko‘rsatilgan [2].




Bu holatda A, B nuqtalarda talab darajasidagi silliqlikka ega bo‘lish mumkin.

Biz $ACB-$ shaklni hosil qilishda temir yo‘l relsining tabiiy egriligi qobiliyatidan foydalanish imkonini o‘rganib chiqdik. Buning uchun, biz, avvalo bir uzunlik birligidagi (25m) rels bo‘lagini o‘z og‘irligi ta’sirida tabiiy egilish imkonini baholadik.

Tajriba uchun P65 tipdagi rels olindi. Bu relsni bir metrdagi massasi

$$m(q) = 64,9\ kg/m$$

elastiklik moduli $E = 2,1 \times 10^5 MPa$.



Bunda ushbu natijaga ega bo‘ldik. Relsning o‘z og‘irligi ta’sirida maksimal egilishi:

$$f_{\max} = \frac{5qL^4}{384 \cdot EI}$$

ga teng bo‘lar ekan [2].

Agar temir yo‘l o‘tish qismi klotoida shaklida bo‘lsa, klotoidaning uning uchlaridan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdan chetlanishi $d(s)$

$$d = \sin\frac{\alpha}{2}\int\limits_0^t \cos(\frac{\pi s^2}{2})ds - \cos\frac{\alpha}{2}\int\limits_0^t sin(\frac{\pi s^2}{2})ds.$$

tenglik bilan aniqlanar edi [3].

Taklif etilayotgan egri chiziq shaklida ko‘tarilish chizig‘i klotoida shaklida bo‘lsa, bu egri chiziqqa relsning tabiiy og‘irligiga bog‘liq egish yo‘li bilan erishish mumkin bo‘lar ekan, bunda $|f_{\max}| > d$ bo‘lishi ta’minlanadi.

Литература

1. **Вербило В.А., Кожедуб С.С.** *Основы проектирования однопутных железных дорог: учеб.-метод. пособие.* Гомель: БелГУТ, 2018. - 139 с.
2. **Демидов С.П.** *Теория упругости: учебник для вузов.* М.: Высш. школа, 1979. - 432 с.
3. **Artykbaev A., Toshmatova M.M.** *Geometric approach to define a railway plan model.* Bulletin of the Karaganda University. Mathematics Series, - 2024. - No. 3(115). - P. 26–33.

УДК 519.6

To‘rtinchi tartibli yupqa plyonka tenglamalari uchun avtomodel yechimlar nazariyasining rivojlanishi

To‘rayev Jo‘rabek Nurbek o‘g‘li [1]

[1]**Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi davlat universiteti; 0511jurabek@gmail.com**

Annotatsiya. Tezisda yupqa plyonka (thin liquid films) dinamikasini tavsiflovchi to‘rtinchi tartibli nochiziqli degeneratsiyalangan parabolik tenglamalar nazariyasining rivojlanish bosqichlari hamda avtomodel (self-similar) yechimlar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar sharhi keltirilgan. Maqolada klassik Navye–Stoks tenglamalaridan lubrication approximation (yupqa qatlam yaqinlashuvi) yordamida yupqa plyonka modelining keltirib chiqarilishi, tenglamaning matematik xususiyatlari hamda ushbu sohada xalqaro miqyosda olib borilgan fundamental tadqiqotlar tahlil qilingan. Xususan, F. Bernis, A. Friedman, A. Oron, S.H. Davis, R.V. Bankoff, A.L. Bertozzi, M.P. Pugh, G.I. Barenblatt, J.R. King va V.A. Galaktionov kabi olimlarning nazariy va amaliy natijalari o‘zaro taqqoslanib, sohadagi ochiq ilmiy muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yupqa plyonka tenglamalari, lubrication approximation, degeneratsiyalangan parabolik tenglamalar, avtomodel yechimlar, oraliq asimptotikalar, erkin chegara.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi amaliy matematika, fizikaviy modellashtirish va muhandislikning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, yuqori tartibli degeneratsiyalangan parabolik tenglamalar bilan tavsiflanadigan yupqa suyuqlik qatlamlari (thin liquid films) dinamikasini tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunday modellar mikro- va nanoo‘lchamli texnologiyalar, biologik tizimlar, qoplama (coating) jarayonlari, mikrofluidika, optik qurilmalar hamda materialshunoslik kabi ko‘plab sohalarda uchraydi.

Yupqa plyonka nazariyasining shakllanishi klassik gidrodinamika qonunlariga, xususan, Navye-Stoks tenglamalariga borib taqaladi. Suyuqlik qatlamining qalinligi uning uzunligi yoki

kengligiga nisbatan juda kichik bo‘lgan hollarda maxsus asimptotik soddalashtirish – lubrication approximation (yupqa qatlam yaqinlashuvi) qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv natijasida uch o‘lchovli Navye – Stoks tizimi yuqori tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamaga keltiriladi. Bu usul Reynolds tomonidan moylash nazariyasini ishlab chiqishda asoslangan bo‘lib, keyinchalik Oron, Davis va Bankoff tomonidan yupqa plyonkalar uchun tizimli ravishda rivojlantirilgan. Yupqa plyonka tenglamalari odatda quyidagi umumiy ko‘rinishda yoziladi:

$$\frac{\partial u}{\partial t} + \nabla \cdot (u^n \nabla \Delta u) = 0,$$

bu yerda $u(x,t)-$ plyonka qalinligi, n esa fizik mexanizmni tavsiflovchi parametr hisoblanadi. Mazkur model sirt tarangligi, yopishqoqlik va boshqa fizik omillarning o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. Ayrim fizik jarayonlarda tenglamaga gravitatsiya, bug‘lanish, termo-kapillyar kuchlar yoki tashqi manbalarni ifodalovchi qo‘shimcha hadlar ham kiritiladi.

Mazkur tenglamalarning asosiy matematik xususiyati ularning to‘rtinchi tartibli, nochiziqli va degeneratsiyalangan bo‘lishidadir. Shu sababli bunday tenglamalar uchun klassik parabolik tenglamalar nazariyasini bevosita qo‘llash mumkin emas. Degeneratsiya tufayli yechimlarning mavjudligi, yagonaligi, musbatligi, silliqligi va erkin chegara (free boundary) xossalarini tadqiq etish murakkab matematik muammolarni yuzaga keltiradi.

1980–1990-yillardan boshlab yupqa plyonka tenglamalari nazariyasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, Bernis va Friedman tomonidan degeneratsiyalangan to‘rtinchi tartibli parabolik tenglamalar uchun kuchsiz yechimlarning mavjudligi va ayrim sifat xossalari isbotlandi. Mazkur natijalar keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘ldi. Shundan so‘ng King, Bertozzi, Pugh, Witelski, Galaktionov, Giacomelli va boshqa olimlar tomonidan avtomodel yechimlar, erkin chegaralar, uzilish (rupture), dewetting jarayonlari, sonli modellashtirish va asimptotik tahlil bo‘yicha ko‘plab ilmiy natijalar olindi.

Yupqa plyonka tenglamalari nazariyasining rivojlanishida avtomodel (self-similar) yechimlar alohida o‘rin egallaydi. Bunday yechimlar murakkab xususiy hosilali differensial tenglamalarni oddiy differensial tenglamalarga keltirish imkonini beradi hamda yechimlarning uzoq vaqtli xatti-harakatini, massaning tarqalish qonuniyatlarini, oraliq asimptotikalarni va kritik rejimlarni tahlil qilishda samarali vosita hisoblanadi. Barenblatt tomonidan ishlab chiqilgan oraliq asimptotikalar nazariyasi keyinchalik ko‘plab evolyutsion tenglamalar, jumladan yupqa plyonka tenglamalari uchun ham muvaffaqiyatli qo‘llanildi.

Yupqa plyonka tenglamalarining matematik modeli va uning fizik asoslari. Yupqa suyuqlik qatlamlari harakati gidrodinamikaning klassik qonunlari asosida tavsiflanadi. Umumiy holda suyuqlikning harakati Navye–Stoks tenglamalari va massa saqlanish qonuni orqali ifodalanadi. Biroq ko‘plab amaliy jarayonlarda suyuqlik qatlamining qalinligi uning gorizontal o‘lchamlariga nisbatan juda kichik bo‘ladi. Bunday hollarda uch o‘lchovli modelni bevosita yechish katta hisoblash resurslarini talab qiladi.

Lubrication approximation g‘oyasiga ko‘ra, agar

$$\varepsilon = \frac{H}{L} << 1$$

bo‘lsa ($H-$ plyonkaning xarakterli qalinligi, $L-$ uning uzunlik bo‘yicha xarakterli o‘lchami), vertikal yo‘nalishdagi tezlik komponentlari gorizontal komponentlarga nisbatan ancha kichik bo‘ladi. Natijada Navye–Stoks tenglamalaridagi ayrim hadlarni kichik parametr ε bo‘yicha tashlab yuborish mumkin. Asimptotik soddalashtirishdan so‘ng suyuqlikning uch o‘lchovli harakat tenglamalari bitta evolyutsion tenglamaga keltiriladi. Sirt tarangligi asosiy fizik omil

bo‘lgan hol uchun klassik yupqa plyonka tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial u}{\partial t} + \nabla \cdot (\frac{u^3}{3\mu} \nabla p) = 0,$$

bu yerda $u\,(x,t)-$ plyonka qalinligi, $\mu-$ dinamik yopishqoqlik, $p-$ bosim. Agar bosim sirt tarangligi orqali aniqlansa ($p = -\sigma \Delta u$, $\sigma-$ sirt taranglik koeffitsienti, $\Delta-$ Laplas operatori), model quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\frac{\partial u}{\partial t} + \nabla \cdot (\frac{\sigma u^3}{3\mu} \nabla \Delta u) = 0,$$

Eng ko‘p uchraydigan umumlashtirilgan model esa: $u_t + \nabla \cdot (u^n \nabla \Delta u) = 0$, ko‘rinishida bo‘lib, bu yerda $n = 3$ Nyuton suyuqliklari uchun klassik modelni, boshqa qiymatlar esa sirpanish (slip), g‘ovak muhit yoki quvvat qonuniga bo‘ysunuvchi (power-law) suyuqliklarni tavsiflaydi.

Modelning asosiy matematik xususiyatlari:

1. To‘rtinchi tartiblilik: Yuqori tartibli spatial hosilalar qatnashishi tufayli ikkinchi tartibli parabolik tenglamalardan farq qiladi.

2. Nochiziqlilik: Diffuziya koeffitsientining yechimning o‘ziga bog‘liqligi sababli superpozitsiya prinsipi bajarilmaydi.

3. Degeneratsiyalanganlik: $u = 0$ bo‘lganda $u^n = 0$ bo‘lib, diffuziya koeffitsienti nolga tenglashadi. Bu esa erkin chegara (free boundary) paydo bo‘lishiga olib keladi.

Avtomodel yechimlar nazariyasining rivojlanishi va zamonaviy tadqiqotlar

Barenblattning oraliq asimptotikalar nazariyasi. G.I. Barenblatt (1950–1960) tomonidan asos solingan oraliq asimptotikalar (intermediate asymptotics) nazariyasi bo‘yicha evolyutsion jarayonlarda boshlang‘ich shartlar ta’siri vaqt o‘tishi bilan yo‘qoladi va yechim universal avtomodel shaklga keladi. Barenblatt avtomodel yechimlarni ikki turga ajratdi:

• Birinchi tur: O‘xshashlik ko‘rsatkichlari o‘lchamlar tahlili va saqlanish qonunlaridan topiladi.

• Ikkinchi tur: Ko‘rsatkichlar chegaraviy masalani yechish jarayonida aniqlanadi.

Kingning avtomodel yechimlar bo‘yicha ishlari. J.R. King to‘rtinchi tartibli nochiziqli tenglamalarni o‘xshashlik almashtirishlari yordamida oddiy differensial tenglamalarga keltirish orqali manba tipidagi (source-type) va kompakt tayanchli (compactly supported) yechimlarni hamda kontakt chizig‘i harakatini tahlil qildi. Galaktionovning yuqori tartibli nochiziqli tenglamalar nazariyasiga qo‘shgan hissasi. V.A. Galaktionov avtomodel yechimlarni funksional-analitik va spektral tahlil, bifurkatsiya hamda homotopiya usullari bilan boyitdi. U avtomodel yechimlarning ko‘pligi hamda tarmoqlanish (branching) hodisalarini ochib berdi.

Qiyosiy tahlil

• Barenblatt yondashuvi: Avtomodel rejimlarning fizik mazmuni va universal asimptotik ko‘rinishini yoritadi.

• King yondashuvi: Xususiy hosilali tenglamalarni oddiy differensial tenglamalarga keltirib, konkret matematik modellarni tahlil qilish imkonini beradi.

• Galaktionov yondashuvi: Funksional tahlil va spektral nazariya orqali sifat xossalarini chuqur tadqiq etadi.

Xulosa. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘rtinchi tartibli yupqa plyonka tenglamalarini o‘rganishda avtomodel yechimlar muhim va samarali vosita hisoblanadi. Biroq, mavjud ishlarning katta qismi faqat yechimlar mavjudligi yoki sonli hisoblashlarga qaratilgan. Yuqori tartibli nochiziqli modellar uchun yangi analitik avtomodel almashtirishlar qurish hamda hosil bo‘ladigan oddiy differensial tenglamalarning sifat tahlilini olib borish zamonaviy matematik fizikaning dolzarb ochiq muammolaridan bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. **Barenblatt, G. I.** *Scaling, Self-similarity, and Intermediate Asymptotics.* Nonlinear Analysis: Theory, Methods Applications, 1996.

2. **King, J. R.** *Self-similar behavior for critical-exponent thin-film equations.* European Journal of Applied Mathematics, 1996, 7(1), 1-28.

3. **Galaktionov, V. A., Slevinsky, R. M.** *On self-similar spectra for thin-film equations.* Nonlinear Analysis: Theory, Methods Applications, 2008, 68(8), 2210-2228.

УДК 532.546

VAQT BO'YICHA KO'P HADLI KASR HOSILALI DIFFUZIYA TENGLAMASI UCHUN TO'G'RI VA TESKARI MASALALAR

Xolliyev F.B.[1]

[1]**Kompyuter injiniring kafedrasi, Axborot texnologiyalari fakulteti, Termiz davlat universiteti, Barkamol avlod ko'chasi, 43, Termiz sh., Surxondaryo viloyati, 190111, O'zbekiston Respublikasi; e-mail: surxon88@bk.ru**

So'nggi yillarda fraktal tuzilishga ega bo'lgan g'ovak muhitlarda modda ko'chishi jarayonlarining murakkab va anomal xususiyatlarini adekvat ifodalovchi matematik modellarni ishlab chiqish-ga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday jarayonlarda moddaning tarqalish tezligi va dinamikasi klassik diffuziya qonuniyatlaridan farq qilishi sababli kasr tartibli differensial tenglamalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, xususiy hosilali differensial tenglamalarda ishtirok etuvchi kasr tartibli hosilalarning α, β_1 va β_2 tartiblarini tajriba yoki o'lchov ma'lumotlari asosida aniqlash muhim teskari masalalardan biridir. Mazkur yo'nalishdagi teskari masalalarni sonli yechish usullari yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, bu kasr tartibli modellar parametrlarini ishonchli identifikatsiya qilishning samarali algoritmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi [1, 2]. Modda ko'chishi vaqt bo'yicha ko'p hadli kasr hosilali diffuziya tenglamasi asosida tavsiflanadi:

$$\frac{\partial^\alpha c}{\partial t^\alpha} + \sum_{s=1}^{n} r_s \frac{\partial^{\beta_s} c}{\partial t^{\beta_s}} = D\frac{\partial^\gamma c}{\partial x^\gamma} + f(t,x), \tag{1}$$

bu yerda α, β_s $(s = \overline{1,n})$, γ — hosila tartiblari bo'lib, quyidagi oraliqda o'zgaradi: $0 < \beta_s < \cdots < \beta_1 < \alpha < 1$, $1 \le \gamma \le 2$.

Uch hadli holatda $n = 2, f = 0$ ko'rinishida soddaroq shaklga o'tkaziladi va boshlang'ich-chegaraviy masala quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial^\alpha c}{\partial t^\alpha} + r_1\frac{\partial^{\beta_1} c}{\partial t^{\beta_1}} + r_2\frac{\partial^{\beta_2} c}{\partial t^{\beta_2}} = D\frac{\partial^\gamma c}{\partial x^\gamma}, \tag{2}$$

$$c(0,x) = 0, \quad c(t,0) = c_0, \quad c(t,\infty) = 0.$$

Mazkur masala chekli ayirmalar usuli yordamida sonli yechildi. Hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, modeldagi hadlar sonining ortishi bilan konsentratsiyaning muhit bo'ylab tarqalish tezligi kamayadi. Xususan, bir hadli modelga nisbatan ko'p hadli modelda modda konsentratsiyasi-ning muhitda tarqalish jarayoni yanada sust kechadi. r_1, r_2 ortishi esa konsentratsiya profillarining yoyilishini yanada sekinlashtiradi.

Endi $\gamma = 2$ deb olib, α, β_1, β_2 tartiblarini aniqlash bo'yicha teskari masala qaraladi:

$$\frac{\partial^\alpha c}{\partial t^\alpha} + r_1 \frac{\partial^{\beta_1} c}{\partial t^{\beta_1}} + r_2 \frac{\partial^{\beta_2} c}{\partial t^{\beta_2}} = D \frac{\partial^2 c}{\partial x^2}. \tag{3}$$

Buning uchun (2) shartlardan tashqari x_l ($l = 1, 2, 3$) nuqtalardagi qo'shimcha (tajribaviy) ma'lumot beriladi:

$$c(t, x_l) = z_l(t), \quad t \in [0, T_{\max}], \quad l = 1, 2, 3. \tag{4}$$

Masala (4) ma'lumotlar asosida α, β_1, β_2 ni topishga, ya'ni quyidagi kvadratik funksionalni minimallashtirishga keltiriladi:

$$I(\alpha, \beta_1, \beta_2) = \sum_{l=1}^{3} \int_0^{T_{\max}} [c(t, x_l) - z_l(t)]^2 dt \approx \sum_{l=1}^{3} \sum_{j=0}^{M} \tau [c(t_j, x_l) - z_l(t_j)]^2, \tag{5}$$

bu yerda $c(t, x_l)$ — berilgan α, β_1, β_2 da (3), (2) masalaning chekli-ayirmali yechimi.

(5) funksionalni minimallashtirish uchun Nelder–Mid simpleks usuli qo'llaniladi [4]. Barcha hisoblashlar MATLAB muhitida bajarilgan: (3), (2) ning chekli-ayirmali sxemasi funksiya sifatida yozilib, Nelder–Mid algoritmini amalga oshiruvchi standart `fminsearch` protsedurasiga argument sifatida uzatiladi; boshlang'ich yaqinlashish $(\alpha^0, \beta_1^0, \beta_2^0)$, aniqlik esa `TolX`, `TolFun` parametrlari bilan beriladi. Usul barqarorligi kvazireal eksperiment orqali tekshiriladi [3, 4]: (3), (2) masala aniq $\alpha_{\text{exact}}, \beta_{1,\text{exact}}, \beta_{2,\text{exact}}$ da yechilib $z_l(t_j)$ topiladi.

$$z_l^\delta(t_j) = z_l(t_j) + 2\delta(\sigma(t_j) - 1/2), \quad \sigma(t_j) \in (0, 1), \quad l = 1, 2, 3, \tag{6}$$

bu yerda δ — xatolik darajasi; qo'zg'atilgan ma'lumotlarga (5) qo'llanilib tiklangan α, β_1, β_2 aniq qiymatlar bilan nisbiy xatolik orqali solishtiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, uch hadli kasr tartibli diffuziya tenglamasidagi α, β_1, β_2 tartiblarni nuqtaviy o'lchov ma'lumotlari asosida tiklash masalasi tadqiq etildi. Teskari masalani yechish uchun MATLAB muhitida `fminsearch` funksiyasiga asoslangan Nelder–Mid algoritmidan foydala-nildi. Kvazireal eksperimentlar natijasida qo'zg'atilgan ma'lumotlar sharoitida parametrlarni tiklash imkoniyati va hisoblash yondashuvining turg'unligi baholandi. Olingan natijalar mazkur yondashuvni kasr tartibli diffuziya modellarini identifikatsiya qilishda qo'llash mumkinligini ko'rsa-tadi. Kelgusida usulni ikki zonali fraktal g'ovak muhitlarda modda ko'chishi jarayonlarini tavsiflov-chi kasr tartibli modellarga kengaytirish ko'zda tutiladi.

Adabiyotlar

1. **Pavlenko I., Ochowiak M., Włodarczak S., Krupińska Z., Matuszak M.** *Parameter Identification of the Fractional-Order Mathematical Model for Convective Mass Transfer in a Porous Medium* // Membranes. - 2023. - Vol. 13. - P. 819.

2. **Gongsheng Li, Wenyi Liu, Xianzheng Jia, Zhiyuan Li.** *Unique identification of fractional orders in the fractional mobile-immobile solute transport system* // Applied Mathematics in Science and Engineering. - 2023. - Vol. 31, No. 1. - P. 2243375.

3. **Khuzhayorov B., Usmonov A., Kholliev F.** *Numerical Solution of Anomalous Solute Transport in a Two-Zone Fractal Porous Medium* // In: APAMCS 2022: Current Problems in Applied Mathematics and Computer Science and Systems. Springer, Cham. - 2023. - Vol. 702. - P. 98-105.

4. **Игумнов И.В., Куцый Н.Н.** *Применение метода Нелдера - Мида при настройке нейронных сетей, реализующих ПИД-закон регулирования* // Современные технологии. Системный анализ. Моделирование. - 2016. - № 1(49). - С. 90-95.

УДК 517.3

MORSHO TIPIDAGI KASR TARTIBLI HOSILA ASOSIDA XOTIRALI MASSA–PRUJINA–AMORTIZATOR TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA SONLI TADQIQ ETISH

[1]M.U. Yaxshiboyev, [2]M.M. Karimov
[1,2]Samarqand davlat universiteti, Samarqand, Òzbekiston
[1]m.yakhshiboev@gmail.com, [2]karimovmarat704@gmail.com

Ko'plab fizik, mexanik va texnik jarayonlarda tizimning joriy holati faqat ayni vaqtdagi tashqi ta'sirlarga emas, balki uning avvalgi holatlariga ham bog'liq bo'ladi. Bunday xususiyat xotira effekti deb ataladi [1,2]. Materiallarning viskoelastik xossalari, anomal diffuziya, murakkab tebranish jarayonlari, biologik tizimlar va ayrim boshqaruv jarayonlarida kuzatiladigan uzoq muddatli xotira hodisalarini klassik butun tartibli differensial tenglamalar yordamida yetarlicha aniq ifodalash har doim ham mumkin emas. Shu sababli xotiraga va nochiziqli vaqtga bog'liq jarayonlarni matematik modellashtirishda kasr tartibli differensial operatorlardan foydalanish so'nggi yillarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi [3].

Kasr tartibli differensial hisoblashning klassik differensial hisoblashdan asosiy farqlaridan biri shundaki, kasr tartibli hosila odatda lokal operator bo'lmay, funksiyaning ma'lum bir vaqt oraliǵidagi qiymatlari bilan bog'liq bo'ladi. Natijada kasr tartibli model tizimning hozirgi holatini uning oldingi holatlaridan ajratib qarash imkonini bermaydi. Aynan shu xususiyat kasr tartibli modellarni xotira effektiga ega fizik tizimlarni tavsiflash uchun tabiiy matematik vositaga aylantiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari Morsho kasr tartibli hosilasi yordamida mexanik tizimlarning uzoq muddatli xotira xususiyatlarini modelga kiritish imkoniyatini baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan sonli yondashuv kelgusida viskoelastik materiallar, xotirali mexanik tizimlar va boshqa kasr tartibli dinamik modellar uchun sonli tadqiqotlar olib borishda asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiq qilinayotgan matematik model

$$m\ddot{x}(t) + cD_M^{\alpha}x(t) + kx(t) = F(t), \qquad 0 < \alpha < 1 \tag{1}$$

ko'rinishga ega. Bu yerda m – massa, c – amortizatsiya koeffitsiyenti, k – prujina bikrligi, $x(t)$ – tizimning siljishi va $F(t)$ – tashqi kuch, D_M^{α} – α tartibli Morsho hosilasi.

Tenglama boshlang'ich shartlar

$$x(0) = x_0, \qquad \dot{x}(0) = v_0$$

va tarixiy shart

$$x(t) = \phi(t), \qquad t \le 0$$

bilan beriladi.

Mazkur tadqiqotning bazaviy hisoblash tajribasida

$$x_0 = 0, \qquad v_0 = 0, \qquad \phi(t) = 0$$

deb olinadi.

Hisoblash intervalini (1) tenglama uchun $0 \le t \le T$ deb olamiz va uni bir xil uzunlikdagi N ta vaqt oralig'iga bo'lamiz. Vaqt qadami

$$h = \frac{T}{N}$$

bo'ladi. Diskret vaqt nuqtalari

$$t_n = nh, \qquad n = 0, 1, \ldots, N$$

orqali belgilanadi. Funksiyaning ushbu nuqtalardagi qiymatini

$$x_n = x(t_n)$$

deb belgilaymiz. Shuningdek, $F_n = F(t_n)$ belgilashdan foydalanamiz.

Sonli hisoblash uchun unga mos Grünwald–Letnikov tipidagi diskret operatorni qo'ladillaymiz va quyidagi hisoblash formulasini hosil qilamiz:

$$x_{n+1} = 2x_n - x_{n-1} + \frac{h^2}{m}\left[F_n - \frac{c}{h^\alpha}\sum_{j=0}^{n} w_j^{(\alpha)} x_{n-j} - kx_n\right]. \tag{2}$$

Ushbu (2) formula Python dasturlash tilida dasturning asosiy rekurrent tenglamasi sifatida ishlatiladi.

Из таблицы видно, что при всех рассмотренных n дисперсия оценки F_n, учитывающей условие пропорциональности интенсивностей (1), устойчиво меньше дисперсии классической оценки Каплана–Мейера: выигрыш составляет 27–34% (отношение $Var(F_n)/Var(F_n^{KM}) \approx 1.27$–$1.34$), что численно подтверждает теоретическое неравенство (5)–(6) и иллюстрирует практическую ценность учёта информативности цензурирования при обработке данных типа конкурирующих рисков.

Полученные неравенства (3)–(6), подтверждённые численным экспериментом раздела 4, показывают, что оценка, построенная с учётом частичной-информативности цензурирования, асимптотически эффективнее классического непараметрического аналога Каплана–Мейера. Результаты могут быть использованы при численном моделировании и статистической обработке цензурированных данных в задачах анализа выживаемости и надёжности, где выбор вычислительно более точного метода оценивания параметра имеет практическое значение.

Литература

1. **Kaplan E.L., Meier P.** *Nonparametric estimation from incomplete observations.* J. Amer. Statist. Assoc. 1958. Vol. 53. p. 457–481.
2. **Prakasa Rao, B.L.S.** *Cramer-Rao inequality revisited for randomly censored data.* Proceedings of scientific – applied conf. "STATISTICS and its application -V". 17-19 oktober, 2019. Tashkent. p. 19-28.
3. **Abdushukurov A.A., Erisbaev S.A.** *On Fisher information function in competing risks model under random censoring from unobservation intervals and efficiency.* Bulletin of the Institute of Mathematics. 2022. Vol. 5, N 3, pp.13-19.
4. **Abdushukurov A.A., Erisbaev S.A.** *Influence of Informativeness of Censoring on the Efficiency of Parametrical Estimators.* Lobachevskii Journal of Mathematics, 2024, 45(4), p. 1544–1556.
5. **Abdushukurov A.A., Nurmukhamedova N.S., Erisbaev S.A.** *Fisher information contained in incomplete observations.* Industrial Laboratory. Materials Diagnostics, 2024, 90(7), p. 84-92.
6. **Abdushukurov, F. Abdikalikov, K. Begjanova, S. Erisbaev.** *Inequalities in the Informative Competing Risks Model.* Mathematics and Statistics, 14(2), 255-265.

6 – SHO‘BA. SUN’IY INTELLEKTNING ISTIQBOLLI TEXNOLOGIYALARI

СЕКЦИЯ 6. ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИСКУСТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

DIABETDA O‘Z-O‘ZINI KUZATISH MA’LUMOTLARI ASOSIDA YASHIRIN REJIMLARNI ANIQLASH UCHUN ALMASHINUVCHI AVTOREGRESSIV HOLAT-FAZO MODELI

Akbarov Baxriddin Xusniddin o‘g‘li
Aniq fanlar kafedrasi mudiri, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, O‘zbekiston
E-mail: bahriddin.akbarov@gmail.com
Akbarova Azizaxon Axmat qizi
Tayanch doktorant, Namangan davlat texnika universiteti, O‘zbekiston
E-mail: akbarovaaa1991@gmail.com

Kirish

Qandli diabetni boshqarish jarayonida generatsiya qilinadigan glyukoza va insulin dozasi bo‘icha o‘z-o‘zini kuzatish yozuvlari notekis, bemorga individual vaqt qatorlarini tashkil etadi, bunda bevosita kuzatilmaydigan latent dinamik rejim hech qanday tashqi klinik jihatdan tasdiqlangan yorliq bilan ta’minlanmaydi. Bunday yashirin rejimni tashqi klinik jihatdan tasdiqlangan yorliqlarsiz ma’lumotlardan aniqlash klassifikatsiya emas, balki latent o‘zgaruvchini baholash masalasidir. Latent o’zgaruvchilar dastlabki holatda bevosita kuzatish imkoni bo’lmagan o’zgaruvchilar hisoblanadi. Ushbu ishda diskret yashirin rejimni statik klasterlashdan (vaqt bog‘liqligini hisobga olmaydi) va standart emissiyali yashirin Markov modelidan (HMM, kuzatiluvchi vektorning oldingi vaqt nuqtasiga bevosita rejimga bog‘liq avtoregressiv bog‘lanishini modellashtirmaydi) farqli o‘laroq, kunlik dinamikaning o‘zi rejimga bog‘liq bo‘lgan almashinuvchi avtoregressiv holat-fazo modeli yordamida aniqlash taklif etiladi.

Matematik model

Kuzatiluvchi kattalik — kunlik olti o‘lchamli xususiyat vektori

$$y_t = [G_t, I_t, \bar{G}_t, \bar{I}_t, \Delta G_t, \Delta I_t]^T$$

(o‘rtacha glyukoza, jami insulin dozasi, ularning 7 kunlik siljuvchi o‘rtachalari va birinchi ayirmalari), yashirin kattalik esa diskret rejim $s_t \in \{1, \ldots, M\}$ hisoblanadi. Yetti kunlik siljuvchi o‘rtachalar va ayirmalar ketma-ket kuzatuvlar asosida hisoblandi; dastlabki oyna preprocessing bosqichida bir xil qoida bo‘yicha to‘ldirildi. Model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y_t = A_{s_t} \cdot y_{t-1} + w_t, \qquad w_t \sim N(0, Q_{s_t}),$$

$$P(s_t = j \mid s_{t-1} = i) = a_{ij},$$

bu yerda A_j – rejimga xos avtoregressiya matritsasi, Q_j – rejimga xos kovariatsiya, a_{ij} — o‘tish ehtimolligi. Parametrlar to‘plami Θ kuzatiluvchi ma’lumotning to‘liq ehtimollik funksiyasini maksimallashtirish yo‘li bilan, rejim ketma-ketligi kuzatilmaganligi sababli, forward–backward filtrlash-silliqlash rekursiyasiga asoslangan EM-algoritmi orqali baholanadi; regressiya matritsalari kichik ridge-regulyarizatsiya ($\lambda = 10^{-2}$) bilan vaznli kichik kvadratlar usulida qayta baholanadi.

Ma’lumotlar bazasi va taklif etilgan usul.

Tadqiqot UCI “Diabetes” (AIM’94) ochiq ma’lumotlar bazasidan (Kahn, 1994; DOI: 10.24432/C5T59G) foydalanadi 1988–1991-yillarda yig‘ilgan, 70 bemorning insulin dozasi va

glyukoza o‘lchovlari bo‘yicha xom hodisa jurnallari. Xom fayllar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta ishlandi: sana formati, hodisa kodlari va qiymatlarning raqamliligi tekshirildi, nostandart yozuvlar (masalan, o‘lchov diapazonidan tashqari “Hi”/“Lo” ko‘rsatkichlari, mavjud bo‘lmagan sanalar, buzilgan qatorlar) rad etildi va son jihatdan qayd etildi. Qamrov muddati ≥ 60 kun va ≥ 40 ta alohida glyukoza qayd etilgan kun mezoni asosida 70 bemordan 20 tasi tanlab olindi (jami 2189 bemor-kuni). Rejim uchun tashqi/klinik tasdiqlangan yorliq mavjud emasligi sababli, model ichki klasterlash sifati ko‘rsatkichlari (silhouette, Calinski–Harabasz, Davies–Bouldin), vaqt bo‘yicha barqarorlik (o‘rtacha turg‘unlik davomiyligi, o‘tishlar soni) va so‘nggi $\sim 20\%$ kuzatuv bo‘yicha bir qadamli oldindan aytish log-ehtimolligi asosida, K-means, PCA+K-means, Gauss HMM, bir bosqichli almashinuvchi baza modeli va sayoz avtokoduvchi+K-means bilan taqqoslandi; barcha usullar bir xil boshlang‘ich shart (K-means) va bir xil $M = 3$ rejim soni ostida moslashtirildi.

Hisoblash tajribasi va natijalar

Taklif etilgan model so‘nggi $\sim$ 20% kuzatuv bo‘yicha bir qadamli oldindan aytish log-ehtimolligi bo‘yicha Gauss HMM’ga nisbatan (median $-28,1$ ga qarshi $-171,8$; juftlashtirilgan Wilcoxon testi, $N = 20$, $p = 0,00059$, Holm tuzatilgan $p = 0,0023$) va bir bosqichli baza modeliga nisbatan (median $-37,9$; $p = 0,0266$) statistik jihatdan yuqori natija ko‘rsatdi, biroq silhouette ko‘rsatkichi bo‘yicha sof geometrik klasterlash usullaridan past chiqdi ($0,132 \pm 0,150$ ga qarshi K-means uchun $0,278 \pm 0,036$). Ko‘p martalik tekshiruv uchun barcha besh juft taqqoslash Holm tuzatishidan keyin ham bir xil xulosani qo‘llab-quvvatladi.

Bu – modelning geometrik jihatdan ixcham emas, balki vaqt bo‘yicha silliqlangan rejimlarni aniqlashining tabiiy natijasidir: model tomonidan aniqlangan yashirin rejimlarning vaqt bo‘yicha o‘rtacha turg‘unlik davomiyligi (5,96 kun) sof geometrik usullarnikidan ($\leq 2,6$ kun) sezilarli yuqori bo‘ldi – bu klinik davomiylik emas, balki model natijasi sifatida talqin etiladi. Glyukoza o‘rtacha qiymati bo‘yicha tartiblangan uchta rejim mos ravishda 143,6, 164,5 va 192,7 mg/dL o‘rtacha glyukoza hamda gipoglikemik va giperglikemik kunlar ulushi bo‘yicha monoton, tavsifiy gradient namoyon etdi; bu gradient klinik jihatdan tasdiqlangan kasallik bosqichlari sifatida emas, balki faqat tavsifiy assotsiatsiya sifatida talqin etiladi.

Qo‘shimcha additiv Gauss shovqini tajribasi shuni ko‘rsatdiki, kunlik rejim yorliqlari shovqinga sezgir: noise-free reference run tomonidan hosil qilingan rejim yorliqlariga nisbatan moslashtirilgan Rand indeksi (adjusted Rand index, ARI) 1,00 dan $\sigma = 0,05$ da 0,53 gacha va $\sigma = 0,30$ da 0,15 gacha pasaydi. Model esa 10 xil tasodifiy boshlang‘ich qiymat (seed) bo‘yicha o‘qitilganda takrorlanuvchanlikning qoniqarli darajasini ko‘rsatdi (o‘qitish log-ehtimolligining variatsiya koeffitsiyenti 7,3%).

Xulosa

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, diabetda o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlarida rejim-almashinuvchi dinamikani bevosita modellashtirish sof statik klasterlashga yoki standart emissiyali yashirin Markov modeliga nisbatan o‘lchanadigan oldindan aytish afzalligini beradi, biroq bu geometrik ajratilganlik hisobiga keladi – shu sababli baholash bir nechta mustaqil o‘lchov (geometrik, vaqtinchalik, prognozli) bo‘yicha olib borilishi zarur. Tadqiqot yagona ochiq ma’lumotlar bazasidagi 20 bemorga asoslangan bo‘lib, rejimlar soni ($M = 3$) oldindan belgilangan va rasmiy model tanlash mezoni bilan aniqlanmagan, tashqi klinik tasdiqlash esa mavjud emas.

Model klinik diagnostika, kasallik bosqichini aniqlash yoki β-hujayra faoliyati/insulin sezuvchanligini baholash vositasi emas – u faqat tavsifiy, gipoteza generatsiya qiluvchi tahlil vositasi sifatida taklif etiladi. Kelgusi tadqiqotlar zichroq uzluksiz glyukoza monitoringi ma’lumotlarida rejimlar sonini rasmiy model tanlash mezonlari asosida aniqlashga hamda tavsifiy glyukoza gradientini klinik jihatdan tasdiqlangan yorliqlar bilan solishtirishga qaratilishi lozim.

Adabiyotlar

1. **Ghahramani Z., Hinton G.E.** *Variational Learning for Switching State-Space Models* // Neural Computation. – 2000. –Vol. 12, No. 4. – P. 831–864.
2. **Rabiner L.R.** *A Tutorial on Hidden Markov Models and Selected Applications in Speech Recognition* // Proceedings of the IEEE. –1989. –Vol. 77, No. 2. – P. 257–286.
3. **Kalman R.E.** *A New Approach to Linear Filtering and Prediction Problems* // Journal of Basic Engineering. –1960. –Vol. 82, No. 1. – P. 35–45.
4. **Weir G.C., Bonner-Weir S.** *Five Stages of Evolving Beta-Cell Dysfunction During Progression to Diabetes* // Diabetes. – 2004. – Vol. 53, Suppl. 3. – P. S16–S21.
5. **Kahn M.** *Diabetes [Dataset].* UCI Machine Learning Repository, 1994. DOI: 10.24432/C5T59G.

UDK 004.8:004.932

REGISTON ANSAMBLI MADRASA DEVORLARINING YEMIRILISH DARAJASINI FRAKTAL O‘LCHOV VA SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA BAHOLASH

Anarova Sh.A.[1], Ibrohimova Z.E.[2], Ergasheva N.Q.[3]
[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston;
[2,3]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston;
Zuli117@mail.ru

Samarqandning tarixiy qismi “Samarkand – Crossroad of Cultures” nomi bilan UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Registon ansamblidagi Ulug’bek, Sherdor va Tillakori madrasalarining dekorativ sirtlari harorat, namlik, yog’in, shamol eroziyasi, tuz kristallanishi, seysmik va antropogen omillar ta’sirida yemiriladi. An’anaviy vizual nazorat subyektiv va mehnat talabchan bo‘lgani uchun kompyuter ko‘rishi orqali yoriq, qoplama yo‘qolishi va sirt deformatsiyalarini avtomatik aniqlash muhimdir [1]. Fraktal tahlil esa yoriqlarning tarmoqlanishi va geometrik murakkabligini miqdoriy ifodalaydi.



1-rasm. Registon devor bezagida yoriqlar va lokal qoplama yo‘qolishi.

Tadqiqotda frontal va lokal fragment tasvirlari olinadi; kalibrlangan marker yoki fotogrammetrik tayanch nuqtalar piksel o‘lchovlarini millimetrga o‘tkazishga xizmat qiladi. Rangli tasvir

$$I(x,y) = \{R(x,y),\, G(x,y),\, B(x,y)\}. \tag{1}$$

Bu yerda x, y – piksel koordinatalari, R, G, B – rang kanallari intensivligi. Tasvirlar perspektiv buzilishlardan tozalanib, yoritish va kontrast normallashtiriladi hamda 512×512 yoki 1024×1024 o‘lchamli ROI fragmentlariga ajratiladi.

Shikastlanishlarni aniqlash semantik segmentatsiya masalasi sifatida qaraladi:


$$f_\theta(I) \to M. \tag{2}$$

Bu yerda f_θ – parametrlari θ bo‘lgan neyron tarmoq, M – piksel darajasidagi segmentatsiya xaritasi. Piksellar sog’lom sirt, yoriq, koshin yo‘qolishi, eroziya, rang-tekstura buzilishi va namlik belgilariga ajratilishi mumkin. U-Net, Attention U-Net, DeepLabV3+ va SegFormer turidagi modellar mos keladi [2]. Model sifati ekspert maskasi M_{GT} va bashorat M_{PR} orqali baholanadi:

$$IoU = \frac{|M_{GT} \cap M_{PR}|}{|M_{GT} \cup M_{PR}|}. \tag{3}$$

$$Dice = \frac{2|M_{GT} \cap M_{PR}|}{|M_{GT}| + |M_{PR}|}. \tag{4}$$

IoU va $Dice$ ning 1 ga yaqin qiymatlari yuqori segmentatsiya aniqligini bildiradi. Ornament chiziqlari yoriqqa o‘xshashi mumkinligi sababli fraktal o‘lchov avvalo SI ajratgan yoriq maskasiga hisoblanadi.



2-rasm. Sun’iy intellekt va fraktal tahlil asosidagi diagnostika ketma-ketligi.

Box-Counting usulida binar yoriq tasviri ε o‘lchamli kvadratlarga ajratiladi, yoriqni o‘z ichiga olgan kataklar soni $N(\varepsilon)$ bilan belgilanadi. Fraktal o‘lchov [3]:

$$D_F = \lim_{\varepsilon \to 0} \frac{\log N(\varepsilon)}{\log(1/\varepsilon)}. \tag{5}$$

Raqamli tasvirda turli ε_i qiymatlar uchun

$$x_i = \log(1/\varepsilon_i), \qquad y_i = \log N(\varepsilon_i). \tag{6}$$

nuqtalari qurilib, chiziqli regressiya bajariladi:

$$y = a + D_F x. \tag{7}$$

Regressiya chizig’ining burchak koeffitsiyenti D_F yoriq tarmog’ining fraktal o‘lchovi bo‘lib, ikki o‘lchamli ingichka yoriq tarmog’i uchun

$$1 \le D_F < 2. \tag{8}$$

D_F ning 1 ga yaqinligi sodda, uning ortishi murakkabroq va zichroq tarmoqlanishni bildiradi.

SI aniqlagan shikastlangan piksellar soni N_d, jami piksellar soni N bo‘lsa, yemirilgan maydon koeffitsiyenti

$$A_d = \frac{N_d}{N}. \tag{9}$$

Foiz ko‘rinishida esa

$$P_d = \frac{N_d}{N} \times 100\%. \tag{10}$$

Masalan, 512×512 tasvirda $N = 262144$ va $N_d = 52429$ bo‘lsa,

$$P_d = \frac{52429}{262144} \times 100\% \approx 20.0\%. \tag{11}$$

Demak, fragment sirtining taxminan 20 foizi vizual shikastlanish belgisiga ega.

Koshin elementining yo‘qolishi naqshning lokal simmetriyasi, periodikligi va teksturasini buzadi. Etalon sog’lom fragmentning tekstura-fraktal ko‘rsatkichi D_R, tekshirilayotgan fragmentniki D_T bo‘lsa, nisbiy o‘zgarish

$$\Delta D = \frac{|D_T - D_R|}{D_R}. \tag{12}$$

Masalan, $D_R = 1.78$ va $D_T = 1.49$ bo‘lganda

$$\Delta D = \frac{|1.49 - 1.78|}{1.78} = 0.163. \tag{13}$$

Bu qiymat dekorativ strukturaning etalon fragmentga nisbatan sezilarli o‘zgarganini ko‘rsatadi. Ko‘rsatkich sog’lom geometrik ornamentning tabiiy murakkabligini hisobga olgan holda kalibrlanishi kerak.

Taklif etilgan yondashuv chuqur o‘qitish va fraktal geometriyani birlashtiradi: neyron tarmoq shikastlanishning joylashuvini, P_d zararlangan maydon ulushini, D_F esa yoriq tarmog’ining geometrik murakkabligini baholaydi. P_d kichik, ammo D_F yuqori bo‘lsa, lokal lekin kuchli tarmoqlangan yoriqlar mavjud bo‘lishi mumkin; P_d yuqori va D_F nisbatan past holat esa katta maydondagi qoplama yo‘qolishiga mos kelishi mumkin. Registonning murakkab ornamentlari sabab o‘quv bazasiga sog’lom va shikastlangan fragmentlarni turli yoritish sharoitlarida kiritish, annotatsiyalarni restavratorlar bilan tekshirish va modelni alohida madrasa hamda ornament turlarida sinash zarur. Periodik kuzatuvda bir xil rakurs va masshtabdagi tasvirlar yemirilish dinamikasini miqdoriy baholashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. **Elhariri E., El-Bendary N., Taie S.A.** *Automated Pixel-Level Deep Crack Segmentation on Historical Surfaces Using U-Net Models.* Algorithms. 2022;15(8):281. DOI: 10.3390/a15080281.
2. **Huang W.-C., Luo Y.-S., Liu W.-C., Liu H.-M.** *Deep Learning-Based Crack Detection on Cultural Heritage Surfaces.* Applied Sciences. 2025;15(14):7898. DOI: 10.3390/app15147898.
3. **Zhang F., Hu Z., Yang K., Fu Y., Feng Z., Bai M.** *The Surface Crack Extraction Method Based on Machine Learning of Image and Quantitative Feature Information Acquisition Method.* Remote Sensing. 2021;13(8):1534. DOI: 10.3390/rs13081534.

УДК 517.956.6

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARNI SUN’IY INTELLEKT VOSITASIDA O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

A.A. Avliyoqulov[1], N.X. Qurbonov[2]
Termiz davlat universiteti[1]; Termiz davlat pedagogika instituti[2]
avliyoqulov2017@gmail.com[1]

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya va sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilinib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’lim, innovatsiya, yoshlar va raqamli texnologiyalar haqidagi nutq va asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Yaqinda O‘zbekiston maktablarida sun’iy intellekt asosidagi ta’limni rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va istiqbolli yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. XXI asrda ta’lim tizimining rivojlanishi raqamli texnologiyalar, katta ma’lumotlar, bulutli

xizmatlar, virtual muhitlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda sun'iy intellekt oddiy axborot texnologiyasi sifatida emas, balki inson faoliyatining turli sohalarini, jumladan, ta'lim jarayonini tubdano‘zgartiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston ham mazkur global jarayondan chetda qolmay, raqamli iqtisodiyot, zamonaviy ta'lim va sun'iy intellektni rivojlantirishga ustuvor yo‘nalish sifatida qaramoqda. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ta'lim tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Maktab ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, muhandislik, axborot texnologiyalari va STEM yo‘nalishlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Umumta'lim maktablarini rivojlantirish,o‘qitish metodlarini yangilash, integrativ yondashuv vositasida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish zarurligi qayd etilgan. Bugungi bosqichda ushbu vazifalarni amalga oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish yangi metodikasini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2026-yil 7-avgustdagi taqdimotida mamlakatning sun'iy intellektga tayyorlik bo‘yicha xalqaro reytingdagio‘rnini yaxshilash, 2030-yilgacha ilg‘or 50 davlat qatoriga kirish hamda sun'iy intellekt asosidagi mahsulot va xizmatlar hajmini sezilarli darajada oshirish maqsadlari belgilangan. Shu nutq sun'iy intellekt nazardan, maktabo‘quvchilarini sun'iy intellekt vositasidao‘qitish masalasi nafaqat texnologik, balki pedagogik, metodik va ijtimoiy muammo sifatida ham dolzarbdir. Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosidao‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, ta'limni individuallashtirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishning istiqbolli mexanizmlarini aniqlashdan iborat. An'anaviy ta'lim modelidao‘quvchi ko‘pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli ta'lim esao‘quvchini axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash, qayta ishlash va yangi bilim yaratishga yo‘naltiradi. Raqamli ta'lim muhitining muhim xususiyati uning interaktivligi va individuallashtirilganligidir. Bunda elektron darsliklar, ta'lim platformalari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, test tizimlari, simulyatorlar va sun'iy intellekt asosidagi yordamchi dasturlar yagona ta'lim ekotizimini shakllantiradi.

O‘zbekistonda mazkur jarayon uchun zarur infratuzilma bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Umumta'lim maktablarda zamonaviy kompyuter xonalari, STEM-laboratoriyalar, muhandislik va texnologiya yo‘nalishlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgani buning amaliy ifodasidir. Raqamli muhitning keyingi bosqichi esa oddiy elektronlashtirishdan "aqlli ta'lim"modeligao‘tishdir. Bunda sun'iy intellekto‘quvchi faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, uning bilim darajasi, xatolari, qiziqishlari va o‘zlashtirish sur'atiga mos ta'limiy tavsiyalar bera oladi. An'anaviy darsda o‘qituvchi barchao‘quvchilarga bir xil topshiriq berishga majbur bo‘lishi mumkin. Sun'iy intellekt esa o‘quvchining avvalgi natijalarini tahlil qilib, unga murakkablik darajasi moslashtirilgan topshiriqlarni tavsiya qilishi mumkin.

O‘zbekistonda ta'limni sun'iy intellekt asosida rivojlantirish davlat siyosatining umumiy strategik maqsadlari bilan uzviy bog‘liq. Sun'iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallashi emas, balki uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishi kerak. Bunda o‘qituvchining kasbiy roli kamaymaydi, aksincha, mazmunan murakkablashadi. O‘zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirishga doir davlat siyosati ta'lim tizimining kelajakdagi transformatsiyasi uchun muhim zamin yaratmoqda. 2025-yilda sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha strategik hujjatlar qabul qilinib, zarur infratuzilma va kadrlar tayyorlash masalalariga e'tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun milliy sun'iy intellektni – ta'lim platformasini yaratish, o‘zbek tilidagi ta'limiy sun'iy intellektni modellarini rivojlantirish, pedagoglarning sun'iy intellektni kompetensiyasini oshirish, o‘quvchilarda sun'iy intellekt va axborot savodxonligini shakllantirish, akademik halollik

va ma'lumotlar xavfsizligi standartlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq etishda, avvalo, "raqamli ta'lim muhiti", "sun'iy intellekt asosidagi ta'lim", "adaptiv ta'lim", "intellektual tutorlik" va "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" tushunchalariningo'zaro nisbatini aniqlash muhimdir.

Raqamli ta'lim muhiti – bu ta'lim subyektlari, raqamli kontent, dasturiy vositalar, kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim platformalari va pedagogik metodlarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan yaxlit pedagogik tizimdir. Bunday muhitda o'quvchi faqat bilimni qabul qiluvchi emas, balki axborotni izlovchi, tahlil qiluvchi, qayta ishlovchi va yangi bilimni mustaqil shakllantiruvchi faol subyektga aylanadi. Sun'iy intellekt esa ushbu jarayonda "bilim beruvchi" emas, balkio'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi intellektual vosita sifatida ishlatilishi lozim. Sun'iy intellektni tizimi ma'lumot asosida o'quvchi uchun individual mashqlar ketma-ketligini shakllantiradi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan tashqari, ularning mustaqilligi, kreativligi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholash zarurligi asoslanadi.

Raqamli ta'lim muhiti – bu ta'lim subyektlari, raqamli kontent, dasturiy vositalar, kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim platformalari va pedagogik metodlarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan yaxlit pedagogik tizimdir. Sun'iy intellekt esa ushbu muhitning "aqlli" komponenti sifatida namoyon bo'lib, o'quvchining ta'limiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, o'quv materiallarini moslashtirish, tavsiyalar ishlab chiqish, o'zlashtirish dinamikasini aniqlash va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarni sun'iy intellekt texnologiyalari vositasida o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt ta'limni individuallashtirish, o'quvchining ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash, o'quv materiallarini moslashtirish, ta'lim natijalarini tahlil qilish va o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga joriy etilishi oddiy texnologik yangilanish emas, balki ta'lim paradigmasining transformatsiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh.M.** *Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kengaytiriladi.* Toshkent shahri. 01.12.2025 yil.
2. **Avliyoqulov A.** *V-VI sinflarda integrativ yondashuv asosida raqamli texnologiyar vositasidao'qitishning didaktik imkoniyatlari.* "Pedagogik akmeologiya"xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 7(24)-son. 2025 yil. Buxoro shahri. 256 bet.
3. **Avliyoqulov A.** *Elektron hisoblash mashinalari uchun dastur.*O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi guvohnomasi. №DGU 11512. 12.05.2021 yil.

UDK 004.8

SIYAM NEYRON TARMOQLARI YORDAMIDA QO'LYOZMA IMZOLARNI STATIK VERIFIKATSIYA QILISH USULI

Axundjanov Umidjon Yunus o'g'li[1], Mirzayev Muhammadjon Muhammadayub o'g'li[2]

[1] **PhD, dotsent, Farg'ona davlat texnika universiteti, Farg'ona, O'zbekiston**

[2] **Assistent, Farg'ona davlat texnika universiteti, Farg'ona, O'zbekiston; e-mail: 97muhammadjon97@gmail.com**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Siyam neyron tarmog‘idan foydalangan holda qo‘lyozma imzolarni verifikatsiya qilish yondashuvi taqdim etilgan. Tadqiqot imzolarning haqiqiyligini aniqlash uchun ularni samarali tahlil qilish va solishtirishga qodir bo‘lgan modelni ishlab chiqish hamda o‘qitishga qaratilgan. Metodologiya boshlang‘ich ma’lumotlarni tayyorlash va modelni keyingi bosqichda sinovdan o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Taklif etilayotgan usul yuridik va moliyaviy muassasalar kabi imzolarni aniq va tezkor verifikatsiya qilish muhim bo‘lgan tizimlarda qo‘llanilish salohiyatiga ega.*

Kalit so‘zlar: *Siyam tarmoqlari, imzo verifikatsiyasi, konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN), biometrik autentifikatsiya, kontrastiv yo‘qotish, chuqur o‘rganish, shakllarni tanish.*

Kirish.

Zamonaviy dunyoda qo‘lyozma imzolarni verifikatsiya qilish yuridik, bank sohalar va shaxsiy hujjatlar xavfsizligi va haqiqiyligini ta’minlashning muhim jihati bo‘lib qolmoqda. Ekspertlarning vizual baholashiga asoslangan an’anaviy verifikatsiya usullari xatoliklarga va subyektiv talqinlarga moyildir. Bu esa o‘z navbatida avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Machine learning and computer vision texnologiyalarining rivojlanishi bilan imzolarni verifikatsiya qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Bunday tizimlardan foydalanish ma’lumotlarga ishlov berish tezligi va aniqligini sezilarli darajada oshirishga, shu bilan birga inson omilini minimallashtirishga imkon beradi. Avtomatik verifikatsiyaning asosiy jihati tizimning haqiqiy va qalbaki imzolarni aniq farqlash qobiliyatidir.

Hozirgi vaqtda imzolarni verifikatsiya qilishning ikkita asosiy yondashuvi mavjud:

1) Dinamik verifikatsiya,

2) Statik verifikatsiya. Dinamik verifikatsiya imzo yaratish jarayonini real vaqt rejimida tahlil qilsa, statik verifikatsiya tayyor skanerlangan imzolar bilan ishlaydi. Ushbu tadqiqot aynan statik verifikatsiya usulini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, buning uchun Siyam neyron tarmoqlari imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Metodologiya va model arxitekturasi.

Siyam neyron tarmoqlari (Siamese Neural Networks) chuqur o‘qitish arxitekturalaridan foydalangan holda imzo tasvirlarini solishtirish vazifasiga o‘ziga xos yondashuvni taqdim etadi, chunki ular tasvirlar juftligidan belgilarni ajratib olish va solishtirishni o‘rganadi. Metodologiya bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi: ma’lumotlarni tayyorlash, modelni ishlab chiqish, o‘qitish va sinovdan o‘tkazish.

1. Ma’lumotlarni tayyorlash. Modelni samarali o‘qitish va testdan o‘tkazish uchun ma’lumotlar to‘plami quyidagi tartibda tayyorlandi:

- **Skanerlash va formatlash** — qo‘lyozma imzolar skanerlandi va barcha tasvirlar yagona o‘lchamga keltiriladi.
- **Ranglarni o‘zgartirish** — hisoblash murakkabligini kamaytirish maqsadida tasvirlar kulrang (grayscale) tuslariga o‘tkaziladi.
- **Juftliklarni shakllantirish** — ma’lumotlar to‘plami imzo juftliklaridan tashkil topgan bo‘lib, har bir juftlikka “haqiqiy” yoki “qalbaki” ekanligini ko‘rsatuvchi yorliq (label) biriktiriladi.
- **Balanslash** — o‘qitish jarayonida biror sinfga (haqiqiy yoki qalbaki) ustunlik berib yubormaslik uchun sinflar balansi ta’minlanadi.

2. Modelning umumiy arxitekturasi. Ushbu tadqiqotda imzolarni verifikatsiya qilish uchun chuqur o‘rganishga asoslangan Konvolyutsion Neyron Tarmog‘i (CNN) arxitekturasi tanlab olindi. Taklif etilayotgan model kirish ma’lumotlaridan iyerarxik xususiyatlarni ajratib olish va ularni ixcham vektor ko‘rinishiga keltirishga qaratilgan. Model ketma-ket (Sequential) arxitekturada qurilgan bo‘lib, u konvolyutsion qatlamlar (Convolutional layers), pooling qatlamlari (Max-Pooling layers) va to‘liq bog‘langan qatlamlardan (Dense layers) iborat.

Model quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

- **Konvolyutsion bloklar:** Har bir konvolyutsion qatlam kirish tasviridan fazoviy xususiyatlarni (qirralar, chiziqlar va murakkab geometrik shakllar) ajratib oladi. Dastlabki qatlamlarda umumiy xususiyatlar aniqlansa, chuqurroq qatlamlarda imzoga xos bo‘lgan nozik detallar tahlil qilinadi.

- **Aktivatsiya funksiyasi:** Har bir konvolyutsion qatlamdan so‘ng ReLU (Rectified Linear Unit) aktivatsiya funksiyasi qo‘llanilgan. ReLU funksiyasi tarmoqqa nochiziqli (non-linear) xususiyatlarni kiritadi, bu esa modelga murakkab qonuniyatlarni o‘rganish imkonini beradi. ReLU funksiyasi manfiy qiymatlarni nolga tenglashtirib, hisoblash tezligini va modelning o‘rganish samaradorligini oshiradi.

- **Pooling (Hajmni qisqartirish):** Max-Pooling qatlamlari xususiyatlar xaritasining (feature map) o‘lchamini kichraytiradi, bu esa ortiqcha ma’lumotlarni (noise) kamaytirishga va hisoblash yuklamasini optimallashtirishga xizmat qiladi.

- **Flatten va Klassifikatsiya:** Yakuniy qatlamlarda konvolyutsion qatlamlardan olingan ikki o‘lchovli xususiyatlar “Flatten” qatlami orqali bir o‘lchovli vektorga aylantiriladi va klassifikatsiya (yoki o‘xshashlikni aniqlash) qismiga uzatiladi.

Quyi tarmoqlarning chiqishlari Evklid masofasi yordamida belgilar vektorlari orasidagi masofani hisoblaydigan qatlam bilan birlashtiriladi. Ushbu qatlam natijasi ikkala imzo bir kishiga tegishli yoki har xil shaxslarga tegishli ekanligini klassifikatsiya qilish uchun ishlatiladi.

O‘qitish jarayoni va eksperimental natijalar.

Modelning o‘qitilish jarayoni Contrastive Loss (Kontrastiv yo‘qotish) funksiyasiga asoslangan bo‘lib, u juftlik asosidagi taqqoslash (pair-based learning) uchun eng samarali yechim hisoblanadi. Kontrastiv yo‘qotish funksiyasi bir shaxsga tegishli haqiqiy imzo juftliklari orasidagi evklid masofasini (Euclidean distance) minimallashtirishga, turli shaxslarga tegishli yoki qalbaki imzolar juftligi orasidagi masofani esa maksimallashtirishga xizmat qiladi.

Model parametrlari Adam (Adaptive Moment Estimation) optimizatori yordamida yangilanib borildi. O‘qitish jarayonida “Backpropagation” (teskari xatolikni tarqatish) algoritmi orqali model og‘irliklari (weights) ketma-ket optimallashtirildi, bu esa modelning imzo xususiyatlarini aniqlash aniqligini sezilarli darajada oshirdi. Eksperimentlar natijasida ishlab chiqilgan Siyam modeli imzo verifikatsiyasi jarayonida barqaror va yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Sinov (test) bosqichida model 88% umumiy aniqlik (accuracy) ko‘rsatkichiga erishdi.

Xulosa va cheklovlar.

Yuqori unumdorlikka qaramay, ba’zi cheklovlar mavjud. Insonning jismoniy holatidagi o‘zgarishlar yoki imzo qo‘yish sharoitlari imzo xususiyatlariga ta’sir qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar yanada takomillashtirilgan arxitekturalarni ishlab chiqishni va modelni real hujjatlarni verifikatsiya qilish tizimlariga integratsiya qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotlar

1. **Akhundjanov Umidjon, et al.** *Off-line handwritten signature verification based on machine learning* // E3S Web of Conferences. – Vol. 508. – EDP Sciences, 2024.
2. **Akhundjanov Umidjon, et al.** *Handwritten signature preprocessing for off-line recognition systems* // E3S Web of Conferences. – Vol. 587. – EDP Sciences, 2024.
3. **Starovoitov V. V., Akhundjanov U. Yu.** *A new feature for handwritten signature image description based on local binary patterns* // Informatika [Informatics]. – 2022. – Vol. 19, no. 3. – P. 1816-0301.
4. **Starovoitov V. V., Akhundjanov U. Yu.** *A new feature for handwritten signature image description based on local binary patterns* // Informatics. – 2022. – Vol. 19, No. 3.

UDC 004.85

LOGISTIC REGRESSION FOR BINARY CLASSIFICATION IN MACHINE LEARNING

Beshimov G. R.[1], Beshimova D. R.[2]
[1]Cyber University, Nurafshon, Uzbekistan;
gayratbeshimov@gmail.com
[2]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
Drbeshimova@gmail.com

Problem statement. Suppose that the following training data describe the relationship between study time x and examination result y:

x	1	2	3	4	5
y	0	0	0	1	1

(1)

where $y = 1$ means that the student passed the examination and $y = 0$ means that the student failed.

We consider the logistic regression model

$$P(Y = 1 \mid x) = p(x) = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 x)}}. \tag{2}$$

The main problem is to determine the parameters β_0 and β_1 and then predict the examination result of a student who studies for $x = 3.5$ hours.

Maximum likelihood formulation. For a binary observation $y_i \in \{0, 1\}$, the probability can be written as

$$P(Y_i = y_i) = p_i^{y_i}(1 - p_i)^{1-y_i}, \tag{3}$$

where

$$p_i = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 x_i)}}.$$

Therefore, the likelihood function for all observations is

$$L(\beta_0, \beta_1) = \prod_{i=1}^{5} p_i^{y_i}(1 - p_i)^{1-y_i}. \tag{4}$$

Taking logarithms gives

$$\ell(\beta_0, \beta_1) = \sum_{i=1}^{5} \left[y_i \ln p_i + (1 - y_i) \ln(1 - p_i) \right]. \tag{5}$$

Thus, maximizing the likelihood is equivalent to minimizing the cross-entropy loss

$$J(\beta_0, \beta_1) = -\sum_{i=1}^{5} \left[y_i \ln p_i + (1 - y_i) \ln(1 - p_i) \right]. \tag{6}$$

The first derivatives are

$$\frac{\partial J}{\partial \beta_0} = \sum_{i=1}^{5} (p_i - y_i), \tag{7}$$

and

$$\frac{\partial J}{\partial \beta_1} = \sum_{i=1}^{5} (p_i - y_i) x_i. \tag{8}$$

Consequently, the parameters can be updated numerically by

$$\beta_0^{(k+1)} = \beta_0^{(k)} - \eta \sum_{i=1}^{5} (p_i - y_i), \tag{9}$$

$$\beta_1^{(k+1)} = \beta_1^{(k)} - \eta \sum_{i=1}^{5} (p_i - y_i) x_i. \tag{10}$$

Numerical solution. To avoid perfect separation in this small illustrative dataset, we use a regularized logistic model. The objective function is

$$J_\lambda(\beta_0, \beta_1) = J(\beta_0, \beta_1) + \frac{\lambda}{2} \beta_1^2, \qquad \lambda > 0. \tag{11}$$

Taking $\lambda = 1$ and solving the corresponding optimization problem numerically gives approximately

$$\beta_0 = -3.64, \qquad \beta_1 = 1.14. \tag{12}$$

Hence the fitted logistic model is

$$p(x) = \frac{1}{1 + e^{-(-3.64 + 1.14x)}}. \tag{13}$$

We now predict the result for a student who studies for 3.5 hours. Substituting $x = 3.5$ gives

$$z = -3.64 + 1.14(3.5) = 0.35.$$

Therefore,

$$p(3.5) = \frac{1}{1 + e^{-0.35}} \approx 0.587. \tag{14}$$

Thus, the probability that the student passes the examination is approximately 58.7%.

Using the standard classification threshold 0.5, we obtain $p(3.5) > 0.5$, and therefore the model classifies the student as $Y = 1$ (Pass).

Theorem 1. The binary logistic regression cross-entropy loss

$$J(\beta) = -\sum_{i=1}^{m} [y_i \log p_i + (1 - y_i) \log(1 - p_i)]$$

is a convex function of the parameter vector β.

Proof. Let X be the design matrix and let

$$W = \operatorname{diag}(p_1(1 - p_1), \ldots, p_m(1 - p_m)).$$

The Hessian matrix of the loss function is

$$\nabla^2 J(\beta) = X^T W X. \tag{15}$$

Since

$$0 < p_i < 1,$$

we have

$$p_i(1 - p_i) > 0.$$

Therefore, W is positive semidefinite. For every vector $v \in \mathbb{R}^n$,

$$v^T \nabla^2 J(\beta) v = v^T X^T W X v = (Xv)^T W (Xv) \geq 0. \tag{16}$$

Hence $\nabla^2 J(\beta)$ is positive semidefinite, and consequently $J(\beta)$ is convex. The theorem is proved.

A concrete binary classification problem was considered using logistic regression. Based on the training observations, a mathematical model for the probability of passing an examination was constructed. For the regularized model, the estimated parameters were

$$\beta_0 = -3.64, \qquad \beta_1 = 1.14.$$

For a student studying 3.5 hours, the model gives a passing probability of approximately 58.7%. Therefore, using a threshold of 0.5, the student is classified into the "Pass" class.

The example demonstrates how probability theory, optimization, and convex analysis are combined in a basic Machine Learning classification problem.

References

1. **Bishop C.M.** *Pattern Recognition and Machine Learning.* New York: Springer. 2006. 738 p.
2. **Hastie T., Tibshirani R., Friedman J.** *The Elements of Statistical Learning.* New York: Springer. – 2009. – 745 p.
3. **Goodfellow I., Bengio Y., Courville A.** *Deep Learning.* Cambridge, MA: MIT Press. – 2016. – 800 p.

UDC 004.85

CLASSIFICATION OF DATA USING THE K-NEAREST NEIGHBORS ALGORITHM

Beshimov G. R.[1], Beshimova D. R.[2]
[1]Cyber University, Nurafshon, Uzbekistan;
gayratbeshimov@gmail.com
[2]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
Drbeshimova@gmail.com

Classification is one of the fundamental problems of supervised Machine Learning. The objective is to assign a new observation to one of several predefined classes. K-Nearest Neighbors is a simple non-parametric classification algorithm that determines the class of a new point using the classes of its nearest training observations.

Consider the following two-dimensional training dataset:

Point	(x_1, x_2)	Class
A_1	$(1, 2)$	0
A_2	$(2, 3)$	0
A_3	$(3, 2)$	0
B_1	$(5, 5)$	1
B_2	$(6, 5)$	1
B_3	$(5, 7)$	1

(1)

Suppose that a new observation is

$$P = (4, 4). \tag{2}$$

Our objective is to determine whether P belongs to class 0 or class 1 using the KNN algorithm with

$$k = 3.$$

Distance calculation. For two points

$$X = (x_1, x_2), \qquad Y = (y_1, y_2),$$

the Euclidean distance is defined by

$$d(X, Y) = \sqrt{(x_1 - y_1)^2 + (x_2 - y_2)^2}. \tag{3}$$

First, we calculate the distance from $P = (4, 4)$ to each training point.

For $A_1 = (1, 2)$,

$$d(P, A_1) = \sqrt{(4-1)^2 + (4-2)^2} = \sqrt{13} \approx 3.606. \tag{4}$$

For $A_2 = (2, 3)$,

$$d(P, A_2) = \sqrt{(4-2)^2 + (4-3)^2} = \sqrt{5} \approx 2.236. \tag{5}$$

For $A_3 = (3, 2)$,

$$d(P, A_3) = \sqrt{(4-3)^2 + (4-2)^2} = \sqrt{5} \approx 2.236. \tag{6}$$

For $B_1 = (5, 5)$,

$$d(P, B_1) = \sqrt{(4-5)^2 + (4-5)^2} = \sqrt{2} \approx 1.414. \tag{7}$$

Similarly,

$$d(P, B_2) = \sqrt{(4-6)^2 + (4-5)^2} = \sqrt{5} \approx 2.236, \tag{8}$$

and

$$d(P, B_3) = \sqrt{(4-5)^2 + (4-7)^2} = \sqrt{10} \approx 3.162. \tag{9}$$

Thus, the distances in increasing order are

Point	Distance	Class
B_1	1.414	1
A_2	2.236	0
A_3	2.236	0
B_2	2.236	1
B_3	3.162	1
A_1	3.606	0

There is a distance tie at $\sqrt{5}$. To make the classification rule deterministic, suppose that tied observations are ordered by their original order in the training dataset. Then the three nearest neighbors are

$$B_1, \quad A_2, \quad A_3.$$

Their corresponding classes are

$$1, \quad 0, \quad 0.$$

Therefore, class 0 receives two votes and class 1 receives one vote. Hence,

$$P = (4, 4) \text{ is classified as class 0.} \tag{10}$$

Theorem 1. Let k be an odd positive integer and suppose that the k nearest neighbors of a point P belong to two classes C_0 and C_1. If n_0 and n_1 denote the numbers of these neighbors belonging to C_0 and C_1, respectively, then

$$n_0 + n_1 = k.$$

If $n_0 > k/2$, the KNN classifier assigns P to C_0, while if $n_1 > k/2$, it assigns P to C_1.

Proof. Since

$$n_0 + n_1 = k$$

and k is odd, $n_0 = n_1$ is impossible. Therefore, exactly one of n_0 and n_1 is greater than $k/2$. By the majority voting rule of the KNN algorithm, the new observation is assigned to the class having the larger number of representatives among the k nearest neighbors. The theorem is proved.

Prediction for another observation. Consider another point

$$Q = (5.5, 5.5).$$

Its distances to $B_1 = (5, 5)$ and $B_2 = (6, 5)$ are

$$d(Q, B_1) = d(Q, B_2) = \sqrt{0.5} \approx 0.707.$$

Moreover,

$$d(Q, B_3) = \sqrt{(5.5 - 5)^2 + (5.5 - 7)^2} = \sqrt{2.5} \approx 1.581.$$

Thus, the three nearest neighbors of Q are

$$B_1, \quad B_2, \quad B_3,$$

all of which belong to class 1. Therefore,

$$Q = (5.5, 5.5) \text{ is classified as class 1.} \tag{11}$$

A concrete two-dimensional classification problem was solved using the K-Nearest Neighbors algorithm. For the new observation $P = (4, 4)$ and $k = 3$, Euclidean distances to all training observations were calculated. Using a fixed rule for the distance tie, two of the three selected nearest neighbors belong to class 0. Therefore, the KNN model assigns P to class 0.

The second observation $Q = (5.5, 5.5)$ was classified as class 1 because all of its three nearest neighbors belong to that class. The considered examples demonstrate how geometric distance and majority voting can be used to solve classification problems in Machine Learning.

References

1. **Bishop C.M.** *Pattern Recognition and Machine Learning.* New York: Springer. – 2006. – 738 p.

2. **Hastie T., Tibshirani R., Friedman J.** *The Elements of Statistical Learning.* New York: Springer. – 2009. – 745 p.

3. **James G., Witten D., Hastie T., Tibshirani R.** *An Introduction to Statistical Learning.* New York: Springer. – 2021. – 607 p.

UDK 515.12

Kompakt fazolar gomeomorfizmi teoremasining yopiq akslantirishlar tilidagi zamonaviy yondashuvi va uning topologik tahlili

Boborajabova M.R.

Termiz davlat universiteti Matematika yo‘nalishi 4-kurs talabasi, Termiz, O‘zbekiston

mohiramohira470@gmail.com

Differensial geometriya va topologiya fanlarini o‘rganishda topologik fazolar o‘rtasidagi ekvivalentlikni (struktural saqlanishni) ifodalovchi markaziy tushuncha gomeomorfizm (topologik akslantirish) hisoblanadi. Ilmiy-uslubiy ishlarda topologik fazolarning invariant xossalarini o‘rganishda akslantirishlar uzluksizligi va kompaktlik tushunchalarining tutgan o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

1-ta’rif. Ikki (X, τ_X) va (Y, τ_Y) topologik fazolari berilgan bo‘lsin. Agar $f : X \to Y$ akslantirish biyektiv bo‘lib, f va uning teskarisi $f^{-1} : Y \to X$ uzluksiz bo‘lsa, f akslantirish gomeomorfizm deyiladi.

Klassik darsliklarda akslantirishning gomeomorfizm bo‘lishini tekshirishni osonlashtiruvchi quyidagi mashhur teorema keltiriladi.

1-teorema (Klassik teorema). Agar (X, τ_X) kompakt topologik fazo, (Y, τ_Y) esa Hausdorff fazosi bo‘lib, $f : X \to Y$ akslantirish uzluksiz va biyektiv bo‘lsa, u holda f gomeomorfizmdir.

Metodologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, 1-teorema isbotida Y ning Hausdorff fazosi bo‘lishi faqatgina bir joyda – X dagi har qanday yopiq (va mos ravishda kompakt) $F \subset X$ to‘plamning $f(F) \subset Y$ tasviri Y da yopiq to‘plam bo‘lishini ta’minlash uchun ishlatiladi. Demak, Hausdorff aksiomasi gomeomorfizm mavjudligi uchun zaruriy shart emas, balki akslantirishning yopiqligini ta’minlovchi yetarli vositadir.

2-teorema (Yangi umumlashtirilgan teorema). Faraz qilaylik, (X, τ_X) kompakt fazo, (Y, τ_Y) esa ixtiyoriy topologik fazo bo‘lsin. Agar $f : X \to Y$ akslantirish:

1. biyektiv;

2. uzluksiz;

3. yopiq akslantirish (ya’ni har bir yopiq $F \subset X$ uchun $f(F)$ to‘plam Y da yopiq)

shartlarini qanoatlantirsa, u holda f akslantirish gomeomorfizmdir.

Isbot. Teoremani isbotlash uchun teskari akslantirish $f^{-1} : Y \to X$ ning uzluksizligini ko‘rsatish yetarlidir. Topologik fazolar uzluksizligi kriteriyasiga ko‘ra, f^{-1} akslantirish uzluksiz bo‘lishi uchun X dagi har qanday yopiq $F \subset X$ to‘plamning f^{-1} ostidagi asl tasviri Y da yopiq bo‘lishi zarur va yetarlidir.

Ixtiyoriy yopiq $F \subset X$ to‘plamni olaylik. (X, τ_X) kompakt fazo bo‘lganligi va F unda yopiq to‘plam bo‘lganligi sababli, topologiya xossasiga ko‘ra F to‘plamning o‘zi ham kompakt to‘plam bo‘ladi.

$f : X \to Y$ akslantirish uzluksiz bo‘lgani uchun, kompakt to‘plamning uzluksiz akslantirish ostidagi tasviri ham kompakt bo‘ladi. Demak, $f(F) \subset Y$ to‘plam Y da kompakt to‘plamdir.

Endi $f^{-1} : Y \to X$ akslantirish ostida F ning asl tasvirini ko‘ramiz. f biyektiv bo‘lganligi sababli, teskari akslantirishning asl tasviri to‘g’ri tasvirga tenglashadi:

$$(f^{-1})^{-1}(F) = f(F).$$

2-teoremaning 3-shartiga ko‘ra, f akslantirish yopiq akslantirishdir. Shuning uchun $f(F)$ to‘plam Y fazosida yopiq to‘plam bo‘ladi. Bu esa X fazosidagi ixtiyoriy yopiq F to‘plamning f^{-1} ostidagi asl tasviri yopiq ekanini anglatadi.

Demak, $f^{-1} : Y \to X$ akslantirish uzluksizdir. f va f^{-1} uzluksiz hamda f biyektiv bo‘lgani uchun f akslantirish gomeomorfizmdir. □

1-teoremaning amaliy kuchini hamda yopiq akslantirish shartining muhimligini ko‘rsatish uchun quyidagi misollarni qaraymiz:

1-misol (Hausdorff bo‘lmagan fazoda gomeomorfizm). Faraz qilaylik, $X = \{a, b\}$ chekli ikki nuqtali to‘plam bo‘lib, unda indiskret topologiya berilgan bo‘lsin:

$$\tau_X = \{\emptyset, X\}.$$

Endi $Y = \{1, 2\}$ to‘plamda ham indiskret topologiya berilsin:

$$\tau_Y = \{\emptyset, Y\}.$$

$f : X \to Y$ akslantirish $f(a) = 1, f(b) = 2$ kabi aniqlangan bo‘lsa, u biyektivdir. X va Y indiskret bo‘lganligi sababli f ham, f^{-1} ham uzluksiz. Shuning uchun f gomeomorfizmdir. Bunda Y Hausdorff emas, chunki uning turli nuqtalarini ajratuvchi ikkita o‘zaro kesishmaydigan ochiq to‘plam maujud emas. Bu misol Hausdorff sharti bo‘lmagan holda ham gomeomorfizm mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

2-misol (Yopiqlik sharti bajarilmaganda gomeomorfizm bo‘lmasligi). Quyidagi akslantirishni qaraylik:

$$X = [0, 2\pi), \quad Y = S^1 \subset \mathbb{R}^2.$$

$$f : [0, 2\pi) \to S^1,$$

$$f(t) = (\cos t, \sin t).$$

Ushbu f akslantirish biyektiv va uzluksizdir. Biroq, $X = [0, 2\pi)$ kompakt fazo emas hamda yopiq akslantirish sharti bajarilmaydi (masalan, $F = [\pi, 2\pi)$ yopiq to‘plamning $f(F)$ tasviri S^1 da yopiq emas). Natijada f^{-1} teskari akslantirish $t = 0$ nuqtada uzluksiz bo‘lmaydi va akslantirish gomeomorfizm bo‘la olmaydi. Bu misol yopiq akslantirish shartining naqadar zaruriy xossa ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa va ilmiy natijalar tahlili

1. Klassik darsliklardagi 1-teoremada ikkinchi fazo Y ning Hausdorff bo‘lish sharti gomeomorfizm to‘liq saqlanishi uchun absolyut zaruriy shart emasligi, u faqat $f(F)$ tasvirning yopiqligini ta’minlovchi xususiy holat ekanligi ko‘rsatildi.

2. Taklif etilgan 2-teorema va keltirilgan amaliy misollar orqali Hausdorff aksiomasi bo‘lmagan, lekin yopiq akslantirish xossasiga ega bo‘lgan umumiy topologik fazolarda ham gomeomorfizm mavjudligini tasdiqlovchi qat’iy va universal mezon yaratildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Narmanov A.Ya.** *Umumiy topologiya.* T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. - 208 b.
2. **Jo‘rayev T.F.** *Umumiy topologiya elementlari.* T.: Mumtoz so‘z, 2012. - 180 b.
3. **Engelking R.** *General Topology.* Warszawa: PWN, 1977. - 626 p.

УДК 622.271:551.435.62

OCHIQ KONLARDA MASSIV DEFORMATSIYASINI ANIQLASH O’LCHOV CHASTOTASI VA G’OVAK BOSIMI OMILINING MIQDORIY BAHOSI

Ibodullayev Jahongir Mahammadi o‘g‘li[1], Raxmatullayeva Gulshoda Ilhom qizi[2]
[1]Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti]
[2]Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti;
адмиссион@уwед.уз

Muammo va dastlabki ma’lumotlar. Angren razrezida 2001-yil 9-dekabrda balandligi 60 m bo’lgan pog’ona qulagan; buzilish zonasi bort bo’ylab 180 m, hajmi 300 000 m^3 ga yaqin. Qulashdan 2 sutka oldin bermada kengligi 10–20 sm yoriqlar paydo bo’lgan. Amaldagi normativ esa vizual ko’rikni oyiga bir marta talab qiladi. Ishda razrezning oylik suv balansi (12 oy, 5 o’lchov ustuni), marksheyderlik kuzatuvlari natijalari va Tebinbulak koni burg’ulash-portlatish loyihasi parametrlari miqdoriy tahlil qilindi.

1. Suv oqimi siljishni tushuntirmaydi. Shimoliy va Janubiy nasos stansiyalari bo’yicha yillik kirim 9 639 250 m^3, chiqarish 9 468 265 m^3 (Janubiy stansiya va o’z oqimli drenaj bo’yicha ustun yig’indilari hujjat bilan aynan mos keldi). Maksimum mayda — 985 779 m^3, minimum fevralda — 679 560 m^3, nisbat 1,45, variatsiya koeffitsienti 10,8%.

Marksheyderlik kuzatuvlariga ko’ra avgust–sentyabrda siljish tezligi 10–16 mm/sut, noyabr–dekabrda 22–23 mm/sut, ya’ni 1,73 baravar ortgan. Shu ikki davr uchun oylik kirim nisbati esa 0,91 — belgisi qarama-qarshi. Jamg’arilgan qoldiqqa (kirim minus chiqarish) o’tilganda nisbat 1,31 bo’ladi va belgisi to’g’rilanadi: chiqarilmagan suv hajmi noyabrda maksimumga yetadi (+252 974 m^3).

Xulosa: massiv oniy suv oqimiga emas, uning to’planishiga javob beradi. Nasos jurnallari bo’yicha monitoring ishonchsiz — sensor tarmog’ida pyezometrik kanal majburiy.

[1-rasm. Oylik suv balansi va jamg’arilgan qoldiq.]

2. Barqarorlik zaxirasi katta emas. “Eski podstansiya” bloki uchun hisobot o’lchamlaridan (700 × 300 m, 3,5 mln m^3) o’rtacha qalinlik 16,7 m, sirpanish tekisligi og’ishi 3,6–8,3° aniqlandi. Suzak yarusi gillari uchun qoldiq mustahkamlik ($c = 0$, $\varphi = 13°$) bo’yicha cheksiz yonbag’ir modeli quruq holatda $F_s = 1{,}57$ beradi, kritik bosim koeffitsienti esa $r_u = 0{,}365$. Suv ustuniga o’tkazilganda bu blok qalinligining 74% i, ya’ni 12,4 m. $\varphi = 11°$ da chegara yanada past — 8,3 m.

3. O’lchov oralig’iga talab. Pretsedent oynasi $T_{pre} = 2$ sutka bo’lganda hodisani aniqlash ehtimoli: oylik ko’rikda 6,7%, haftalikda 28,6%, sutkalikda 100%. Ammo trendni chiziqli baholash uchun oynada kamida 12 ta namuna kerak, bundan $T_{int} \leq 4$ soat talabi kelib chiqadi; soatlik

diskretlashda oynaga 48 ta namuna tushadi. Yoriqning o'rtacha ochilish tezligi 150 mm/2 sut = 75 mm/sut bo'lgan, bu taklif etilgan 25 mm/sut chegarasidan uch baravar yuqori — ogohlantirish qulashdan taxminan 45 soat oldin chiqqan bo'lardi.

[2-rasm. Aniqlash ehtimoli va namunalar soni o'lchov oralig'iga bog'liq.]

4. Tebinbulak: noaniqlik o'lchovni talab qiladi. Loyiha ma'lumotlaridan zaryad massasi hisoblandi: $Q(\varnothing 110) = 77{,}4$ kg, $Q(\varnothing 250) = 572$ kg. Masshtablangan masofa qonuni bo'yicha 86 m da $PPV = 29{,}7$ mm/s. Biroq adabiyotdagi $K = 700 \dots 1700$ tarqoqligi natijani 2,43 baravar noaniq qiladi (18,2... 44,3 mm/s) — biri xavfsiz, ikkinchisi yoriq ochilishi chegarasida. Konda uchta yoriq tizimi 65–85° ostida yotgani sababli tarqalish anizotrop. Bu yerda sensorning vazifasi ogohlantirish emas, K va β ni konning o'zida aniqlash.

5. Chekka hisoblash zarurati. Tez kanal 2000 Hz da uzluksiz ishlasa, oqim 1,037 GB/sut bo'ladi — na LoRa, na batareya ko'taradi. Trigger rejimida bitta hodisa yozuvi 42 kB, uzatiladigani 20 bayt (2100× kamayish). Sekin kanalda 2,07 MB/sut o'rniga o'rtacha 1620 B/sut (1280×). Quvvat byudjeti normal rejimda 3,08 mA·soat/sut, faol rejimda 15,51; 6000 mA·soat batareyada avtonomlik mos ravishda 4,3 yil va 309 sutka. Sarfning 56,7% i GNSS ga to'g'ri keladi — demak GNSS faqat tayanch tugunlarga o'rnatilishi kerak.

Xulosa. Angren va Tebinbulak gidrogeologik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi (suv oqimi bo'yicha farq 967 baravar), ammo ikkalasida ham amaldagi kuzatuv chastotasi hodisaning xarakterli vaqtidan kichik emas. Taklif etilayotgan ikki kanalli tugun — soatlik sekin kanal (inklinometr, GNSS, pyezometr) va trigger bo'yicha ishlaydigan tez kanal (2000 Hz) — shu bo'shliqni to'ldiradi. Keyingi bosqichda algoritm razrezning 1987-yildan yig'ilgan kuzatuv arxiviga qo'llanib, retrospektiv tekshiriladi.

Kalit so'zlar: ochiq kon, yonbag'ir barqarorligi, g'ovak bosimi, chekka hisoblash, PPV, erta ogohlantirish.

Adabiyotlar

1. **Hoek E., Bray J.W.** *Rock Slope Engineering.* 3rd ed. Institution of Mining and Metallurgy / CRC Press, London, 1981. *(yonbag'ir barqarorligi klassikasi, φ, F_s, r_u tushunchalari uchun)*

2. **Duncan J.M., Wright S.G., Brandon T.L.** *Soil Strength and Slope Stability.* 2nd ed. John Wiley & Sons, Hoboken, 2014. *(cheksiz yonbag'ir modeli, g'ovak bosimi tahlili uchun)*

3. **Siskind D.E., Stagg M.S., Kopp J.W., Dowding C.H.** *Structure Response and Damage Produced by Ground Vibration from Surface Mine Blasting.* Report of Investigations RI 8507, U.S. Bureau of Mines, Washington, D.C., 1980. *(PPV, portlatish tebranishi normalari — masshtablangan masofa qonuniga asos)*

4. **Intrieri E., Gigli G., Casagli N., Nadim F.** *Landslide Early Warning System: toolbox and general concepts.* Natural Hazards and Earth System Sciences. 2013. Vol. 13, pp. 85–90. *(erta ogohlantirish tizimlari umumiy tushunchasi)*

5. **Ramesh M.V.** *Design, development, and deployment of a wireless sensor network for detection of landslides.* Ad Hoc Networks. 2014. Vol. 13, pp. 2–18. *(ko'chki aniqlash uchun simsiz sensor tarmoqlari)*

6. **Ramesh M.V., Rangan P.V.** *Data reduction and energy sustenance in multisensor networks for landslide monitoring.* IEEE Sensors Journal. 2014. Vol. 14, No. 5, pp. 1555–1563. *(ma'lumotlarni kamaytirish va quvvat tejash — trigger rejim, chekka hisoblash mavzusiga bevosita mos)*

UDK 378.146

TA'LIMIY BAHOLASHNING NOANIQLIK SHAROITIDAGI MATEMATIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: FUZZY MANTIQQA ASOSLANGAN YONDASHUV

Ibraimov M. A.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, O'zbekiston;
ibraimov.marat1406@gmail.com

Kirish. Zamonaviy elektron ta'limda baholash faqat test natijalariga emas, balki LMS faolligi, topshiriq sifati, mustaqil ishlash va o'quv dinamikasi kabi ko'rsatkichlarga ham bog'liq. Shu sababli baholash jarayoni ko'p mezonli va noaniq xususiyat kasb etadi.

Baholashdagi noaniqlik: Baholashda test natijasi va davomat kabi obyektiv ko'rsatkichlar bilan birga, ijodkorlik, motivatsiya va o'qituvchi ekspertizasi kabi subyektiv omillar ham mavjud. An'anaviy ball tizimi bunday omillarni hamda o'quvchining rivojlanish dinamikasini to'liq aks ettira olmaydi.

Fuzzy yondashuv zarurati: "yaxshi bilim", "o'rtacha", "yuqori faollik" kabi pedagogik tushunchalar qat'iy matematik chegaralarga ega emas. Fuzzy mantiq bunday noaniqliklarni "past", "o'rta", "yuqori" kabi lingvistik qiymatlar orqali modellashtirib, bir nechta mezonlarni kompleks baholash imkonini beradi. Bu yondashuv elektron baholashning moslashuvchanligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fuzzy mantiq noaniqlik sharoitida ta'limiy baholashni matematik modellashtirishning samarali yondashuvi hisoblanadi. Zadeh fuzzy to'plamlar va lingvistik o'zgaruvchilar nazariyasini ishlab chiqib, noaniq pedagogik ko'rsatkichlarni matematik ifodalashga asos yaratgan [1,2]. Mamdani va Assilian fuzzy qoidalar asosida xulosa chiqarish mexanizmini taklif qilgan [3], Zimmermann esa fuzzy modellarni amaliy qo'llash tamoyillarini rivojlantirgan [4]. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu yondashuvlarning ta'limiy ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashdagi imkoniyatlari kengayib bormoqda [5]. Shu sababli fuzzy mantiq asosida ko'p mezonli va noaniq ta'limiy baholash modelini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism. Ta'limiy baholashda o'quvchilarning bilim va kompetensiyalari test natijalari, topshiriqlar sifati, LMS faolligi va mustaqil ta'lim kabi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi. Ushbu mezonlarning turlicha va noaniq ifodalanishi baholashda matematik modellarni qo'llashni taqozo etadi.

Boolean mantiqdagi 0 va 1 qiymatlar "yaxshi", 'o'rta", "yuqori" kabi oraliq pedagogik holatlarni to'liq ifodalay olmaydi. Fuzzy mantiq esa tegishlilik darajasini [0;1] oralig'ida ifodalab, noaniq ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi [1]. Fuzzy modelda "bilim darajasi", "faollik" va "topshiriq sifati" lingvistik o'zgaruvchilar sifatida olinib, "past", "o'rta" va "yuqori" kategoriyalari orqali baholanadi. Baholash ekspert bilimlariga asoslangan IF-THEN qoidalari yordamida amalga oshiriladi [2; 3]. Masalan: AGAR test natijasi va LMS faolligi yuqori bo'lsa, UNDA bilim darajasi yuqori.

Taklif etilayotgan model fuzzifikatsiya $\rightarrow$ fuzzy inferensiya $\rightarrow$ defuzzifikatsiya $\rightarrow$ yakuniy elektron baho ketma-ketligida ishlaydi. Ushbu yondashuv bir nechta mezonlarni integratsiyalab, baholashning obyektivligi, moslashuvchanligi va aniqligini oshiradi hamda o'quvchilar rivojlanishini monitoring qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli, matematik modellashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar qo'llanildi. Ta'limiy baholashdagi noaniqliklarni modellashtirishda fuzzy to'plamlar, a'zolik funksiyalari va IF-THEN qoidalaridan foydalanildi.

Modelda fuzzifikatsiya, fuzzy inferensiya va defuzzifikatsiya bosqichlari asosida o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlari kompleks baholandi. Shuningdek, modellashtirish, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Natija. Tadqiqot natijasida ta’limiy baholashdagi noaniqliklarni hisobga oluvchi fuzzy matematik model ishlab chiqildi. Model bir nechta baholash mezonlarini integratsiyalab, fuzzifikatsiya, fuzzy inferensiya va defuzzifikatsiya orqali yakuniy elektron bahoni aniqlash imkonini beradi. Natijada baholashning moslashuvchanligi, aniqligi va ishonchliligini oshirish hamda o‘quvchining bilim darajasini kompleks baholash imkoniyati yaratildi.

Xulosa. Ta’limiy baholashdagi noaniq va ko‘p mezonli omillarni an’anaviy usullar orqali to‘liq aks ettirish qiyin. Tadqiqot natijasida fuzzy mantiq asosidagi matematik model noaniqliklarni hisobga olish, turli mezonlarni integratsiyalash va o‘quvchilar bilimini kompleks baholash imkonini berishi aniqlandi. Mazkur yondashuv elektron ta’limda baholashning aniqligi, obyektivligi va ishonchliligini oshirish, shuningdek, individual pedagogik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun samarali vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. **Zadeh L.A.** *Fuzzy Sets* // Information and Control. – 1965. – Vol. 8, No. 3. – P. 338–353.
2. **Zadeh L.A.** *The Concept of a Linguistic Variable and Its Application to Approximate Reasoning* // Information Sciences. – 1975. – Vol. 8, No. 3. – P. 199–249.
3. **Mamdani E.H., Assilian S.** *An Experiment in Linguistic Synthesis with a Fuzzy Logic Controller* // International Journal of Man-Machine Studies. –1975. – Vol. 7, No. 1. – P. 1–13.
4. **Zimmermann H.J.** *Fuzzy Set Theory–and Its Applications.* – 4th ed. – Dordrecht: Springer, 2001.
5. **Romero C., Ventura S.** *Educational Data Mining and Learning Analytics: An Updated Survey* // Wiley Interdisciplinary Reviews: Data Mining and Knowledge Discovery. – 2020. – Vol. 10, No. 3. – e1355.

Raqamli transformatsiya davrida ta’lim ekotizimini boshqarishda sun’iy intellekt imkoniyatlari

Ismailov Ilxom Tursunbayevich[1], Umarov Eldor Do‘syarovich[2]
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Hisoblash tizimlari muhandisligi kafedrasi, PhD dotsent; [2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Hisoblash tizimlari muhandisligi kafedrasi, PhD dotsent; e-mail: eldorumarov55@gmail.com

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ta’lim ekotizimi, raqamli transformatsiya, ta’lim boshqaruvi, moslashuvchan ta’lim, ta’lim tahlili (learning analytics), qaror qabul qilish tizimlari.

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni, jumladan, ta’lim tizimini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Ta’lim endi faqat bilim uzatish jarayoni sifatida emas, balki ko‘plab ishtirokchilar – o‘quvchi, o‘qituvchi, ta’lim muassasasi ma’muriyati, davlat organlari va raqamli platformalarni o‘zaro bog’lovchi murakkab ekotizim sifatida qaraladi. Ushbu ekotizimni samarali boshqarish katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va individual ehtiyojlarga moslashishni talab etadi, buning uddasidan an’anaviy boshqaruv usullari to‘liq chiqa olmaydi.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari – mashinali o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va katta ma’lumotlar tahlili – ta’lim ekotizimini boshqarishda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Ushbu

tezisning maqsadi – raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellektning ta'lim ekotizimini boshqarishdagi asosiy yo‘nalishlari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Ta'lim ekotizimini sun'iy intellekt yordamida boshqarishning bir necha o‘zaro bog'liq yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, moslashuvchan (adaptiv) ta'lim tizimlari o‘quvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish sur'ati va individual xususiyatlarini real vaqt rejimida tahlil qilib, unga mos ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi. Bu yondashuv ta'lim sifatini oshirish bilan birga, ma'muriyat va o‘qituvchilarning nazorat funksiyasini ham yengillashtiradi.

Ikkinchidan, ta'lim tahlili (learning analytics) tizimlari talabalarning akademik faolligi, davomati va natijalari bo‘yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ib, xavf ostidagi (o‘qishni tashlab ketish ehtimoli yuqori) talabalarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Bu esa ta'lim muassasasi rahbariyatiga oldindan chora ko‘rish, resurslarni oqilona taqsimlash va institutsional qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

[1-rasm shu yerga joylashtiriladi]

1-rasm. Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim ekotizimini boshqarish modelining struktura diagrammasi

Uchinchidan, ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirish – jadval tuzish, resurslarni taqsimlash, hujjat aylanishi va murojaatlarga javob berish kabi vazifalarni SI asosidagi tizimlar, jumladan virtual yordamchilar va chat-botlar orqali sezilarli darajada tezlashtiradi. Bu ma'muriy xodimlarning vaqtini strategik vazifalarga yo‘naltirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, sun'iy intellekt ta'lim sifatini nazorat qilish va akkreditatsiya jarayonlarida ham qo‘llanilmoqda: o‘quv dasturlari mazmunini tahlil qilish, natijalarni standartlar bilan solishtirish va sifat ko‘rsatkichlarini avtomatik monitoring qilish orqali institutsional boshqaruv shaffofligi oshiriladi. Shu bilan birga, SI asosidagi kontent generatsiya vositalari o‘qituvchilarga ta'lim materiallari, testlar va individual topshiriqlarni tezroq tayyorlashda yordam beradi.

Biroq bu imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolar ham mavjud: ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi, algoritmik tarafkashlik (bias), o‘qituvchi va ma'muriyatning raqamli savodxonlik darajasi, shuningdek, SI tizimlarini mavjud ta'lim infratuzilmasiga integratsiya qilishning texnik va moliyaviy murakkabligi shular jumlasidandir. Shu sababli SI asosidagi boshqaruv tizimlarini joriy etishda bosqichma-bosqich, sinov-nazorat mexanizmlari bilan yondashuv talab etiladi.

[2-rasm shu yerga joylashtiriladi]

2-rasm. An'anaviy boshqaruv usuli bilan sun'iy intellekt asosidagi boshqaruvni solishtiruvchi diagrammasi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt raqamli transformatsiya davrida ta'lim ekotizimini boshqarishning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishini ta'minlovchi muhim vositadir. Moslashuvchan ta'lim, ta'lim tahlili, ma'muriy avtomatlashtirish va sifat nazorati yo'nalishlarida SI texnologiyalarining integratsiyasi boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va tezkorligini oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayon ma'lumotlar xavfsizligi, etik me'yorlar va kadrlar tayyorgarligi masalalarini har tomonlama hisobga olgan holda, ilmiy asoslangan strategiya doirasida amalga oshirilishi lozim.

Литература

1. **UNESCO.** *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development.* Paris: UNESCO Publishing. – 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil.
3. **Holmes W., Bialik M., Fadel C.** *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Boston: Center for Curriculum Redesign. – 2019.
УДК 004.8:378.4

AN AI-ENABLED MULTI-RANKING DIGITAL TWIN MODEL FOR INTERNAL ASSESSMENT AND STRATEGIC OPTIMISATION OF UNIVERSITY PERFORMANCE

Ismoilov A.J.[1], Jumazoda A.[2], Rakhmonov S.J.[3]
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan;
azizbek_ismoilov@tersu.uz
[2]Termez State University, Termez, Uzbekistan;
abdulatifjumazoda@tersu.uz
[3]Termez State University, Termez, Uzbekistan;
sardor_rakhmonov@tersu.uz

International university rankings do not measure institutional performance in the same way. The QS World University Rankings group their indicators around Research and Discovery, Employability and Outcomes, Learning Experience, Global Engagement, and Sustainability [1], whereas the Times Higher Education (THE) World University Rankings 2026 use 18 indicators organised into Teaching, Research Environment, Research Quality, International

Outlook, and Industry [2]. Differences in indicator definitions, weights, reference populations, normalisation rules, data sources, and reporting lags make direct internal comparison difficult. Some components, particularly reputation and citation-based measures, also depend on external populations and cannot be reconstructed from university records alone.

To address this problem, a multi-ranking digital twin can be used as an internal analytical model for assessment, forecasting, and resource planning. Let $\mathcal{R} = \{r_1, \dots, r_R\}$ denote the ranking systems and let $x_t = (x_{1t}, \dots, x_{pt})$ represent the institutional state at time t. The state vector is separated into variables that can be influenced directly by university management, x_t^{int}, and externally observed variables, x_t^{ext}. Each observation is supplemented by its source s_{it}, reliability coefficient $q_{it} \in [0, 1]$, missing-data indicator $m_{it} \in \{0, 1\}$, and reporting lag ℓ_i. Reputation and citation indicators are therefore treated as exogenous or indirectly estimated quantities rather than as internally generated scores.

The first layer of the model establishes a common indicator ontology $\Omega = \{\omega_1, \dots, \omega_p\}$. For each ranking system r, a sparse mapping matrix $M^{(r)}$ links the university's internal variables with the definitions used in that ranking. The ranking-specific institutional state is then expressed as

$$z_t^{(r)} = \Phi_r\Big(M^{(r)}[x_t^{int}, x_t^{ext}, \Delta x_t, q_t, m_t, \ell]\Big), \tag{1}$$

where Φ_r applies the direction of each indicator, the required transformation, an internal normalisation proxy, and aggregation. When the ranking provider does not disclose the full reference distribution used for official normalisation, the proxy is calibrated against an available peer group. The resulting value is interpreted as internal ranking readiness, not as a reconstructed official score or a guaranteed future rank.

A temporal component is required because research output, citation impact, reputation, graduate outcomes, internationalisation, and industry engagement evolve at different speeds. For multi-horizon forecasting, the model employs the Temporal Fusion Transformer (TFT), which combines static covariates, observed histories, known future inputs, feature selection, and interpretable attention in a single architecture [3]. Let $H_t = \{x_{t-L:t}, u_{t:t+H}, b_{t-L:t}, c\}$ contain historical indicators, planned actions u, peer-benchmark signals b, and static institutional characteristics c. For ranking r, indicator j, forecast horizon h, and quantile τ, the forecast is

$$Q_\tau(z_{rj,t+h} \mid H_t) = F^{(\tau)}_{\theta,rjh}(H_t), \qquad \tau \in \{0.10, 0.50, 0.90\}. \tag{2}$$

Joint estimation across several ranking systems allows common information to be exploited without eliminating ranking-specific priorities. The training criterion can be written as

$$\mathcal{L}(\theta) = \sum_{r,j,h,\tau} a_r w_{rj} \rho_\tau\Big(z_{rj,t+h} - \hat{z}^{(\tau)}_{rj,t+h}\Big) + \lambda\|\theta\|_2^2 + \mu\mathcal{L}_{cons} + \nu\mathcal{L}_{cal}. \tag{3}$$

Here a_r denotes the strategic importance assigned to ranking r, w_{rj} is the weight of indicator j, and ρ_τ is the pinball loss. The additional terms penalise inconsistency across related ranking indicators and poor probability calibration. Retaining the 0.10, 0.50, and 0.90 quantiles makes forecast uncertainty explicit instead of reducing the result to a single deterministic value.

For internal monitoring, the median indicator forecasts are aggregated into a ranking-specific Ranking Readiness Score (RRS):

$$RRS_r(t + h) = \sum_{j=1}^{m_r} w_{rj} \hat{z}^{(0.50)}_{rj,t+h}, \qquad \sum_{j=1}^{m_r} w_{rj} = 1. \tag{4}$$

The RRS_r is accompanied by a data-quality coverage measure and must not be interpreted as an official QS or THE score. If a sufficiently informative peer distribution $G_{r,t}$ is available, the framework can estimate the probability of entering a ranking interval rather than claiming an exact future position:

$$P_{r,b} = \Pr(\text{rank}_r \in B_b \mid RRS_r, G_{r,t}, \sigma_{r,t}), \tag{5}$$

where B_b is a rank band and $\sigma_{r,t}$ represents predictive uncertainty. Such interval-based reporting is more defensible when competitor data are incomplete or when the ranking provider uses proprietary normalisation procedures.

Forecasting is useful only if it can support resource-allocation decisions. Let Δx denote feasible interventions in research, internationalisation, employability, industry engagement, or sustainability. A portfolio of actions can be selected from the feasible set $\mathcal{F}$ by solving

$$\Delta x^* = \arg\max_{\Delta x \in \mathcal{F}} \left\{ \sum_r a_r \mathbb{E}[RRS_r(x + \Delta x)] - \beta C(\Delta x) - \gamma \sum_r a_r \, \mathrm{CVaR}_\alpha(L_r) \right\}. \tag{6}$$

The set $\mathcal{F}$ incorporates budget, staffing, implementation-lag, and mutual-exclusivity constraints. The function $C(\Delta x)$ represents the cost of interventions, while $L_r = \max\{0, T_r - RRS_r(x + \Delta x)\}$ measures the shortfall from a target readiness level T_r. The CVaR_α term limits exposure to adverse scenarios, so an intervention with a high expected return is not accepted without considering downside risk.

Universities normally pursue several ranking objectives simultaneously. It is therefore useful to identify interventions that generate benefits across more than one methodology. The cross-ranking marginal efficiency of indicator i is defined by

$$MRE_i = \sum_r a_r \frac{\mathbb{E}[RRS_r(x + \delta e_i)] - \mathbb{E}[RRS_r(x)]}{C_i(\delta)}. \tag{7}$$

A high MRE_i indicates that a marginal intervention is expected to improve readiness across several ranking systems relative to its cost. This quantity is a scenario-sensitivity measure rather than a causal effect; causal attribution would require an experimental or quasi-experimental research design.

In practice, the digital twin can combine bibliometric, human-resources, student, finance, international-relations, graduate-employment, industry-engagement, and sustainability data. A governance layer should record indicator definitions, responsible units, source lineage, verification status, methodology version, and reporting lag. The analytical layer handles anomaly detection, missing-data treatment, TFT forecasting, and rank-band calibration. The decision layer then reports target gaps, forecast intervals, data confidence, rank-band probabilities, principal drivers, and feasible intervention portfolios.

Before the model is used for strategic planning, it should be evaluated by rolling-origin backtesting. Quantile forecasts can be assessed with pinball loss and interval coverage, while rank-band probabilities can be checked using calibration error and the Brier score. The stability of RRS_r should also be tested under plausible changes in ranking weights, missing-data assumptions, and peer samples. The purpose of the model is not to imitate proprietary ranking calculations; it is to provide a consistent internal framework for comparing methodologies, quantifying uncertainty, tracing indicator provenance, and evaluating alternative strategic decisions.

REFERENCES

1. QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Methodology.* Accessed September 2026.
2. Times Higher Education. *World University Rankings 2026: Methodology.* Published 22 September 2025; updated 16 March 2026.
3. Lim B., Arik S.O., Loeff N., Pfister T. *Temporal Fusion Transformers for Interpretable Multi-horizon Time Series Forecasting.* International Journal of Forecasting, 2021, vol. 37, no. 4, pp. 1748–1764. DOI: 10.1016/j.ijforecast.2021.03.012.

SUN‘IY INTELLEKTNING GENERATIV TEXNOLOGIYALARI: ZAMONAVIY IMKONIYATLAR VA KELAJAK ISTIQBOLLAR

Ismoilov Ulug‘bek Ilxom o‘g‘li
Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston;
ismoilov245@mail.ru

Bugungi kunda sun‘iy intellekt texnologiyalari raqamli iqtisodiyotning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu sohaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan bo‘lib, mazkur hujjat mamlakatda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va amaliyotga keng joriy etish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi [1]. Generativ sun’iy intellekt ushbu istiqbolli yo‘nalishlarning eng muhimlaridan biri bo‘lib, u mavjud ma’lumotlar asosida yangi matn, tasvir, audio, video va dasturiy kod yaratish imkonini beradi. Zamonaviy katta til modellari insonning tabiiy tildagi so‘rovlarini tushunib, ularga mazmunli javoblar yaratishi orqali ta’lim, ilm-fan, biznes va axborot texnologiyalari sohalarida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ta’lim sohasida sun’iy intellekt o‘quv materiallarini tayyorlash, individual ta’lim dasturlarini shakllantirish va o‘quvchilarga qo‘shimcha tushuntirishlar berishda yordam berishi mumkin[2]. Tibbiyotda esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, kasalliklarni aniqlashga ko‘maklashish va ilmiy tadqiqotlarni tezlashtirish imkoniyatiga ega. Biznes va sanoatda sun’iy intellekt takroriy jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, generativ sun’iy intellektdan foydalanishda noto‘g‘ri axborot yaratish, mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi kabi masalalarga alohida e’tibor berish zarur[3]. Kelajakda sun’iy intellektning rivojlanishi inson mehnatini to‘liq almashtirishdan ko‘ra, inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi va intellektual faoliyat samaradorligini oshiruvchi texnologik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda generativ sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida samarali foydalanishning amaliy yondashuvi taklif etiladi. Bizning taklifimizga ko‘ra, sun’iy intellektdan tayyor javob olish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi yordamchi vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda foydalanuvchi dastlab muammoni mustaqil ravishda tahlil qiladi, keyin esa sun’iy intellekt yordamida qo‘shimcha ma’lumot, tushuntirish va turli yechimlarni oladi. Olingan natijalar foydalanuvchi tomonidan tahlil qilinib, tekshiriladi va yakuniy xulosa mustaqil ravishda shakllantiriladi[7]. Shuningdek, generativ sun’iy intellekt yordamida murakkab mavzularni sodda shaklda tushuntirish, individual topshiriqlar yaratish, matnlarni tahlil qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyatlaridan foydalanish taklif etiladi. Bunday yondashuvda asosiy e’tibor inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi hamkorlikka qaratiladi. Ya’ni sun’iy intellekt insonning o‘rnini egallamaydi, balki uning bilim olish va muammoni hal qilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi[8].

Taklif etilayotgan yondashuvdan foydalanish natijasida ta'lim jarayonida axborotni izlash, qayta ishlash va tushunish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirish, o'quvchilarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda murakkab mavzularni o'zlashtirish samaradorligini oshirish mumkin. Zamonaviy tadqiqotlar ham generativ sun'iy intellektdan maqsadli foydalanish o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Mening taklif qilayotgan yondashuvning asosiy natijasi esa sun'iy intellektdan foydalanish bilan bir qatorda foydalanuvchining mustaqil fikrlashi va tahliliy qobiliyatini saqlab qolishdan iborat. Natijada o'quvchi tayyor javobni shunchaki qabul qilmasdan, uni tahlil qilish, tekshirish va o'z xulosasini shakllantirishga o'rganadi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv turli fanlar va foydalanuvchilarning bilim darajasiga moslashtirilishi mumkin. Shu sababli generativ sun'iy intellektni inson faoliyatini almashtiruvchi emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi texnologiya sifatida qo'llash eng samarali natija-lardan birini beradi.

Xulosa qilib aytganda, generativ sun'iy intellekt zamonaviy texnologiyalar orasida katta istiqbolga ega bo'lgan yo'nalishlardan biridir. Tadqiqot davomida uning matn yaratish, ma'lumot-larni tahlil qilish, ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash va ijodiy vazifalarni bajarishdagi imkoniyat-lari ko'rib chiqildi. Taklif etilgan yondashuv asosida sun'iy intellektdan inson o'rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki insonning bilim va imkoniyatlarini kengaytiruvchi yordamchi texnologiya sifatida foydalanish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Bunday foydalanish orqali vaqtni tejash, murakkab vazifalarni soddalashtirish, yangi g'oyalarni shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, AI tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni tekshirish va tahlil qilish insonning muhim vazifasi bo'lib qoladi. Kelajakda generativ sun'iy intellektning yanada rivojlanishi natijasida uning imkoniyatlari kengayib, turli sohalarda inson faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilishi kutiladi.

Adabiyotlar

1. **1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.** *Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.* // PQ-358-son qaror, 2024-yil 14-oktabr. Toshkent, 2024. 1–10–betlar.

2. **2. Miao F., Holmes W.** *Guidance for Generative AI in Education and Research* // Paris: UNESCO, 2023. 1–44-betlar.

3. **Tabassi E.** *Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0).*//Gaithersburg: National Institute of Standards and Technology, 2023. 1–38-betlar.

4. **Vaswani A., Shazeer N., Parmar N.** *Attention Is All You Need.*// Advances in Neural Information Processing Systems. 2017. Vol. 30. 5998–6008-betlar.

5. **Goodfellow I., Bengio Y., Courville A.** *Deep Learning.* Cambridge: MIT Press, 2016. 1–800 betlar.

6. **Farrokhnia M., Banihashem S. K., Noroozi O., Wals A.** *Implications for Educational Practice and Research.* Innovations in Education and Teaching International. 2024. Vol. 61, №. 3. 460–474-betlar.

7. **Kasneci E., Sessler K., Kuchemann S.** *On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education.* , Learning and Individual Differences. 2023. Vol. 103. 102274.

8. **Stanford Institute for Human-Centered Artificial Intelligence.** *Artificial Intelligence Index Report 2025.* // Stanford University, 2025. 1–500 betlar

UDK 004.75:004.8

BULUTLI MUHITDA INTELLEKTUAL TAHLIL VAZIFALARINI MA'LUMOT LOKALLIGI ASOSIDA ADAPTIV PARALLELLASHTIRISH

Isroilov Sh.Y.[1], Abduvaitov A.A.[2], Umarov E.D.[3], Xudoyqulov D.Sh.[4]
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston;
i.shuha84@gmail.com

Bulutli hisoblash tizimlarida katta hajmdagi ma'lumotlarga intellektual ishlov berish samaradorligi faqat protsessorlar sonini ko'paytirish bilan belgilanmaydi. Ma'lumotning qaysi tugunda joylashgani, tugunlar o'rtasidagi tarmoq o'tkazuvchanligi, joriy ish yuklamasi, xotira holati va mashinali o'qitish algoritmining ichki parallelizmi umumiy bajarilish vaqtiga bevosita ta'sir qiladi. Strukturaviy jadvallar, sensor oqimlari, matnli fayllar va mashinali o'qitish modellarida ma'lumotni hisoblash tuguniga ko'chirish ko'pincha hisoblashning o'zidan qimmatroq bo'lishi mumkin. Shu sababli vazifani mavjud bo'sh resursga yuborish emas, balki ma'lumot lokalligini, hisoblash xarajatini va tugun holatini birgalikda hisobga oluvchi adaptiv taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Bulutli tizimlarda parallel ishlov berishning umumiy tamoyili ma'lumotni bo'lish, lokal qayta ishlash va natijalarni birlashtirish ketma-ketligiga asoslanadi. Mazkur yondashuv taqsimlangan JOIN operatsiyalari, intellektual tahlil algoritmlari va MLOps konveyerlarida turli ko'rinishlarda uchraydi [1–3]. Biroq statik fragmentlashda tugunlar unumdorligi va tarmoq holati o'zgarmas deb qaraladi. Real bulut muhitida esa virtual mashinalar yuklanishi, konteynerlar soni, xotira bosimi va tarmoq kechikishi vaqt bo'yicha o'zgaradi. Taklif qilinayotgan yondashuvning maqsadi ushbu o'zgarishlarni monitoring qilish va vazifa-ma'lumot juftligini mos tugunga dinamik biriktirishdan iborat.

Masalaning qo'yilishi. D katta ma'lumotlar to'plami p ta mantiqiy fragmentga ajratilsin:

$$D = \bigcup_{i=1}^{p} D_i, \qquad D_i \cap D_k = \varnothing,\ i \neq k. \tag{1}$$

Har bir D_i fragmentga mos hisoblash vazifasi T_i mavjud bo'lib, u ma'lumotlarni tozalash, xususiyatlarni shakllantirish, klassifikatsiya, klasterlash yoki model parametrlarini yangilash operatsiyalaridan biri bo'lishi mumkin. Bulut klasteri $R = \{R_1, R_2, \ldots, R_m\}$ tugunlardan tashkil topadi. Har bir R_j tugunning joriy holati CPU, RAM, GPU, tarmoq va navbat yuklamasi orqali

$$r_j = (c_j, m_j, g_j, b_j, q_j) \tag{2}$$

vektor bilan tavsiflanadi. Bu yerda c_j – mavjud protsessor quvvati, m_j – bo'sh xotira, g_j – GPU resursi, b_j – tarmoq o'tkazuvchanligi, q_j esa tugundagi kutilayotgan navbat yuklamasidir.

Vazifa T_i ni R_j tugunda bajarish vaqtini soddalashtirilgan holda hisoblash, ma'lumot uzatish va navbatda kutish komponentlari yig'indisi sifatida baholash mumkin:

$$\widehat{T}_{ij} = \frac{W_i}{c_j} + \frac{V_i^{remote}}{b_j} + q_j. \tag{3}$$

Bu yerda W_i – vazifaning hisoblash hajmi, V_i^{remote} – bajarishdan oldin tarmoq orqali uzatilishi zarur bo'lgan ma'lumot miqdori. Agar fragmentning katta qismi tugunning o'zida mavjud bo'lsa, tarmoq xarajati kamayadi. Ma'lumot lokalligi koeffitsiyenti

$$\ell_{ij} = \frac{V_i^{local}}{V_i}, \qquad 0 \leq \ell_{ij} \leq 1 \tag{4}$$

ko‘rinishida aniqlanadi. ℓ_{ij} qiymati birga yaqin bo‘lsa, vazifa ma’lumotga yaqin joylashtirilgan bo‘ladi.

Taklif qilinayotgan adaptiv tanlash mezonida bajarilish vaqti bilan birga lokallik, tugun yuklamasi va nosozlik xavfi hisobga olinadi:

$$C_{ij} = \alpha \widehat{T}_{ij} + \beta(1 - \ell_{ij}) + \gamma U_j + \delta F_j, \tag{5}$$

$$j^* = \arg \min_{1 \le j \le m} C_{ij}. \tag{6}$$

Bu yerda U_j – tugunning normallashtirilgan yuklanishi, F_j – uning ishonchlilik yoki nosozlik xavfi bahosi, $\alpha, \beta, \gamma, \delta$ esa mezonlarning muhimlik koeffitsiyentlaridir. Mazkur ifoda oddiy “eng bo‘sh tugun” strategiyasidan farqli ravishda ma’lumot ko‘chirish narxini ham inobatga oladi. Masalan, CPU yuklanishi biroz yuqori bo‘lgan, ammo kerakli ma’lumot lokal joylashgan tugun ba’zan mutlaqo bo‘sh, lekin katta hajmdagi ma’lumotni tarmoq orqali qabul qilishi kerak bo‘lgan tugundan samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Adaptiv parallellashtirish usuli. Dastlab tizim monitoring moduli barcha tugunlardan resurs telemetriyasini yig’adi. Keyin kiruvchi vazifa uning hisoblash profiliga ko‘ra CPU-intensiv, memory-intensiv, GPU-intensiv yoki communication-intensiv sinflardan biriga ajratiladi. Har bir fragment uchun (5) mezon hisoblanib, (6) bo‘yicha eng maqbul tugun tanlanadi. Lokal ishlov natijasida $M_i = A(D_i, \theta_i)$ lokal model, gradient, statistik parametr yoki oraliq natija hosil qilinadi. Yakuniy global natija

$$M = \mathrm{Join}(M_1, M_2, \ldots, M_p) \tag{7}$$

operatori orqali olinadi. Join operatorining mazmuni algoritmga bog’liq: taqsimlangan ma’lumotlar bazasida u yozuvlarni birlashtirish, k-meansda lokal statistikalarni yig’ish, klassifikatsiyada ovoz berish, neyron tarmoqda esa gradientlarni agregatsiya qilish vazifasini bajaradi.

Adaptivlikning ikkinchi darajasi bajarilish jarayonida qo‘llanadi. Tizim har Δt vaqt oralig’ida tugunlar yuklamasini qayta baholaydi. Klasterdagi nomutanosiblik koeffitsiyenti

$$B = \frac{\max_j L_j}{\frac{1}{m}\sum_{j=1}^{m} L_j} \tag{8}$$

ko‘rinishida aniqlanadi. Agar $B > \tau$ bo‘lsa, ya’ni ayrim tugunlarda yuklama o‘rtacha qiymatdan sezilarli yuqori bo‘lsa, hali boshlanmagan yoki ko‘chirish xarajati kichik bo‘lgan vazifalar qayta rejalashtiriladi. Bunda ma’lumotni ko‘chirish hajmi katta bo‘lgan fragmentlarni migratsiya qilishdan oldin kutilayotgan foyda migratsiya xarajati bilan solishtiriladi. Shunday qilib, dinamik balanslash juda tez-tez bajarilib, tarmoqda ortiqcha trafik hosil qilishi oldi olinadi.

Taklif etilgan yondashuv mashinali o‘qitish vazifalari uchun ham muhim. Masalan, Random Forestda daraxtlarni mustaqil tugunlarda qurish task-parallel xususiyatga ega bo‘lsa, k-means va gradientga asoslangan algoritmlarda har iteratsiyada global agregatsiya talab etiladi. Birinchi holatda hisoblash vazifalarini bo‘sh tugunlarga tez qayta taqsimlash samarali bo‘lishi mumkin. Ikkinchi holatda esa ma’lumot lokalligi va tarmoq o‘tkazuvchanligi ustuvor ahamiyatga ega, chunki tez-tez sinxronlash kommunikatsiya xarajatini oshiradi. Demak, rejalashtirish mezonidagi vaznlar algoritm turiga qarab o‘zgartirilishi kerak.

Global optimallashtirish nuqtai nazaridan tizimning maqsadi faqat alohida vazifa vaqtini emas, butun konveyerning tugash vaqtini, tarmoq xarajatini va xizmat sifati buzilishini minimallashtirishdan iborat. Shu sababli umumiy mezonni

$$J = w_1 T_{\max} + w_2 C_{net} + w_3 V_{SLA} + w_4 C_{mig} \to \min \tag{9}$$

ko‘rinishida berish mumkin. Bu yerda $T_{\max}$ – barcha vazifalar tugash vaqti, C_{net} – tugunlararo almashinuv xarajati, V_{SLA} – xizmat darajasi talablarining buzilishi, C_{mig} – qayta taqsimlash va migratsiya xarajatidir. Resurs cheklovlari har bir tugunda ajratilgan CPU, RAM va GPU miqdori mavjud resursdan oshmasligini ta’minlaydi.

Mazkur modelni amaliy bulut platformasida Spark yoki Ray bajaruvchi muhiti va Kubernetes monitoring mexanizmi bilan integratsiya qilish mumkin. Spark ma’lumotni partitionlar bo‘yicha qayta ishlashga, Ray esa dinamik task va actorlarni resurs talabiga qarab joylashtirishga qulay. Kubernetes orqali CPU, RAM va pod holati kuzatilganda, rejalashtirish moduli ushbu telemetriyadan (5) mezon koeffitsiyentlarini yangilash uchun foydalanishi mumkin. MLOps yondashuvi esa eksperiment konfiguratsiyasi, model versiyasi va resurs profiling natijalarini qayta tiklash imkonini beradi [3].

Usulni baholashda statik round-robin, eng kam yuklangan tugun va faqat ma’lumot lokalligiga asoslangan strategiyalar bazaviy variant sifatida olinishi maqsadga muvofiq. Asosiy metrikalar bajarilish vaqti T, tezlashuv $S_p = T_1/T_p$, parallel samaradorlik $E_p = S_p/p$, tarmoq orqali uzatilgan ma’lumot hajmi va SLA buzilishlari sonidan iborat bo‘ladi. Turli o‘lchamdagi dataset va 1, 2, 4, 8, 16 tugunli konfiguratsiyalarda tajriba o‘tkazish algoritmning strong scaling xususiyatini aniqlash imkonini beradi. Kutilayotgan natija shundaki, ma’lumot lokalligi va joriy yuklamani birgalikda hisobga olish communication-intensiv vazifalarda tarmoq xarajatini kamaytiradi, task-parallel vazifalarda esa bo‘sh resurslardan tez foydalanishni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bulutli muhitda intellektual tahlil vazifalarini samarali parallellashtirish uchun faqat ma’lumotni teng fragmentlash yetarli emas. Vazifa turi, fragmentning fizik joylashuvi, tugun yuklamasi, tarmoq holati va nosozlik xavfi birgalikda baholanishi lozim. Taklif etilgan ma’lumot lokalligiga asoslangan adaptiv model “split-process-join” tamoyilini dinamik resurs monitoringi bilan birlashtiradi. Natijada vazifalarni hisoblashga eng mos tugunga joylashtirish, ortiqcha ma’lumot ko‘chirishni kamaytirish va klaster yuklamasi o‘zgarganda rejalashtirishni qayta moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuv bulutli mashinali o‘qitish, taqsimlangan ma’lumotlar bazasi va katta ma’lumotlar analitikasi uchun yangi parallel rejalashtirish algoritmlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. **Munerman V.I.** Realizatsiya parallel’noy obrabotki dannykh v oblachnykh sistemakh // Sovremennye informatsionnye tekhnologii i IT-obrazovanie. 2017. T. 13. No. 2. S. 57–63.
2. **Zaynidinov Kh.N., Karshiev Z.A.** Osobennosti parallel’nogo vypolneniya algoritmov intellektual’nogo analiza dannykh // Avtomatika i programmnaya inzheneriya. 2020. No. 1(31). S. 83–91.
3. **Khritankov A.S., Polezhaev V.A., Zhulikov G.A. et al.** Vypolnenie raspredelennykh vychislitel’nykh eksperimentov na MLOps platforme NIU VShE // Vestnik YuUrGU. Seriya: Vychislitel’naya matematika i informatika. 2025. T. 14. No. 2. S. 42–66.

УДК 004.8:004.75

MASHINALI O‘QITISH VA MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH ALGORITMLARINI BULUTLI MUHITDA REAL KATTA HAJMDAGI MA’LUMOTLARDA TADQIQ QILISH

Isroilov Sh.Y.[1], Buriboyev A.Sh.[2], Sattarov M.A.[3], Mamirov M.Y.[4]
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston;

i.shuha84@gmail.com

Katta hajmdagi ma'lumotlarning tez sur'atlarda shakllanishi mashinali o'qitish algoritmlarini faqat model aniqligi bo'yicha emas, balki hisoblash samaradorligi, masshtablanuvchanlik va resurs sarfi nuqtai nazaridan ham tadqiq qilishni talab etadi. Ma'lumot hajmi o'nlab gigabaytdan terabayt darajasiga oshganda bitta tugunning operativ xotirasi, protsessor quvvati va kiritish-chiqarish imkoniyatlari cheklovga aylanadi. Bulutli muhit hisoblash tugunlari sonini oshirish, ma'lumotlarni partitionlarga ajratish, CPU va GPU resurslaridan birgalikda foydalanish hamda taqsimlangan saqlash tizimlarini qo'llash imkonini beradi. Biroq tugunlar sonini ko'paytirish doimo proporsional tezlashishni bermaydi: shuffle, sinxronlash, model parametrlarini uzatish, tarmoq kechikishi va executorlarni ishga tushirish xarajatlari umumiy vaqtning sezilarli qismini egallashi mumkin.

Parallel bajarilish samaradorligini baholash uchun tezlashish va parallel samaradorlik koeffitsiyentlari qo'llanadi:

$$S_p = \frac{T_1}{T_p}, \qquad E_p = \frac{S_p}{p}, \tag{1}$$

bu yerda T_1 — bitta hisoblash tugunidagi bajarilish vaqti, T_p — p ta parallel hisoblash elementi ishlatilgandagi vaqt. Ushbu ko'rsatkichlar klaster o'lchami oshganda algoritmning amaldagi masshtablanuvchanligini tavsiflaydi.

Real ma'lumotlarda yetishmayotgan qiymatlar, kategoriyali belgilar, takroriy yozuvlar, ekstremal qiymatlar va turli o'lchov diapazonlari mavjud bo'ladi. Shu sababli mashinali o'qitish pipeline'i ma'lumotlarni o'qish, tozalash, filtrlash, transformatsiya, feature engineering, modelni o'qitish va baholash bosqichlarini qamrab olishi kerak. Ma'lumotlar p ta partitionga ajratilganda ularning har biri alohida workerda qayta ishlanishi mumkin. Masalan, min-max normallashtirish

$$x' = \frac{x - x_{\min}}{x_{\max} - x_{\min}} \tag{2}$$

formula bilan bajariladi. Spark DataFrame va MLlib bunday transformatsiyalarni taqsimlangan muhitda bajarish, klassifikatsiya, regressiya va clustering pipeline'larini tashkil etish imkonini beradi [1].

Tadqiqot uchun parallelizm xususiyati turlicha bo'lgan algoritmlarni tanlash maqsadga muvofiq. Logistic Regression gradientga asoslangan iterativ klassifikatsiya algoritmi bo'lib, tugunlararo kommunikatsiya va gradientlarni birlashtirish xarajatlarini baholash uchun qulay. Uning ikkilik klassifikatsiyadagi ehtimollik modeli

$$P(y = 1 \mid x) = \frac{1}{1 + e^{-(w^T x + b)}} \tag{3}$$

ko'rinishida ifodalanadi. Dataset partitionlarga bo'linganda lokal gradientlar workerlarda parallel hisoblanadi va global reduction orqali birlashtiriladi.

Random Forest task-parallel xususiyatga ega: ansambldagi daraxtlarning katta qismi mustaqil qurilishi sababli ularni executorlar o'rtasida taqsimlash yuqori parallelizm beradi. XGBoost strukturaviy ma'lumotlarda samarali boosting algoritmi bo'lib, histogram qurish, feature scanning va partitionlar ustidagi hisoblashlarni parallel bajaradi. Uning masshtablanuvchi arxitekturasi katta datasetlarda CPU va GPU klasterlarini qiyoslash uchun mos [2]. K-means esa iterativ data-parallel algoritm sifatida tanlanadi. Uning maqsad funksiyasi

$$J = \sum_{i=1}^{n} \|x_i - \mu_{c_i}\|^2 \tag{4}$$

bo‘lib, har bir worker o‘z partitionidagi obyektlarni eng yaqin centroidga biriktiradi, iteratsiya yakunida lokal statistikalar global ravishda birlashtiriladi. PCA katta o‘lchamli ma’lumotlarda matritsali parallel hisoblashni, chuqur neyron tarmoqlar esa GPU-intensiv distributed trainingni ifodalaydi. Demak, tanlangan algoritmlar gradient, task, iterativ data va GPU parallelizmining asosiy shakllarini qamrab oladi.

Eksperimentning amaliy ahamiyatini oshirish uchun sun’iy kichik datasetlar o‘rniga real katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanish zarur. Asosiy test manbasi sifatida Criteo 1TB Click Logs datasetidan foydalanish mumkin. Mazkur dataset 1 TB hajmdagi click-through-rate hodisalarini o‘z ichiga oladi va katta hajmdagi klassifikatsiya hamda taqsimlangan o‘qitish algoritmlarini benchmark qilishga mo‘ljallangan [3]. U Logistic Regression, XGBoost va chuqur neyron tarmoqlarni sinash uchun ayniqsa mos.

Testlash bosqichma-bosqich ma’lumot hajmini oshirish asosida tashkil etiladi: 10 GB, 50 GB, 100 GB, 500 GB va 1 TB. Har bir hajmda 1, 2, 4, 8 va 16 workerli konfiguratsiyalar sinovdan o‘tkaziladi. Bunda ma’lumot hajmi o‘zgarmas holda workerlar sonini oshirish strong scalingni, har bir workerga to‘g’ri keladigan ma’lumot ulushini deyarli o‘zgarmas saqlash esa weak scalingni baholash imkonini beradi. Har bir tajriba kamida uch marta takrorlanib, median bajarilish vaqti hamda dispersiya qayd etiladi.

1-jadval. Algoritmlarni katta ma’lumotlarda testlash mezonlari

Algoritm	**Parallelizm turi**	**ML sifati**	**Tizim ko‘rsatkichi**
Logistic Regression	gradient/data	F1, ROC-AUC	vaqt, iteratsiya, tarmoq
Random Forest	task/data	F1, ROC-AUC	speedup, CPU, RAM
XGBoost	histogram/distributed	F1, ROC-AUC	CPU/GPU, training time
K-means	iterativ data	Silhouette	shuffle, iteratsiya vaqti
PCA	matritsali	explained variance	vaqt, xotira, data transfer
DNN	data/model	loss, AUC/F1	GPU, sinxronlash

Eksperimental muhit Apache Spark asosidagi klaster ko‘rinishida tashkil etiladi. Workerlar soni, CPU va RAM limitlari bir xil konfiguratsiyada nazorat qilinishi, CPU workloadlar uchun Spark MLlib, tree boosting uchun distributed XGBoost, GPU workloadlar uchun esa mos distributed training vositalaridan foydalanilishi mumkin. Barcha sinovlarda bir xil train/test bo‘linishi, tasodifiy urug’, caching, checkpoint va shuffle sozlamalari saqlanishi eksperimentning takrorlanuvchanligini oshiradi.

Tizim samaradorligini faqat model sifati bilan baholash yetarli emas. Classification uchun Accuracy, Precision, Recall, F1-score va ROC-AUC; clustering uchun Silhouette koeffitsiyenti bilan bir qatorda bajarilish vaqti, CPU/GPU yuklanishi, xotira, disk I/O, network shuffle, p95 va p99 latency ham o‘lchanadi. Ma’lumotlarni qayta ishlash throughput’i

$$Throughput = \frac{N}{T} \tag{5}$$

formula bilan aniqlanadi, bu yerda N — qayta ishlangan yozuvlar soni, T — umumiy bajarilish vaqti. Bulut resurslarining umumiy qiymati

$$C_{total} = \sum_{r=1}^{m} c_r t_r \tag{6}$$

ko‘rinishida ifodalanadi, bunda c_r — r turdagi resursning vaqt birligidagi narxi, t_r — undan foydalanish davomiyligi.

Optimal konfiguratsiyani tanlashda bajarilish vaqti, kommunikatsiya, iqtisodiy xarajat va model sifati birgalikda hisobga olinishi lozim. Buning uchun quyidagi umumlashgan mezondan

foydalanish mumkin:

$$J = w_1 T_{exec} + w_2 C_{total} + w_3 T_{comm} + w_4 V_{SLA} - w_5 Q_{model}. \quad (7)$$

Bu yerda T_{exec} — bajarilish vaqti, T_{comm} — kommunikatsiya xarajati, V_{SLA} — xizmat darajasi talablarining buzilishi, Q_{model} — normallashtirilgan model sifati. w_i vaznlar tadqiqot maqsadiga qarab belgilanadi. Ushbu mezon eng tez konfiguratsiyani emas, balki sifat, vaqt va resurs sarfi o'rtasida maqbul muvozanatni ta'minlovchi variantni aniqlashga xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodika algoritmlarning bir xil bulut konfiguratsiyasida turlicha masshtablanishini ko'rsatadi. Random Forest mustaqil daraxtlarga asoslangani sababli task-parallel tezlashishga yaxshi moslashadi. K-meansda har iteratsiyada centroidlarni global yangilash tarmoq va sinxronlash xarajatini oshiradi. Logistic Regression va DNNda gradientlarni birlashtirish katta klasterlarda asosiy bottleneckka aylanishi mumkin. XGBoostda esa ma'lumot hajmi, histogram qurish va GPU xotirasidan foydalanish samaradorligi muhim omil bo'ladi. Shuning uchun barcha ML workloadlari uchun yagona optimal resurs konfiguratsiyasi mavjud emas.

Real profiling natijalari algoritmning hisoblash profilini va ma'lumot hajmini hisobga oluvchi adaptiv schedulerni yaratish uchun empirik baza bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yangi vazifa CPU-intensiv, memory-intensiv, communication-intensiv yoki GPU-intensiv sifatida tasniflanib, unga mos workerlar soni, hisoblash tuguni va framework tanlanadi. Natijada katta real ma'lumotlarda model sifati, speedup, parallel samaradorlik, throughput, latency, CPU/GPU yuklanishi, kommunikatsiya va resurs qiymatini kompleks baholash bulutli muhit uchun samarali parallel rejalashtirish usullarini ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi.

Adabiyotlar

1. **Apache Software Foundation.** *Machine Learning Library (MLlib) Guide.* Apache Spark Documentation, 2026.
2. **Chen T., Guestrin C.** XGBoost: A Scalable Tree Boosting System. *Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining.* 2016. P. 785–794.
3. **Criteo AI Lab.** *Criteo 1TB Click Logs Dataset.* Criteo Research Datasets.

SUGENO MODELLARI ASOSIDA QORAMOLLARNING YUQUMLI BO'LMAGAN KASALLIKLARINI INTELLEKTUAL TASHXISLASH

Kudratov R.B.
[1]**Samarqand davlat universiteti, "Hisoblash tizimlari muhandisligi" kafedrasi**
E-mail: rustamkudratov4@gmail.com

Annotatsiya. Qoramollarning yuqumli bo'lmagan kasalliklarini erta va ishonchli tashxislash chorvachilik mahsuldorligini saqlash, davolash xarajatlarini kamaytirish hamda hayvonlarning farovonligini ta'minlash uchun muhimdir. Veterinariya amaliyotida klinik belgilar, laboratoriya natijalari va ekspert kuzatuvlari ko'pincha noravshan, to'liqsiz yoki o'zaro ziddiyatli ko'rinishda bo'ladi. Shu sababli faqat aniq va to'liq ma'lumotlarga tayanadigan klassik algoritmlar barcha holatlarda yetarli barqarorlikni ta'minlay olmaydi. Ushbu tadqiqotda intervalli neytrosofik iyerarxik Sugeno modeli, ya'ni INISM taklif etiladi. Model 85 ta tashxislash belgisini oltita biologik va funksional guruhga ajratadi, lokal Sugeno modellarida qayta ishlaydi va T-I-F intervallari asosidagi agregatsiya orqali 116 turdagi yuqumli bo'lmagan kasallik bo'yicha yakuniy

xulosa shakllantiradi. Tajriba natijalarida INISM 94,6% aniqlik, 93,8% sezgirlik, 95,2% o‘ziga xoslik va 0,98 ROC-AUC ko‘rsatkichlarini qayd etgan. Natijalar iyerarxik tuzilma va intervalli neytrosofik ifodaning ko‘p parametrli veterinariya tashxislash masalalaridagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: intervalli neytrosofik to‘plamlar, iyerarxik Sugeno modeli, intellektual tashxislash, veterinariya ekspert tizimi, qoramollar, yuqumli bo‘lmagan kasalliklar, noravshan mantiq, sun’iy intellekt.

Chorvachilikda qoramollarning sog’lomligi va mahsuldorligi oziq-ovqat xavfsizligi hamda xo‘jaliklarning iqtisodiy barqarorligi bilan bevosita bog’liq. Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar sut va go‘sht mahsuldorligining pasayishi, reproduktiv ko‘rsatkichlarning yomonlashuvi, davolash xarajatlarining ortishi va hayvonlarni majburiy brak qilish kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunday kasalliklar ko‘pincha bir nechta klinik, gematologik, biokimyoviy va fiziologik belgilar birikmasi orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois kasallikni dastlabki bosqichda aniqlash uchun alohida bitta ko‘rsatkichga emas, balki turli manbalardan keladigan ma’lumotlarni kompleks tahlil qiluvchi modelga ehtiyoj mavjud [1,2].

Takagi-Sugeno tipidagi model ekspert bilimlarini IF-THEN qoidalari orqali ifodalashi, tez hisoblanishi va natijani matematik ko‘rinishda berishi bilan qulaydir. Biroq kirish parametrlarining soni ortishi bilan har bir parametr uchun bir nechta noravshan to‘plam kombinatsiyasi hosil bo‘ladi va qoidalar bazasi eksponensial sur’atda kengayadi. 85 ta belgi mavjud bo‘lgan vaziyatda bunday yondashuvni yagona katta model sifatida qurish amaliy jihatdan samarasizdir [1,4].

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun tadqiqotning maqsadi qoramollarning yuqumli bo‘lmagan kasalliklarini noaniq va to‘liqsiz ma’lumotlar sharoitida tashxislay oladigan intervalli neytrosofik iyerarxik Sugeno modelini ishlab chiqishdan iborat. Ilmiy yondashuvning yangiligi uchta yechimning birlashtirilishida namoyon bo‘ladi: tashxislash belgilarini biologik asosda guruhlash, har bir guruh uchun lokal Sugeno xulosalash modelini qurish va lokal natijalarni T-I-F intervallari orqali iyerarxik agregatsiyalash. Shu tariqa modelning aniqligi, izohlanishi va hisoblash samaradorligini bir vaqtda oshirish ko‘zda tutiladi.

Tadqiqotda 116 turdagi yuqumli bo‘lmagan kasallikni farqlash uchun 85 ta tashxislash belgisi tanlangan. Tajriba ma’lumotlari 15 ta veterinariya klinikasining arxiv materiallari hamda 50 nafar tajribali veterinar shifokorning ekspert baholariga tayangan holda shakllantirilgan. Belgilar biologik mazmuni, o‘lchash usuli va kasalliklar bilan funksional bog’liqligiga ko‘ra oltita guruhga ajratilgan: klinik belgilar 23 ta, gematologik ko‘rsatkichlar 14 ta, biokimyoviy parametrlar 18 ta, modda almashinuvi ko‘rsatkichlari 12 ta, fiziologik parametrlar 10 ta va qo‘shimcha belgilar 8 ta. Bunday taqsimot tashxislash jarayonining veterinariya mantiqiga mos kelishi bilan birga, hisoblash yuklamasini ham lokal modullar o‘rtasida taqsimlaydi.

INISM ikki o‘zaro bog’liq mexanizmga tayanadi. Birinchi mexanizm har bir tashxislash guruhi bo‘yicha lokal Sugeno xulosasini hisoblaydi. Lokal qoidalar odatda “agar klinik va laboratoriya belgilarining muayyan holati kuzatilsa, u holda guruh bo‘yicha xavf yoki sindrom bahosi shunday bo‘ladi” mazmunida tuziladi. Qoidaning faollashuv darajasi tegishlilik qiymatlarining minimumi yoki ko‘paytmasi asosida aniqlanadi, chiqish esa doimiy yoki kirish parametrlarining chiziqli funksiyasi ko‘rinishida beriladi. Shu sababli lokal model ekspert bilimi bilan matematik hisoblashni birlashtiradi.

Iyerarxik dekompozitsiyaning hisoblashdagi afzalligi shundaki, 85 ta belgini yagona qoidalar fazosida qayta ishlash o‘rniga, parametrlar kichikroq lokal modullarga taqsimlanadi. Tadqiqot konfiguratsiyasida oltita lokal model bo‘yicha jami 682 ta qoida shakllantirilib, ularning chiqishlari global modulga uzatiladi. Modullarning nisbatan mustaqil ishlashi hisoblashni parallel tashkil etish, yangi belgi yoki qoida qo‘shilganda tizimni to‘liq qayta qurmaslik va har bir

xulosaning manbasini izohlash imkonini beradi. Shu jihatdan INISM nafaqat aniqlikka, balki amaliy ekspluatatsiya qulayligiga ham yo‘naltirilgan.

Tashxislash belgilarining alohida guruhlari bo‘yicha o‘tkazilgan baholashda barcha guruhlar 85% dan yuqori aniqlikni ko‘rsatgan. Eng yuqori natijalar biokimyoviy parametrlar guruhida 92,3% va modda almashinuvi ko‘rsatkichlari guruhida 91,7% qayd etilgan. Gematologik ko‘rsatkichlar 89,4%, fiziologik parametrlar 89,8%, klinik belgilar 87,5% va qo‘shimcha belgilar 86,9% aniqlik bergan. Klinik va qo‘shimcha belgilar bo‘yicha nisbatan pastroq qiymat ekspert kuzatuvlarining subyektivligi, belgilarni turlicha talqin qilish va ayrim kasalliklar simptomlarining o‘xshashligi bilan izohlanadi. Guruhlar kesimida umumlashtirilgan ko‘rsatkich 89,6% ni tashkil etgan.

116 ta kasallik bo‘yicha uchta modelning bir xil qiyosiy baholashi INISM foydasiga barqaror ustunlikni ko‘rsatdi. Klassik Sugeno modeli bilan taqqoslaganda aniqlik 7,4 foiz punktga, sezgirlik 9,3 foiz punktga va o‘ziga xoslik 6,2 foiz punktga oshgan. Neytrosofik Sugeno modeliga nisbatan ham aniqlik 2,8 foiz punktga, sezgirlik 3,6 foiz punktga va o‘ziga xoslik 2,1 foiz punktga yuqori bo‘lgan. Mazkur farq iyerarxik dekompozitsiya qoidalar bazasini ixchamlashtirgani va interval T-I-F ifodasi to‘liqsiz hamda ziddiyatli dalillarni saqlab qolgani bilan bog’liq.

INISM modeli qiyosiy sinovda 94,6% aniqlik, 93,8% sezgirlik, 95,2% o‘ziga xoslik, 0,94 F1-ko‘rsatkich, 0,89 MCC va 0,98 ROC-AUC natijalarini qayd etdi. Jadvaldagi 89,6% qiymat guruhlar bo‘yicha lokal natijalarni umumlashtiruvchi ko‘rsatkich bo‘lsa, 94,6% qiymat 116 kasallik bo‘yicha uchta modelning global qiyosiy baholashidan olingan. Demak, ko‘rsatkichlar turli baholash kesimlarini ifodalaydi va ularni bir-biriga qarama-qarshi natija sifatida talqin qilish to‘g’ri emas. ROC-AUC ning 0,98 ga tengligi modelning kasallik mavjud va mavjud emas holatlarini ajratish qobiliyati yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijasida qoramollarning yuqumli bo‘lmagan kasalliklarini ko‘p parametrli va noaniq ma’lumotlar sharoitida tashxislashga mo‘ljallangan INISM modeli shakllantirildi. Model 85 ta belgini oltita mantiqiy guruhga ajratib, lokal Sugeno xulosalash, intervalli neytrosofik T-I-F ifodalash va iyerarxik agregatsiya mexanizmlarini yagona arxitekturaga birlashtiradi. Ushbu yondashuv klassik Sugeno modelidagi qoidalar sonining keskin ortishini cheklaydi, ekspert ma’lumotlaridagi noaniqlik va qarama-qarshilikni saqlaydi hamda yakuniy qarorni izohlash imkoniyatini kengaytiradi.

1-jadval. INISM modelining qiyosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Baholash mezoni	**SM**	**NSM**	**INISM**
Aniqlik (%)	87,2	91,8	94,6
Sezgirlik (%)	84,5	90,2	93,8
O‘ziga xoslik (%)	89,0	93,1	95,2
Musbat bashorat qiymati (%)	86,4	91,0	94,1
F1-ko‘rsatkich	0,87	0,91	0,94
MCC	0,75	0,83	0,89
ROC-AUC	0,92	0,96	0,98

Eksperimental natijalar INISM ning global qiyosiy sinovda 94,6% aniqlik va 0,98 ROC-AUC ko‘rsatkichlariga erishganini ko‘rsatdi. Kelgusida modelni mustaqil prospektiv ma’lumotlar bilan tekshirish, harorat, puls va faollik sensorlari asosida real vaqt monitoringiga ulash, shuningdek ot, qo‘y va parrandalar kasalliklarini tashxislashga moslashtirish maqsadga muvofiq. Bunday kengaytirishlar modelning ilmiy ishonchliligi va veterinariya amaliyotidagi qo‘llanish doirasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Muhamediyeva D.T., Safarova L.U., Tukhtamurodov N.** *Building a fuzzy Sugeno model for diagnosing cattle diseases on the basis of developing a knowledge base.* International Conference Sustainable Development, Moscow, 2022.
2. **Safarova L.U.** *Formation of informative signs for predicting the disease of highly productive cows with non-communicable diseases.* Journal of Physics Conference Series, 2021, V. 1901, №3.
3. **Primova H.A., Urokov Sh., Kudratov R.B., Khaniev N.M.** *Information flow management in veterinary medicine based on an error detection algorithm.* International Journal of Theoretical and Practical Issues of Digital Technologies, 2025, 8(2), pp. 80–86.

UDC 004.8:37.018

ARTIFICIAL INTELLIGENCE MODEL FOR STUDENT PERFORMANCE PREDICTION

Kurbonova D.

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
E-mail: dilnoraqurbonova3@gmail.com

Artificial intelligence and machine learning methods are increasingly used in education to analyze student data and support educational decision-making. One important application is the prediction of students' academic performance. An accurate prediction model can help educational institutions identify students who may require additional academic support before their final examinations. Machine learning algorithms are particularly suitable for this task because they can identify complex relationships between academic, demographic and social characteristics of students.

In this paper, an artificial intelligence model based on the Random Forest algorithm is considered for predicting students' academic performance. Random Forest is an ensemble learning method that combines a collection of decision trees. Each tree is constructed from a randomly selected sample of the training data and a random subset of features. For a regression problem, the final prediction is obtained by averaging the predictions of all trees:

$$\widehat{y}(x) = \frac{1}{M} \sum_{m=1}^{M} T_m(x), \tag{1}$$

where M is the number of decision trees, $T_m(x)$ is the prediction of the m-th tree and $\widehat{y}(x)$ is the predicted academic performance.

The Student Performance dataset from the UCI Machine Learning Repository is used to demonstrate the proposed approach [1]. The data were collected from two Portuguese secondary schools and contain academic, demographic, social and school-related information. The Portuguese-language dataset contains 649 student records and about 30 input attributes. The final grade $G3$, measured on a scale from 0 to 20, is selected as the prediction target.

The input variables include age, study time, number of previous failures, school support, family support, internet access, extracurricular activities, absences and previous academic results. Categorical attributes are transformed into numerical variables before training. The dataset is randomly divided into training and testing subsets using an 80:20 ratio.

The proposed prediction procedure consists of four main stages: data preprocessing, feature preparation, model training and performance evaluation. A Random Forest regressor containing

200 decision trees is used. The maximum tree depth is controlled to reduce overfitting, while random feature selection introduces diversity among individual trees. The trained model receives the characteristics of a student as input and returns the predicted final academic grade.

The prediction quality is evaluated using the mean absolute error (MAE), root mean squared error (RMSE) and coefficient of determination R^2. These measures are defined by

$$\mathrm{MAE} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} |y_i - \widehat{y}_i|, \tag{2}$$

$$\mathrm{RMSE} = \sqrt{\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}(y_i - \widehat{y}_i)^2}, \tag{3}$$

and

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \widehat{y}_i)^2}{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \overline{y})^2}. \tag{4}$$

Here y_i denotes the actual grade, $\widehat{y}_i$ is the predicted grade and $\overline{y}$ is the mean value of the actual grades.

To investigate the importance of previous academic information, two prediction scenarios are considered. In the first scenario, the first and second period grades $G1$ and $G2$ are included among the input features. In the second scenario, these grades are excluded and the prediction is based only on demographic, social and other school-related information. This distinction is important because previous grades are strongly related to the final grade [1].

The numerical experiment shows that Random Forest provides substantially more accurate predictions when previous academic results are available. A representative summary of the model performance is presented in Table 1.

Model configuration	**MAE**	**RMSE**	R^2
RF with previous grades	0.85	1.35	0.84
RF without previous grades	2.15	3.30	0.28

Table 1. Performance of the student grade prediction model.

The results indicate that previous academic achievement is the most important source of information for predicting the final student performance. When $G1$ and $G2$ are available, the predicted grades are concentrated close to the actual values. Without these variables, prediction becomes more difficult; nevertheless, the model can still extract useful information from study habits, failures, absences and other student characteristics.

The relative importance of selected input variables obtained from the Random Forest model is illustrated in Fig. 1. The values are normalized so that their sum is equal to one.

As can be seen from Fig. 1, the second-period grade $G2$ has the largest influence on the prediction, followed by the first-period grade $G1$. The number of previous failures, study time and absences also contribute to the prediction. This information is useful because the Random Forest model not only predicts the final grade but also provides an indication of which factors have the strongest influence on the prediction.

The obtained results demonstrate the potential of artificial intelligence for educational data analysis. A model of this type may be used as an early-warning component in an educational information system. Students predicted to have low academic performance could be identified before the end of a course, allowing teachers and academic advisors to provide additional support. However, predictions should support rather than replace decisions made by teachers, and sensitive student information should be handled carefully.



Рис. 10: Relative importance of selected student performance features.

In conclusion, an artificial intelligence model based on Random Forest has been considered for predicting student academic performance. The model uses academic, demographic and social characteristics as input and predicts the final student grade. The experiment shows that the availability of previous academic grades considerably improves prediction accuracy. Random Forest is particularly suitable for this application because it can model nonlinear relationships, process different types of features and provide estimates of feature importance. Future work will consider larger university datasets and compare Random Forest with gradient boosting and deep neural network models.

References

1. Cortez P., Silva A.M.G. Using data mining to predict secondary school student performance. Proceedings of the 5th Annual Future Business Technology Conference, Porto, Portugal, 2008, pp. 5–12.

2. Breiman L. Random Forests. Machine Learning, 2001, Vol. 45, pp. 5–32.

3. YaIgcı M. Educational data mining: prediction of students' academic performance using machine learning algorithms. Smart Learning Environments, 2022, Vol. 9, Article 11.

4. Nachouki M., Mohamed E.A., Mehdi R., Abou Naaj M. Student course grade prediction using the random forest algorithm: analysis of predictors' importance. Trends in Neuroscience and Education, 2023, Vol. 33, Article 100214.

5. Cortez P. Student Performance [Dataset]. UCI Machine Learning Repository, 2008. DOI: 10.24432/C5TG7T.

UDK 514.75

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURLI KOORDINATALAR SISTEMASIDA EGRI CHIZIQLAR EGRILIGINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Mamatqulova I.K
Termiz davlat universiteti Matematika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi, Termiz, O‘zbekiston;
mamatqulovairoda127@gmail.com

Differensial geometriyada egri chiziqlar va sirtlarning lokal xossalarini o‘rganishda egrilik tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Egri chiziq egriligi uning to‘g‘ri chiziqdan og‘ish darajasini miqdoriy jihatdan xarakterlaydi. Texnika, optika, yo‘l qurilishi hamda kompyuter grafikasi masalalarida murakkab trayektoriyalarning egriligini yuqori aniqlikda hisoblash talab etiladi.

An’anaviy usullarda murakkab tenglamalar bilan berilgan egri chiziqlarning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarini hisoblash va ularni egrilik formulasiga qo‘yib soddalashtirish yuqori diqqatni talab qiladi. Shu sababli, zamonaviy kompyuter algebrasi (Symbolic Computation) imkoniyatlaridan foydalanib, analitik hisoblash jarayonini algoritmlash dolzarb masala hisoblanadi.

Egri chiziqning berilish usuliga qarab, egrilik koeffitsientini hisoblash formulalari turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Agar egri chiziq $y = f(x)$ oshkora funksiya ko‘rinishida berilgan bo‘lsa, uning egrilik koeffitsienti k quyidagi formula orqali topiladi:

$$k = \frac{|y''|}{(1 + (y')^2)^{3/2}} \tag{1}$$

bu yerda $y' = \frac{dy}{dx}$ va $y'' = \frac{d^2y}{dx^2}$ tegishli ravishda birinchi va ikkinchi tartibli hosilalardir.

Agar egri chiziq parametrik ko‘rinishda $x = x(t)$, $y = y(t)$ berilgan bo‘lsa, formula ushbu ko‘rinishga keladi:

$$k = \frac{|x'y'' - y'x''|}{((x')^2 + (y')^2)^{3/2}} \tag{2}$$

Qutb koordinatalar sistemasida egri chiziq $r = r(\varphi)$ tenglamasi bilan berilganda, $x = r(\varphi)\cos\varphi$ va $y = r(\varphi)\sin\varphi$ o‘tish formulalaridan foydalanib, egrilik uchun quyidagi nisbat hosil qilinadi:

$$k = \frac{|r^2 + 2(r')^2 - rr''|}{(r^2 + (r')^2)^{3/2}} \tag{3}$$

bu yerda $r' = \frac{dr}{d\varphi}$ va $r'' = \frac{d^2r}{d\varphi^2}$.

Uch o‘lchamli fazoda parametrik berilgan $\mathbf{r}(t) = (x(t), y(t), z(t))$ egri chiziq uchun egrilik vektorial ko‘paytma yordamida aniqlanadi:

$$k = \frac{|\mathbf{r}'(t) \times \mathbf{r}''(t)|}{|\mathbf{r}'(t)|^3} \tag{4}$$

Sferik koordinatalar sistemasida (r, θ, φ) berilgan egri chiziqlarni hisoblashda Metrik tenzor va Kristoffel simvollari apparatidan foydalanish analitik hisoblarni yanada ixchamlashtiradi.

Simvolik hisoblash – bu matematik ifodalarni sonli (taqribiy) emas, balki ramziy (harfiy va analitik) ko‘rinishda xatosiz qayta ishlovchi kompyuter tizimlaridir. Maqolada Python dasturlash tilining *SymPy* kutubxonasi va *Wolfram Mathematica* muhitidan foydalanildi.

Algoritmning hisoblash bosqichlari:

1. Koordinata sistemasi va o‘zgaruvchilarni analitik ko‘rinishda kiritish.
2. Berilgan funksiyadan avtomatik ravishda y', y'' (yoki r', r'') hosilalarni ramziy ko‘rinishda olish.
3. Olingan hosilalarni mos egrilik formulasiga joylashtirish.
4. Natijaviy algebraik ifodani soddalashtirilgan eng qulay ko‘rinishga keltirish.

Amaliy hisoblash tajribalari va tahlil uchun quyidagi misollarni qaraymiz.

1-misol. Dekart koordinatasida $y = \sin(x)$ sinusoida egri chizig‘ining egriligini topaylik. Hosilalari: $y' = \cos(x)$, $y'' = -\sin(x)$. Formula (1) ga ko‘ra:

$$k(x) = \frac{|-\sin(x)|}{(1+\cos^2(x))^{3/2}} \tag{5}$$

Xususan, $x = \pi/2$ nuqtada egrilik eng yuqori qiymatga erishadi: $k(\pi/2) = 1$.

2-misol. Qutb koordinatasida $r = a(1+\cos\varphi)$ kardioidaning egriligini hisoblaymiz. Hosilalari: $r' = -a\sin\varphi$, $r'' = -a\cos\varphi$. Formula (3) ga qo‘yganda:

$$r^2 + 2(r')^2 - rr'' = a^2(1+\cos\varphi)^2 + 2a^2\sin^2\varphi + a^2(1+\cos\varphi)\cos\varphi = 3a^2(1+\cos\varphi)$$

$$(r^2 + (r')^2)^{3/2} = (a^2(1+\cos\varphi)^2 + a^2\sin^2\varphi)^{3/2} = (2a^2(1+\cos\varphi))^{3/2}$$

Simvolik soddalashtirish natijasida kardioida egriligi uchun juda ixcham formula hosil bo‘ladi:

$$k(\varphi) = \frac{3}{2\sqrt{2a\cdot r(\varphi)}} \tag{6}$$

Tadqiqot natijasida turli koordinatalar sistemasidagi egri chiziqlar egriligini hisoblashning umumiy analitik bazasi shakllantirildi. Simvolik hisoblash algoritmlarini qo‘llash murakkab matematik apparatga ega bo‘lgan differensial geometriya masalalarini yechish vaqtini bir necha barobarga qisqartirish va inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni bartaraf etish imkonini berdi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, simvolik hisoblash usullari qo‘lda hisoblashda yuzga keladigan algebraik xatoliklarning oldini oladi va hisoblash tezligini keskin oshiradi. Ishlab chiqilgan dasturiy algoritm va uslubiy tavsiyalar nafaqat nazariy taqqiqotlarda, balki robototexnika, zamonaviy CAD/CAM tizimlari va 3D modellashtirishda egri chiziqlar silliqligini tekshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu tadqiqotni davom ettirgan holda, fazoviy sirtlarning asosiy egriliklarini Gauss egriligini hisoblash jarayonlarini ham kompyuter algebrasi tizimlari yordamida avtomatlashtirish mumkin. Shuningdek mazkur yondashuv universitetning “Differensial geometriya va topologiya” fanini o‘qitishda samarali amaliy uslubiyot sifatida qo‘llanilishi mumkin

Adabiyotlar ro‘yxati

1.**Narmanov A.Y.** *Differensial geometriya.* – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. –240 b.

2.**Sharipov F.S., Yusupov A.I.**, *Differensial geometriya va topologiya elementlari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 208 b.

3. **Meurer A.** et al. *SymPy: symbolic computing in Python.* PeerJ Computer Science, 2017. – Vol. 3. – e103.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNING KO‘P MEZONLI VA RAQAMLI YONDASHUVLARI

Mambetturdiev M. J.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, O‘zbekiston;
muxammedalimambetturdiev@gmail.com

Kirish. Zamonaviy ta'limda kompetensiyani baholash bilim bilan birga ko‘nikma, malaka, mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash va kommunikativ faoliyatni ham qamrab oladi. Shu bois ko‘p mezonli va raqamli baholash yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotlarda kompetensiyani kompleks baholash, ya'ni bilim, ko‘nikma va amaliy faoliyatni birgalikda aniqlash zarurligi ta‘kidlangan [1; 2]. Ko‘p mezonli baholash kompetensiyaning turli tarkibiy qismlarini aniqlash imkonini beradi [3]. Raqamli texnologiyalar esa baholashning tezkorligi, shaffofligi va individualligini oshiradi [4; 5].

Asosiy qism. Mavjud adabiyotlar tahlili elektron ta‘lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilar kompetensiyasini fuzzy mantiq asosida ko‘p mezonli va kompleks baholash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganini ko‘rsatadi. Shu sababli lingvistik o‘zgaruvchilarni raqamli baholash mezonlari bilan integratsiyalash va individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi. Taklif etilayotgan model bo‘lajak o‘qituvchining kompetensiyasini bilim, amaliy ko‘nikma, raqamli savodxonlik, kommunikativ kompetensiya va mustaqil ta‘lim faolligi kabi besh asosiy indikator asosida baholashga yo‘naltirilgan. Kompetensiya vektori quyidagicha ifodalanadi:

$$X = (x_1, x_2, x_3, x_4, x_5)$$

bu yerda x_1 – bilim darajasi, x_2 – amaliy ko‘nikma, x_3 – raqamli savodxonlik, x_4 – kommunikativ kompetensiya, x_5 – mustaqil ta'lim faolligi.

Har bir indikator 0–1 oralig'ida baholanib, fuzzy to‘plamlar yordamida lingvistik qiymatlarga o‘tkaziladi:

$$\mu_A(x) \in [0, 1]$$

bu yerda $\mu_A(x)$ – indikatorning tegishli fuzzy to‘plamga tegishlilik darajasi. Bunda indikatorlar “yuqori”, “o‘rta” va “past” kabi lingvistik qiymatlar orqali ifodalanadi.

Kompetensiyaning integral ko‘rsatkichi indikatorlarning vazn koeffitsientlari asosida quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$C = \sum_{i=1}^{5} w_i x_i, \quad \sum_{i=1}^{5} w_i = 1$$

bu yerda C – umumiy kompetensiya ko‘rsatkichi, w_i – indikatorning ahamiyat koeffitsienti.

Fuzzy inference tizimi Mamdani modeli asosida amalga oshiriladi. Bunda ekspert qoidalari yordamida kirish indikatorlari va integral kompetensiya o‘rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Masalan:

$$R_i : \text{IF } x_1 \text{ Yuqori } AND \ x_2 \text{ Yuqori } THEN \ C \text{ Yuqori}$$

Qoidalar natijalari agregatsiya qilinib, umumiy fuzzy chiqish funksiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu_C(z) = \max_i [\alpha_i \wedge \mu_{B_i}(z)]$$

bu yerda α_i – i-qoidaning faollik darajasi, $\mu_{B_i}(z)$ – chiqish fuzzy to‘plamining tegishlilik funksiyasi.

Yakuniy integral kompetensiya qiymati defuzzifikatsiya orqali aniq ko‘rsatkichga aylantiriladi:

$$C^* = \frac{\int z\, \mu_C(z)\, dz}{\int \mu_C(z)\, dz}$$

Natijada C^* qiymati asosida kompetensiya darajasi “yuqori”, “o‘rta” va “past” va “juda yuqori” kategoriyalariga ajratiladi.

Model natijalari asosida talabaning zaif kompetensiyalari aniqlanib, individual rivojlanish yo‘nalishi va adaptiv o‘quv tavsiyalari shakllantiriladi. Shu tariqa fuzzy mantiqqa asoslangan model noaniq va ko‘p mezonli ma‘lumotlarni kompleks qayta ishlab, kompetensiyani obyektiv baholash, monitoring qilish va individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahlil, modellashtirish, ekspert baholash va matematik-statistik usullar asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kompetensiyasi baholandi. Bunda bilim, amaliy ko‘nikma, raqamli savodxonlik, kommunikativ faoliyat va mustaqil ta‘lim mezonlari hamda Mamdani fuzzy modeli qo‘llanildi.

Natija. Ko‘p mezonli va fuzzy yondashuv asosida integral kompetensiya darajasini aniqlash, rivojlanish dinamikasini monitoring qilish va individual tavsiyalar shakllantirish imkoniyati yaratildi.

Xulosa. Fuzzy mantiqqa asoslangan model kompetensiyani obyektiv, kompleks va adaptiv baholash hamda individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. **Black P., Wiliam D.** *Assessment and Classroom Learning.* –1998.
2. **Boud D., Falchikov N.** *Rethinking Assessment in Higher Education.* – 2007.
3. **Redecker C.** *European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu).* – 2017.
4. **UNESCO.** *ICT Competency Framework for Teachers.* –2018.
5. **O‘zbekiston Respublikasi.** *“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun.* –2020.

UDK 004.8:338.242

GENERATIV SUN’IY INTELLEKT AGENTLARINING KICHIK VA O‘RTA BIZNES OPERATSION SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Nizomov Sohibjon[1]
[1]**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston;**
sohibjon@example.com

Kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarida operatsion jarayonlarning samaradorligi faqat ishchi kuchi sonini ko‘paytirish bilan belgilanmaydi. Vazifaning murakkabligi, generativ modelning kontekst uzunligi, tashqi tizimlar (CRM, buxgalteriya, ombor) bilan integratsiya darajasi va inson nazorati zarurati umumiy bajarilish vaqtiga bevosita ta’sir qiladi. Mijozlar so‘rovlari, hujjat aylanishi, moliyaviy hisobotlar va marketing kontenti kabi vazifalarda generativ agentga topshirish ko‘pincha inson resursidan qimmatroq yoki, aksincha, sezilarli arzonroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli har bir vazifani avtomatik ravishda agentga yuborish emas, balki vazifa murakkabligini, xato xavfini va agent ishonchliligini birgalikda hisobga oluvchi adaptiv taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

KOB operatsion tizimlarida generativ agentlardan foydalanishning umumiy tamoyili vazifani bo‘lish, agent yoki inson tomonidan qayta ishlash va natijalarni birlashtirish ketma-ketligiga asoslanadi. Mazkur yondashuv mijozlarga xizmat ko‘rsatish botlarida, hujjat generatsiyasi tizimlarida va biznes-intellekt konveyerlarida turli ko‘rinishlarda uchraydi [1–3]. Biroq statik avtomatlashtirishda agent unumdorligi va xato ehtimoli o‘zgarmas deb qaraladi. Real KOB muhitida esa so‘rovlar murakkabligi, mijozlar tili, ma’lumotlar sifati va agent yuklamasi vaqt

bo‘yicha o‘zgaradi. Taklif qilinayotgan yondashuvning maqsadi ushbu o‘zgarishlarni monitoring qilish va vazifa-ijrochi (agent yoki inson) juftligini mos ijrochiga dinamik biriktirishdan iborat.

Masalaning qo‘yilishi. Korxonaning N ta operatsion vazifadan iborat oqimi quyidagicha ifodalansin:

$$T = \bigcup_{i=1}^{N} T_i, \qquad T_i \cap T_k = \varnothing,\ i \neq k. \tag{1}$$

Har bir T_i vazifa mijozga javob berish, hujjat tayyorlash, ma’lumotni tasniflash yoki hisobot shakllantirish operatsiyalaridan biri bo‘lishi mumkin. Ijrochilar to‘plami $E = \{E_1, E_2, \ldots, E_m\}$ generativ agentlar va inson xodimlaridan tashkil topadi. Har bir E_j ijrochining joriy holati hisoblash quvvati, javob vaqti, xato darajasi va bandlik darajasi orqali

$$e_j = (p_j, \tau_j, \varepsilon_j, u_j) \tag{2}$$

vektor bilan tavsiflanadi. Bu yerda p_j – ijrochining bir birlik vaqtda bajara oladigan vazifa hajmi, τ_j – o‘rtacha javob vaqti, ε_j – xato yoki gallyutsinatsiya ehtimoli, u_j esa ijrochining joriy bandlik darajasidir.

Vazifa T_i ni E_j ijrochida bajarish xarajatini soddalashtirilgan holda hisoblash vaqti, tekshirish (inson nazorati) vaqti va navbatda kutish yig’indisi sifatida baholash mumkin:

$$X_{ij} = \frac{W_i}{p_j} + \kappa\, \varepsilon_{ij} R_i + u_j. \tag{3}$$

Bu yerda W_i – vazifaning hisoblash (kontekst) hajmi, R_i – xato holida qayta ishlash yoki tuzatish xarajati, κ esa xatoni bartaraf etish og’irligi koeffitsiyentidir. Agar vazifa avtomatlashtirishga yaxshi moslashgan bo‘lsa, tuzatish xarajati kamayadi. Avtomatlashtirish mosligi koeffitsiyenti

$$\mu_{ij} = \frac{A_{ij}}{W_i}, \qquad 0 \le \mu_{ij} \le 1 \tag{4}$$

ko‘rinishida aniqlanadi, bu yerda A_{ij} – E_j ijrochi tomonidan inson aralashuvisiz to‘liq bajarilishi mumkin bo‘lgan vazifa qismi hajmi. μ_{ij} qiymati birga yaqin bo‘lsa, vazifa to‘liq avtomatlashtirishga mos keladi.

Taklif qilinayotgan adaptiv tanlash mezonida bajarilish xarajati bilan birga avtomatlashtirish mosligi, ijrochi bandligi va xato xavfi hisobga olinadi:

$$C_{ij} = \alpha X_{ij} + \beta(1 - \mu_{ij}) + \gamma U_j + \delta \varepsilon_{ij}, \tag{5}$$

$$j^* = \arg\min_{1 \le j \le m} C_{ij}. \tag{6}$$

Bu yerda U_j – ijrochining normallashtirilgan bandlik darajasi, ε_{ij} esa vazifa-ijrochi jufti uchun kutilayotgan xato ehtimoli, $\alpha, \beta, \gamma, \delta$ mezonlarning muhimlik koeffitsiyentlaridir. Mazkur ifoda oddiy “eng bo‘sh ijrochi” strategiyasidan farqli ravishda xatoni tuzatish narxini ham inobatga oladi. Masalan, javob vaqti biroz yuqori, ammo xato ehtimoli past bo‘lgan agent, tez, lekin ko‘p tuzatishni talab qiluvchi agentdan samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Adaptiv taqsimlash usuli. Dastlab tizim monitoring moduli barcha ijrochilardan (agent va xodimlar) ish holati telemetriyasini yig’adi. Keyin kiruvchi vazifa uning mazmuniga ko‘ra kommunikatsiya-intensiv (mijozlar bilan muloqot), hujjat-intensiv, tahlil-intensiv yoki qaror-intensiv sinflardan biriga ajratiladi. Har bir vazifa uchun (5) mezon hisoblanib, (6) bo‘yicha eng maqbul ijrochi tanlanadi. Lokal ishlov natijasida $M_i = A(T_i, \theta_i)$ – javob matni, hujjat loyihasi, tasnif natijasi yoki oraliq hisobot hosil qilinadi. Yakuniy operatsion natija

$$M = \mathrm{Join}(M_1, M_2, \ldots, M_n) \tag{7}$$

operatori orqali olinadi. Join operatorining mazmuni jarayon turiga bog'liq: mijozlarga xizmat ko‘rsatishda u navbatdagi javoblarni birlashtirish, hisobotlarda bo‘limlarni yig'ish, qaror qabul qilishda esa agent tavsiyasi va inson tasdig'ini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

Adaptivlikning ikkinchi darajasi bajarilish jarayonida qo‘llanadi. Tizim har Δt vaqt oralig'ida ijrochilar bandligini qayta baholaydi. Jamoadagi yuklama nomutanosibligi koeffitsiyenti

$$B = \frac{\max_j L_j}{\frac{1}{m}\sum_{j=1}^{m} L_j} \tag{8}$$

ko‘rinishida aniqlanadi. Agar $B > \tau$ bo‘lsa, ya'ni ayrim ijrochilarda yuklama o‘rtacha qiymatdan sezilarli yuqori bo‘lsa, hali boshlanmagan yoki past murakkablikdagi vazifalar qayta taqsimlanadi. Bunda vazifani boshqa ijrochiga topshirish orqali kutilayotgan foyda kontekstni qayta yuklash xarajati bilan solishtiriladi. Shunday qilib, dinamik balanslash juda tez-tez bajarilib, tizimda ortiqcha almashinuv xarajati hosil qilishi oldi olinadi.

Taklif etilgan yondashuv turli funksional yo‘nalishlar uchun muhim. Masalan, mijozlarga birlamchi konsultatsiya berishda vazifalarni mustaqil agentlarga tez taqsimlash task-parallel xususiyatga ega bo‘lsa, moliyaviy hisobot yoki shartnoma tahlili kabi qaror-intensiv vazifalarda har bosqichda inson tasdig'i (human-in-the-loop) talab etiladi. Birinchi holatda vazifalarni bo‘sh agentlarga tez qayta yo‘naltirish samarali bo‘lishi mumkin. Ikkinchi holatda esa xato xavfi va nazorat ustuvor ahamiyatga ega, chunki tez-tez tasdiqlash muloqot xarajatini oshiradi. Demak, tanlash mezonidagi vaznlar vazifa turiga qarab o‘zgartirilishi kerak.

Global optimallashtirish nuqtai nazaridan tizimning maqsadi faqat alohida vazifa xarajatini emas, butun operatsion oqimning tugash vaqtini, xizmat sifatini va tuzatish xarajatini minimallashtirishdan iborat. Shu sababli umumiy mezonni

$$J = w_1 T_{\max} + w_2 C_{err} + w_3 Q_{sla} + w_4 C_{switch} \to \min \tag{9}$$

ko‘rinishida berish mumkin. Bu yerda $T_{\max}$ – barcha vazifalar tugash vaqti, C_{err} – xatolarni tuzatish xarajati, Q_{sla} – xizmat darajasi (SLA) talablarining buzilishi, C_{switch} – vazifani qayta taqsimlash xarajatidir. Resurs cheklovlari har bir agent uchun API so‘rovlar limiti va inson xodimi uchun ish vaqti me'yoridan oshmasligini ta'minlaydi.

Mazkur modelni amaliy KOB axborot tizimida CRM platformasi va bulutli LLM API xizmati bilan integratsiya qilish mumkin. CRM mijozlar so‘rovlarini navbatga qo‘yishga, LLM API esa kontekstga mos javobni dinamik generatsiya qilishga qulay. Ish oqimini boshqarish tizimi (workflow orchestration) orqali agent bandligi va xato darajasi kuzatilganda, rejalashtirish moduli ushbu telemetriyadan (5) mezon koeffitsiyentlarini yangilash uchun foydalanishi mumkin. MLOps yondashuvi esa agent versiyasi, prompt konfiguratsiyasi va samaradorlik natijalarini qayta tiklash imkonini beradi [3].

Usulni baholashda barcha vazifalarni faqat inson bajaradigan, barcha vazifalarni faqat agent bajaradigan va tasodifiy taqsimlash strategiyalari bazaviy variant sifatida olinishi maqsadga muvofiq. Asosiy metrikalar bajarilish vaqti T, xarajat tejami, mijozlar qoniqish darajasi (CSAT) va xato/qayta ishlash foizidan iborat bo‘ladi. Turli hajmdagi so‘rovlar oqimi va 1, 5, 10, 20 agentli konfiguratsiyalarda tajriba o‘tkazish yondashuvning masshtablanish xususiyatini aniqlash imkonini beradi. Kutilayotgan natija shundaki, avtomatlashtirish mosligi va joriy bandlikni birgalikda hisobga olish kommunikatsiya-intensiv vazifalarda javob vaqtini qisqartiradi, qaror-intensiv vazifalarda esa xato xavfini kamaytirib, xizmat sifatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik va o‘rta biznesda generativ sun'iy intellekt agentlaridan samarali foydalanish uchun faqat vazifalarni avtomatlashtirish yetarli emas. Vazifa turi, uning murakkabligi, agent ishonchliligi, joriy bandlik va xato xavfi birgalikda baholanishi lozim.

Taklif etilgan avtomatlashtirish mosligiga asoslangan adaptiv model “bo‘lish–ishlov–birlashtirish” tamoyilini dinamik ijrochi monitoringi bilan birlashtiradi. Natijada vazifalarni eng mos ijrochiga (agent yoki inson) yo‘naltirish, ortiqcha tuzatish xarajatini kamaytirish va jamoa bandligi o‘zgarganda rejalashtirishni qayta moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuv KOB uchun generativ AI agentlarini joriy etishning yangi adaptiv boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. **Chui M., Hazan E., Roberts R. et al.** The Economic Potential of Generative AI: The Next Productivity Frontier // McKinsey & Company. 2023. 64 p.
2. **Karimov B.T.** Kichik biznesda raqamli transformatsiya va intellektual tizimlar // Toshkent: Fan va texnologiya. 2024. 192 b.
3. **Khritankov A.S., Polezhaev V.A., Zhulikov G.A. et al.** Vypolnenie raspredelennykh vychislitel’nykh eksperimentov na MLOps platforme // Vestnik YuUrGU. Seriya: Vychislitel’naya matematika i informatika. 2025. T. 14. No. 2. S. 42–66.
4. **Gartner Inc.** Emerging Technologies: Top Use Cases for Generative AI in Small and Midsize Businesses // Gartner Research. 2025.
5. **Agrawal A., Gans J., Goldfarb A.** Prediction Machines, Updated and Expanded: The Simple Economics of Artificial Intelligence // Harvard Business Review Press. 2022. 288 p.

INSULT XAVFINI BASHORAT QILISHDA KLINIK VA BIOMETRIK KO‘RSATKICHLAR ASOSIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Olimov Murodilla[1], Egamberdiyev Mardonbek[2]

[1]*f.-m.f.n., professor, Namangan davlat texnika universiteti, molimov5152@gmail.com*
[2]*doktorant, Namangan davlat texnika universiteti, mardonbekegambediyev@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada insult (o‘tkir miya qon aylanishi buzilishi) xavfini erta bosqichda bashorat qilish uchun bemorning klinik ko‘rsatkichlari (arterial bosim, qon glyukozasi va lipid profili, yurak ritmi buzilishlari tarixi va boshqalar) va biometrik parametrlari (yosh, tana-massa indeksi, yurak urish tezligi o‘zgaruvchanligi, puls to‘lqini tezligi) asosida matematik model taklif etiladi. Model ehtimollik nazariyasi va sun’iy intellekt (mashinali o‘qitish) usullarini uyg‘unlashtirgan gibrid yondashuvga asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *insult xavfi, matematik modellashtirish, biometrik ko‘rsatkichlar, klinik parametrlar, mashinali o‘qitish, logistik regressiya, bashoratlash tizimi.*

Kirish.

Insult butun dunyoda o‘lim va nogironlikka olib keluvchi sabablar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, insult holatlarining katta qismini oldindan bashorat qilish va profilaktik chora-tadbirlar ko‘rish orqali oldini olish mumkin. Ammo mavjud klinik baholash shkalalari (masalan, an’anaviy risk kalkulyatorlari) ko‘pincha faqat bir nechta statik ko‘rsatkichga asoslangan bo‘lib, bemorning individual biometrik dinamikasini to‘liq hisobga olmaydi. Shu sababli, klinik va biometrik ma’lumotlarni birgalikda tahlil qiluvchi, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan aniqroq va moslashuvchan matematik modellarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Masalaning qo‘yilishi.

Bemorning holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar vektori $x = (x_1, x_2, \ldots, x_n)$ ko‘rinishida kiritiladi, bu yerda x_i – yosh, arterial bosim (sistolik/diastolik), qon glyukozasi darajasi, umumiy xolesterin, tana-massa indeksi, yurak urish tezligi o‘zgaruvchanligi (HRV), puls to‘lqini tezligi va boshqa klinik-biometrik parametrlar. Maqsad – bemorning maKjlum vaqt oralig‘ida insult riskiga uchrash ehtimoli $P(y = 1 \mid x)$ ni yetarlicha aniqlikda baholovchi funksiyani topishdan iborat.

Taklif etilayotgan model.

Tadqiqotda ikki bosqichli gibrid yondashuv taklif etiladi. Birinchi bosqichda ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi chiziqli bo‘lmagan bog‘liqliklarni aniqlash uchun umumlashgan logistik regressiya modeli quyidagi ko‘rinishda quriladi:

$$P(y = 1 \mid x) = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \cdots + \beta_n x_n)}} \tag{1}$$

bu yerda $\beta_0, \beta_1, \ldots, \beta_n$ – model parametrlari bo‘lib, ular retrospektiv klinik ma’lumotlar to‘plami asosida maksimal ehtimollik usuli yordamida baholanadi. Ikkinchi bosqichda esa ko‘rsatkichlar orasidagi murakkab, chiziqli bo‘lmagan o‘zaro taKjsirlarni hisobga olish maqsadida gradiyent buster (Gradient Boosting) va sunKjiy neyron tarmoq (Multilayer Perceptron) algoritmlaridan foydalaniladi, natijalar ansambl (ensemble) usulida birlashtiriladi:

$$R(x) = \lambda_1 \cdot P_{\log}(x) + \lambda_2 \cdot P_{ML}(x), \qquad \lambda_1 + \lambda_2 = 1, \tag{2}$$

bu yerda $P_{\log}(x)$ – logistik regressiya bergan baho, $P_{ML}(x)$ – mashinali o‘qitish algoritmi bergan baho, λ_1, λ_2 – vaznlar bo‘lib, ular chuqurlik (cross-validation) asosida optimallashtiriladi. Yuqori riskli ko‘rsatkichlarga (masalan, yurak ritmi buzilishi tarixi, qandli diabet, gipertoniya) qo‘shimcha vazn koeffitsiyentlari kiritilishi modelning klinik jihatdan izohlanuvchanligini taKjminlaydi.

Model sifatini baholash.

Modelning bashoratlash sifati ROC-egri chizig‘i ostidagi maydon (AUC-ROC), sezgirlik (sensitivity), o‘ziga xoslik (specificity) va F1-ko‘rsatkichi orqali baholanadi. Dastlabki hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, klinik va biometrik ko‘rsatkichlarni birgalikda qo‘shish faqat klinik ko‘rsatkichlarga asoslangan an’anaviy modellarga nisbatan bashorat aniqligini sezilarli darajada oshiradi, chunki biometrik parametrlar bemor holatining dinamik o‘zgarishlarini real vaqt rejimida aks ettiradi.

Xulosa.

Ishlab chiqilgan matematik model klinik va biometrik ko‘rsatkichlarni yagona bashoratlash tizimiga birlashtirish orqali insult xavfini erta aniqlash imkonini beradi. Taklif etilgan gibrid (statistik + sunKjiy intellekt) yondashuv nafaqat yuqori aniqlikni ta’minlaydi, balki klinik amaliyotda qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlarga (Clinical Decision Support Systems) integratsiya qilinishi uchun ham qulay poydevor yaratadi. Kelgusi tadqiqotlar doirasida modelni real klinik ma’lumotlar to‘plamida sinovdan o‘tkazish va uni mobil monitoring vositalari bilan bog‘lash rejalashtirilmoqda.

Adabiyotlar

1. Kernan W.N. et al. Guidelines for the Prevention of Stroke in Patients With Stroke and Transient Ischemic Attack // Stroke. – 2021.

2. Sarraju A., Ouyang D. Artificial Intelligence and Machine Learning in Cardiovascular and Stroke Risk Prediction // Current Cardiology Reports. – 2022.

3. Boiko O., Turaev R. va boshq. Insult xavfini baholashda biometrik monitoring usullari // Toshkent tibbiyot jurnali. – 2023.

4. Hastie T., Tibshirani R., Friedman J. The Elements of Statistical Learning. – Springer, 2009.

UDK 004.8:616-006

ONKOLOGIK BEMORLARDA KAXEKSIYANI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA ANIQLASH

X.A.Primova[1], Z.E.Ibrohimova[2], S.J.Anorboyeva[3]
[1,2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston;
[3]Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand, O'zbekiston;
Zuli117@mail.ru

Kaxeksiya saraton kasalliklarida uchraydigan eng muhim metabolik asoratlardan biridir. Xalqaro konsensusga ko'ra, oldingi olti oy davomida tana vaznining 5% dan ortiq kamayishi yoki 2–5% vazn yo'qotilishi bilan birgalikda BMI < 20 kg/m^2 yoxud sarkopeniyaning mavjudligi kaxeksiya diagnostikasida muhim mezon hisoblanadi. Biroq faqat vazn ko'rsatkichiga tayanish ayrim bemorlarda mushak massasining yashirin kamayishini aniqlamasligi mumkin.

Onkologik bemorlarda KT tekshiruvlari kasallikni bosqichlash va davolash natijasini nazorat qilish uchun muntazam bajariladi. Shu sababli mavjud KT tasvirlaridan tana kompozitsiyasi biomarkerlarini avtomatik ajratib olish qo'shimcha tekshiruvsiz muhim klinik axborot beradi. Sun'iy intellekt yordamida L3 darajasidagi skelet mushaklarini segmentatsiya qilish, vaqt bo'yicha mushak yo'qolishini baholash va klinik-laborator ma'lumotlar bilan birlashtirish kaxeksiyani erta aniqlash imkonini oshiradi.

Birinchi bosqichda tana vaznining nisbiy kamayishi hisoblanadi. Boshlang'ich vazn W_0 va joriy vazn W_t bo'lsa, vazn yo'qotilishi quyidagicha aniqlanadi:

$$WL = \frac{W_0 - W_t}{W_0} \times 100\%. \tag{1}$$

Bu yerda WL — vazn yo'qotilishi foizi. Masalan, bemor vazni 80 kg dan 74 kg gacha kamaygan bo'lsa, $WL = 7.5\%$ bo'ladi.

Tana massasi indeksi (BMI) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$BMI = \frac{W}{H^2}. \tag{2}$$

bu yerda W — tana vazni (kg), H — bo'y (m). Kaxeksiya xavfini baholashda BMI mustaqil ko'rsatkich sifatida emas, vazn dinamikasi va mushak massasi bilan birgalikda talqin qilinadi.

KT tasvirida L3 umurtqa darajasi avtomatik topilgach, skelet mushaklari U-Net/nnU-Net segmentatsiya modeli bilan ajratiladi. Segmentatsiya maskasiga kiruvchi piksellar fizik maydoni yig'indisi skelet mushak maydonini beradi:


$$SMA = \sum_i A_i. \tag{3}$$

SMA bemor bo'yiga normallashtirilib skelet mushak indeksi olinadi:

$$SMI = \frac{SMA}{H^2}. \tag{4}$$

Ketma-ket KT tekshiruvlari mavjud bo‘lsa, mushak indeksining nisbiy o‘zgarishi dinamik biomarker sifatida qo‘llanadi:

$$\Delta SMI = \frac{SMI_t - SMI_0}{SMI_0} \times 100\%. \tag{5}$$



1-rasm. L3 darajasidagi KT kesimida skelet mushagini AI bilan segmentatsiya qilishning konseptual sxemasi.

Taklif etilayotgan tizim antropometrik, laborator, radiologik va klinik xususiyatlarni yagona vektorga birlashtiradi. Masalan, $X = [WL, BMI, SMA, SMI, \Delta SMI, CRP, Albumin, NLR, Age, ECOG]$. Klassifikatsiya modeli logistika regressiyasi, XGBoost yoki ko‘p qatlamli neyron tarmoq asosida qurilishi mumkin. Logistik modelda kaxeksiya ehtimoli sigmoid funksiya orqali aniqlanadi:

$$P(C = 1 \mid X) = \frac{1}{1 + e^{-z}}, \tag{6}$$


$$z = \beta_0 + \sum_j \beta_j x_j.$$

Neyron tarmoq varianti uchun yashirin qatlamlar ReLU aktivatsiyasi bilan ishlashi, yakuniy chiqishda esa $P_{cachexia}$ ehtimoli hosil qilinishi mumkin. Modelning chiqishi mustaqil tashxis emas, balki yuqori xavfli bemorlarni shifokor ko‘rigiga yo‘naltiruvchi decision-support ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Tasvirlarni oldindan qayta ishlash. KT tasvirlari DICOM formatidan olinadi, Hounsfield birliklari bo‘yicha intensivlik diapazoni cheklanadi va neyron tarmoq kirish o‘lchamiga moslashtiriladi. Segmentatsiyada mushak to‘qimasi uchun radiologik zichlik diapazoni yordamchi filtr sifatida ishlatilishi mumkin, biroq yakuniy maska neyron tarmoq prognozi bilan shakllantiriladi. Ma’lumotlarni standartlashtirish uchun z-score usuli qo‘llanadi:

$$z_i = \frac{x_i - \mu_i}{\sigma_i}. \tag{7}$$

Diagnostika algoritmi. 1) Bemorning bo‘yi, vazn dinamikasi, yoshi va funksional holatini olish. 2) WL va BMI ni hisoblash; CRP, albumin, gemoglobin va NLR kabi laborator ko‘rsatkichlarni kiritish. 3) KT tasviridan L3 umurtqa kesimini avtomatik aniqlash. 4) U-Net/nnU-Net yordamida skelet mushaklarini segmentatsiya qilish. 5) SMA, SMI va mavjud bo‘lsa ΔSMI ni hisoblash. 6) Barcha parametrlarni standartlashtirish va multimodal klassifikatorga uzatish. 7) Kaxeksiya ehtimoli hamda model noaniqligini hisoblash; noaniq holatlarni ekspert ko‘rigiga yuborish.



2-rasm. Kaxeksiyani sun'iy intellekt yordamida aniqlash algoritmi.

Tibbiy klassifikatsiyada faqat umumiy aniqlik yetarli emas. Kaxeksiyali bemorni sog'lom deb baholash klinik jihatdan muhim xato bo‘lganligi sababli sensitivity, specificity, precision, F1 va ROC-AUC ko‘rsatkichlari birgalikda hisoblanadi:

$$S = \frac{TP}{TP + FN}, \qquad Pn = \frac{TP}{TP + FP}, \qquad F_1 = 2 \cdot \frac{Pr \cdot R}{Pr + R}.$$

Segmentatsiya sifatini baholashda Dice koeffitsiyenti qo‘llanadi:

$$DSC = \frac{2|P \cap G|}{|P| + |G|}. \tag{8}$$

DSC qiymati 1 ga yaqinlashgan sari AI segmentatsiyasi ekspert belgilagan etalon maskaga yaqin bo‘ladi. Model o‘qitilishida bemor darajasida train/validation/test bo‘linishi bajarilishi kerak; bir bemorning turli KT tasvirlarini turli guruhlarga joylash data leakage keltirib chiqaradi.

Yallig'lanish holatini ifodalovchi qo‘shimcha ko‘rsatkich sifatida neutrofil/limfotsit nisbati ham hisoblanishi mumkin:

$$NL = \frac{N}{L}. \tag{9}$$

Jadval 1. Kaxeksiyani sun'iy intellekt yordamida aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy ma'lumotlar guruhlari va ularning vazifalari

Guruh	**Asosiy belgilar**	**AI dagi vazifasi**
Antropometrik	WL, BMI	Tana massasi dinamikasi
Radiologik	SMA, SMI, ΔSMI	Mushak massasi va kamayishi
Laborator	CRP, albumin, NLR	Yallig'lanish va metabolik holat
Klinik	yosh, ECOG, saraton bosqichi	Klinik kontekst va risk

Kaxeksiya ko‘p omilli sindrom bo‘lgani sababli uni faqat tana vazni orqali aniqlash yetarli emas. KT tasvirlaridan avtomatik olingan SMA va SMI ko‘rsatkichlarini vazn dinamikasi, yallig'lanish o‘choqlari va funksional holat bilan birlashtirish diagnostik jihatdan axborotli multimodal yondashuvni shakllantiradi. Sun'iy intellekt bu jarayonda katta hajmdagi tasvir va klinik ma'lumotlarni tez qayta ishlash, mushak massasining yashirin kamayishini aniqlash va yuqori xavfli bemorlarni saralash imkonini beradi.

Taklif etilgan model klinik amaliyotga joriy etilishidan oldin mustaqil tibbiyot muassasalari ma'lumotlarida tashqi validatsiyadan o‘tkazilishi, kalibratsiya va noaniqlik tahlili bajarilishi lozim. AI tizimi yakuniy tashxis qo‘yuvchi vosita emas; u onkolog va radiolog qarorini qo‘llab-quvvatlovchi tizim sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Amaliy tizimda model natijasi bilan birga segmentatsiya hududi, SMI qiymati, oldingi tekshiruvga nisbatan o‘zgarish foizi va ehtimoliy risk darajasini ko‘rsatish tavsiya etiladi. Bunday

tushuntiriladigan chiqish shifokorga AI qarorini tekshirish, noto‘g’ri segmentatsiyani tez aniqlash va klinik qarorni mustaqil shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. **Roeland E.J., Bohlke K., Baracos V.E. et al.** *Management of Cancer Cachexia: ASCO Guideline.* Journal of Clinical Oncology. 2020;38(21):2438–2453.
2. **Lee H. et al.** *Muscle segmentation in axial computed tomography images at the lumbar and thoracic levels for body composition analysis.* 2019.
3. **Ahmed S. et al.** *Reliable Radiologic Skeletal Muscle Area Assessment — A Biomarker for Cancer Cachexia Diagnosis.* Cells. 2026;15(6):515.

УДК 378.147:004.9

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RAQAMLI TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISH

Qurbanov H.X.[1], **Jumaev D. I.**[2], **Ishmetov A. Ya.**[3]

[1, 2, 3]**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Toshkent, O‘zbekiston**
e-mail: [1]qhamid_83@mail.ru; [2]d-a-v-ron@mail.ru; [3]ishmetov_azadbek@mail.ru

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, ta’lim jarayonini raqamlashtirish hamda xalqaro ta’lim standartlariga mos innovatsion muhitni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, elektron ta’lim platformalarini keng joriy etish, sun’iy intellekt va SMART texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri ta’lim tizimining raqam-li rivojlanish darajasi bilan belgilanmoqda. Axborot texnologiyalarining barcha sohalarga chuqur kirib borishi natijasida oliy ta’lim oldiga yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Zamonaviy mutaxassisdan faqat nazariy bilimga ega bo‘lish emas, balki raqamli vositalardan samarali foydalanish, katta hajmdagi axborotni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va doimiy ravishda yangi bilimlarni egallash qobiliyati ham talab qilinmoqda.

Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy o‘qitish modelini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, SMART texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini oddiy elektron shaklga o‘tkazishdan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, ta’lim ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni, axborot almashinuvini, individual ta’lim trayektoriyasini va natijalarni tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli ta’lim muhitining samaradorligi faqat texnik infratuzilmaning mavjudligi bilan belgi-lanmaydi. Unda pedagogning raqamli kompetensiyasi, o‘quv-metodik ta’minot sifati, talabaning texnologik tayyorgarligi, elektron resurslarning qulayligi, baholash mexanizmlari hamda ta’lim jarayonini monitoring qilish tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, SMART texnologiya-larni joriy etishda kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanish zarur.

SMART texnologiyalar ta’lim jarayonini maqsadga yo‘naltirilgan, natijador va interaktiv tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalar yordamida talabalar mustaqil ta’lim olish, axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniya-tiga ega bo‘ladilar. Shu sababli oliy ta’limda SMART texnologiyalar asosida raqamli ta’lim muhitini tashkil etish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘rganishlar asosida oliy ta’limda SMART texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun “maqsad – mazmun – texnologiya – faoliyat – monitoring – natija” ketma-ketligiga asoslangan metodik yondashuvni taklif etish mumkin.

Mazkur yondashuvda dastlab o‘quv mashg‘ulotining maqsadi aniqlanadi. Keyingi bosqichda ushbu maqsadga mos ta’lim mazmuni va metodlari belgilanadi. Shundan so‘ng eng maqbul SMART vositasi tanlanib, talabaning amaliy va mustaqil faoliyati tashkil etiladi. Mashg‘ulot yakunida raqamli monitoring vositalari yordamida ta’lim natijalari baholanadi va olingan ma’lumotlar keyingi pedagogik faoliyatni takomillashtirish uchun asos sifatida foydalaniladi. Bunday tizimli yondashuv texnologiya va pedagogika o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Natijada SMART texnologiyalar ta’lim jarayonining alohida elementi emas, balki uning barcha bosqichlarini qo‘llab-quvvatlovchi integratsiyalashgan vositaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida SMART texnologiyalar asosida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. SMART yondashuv ta’lim jarayonini faqat elektron shaklga o‘tkazish bilan cheklanmay, ta’lim mazmuni, metodlari, kommunikatsiya, mustaqil ta’lim va baholash jarayonlarini yagona raqamli muhitda integratsiyalash imkonini beradi.

SMART texnologiyalardan samarali foydalanish uchun, avvalo, oliy ta’lim muassasasining texnologik infratuzilmasini rivojlantirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, sifatli elektron o‘quv resurslarini yaratish va raqamli baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Shuningdek, texnologik vositalardan foydalanish pedagogik maqsad va kutilayotgan ta’lim natijalari bilan uzviy bog‘lanishi kerak.

Taklif etilayotgan konseptual yondashuvning texnologik, metodik, pedagogik hamda monitoring komponentlarini o‘zaro integratsiya qilish orqali oliy ta’lim muassasasida barqaror va natijador raqamli ta’lim muhitini shakllantirish mumkin. Bunday muhit talabaning faol pozitsiyasini kuchay-tiradi, mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu asosda oliy ta’limda SMART texnologiyalarni joriy etish jarayonini bosqichma-bosqich, ilmiy-metodik asoslangan va monitoringga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida SMART ta’lim muhitining samaradorligini aniq mezonlar asosida eksperimental tadqiq etish, turli ta’lim yo‘nalishlari kesimida uning natijadorligini qiyosiy baholash hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini mazkur muhitga pedagogik jihatdan maqbul integratsiya qilish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Литература

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017.
2. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
4. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. Vancouver, 2022.

UDK 378.146

TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA SUN’IY INTELLEKT ALGORITMLARIDAN FOYDALANISH

Sultanov R. A.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, O‘zbekiston;
sultanovrustem87@gmail.com

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi baholash jarayonini takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, dasturlash fanida talabalar bilimini baholash algoritmik tafakkur, kod yozish, mantiqiy fikrlash va muammoni yechish kabi ko‘nikmalarni kompleks baholashni taqozo etadi. Shu bois, sun’iy intellekt algoritlaridan foydalanish baholashning samaradorligi va obyektivligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga integratsiyasi baholash sifatini oshirishning muhim yo‘nalishiga aylandi. Holmes, Bialik va Fadel (2019) SI asosidagi adaptiv baholash imkoniyatlarini, Luckin (2018) esa individual ta’lim trayektoriyasini aniqlashdagi samaradorligini ta’kidlaydi. Baker va Inventado (2014) learning analytics va educational data mining texnologiyalarining baholash natijalarini tahlil qilish va prognozlashdagi ahamiyatini asoslagan.

Asosiy qism. Taklif etilayotgan yondashuvda talabaning bilim darajasi test natijalari, kod sifati, topshiriq bajarish vaqti, xatolar statistikasi va LMS faolligidan shakllanadigan ko‘p o‘lchamli bilim vektori orqali ifodalanadi. Bu yondashuv sun’iy intellekt yordamida kompetensiyani kompleks baholash imkonini beradi [1; 2].

Model 5 bosqichni qamrab oladi: ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, intellektual tahlil, qaror qabul qilish va adaptiv qayta aloqa.

1. Ma’lumotlarni yig‘ish − test, kod, topshiriq, xatolar va LMS faoliyati haqidagi ma’lumotlar jamlanadi.

2. Qayta ishlash − ma’lumotlar tozalanadi, standartlashtiriladi va bilim vektori shakllantiriladi.

3. Intellektual tahlil − klassifikatsiya, klasterizatsiya va prognozlash algoritmlari orqali bilim darajasi va rivojlanish dinamikasi aniqlanadi [3].

4. Qaror qabul qilish − yakuniy baho, individual tavsiyalar va qo‘shimcha topshiriqlar shakllantiri-ladi.

5. Adaptiv qayta aloqa − natijalar tizimga qaytarilib, model parametrlari va keyingi tavsiyalar yangilanadi.

Shunday qilib, Feedback Loop tizimni statik baholashdan adaptiv va o‘zini o‘zi takomillashtiruv-chi modelga aylantiradi. Yangi ma’lumotlar asosida baholash aniqligi, tavsiyalar va topshiriqlar doimiy moslashtiriladi. UNESCO (2021) sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishda samaradorlik, shaffoflik va inson manfaatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [4].

Bilim vektori va matematik model. Talabaning bilim vektori:

$$X = [x_1, x_2, \ldots, x_n]$$

bu yerda x_1–test natijalarining normalizatsiyalangan qiymati, x_2–kodning sifat ko’rsatkichi, x_3–topshiriqni bajarish tezligi, x_4–xatolar statistikasi, x_5–platformadagi faoliyat loglari bo‘yicha indicator va boshqa ko‘rsatkichlar.

Umumiy bilim darajasi:

$$B = \sum_{i=1}^{n} w_i x_i$$

bu yerda w_i – indikatorning ahamiyat koeffitsienti.

ntellektual tahlil modellari. Klassifikatsiya – talabalarni “yuqori”, “o‘rta” va “past” darajalarga ajratish:

$$C : X \to \{C_1, C_2, \ldots, C_m\}$$

Klasterizatsiya – o‘xshash kompetensiyaga ega talabalarni guruhlash: $\min \sum_{k=1}^{K} \sum_{X \in S_k} \|X - \mu_k\|^2$

Regressiya va prognozlash – kelajakdagi bilim darajasini aniqlash: $\hat{B}_{t+1} = f(X_t) + \varepsilon$

Fuzzy logic – bilim darajasidagi noaniqlikni hisobga olish:

$$\mu_{bilim}(B) \in [0,\, 1]$$

Adaptiv model – baholash natijalariga ko‘ra og‘irliklar va parametrlarni yangilash:

$$w_i{}^{(t+1)} = w_i{}^{(t)} + \Delta w_i, \qquad f^{(t+1)} = f^{(t)} + \Delta f$$

Natijada taklif etilayotgan model sun’iy intellektning klassifikatsiya, klasterizatsiya, prognozlash va fuzzy yondashuvlarini birlashtirib, talabalar bilimini obyektiv baholash va individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahlil, modellashtirish, ekspert baholash va matematik-statistik usullar asosida talabalarning raqamli ko‘rsatkichlari sun’iy intellekt algoritmlari yordamida baholandi.

Natija. Talabalarning bilim ko‘rsatkichlarini yagona bilim vektoriga birlashtiruvchi, klassifikat-siya, klasterizatsiya, prognozlash va adaptiv qayta aloqaga asoslangan konseptual model ishlab chiqildi.

Xulosa. Sun’iy intellekt asosidagi model baholash jarayonini obyektiv, ko‘p omilli va adaptiv shaklga keltirib, talabaning rivojlanishini individual kuzatish va ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. **Holmes W., Bialik M., Fadel C.** *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
2. **Luckin R.** *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century.* – London: UCL IOE Press, 2018.
3. **Baker R. S., Inventado P. S.** *Educational Data Mining and Learning Analytics // Learning Analytics.* – Springer, 2014.
4. **UNESCO.** *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers.* – Paris: UNESCO, 2021.
5. **OECD.** *Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots.* – Paris: OECD Publishing, 2021.

UDK 378.146

ADAPTIV TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT MODELLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Tashimov R. R.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, O‘zbekiston;
nukuskon@gmail.com

Kirish. Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'limga joriy etilishi o‘quv jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, adaptiv elektron ta'limda SI talabaning bilim darajasi, ehtiyojlari va o‘rganish sur'atiga mos ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi. Learning Analytics orqali o‘quv faoliyati tahlil qilinib, individual o‘quv yo‘nalishlari va materiallar shakllantiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotlarda adaptiv tizimlar o‘quv materiallarini talabaning bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirish imkonini berishi ta'kidlangan [1; 2]. Educational Data Mining va Learning Analytics o‘quv ma'lumotlarini tahlil qilish hamda ta'limni samarali boshqarishga xizmat qiladi [3]. Raqamli muhitda bilimlarning tarmoqlar orqali shakllanishi ham alohida qayd etilgan [4]. Mahalliy tadqiqotlarda esa elektron ta'limning mustaqil ta'lim va AKT kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan [5]. Umuman, SI asosidagi adaptiv ta'lim individual o‘qitish, monitoring va materiallarni moslashtirish imkonini berib, robototexnika kabi amaliy fanlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism. Adaptiv elektron ta'limda sun'iy intellekt (SI) modellari talabalarning bilim darajasi, individual ehtiyojlari va o‘rganish sur'atini tahlil qilish asosida ta'lim mazmunini moslashtirish imkonini beradi. Brusilovsky [1] adaptiv tizimlarning o‘quv materiallarini talabaning bilim holatiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslagan bo‘lsa, Woolf [2] intellektual tutor tizimlari-ning individual ta'limni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini ta'kidlagan.

Zamonaviy adaptiv ta'lim muhitida mashinali o‘qitish, intellektual tutor tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va tavsiya etuvchi algoritmlardan foydalaniladi. Mashinali o‘qitish o‘quv natijalarini tahlil qilish va prognozlashga, intellektual tutorlar individual pedagogik yordam ko‘rsatishga, NLP texnologiyalari interaktiv muloqotni tashkil etishga, tavsiya tizimlari esa talabaning ehtiyojiga mos o‘quv resurslarini tanlashga xizmat qiladi [2; 3].

Robototexnika fanini o‘qitishda ushbu texnologiyalarni integratsiyalash orqali SI asosidagi adaptiv elektron ta'lim muhitini shakllantirish mumkin. Bunda talabaning test natijalari, topshiriq-larni bajarish sifati, o‘rganish sur'ati va amaliy faoliyati tahlil qilinib, uning individual ta'lim trayektoriyasi shakllantiriladi. Tizim mazkur ma'lumotlar asosida mos o‘quv materiallari, amaliy topshiriqlar va metodik tavsiyalarni avtomatik tavsiya etadi.

Learning Analytics texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o‘quv faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish, rivojlanish dinamikasini aniqlash va ta'lim mazmunini qayta moslashti-rish imkonini beradi. Natijada adaptiv muhit individual yondashuv, uzluksiz monitoring, interaktiv ta'lim va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlarini yagona tizimga birlashtiradi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt modellarini adaptiv elektron ta'limga integratsiyalash robototex-nika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabaning individual ta'lim trayektoriyasini shakllanti-rish va nazariy hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ilmiy-metodik asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahlil, taqqoslash, modellashtirish va pedagogik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Sun'iy intellekt modellarining adaptiv ta'limdagi imkoniyatlari o‘rganilib, robototexnika fanini o‘qitishda talabalarning individual ehtiyojlariga mos adaptiv elektron ta'lim modeli ishlab chiqildi.

Natija. Tadqiqot natijasida sun'iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta'lim modeli ishlab chiqildi. Model talabalarning bilim darajasi va individual o‘rganish xususiyatlarini tahlil qilib, mos o‘quv materiallari, topshiriqlar va tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Natijada robototexnika fanini o‘qitishda ta'limni individuallashtirish, real vaqt monitoringi va o‘quv samaradorligini oshirish imkoniyati yaratildi.

Xulosa. Sun'iy intellektga asoslangan adaptiv elektron ta'lim modeli robototexnika fanini o‘qitishda ta'limni individuallashtirish, o‘quv faoliyatini monitoring qilish va samaradorlikni

oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv talabalarning bilim va amaliy ko‘nikmalarini hisobga olib, ularga mos o‘quv materiallari va tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. **Luckin R.** *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century.* – London: UCL IOE Press, 2018.
2. **Holmes W., Bialik M., Fadel C.** *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* – Boston, 2019.
3. **Siemens G., Long P.** *Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education* // EDUCAUSE Review. – 2011.
4. **Baker R. S., Inventado P. S.** *Educational Data Mining and Learning Analytics* // Learning Analytics. –Springer, 2014.
5. **UNESCO.** *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers.* – Paris, 2021.

ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR VA TEXNOLOGIYALAR

TURDIYEV B. E.[1], Xaydarov O. E.[2]

[1]**Navoiy innovatsiyalar universiteti , “Umumiy fanlari” kafedrasi ; hajdarovodil188@gmail.com**

XXI asrda axborot texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Kompyuterlar, mobil qurilmalar, internet tarmoqlari va turli dasturiy tizimlardan foydalanish kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda korxonalar, ta’lim muassasalari, banklar, tibbiyot tashkilotlari va davlat boshqaruvi tizimlarining samarali faoliyatini zamonaviy dasturiy vositalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Dasturiy vositalar kompyuter qurilmalarining imkoniyatlarini amaliy masalalarni hal qilishga yo‘naltiradi. Ular yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, tahlil qilish, uzatish, boshqarish va avtomatlashtirish mumkin. Texnologiyalarning rivojlanishi natijasida dasturiy mahsulotlar oddiy hisob-kitob vositasidan murakkab intellektual tizimlarga aylandi.

Dasturiy vosita – kompyuter yoki boshqa elektron qurilmalarda ma’lum vazifalarni bajarish uchun yaratilgan dasturlar, dasturiy paketlar va tizimlar majmuasidir. Dasturiy vositalar foydalanuvchiga kompyuter resurslaridan foydalanish, ma’lumotlarni qayta ishlash va turli amaliy masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Dasturiy ta’minotni shartli ravishda uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Tizimli dasturiy ta’minot;
2. Amaliy dasturiy ta’minot;
3. Dasturlash vositalari.

Tizimli dasturiy ta’minotga operatsion tizimlar, qurilma drayverlari va tizimni boshqaruvchi boshqa dasturlar kiradi. Windows, Linux, macOS, Android va iOS kabi operatsion tizimlar bunga misol bo‘la oladi.

Amaliy dasturiy ta’minot esa foydalanuvchining aniq vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Masalan, matn muharrirlari, elektron jadvallar, grafik muharrirlar, ma’lumotlar bazasi tizimlari, taqdimot dasturlari va multimedia dasturlari amaliy dasturiy vositalar hisoblanadi.

Dasturlash vositalari dasturchilar tomonidan yangi dasturiy mahsulotlar yaratishda qo‘llaniladi. Dasturlash tillari, kompilyatorlar, interpretatorlar, integratsiyalashgan dasturlash muhitlari va dasturiy kutubxonalar ushbu guruhga kiradi. Hence only the transverse coefficients of the metric can obstruct the transferred Killing symmetry.

Bulutli texnologiyalar

Zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yo‘nalishlaridan biri bulutli texnologiyalardir. Bulutli texnologiya foydalanuvchiga ma’lumotlar va dasturiy xizmatlardan internet orqali foydalanish imkonini beradi.

An’anaviy tizimlarda dasturlar va ma’lumotlar foydalanuvchining kompyuterida yoki tashkilotning mahalliy serverida saqlanadi. Bulutli texnologiyalarda esa ma’lumotlarni masofaviy serverlarda saqlash va ulardan internet orqali foydalanish mumkin.

Bulutli xizmatlarning asosiy modellariga quyidagilar kiradi:

- IaaS - infratuzilma xizmat sifatida;

- PaaS - platforma xizmat sifatida;

- SaaS - dasturiy ta’minot xizmat sifatida.

Bulutli texnologiyalarning asosiy afzalligi - foydalanuvchining istalgan joydan va turli qurilmalardan ma’lumotlarga murojaat qila olishidir. Bundan tashqari, tashkilotlar server infratuzilmasini yaratish va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Ta’limda bulutli texnologiyalar masofaviy ta’lim, elektron hujjatlar almashinuvi, onlayn hamkorlik va o‘quv materiallarini saqlashda keng qo‘llanmoqda.

Sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish

Zamonaviy dasturiy texnologiyalarning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri sun’iy intellektdir. Sun’iy intellekt kompyuter tizimlariga insonning ayrim intellektual faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish, tasvirlarni aniqlash, tabiiy tilni qayta ishlash, ovozni tanish, tavsiyalar berish va qaror qabul qilish kabi vazifalar bajariladi.

Mashinali o‘qitish sun’iy intellektning muhim yo‘nalishi bo‘lib, unda kompyuter tizimi oldindan barcha qoidalar batafsil yozib berilmasdan, ma’lumotlar asosida qonuniyatlarni aniqlashni o‘rganadi.

Masalan, elektron pochta tizimlarida spam xabarlarni aniqlash, internet do‘konlarida foydalanuvchiga mahsulot tavsiya qilish, bank tizimlarida shubhali operatsiyalarni aniqlash mashinali o‘qitish algoritmlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tizimlar matn, tasvir, dasturiy kod va boshqa turdagi kontentlarni yaratishda foydalanilmoqda. Bu texnologiyalar ta’lim, dasturlash, marketing, dizayn va ilmiy tadqiqotlarda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Biroq sun’iy intellektdan foydalanishda ma’lumotlarning maxfiyligi, natijalarning ishonchliligi, mualliflik huquqi va inson nazoratini ta’minlash kabi masalalarga ham e’tibor berish zarur.

Internetning rivojlanishi veb texnologiyalarning jadal taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi vaqtda turli xizmatlar veb-sayt va veb-ilovalar orqali taqdim etilmoqda.

Veb dasturlashda HTML, CSS va JavaScript kabi texnologiyalar asosiy vositalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, React, Angular, Vue kabi zamonaviy texnologiyalar interaktiv va murakkab veb-ilovalar yaratishda keng qo‘llanadi.

Mobil texnologiyalar esa smartfon va planshetlar uchun dasturlar yaratishga imkon beradi. Android va iOS platformalari mobil dasturiy ta’minotning asosiy ekotizimlarini tashkil qiladi.

Mobil ilovalar bank xizmatlari, elektron tijorat, ta’lim, tibbiyot, transport va aloqa sohalarida keng foydalanilmoqda. Foydalanuvchilar mobil qurilma orqali to‘lovlarni amalga oshirishi, masofadan ta’lim olishi, turli xizmatlardan foydalanishi mumkin.

Sun’iy intellektda kiberxavfsizlik texnologiyalari

Raqamlashtirish jarayoni kuchaygani sari axborot xavfsizligi masalalarining ahamiyati ham ortib bormoqda. Kiberxavfsizlik kompyuter tizimlari, tarmoqlar, dasturlar va ma’lumotlarni noqonuniy kirish, o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki o‘g‘irlashdan himoya qilishga qaratilgan.

Zamonaviy kiberxavfsizlik vositalariga antivirus dasturlari, xavfsizlik devorlari, ma'lumotlarni shifrlash tizimlari, ko'p bosqichli autentifikatsiya va tarmoq monitoringi vositalari kiradi.

Foydalanuvchilarning o'zi ham axborot xavfsizligining muhim elementi hisoblanadi. Kuchli parollardan foydalanish, noma'lum havolalarni ochmaslik, dasturlarni ishonchli manbalardan yuklab olish va muhim ma'lumotlarning zaxira nusxasini yaratish xavfsizlikni oshiradi.

Dasturiy ta'minot ishlab chiqishning zamonaviy usullari Zamonaviy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishda dasturlashning o'zi bilan bir qatorda loyihani boshqarish metodologiyalari ham muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda Agile, Scrum va DevOps kabi yondashuvlardan keng foydalaniladi. Agile metodologiyasi dasturiy mahsulotni bosqichma-bosqich ishlab chiqish va foydalanuvchi talablariga tez moslashishga imkon beradi.

DevOps esa dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini o'zaro yaqinlashtirishga qaratilgan. Avtomatlashtirilgan testlash, uzluksiz integratsiya va uzluksiz yetkazib berish dasturiy mahsulotlarni tez va sifatli ishlab chiqishga yordam beradi.

Git kabi versiyalarni boshqarish tizimlari dasturchilarning birgalikda ishlashini, koddagi o'zgarishlarni kuzatishni va oldingi versiyalarga qaytishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dasturiy vositalar va texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, Big Data, Internet of Things, mobil va veb texnologiyalar turli sohalarda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Dasturiy vositalardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, xizmatlarni avtomatlashtirish va ma'lumotlardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Kelajakda sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, bulutli hisoblash va boshqa raqamli texnologiyalarning yanada rivojlanishi kutilmoqda. Shu sababli zamonaviy mutaxassis nafaqat o'z kasbiy sohasini, balki zamonaviy dasturiy vositalar va axborot texnologiyalarini ham yaxshi bilishi zarur.

Adabiyotlar

1. **Elmasri R., Navathe S. B.** *Fundamentals of Database Systems.* - 7th ed. - Pearson, 2016. - 1272 p.
2. **Kurose J. F., Ross K. W.** *Computer Networking: A Top-Down Approach.* - 8th ed. - Pearson, 2021. - 864 p.
3. **Sommerville** *I. Software Engineering.* - 10th ed. - Pearson, 2016. - 816 p.

УДК 378.147:004.8

OLIY TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH

Xalilova M.X.[1]

[1]**Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi, O'zbekiston**
e-mail: xalilovamaftuna449@gmail.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt (SI) va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish, uning metodik mexanizmlarini takomillashtirish hamda individual ta'lim trayektoriyasini

shakllantirish masalalari har tomonlama yoritilgan. Aniq va abstrakt fanlarni o‘zlashtirish jarayonida talabalarning kognitiv imkoniyatlarini hisobga olish hamda ularga moslashtirilgan interaktiv raqamli o‘quv muhitini yaratish muhim zamonaviy zaruriyatdir. Tadqiqotda xorijiy olimlarning so‘nggi ilmiy izlanishlari, SI asosidagi adaptiv ta’lim platformalari tajribasi chuqur tahlil qilinib, ularni milliy oliy ta’lim tizimiga integratsiyalash yo‘llari ilmiy asoslab berilgan. Natijada talabalarning algoritmik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturiy-metodik model, uning tarkibiy modullari hamda amaliyotga joriy etish bosqichlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mustaqil ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, adaptiv ta’lim, intellektual assistent, algoritmik tafakkur, raqamli kompetensiya, individual traektoriya, kognitiv yuklama, Bloom taksonomiyasi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi jadal raqamli transformatsiya jarayonlari va pedagogik texnologiyalarning evolyutsiyasi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini yangicha sifat va texnologik bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, matematika va amaliy fanlar yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning nafaqat tayyor nazariy bilimlarni yod olishi yoki reproduktiv topshiriqlarni takrorlashi, balki algoritmik hamda mantiqiy tafakkurini mustaqil ravishda rivojlantirishi g‘oyat muhimdir. An’anaviy mustaqil ta’lim topshiriqlari ko‘pincha barcha uchun bir xil (statik) tuzilishga ega bo‘lib, u har bir talabaning individual kognitiv imkoniyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari hamda o‘zlashtirish dinamikasini to‘liq hisobga ola olmaydi.

Oliy ta’limda talabalarning mustaqil ta’lim soatlarini samarali tashkil etish va ularni pedagogik jihatdan to‘g’ri yo‘naltirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Talaba auditoriyadan tashqari vaqtda o‘quv materialini o‘zlashtirishda kognitiv qiyinchiliklarga va to‘siqlarga duch kelganda, o‘z vaqtida metodik yordam hamda aks-aloqa (feedback) ololmasligi oqibatida ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi pasayadi. Shu sababli mustaqil ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabaning bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash, uning bilim darajasiga mos ravishda topshiriqlarni dinamik generatsiya qilish hamda real vaqt rejimida tezkor maslahat berishga imkon beruvchi intellektual vositalardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning asosiy talabidir.

Generativ sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rgatish hamda neyron tarmoqlari texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu jarayonni tubdan isloh qilish uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. SI asosidagi ta’lim platformalari o‘quv materiallarini talabaning individual o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga qarab moslashtirish, tushuntirishlarni turli murakkablik darajasida taqdim etish, mantiqiy xatolarni tahlil qilish va talabaning bilimidagi uzilishlar (knowledge gaps)ni avtomatik diagnostika qilib, ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Oliy ta’lim va nazariy fanda SI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yetakchi xalqaro tadqiqotchilar mustaqil ta’lim faoliyatini statik topshiriqlar to‘plamidan dialogik va interaktiv shaklga o‘tkazishga alohida e’tibor qaratmoqda. Jumladan, K. V. Nguyen (2025) hamda A. Suriano (2025) o‘z tadqiqotlarida generativ SI yordamida talabalarning tanqidiy fikrlashi va mantiqiy xulosalash qobiliyatlarini oshirish bo‘yicha samarali pedagogik modellarni ilgari surgan. Isroillik olimlar N. Izsak (2025) hamda O. Hazzan va Y. Erezlar (2025) murakkab nazariy fanlarda SI texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarda refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish) hamda mustaqil rejalashtirish mexanizmlarini shakllantirish lozimligini ilmiy jihatdan asoslagan.

AQShlik tadqiqotchilar I. Akhmetov va J. Buchanan (2026) tomonidan taklif etilgan “CS 1.5” yondashuvi informatika hamda diskret tuzilmalar kurslarida SI vositalarini talabaning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi intellektual hamkor sifatida integratsiyalash yuqori samaradorlik

ko‘rsatishini isbotladi. Shuningdek, Ruminiyalik olim A.-I. Lungu va uning hammualliflari (2024) tomonidan yaratilgan formal metodlarga asoslangan Alk platformasi hamda R. Samala (2025) ishlarida adaptiv scaffolding (bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash) konsepsiyasi orqali talabalarda algoritmik tafakkurni mustaqil rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Ushbu ilg‘or xorijiy tajribalar va metodik yondashuvlarni umumlashtirgan holda, oliy ta’limda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tizimli va samarali tashkil etish uchun kompleks dasturiy-metodik yondashuv va uning funksional arxitekturasi taklif etildi:

1. **SI-assistent va dialogik modul** – mustaqil ta’lim jarayonida murakkab va abstrakt tushunchalarni sodda, bosqichma-bosqich tushuntirish, individual misollar yaratish hamda talabalarga tayyor javob berish o‘rniga yo‘naltiruvchi savollar bera oladigan intellektual muloqot muhitini yaratadi.

2. **Adaptiv o‘quv traektoriyasi moduli** – talabaning dastlabki va joriy o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra mustaqil ish topshiriqlari murakkabligini avtomatik ravishda moslashtiradi, talabadagi kognitiv yuklamani (cognitive load) maqbullashtiradi va Bloom taksonomiyasiga mos ravishda bilishdan ijodga qarab yo‘naltiradi.

3. **Real vaqtli tezkor aks-aloqa (Feedback) moduli** – topshiriqlarni bajarish jarayonidagi sintaktik va mantiqiy xatolarni zudlik bilan aniqlab, talabaga tayyor yechimni bermasdan, uning mantiqiy xatosini ko‘rsatadi va to‘g‘ri yechim algoritmini o‘zi to topgunicha yo‘naltiradi.

4. **Refleksiv va metakognitiv monitoring** – talabaning o‘z-o‘zini baholashi, o‘zlashtirish dinamikasini kuzatishi va mustaqil ta’lim natijalarini chuqur tahlil qilishiga imkoniyat yaratadi hamda o‘qituvchiga talabalarning umumiy bilish darajasi haqida analitik ma’lumot beradi.

Dasturiy-metodik modelni amaliyotga tadbiq etish metodologiyasi uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: Birinchidan, diagnostik bosqichda talabaning dastlabki bilimi va texnologik ko‘nikmalari baholanib, shaxsiy ta’lim profili shakllantiriladi. Ikkinchidan, interaktiv bosqichda talaba SI-assistent ko‘magida individual topshiriqlarni bajaradi, konstruktiv muloqot va tahlil orqali o‘z bilmini mustahkamlaydi. Uchinchidan, monitoring va baholash bosqichida talabaning mustaqil ta’lim olganlik darajasi, mantiqiy va algoritmik o‘sish ko‘rsatkichlari empirik va analitik usullar bilan baholanadi.

Taklif etilayotgan yondashuvning asosiy pedagogik tamoyili SI texnologiyalarini talabaning o‘rniga masalani shunchaki yechib beruvchi vosita sifatida emas, balki uning mustaqil fikrlashi va mantiqiy mulohaza yuritishini rag‘batlantiruvchi intellektual hamkor (Thought Partner) sifatida qo‘llashdan iborat. Bunda tayyor natijani shunchaki ko‘chirish (plagiat)ning oldi olinadi hamda talabaning muammoni mustaqil tahlil qilishi va yechimni asoslab berishi ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy olimlarning ilmiy natijalari va ilg‘or metodik tajribalarini milliy oliy ta’lim sharoitiga moslashtirish talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish sifatini yangi bosqichga ko‘taradi. Taklif etilgan dasturiy-metodik model va uning adaptiv modullari talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini interaktiv, moslashuvchan hamda individuallashtirilgan tarzda olib borishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Izsak N. Thinking Like a Student: AI-Supported Reflective Planning in a Theory-Intensive Computer Science Course. arXiv preprint, 2025.
2. Akhmetov I., Buchanan J. "CS 1.5": An Experience Report on Integrating CS1 and Discrete Structures for the AI Era. arXiv preprint, 2026.
3. Hazzan O., Erez Y. Rethinking Computer Science Education in the Age of GenAI. ACM Transactions on Computing Education, 2025.
4. Lungu A.-I. et al. Alk: A Formal-Methods-based Educational Platform for Enhancing Algorithmic Thinking. Scientific Annals of Computer Science, 2024.
5. Nguyen K. V., Suriano A. Pedagogical Integration of Generative AI for Critical Thinking and Self-Directed Learning in Higher Education. Journal of Educational Technology, 2025.

УДК 004.8

Гибридная формально-нейронная модель синтаксического разбора предложения официально-делового стиля узбекского языка

Жураева Н. В.[1], Жураева У. В.[2]
[1]Университет геологических наук, доцент кафедры искусственного интеллекта и естественных наук; mina-uzb@mail.ru
[2]Университет Афрасиаб, преподаватель кафедры экономики и туризма; jorayevau26@gmail.com

Аннотация. В работе предложена гибридная формально-нейронная модель синтаксического разбора узбекских предложений, сочетающая аксиоматическую грамматику с нейросетевыми методами.

Ключевые слова: узбекский язык, официально-деловой стиль, синтаксический анализ, формальная грамматика, аксиоматическая модель, нейросимвольный искусственный интеллект, трансформер, графовая нейронная сеть.

Цифровизация госуправления и рост объёма официально-деловых текстов на узбекском языке требуют систем автоматической обработки, сочетающих точность с объяснимостью. Агглютинативная морфология, вариативность порядка слов, омонимия и нехватка размеченных корпусов осложняют задачу, а существующие нейросетевые и формальные модели обладают взаимодополняющими сильными и слабыми сторонами. Цель исследования – разработка гибридной формально-нейронной модели, в которой нейронный компонент обеспечивает вероятностную интерпретацию, а формальный – проверку допустимости результата.

Формальная часть предлагаемой системы базируется на ранее разработанной аксиоматической модели грамматики официально-делового стиля узбекского языка. В исходной теории используются формальные модели частей речи и членов предложения, базовая аксиома и система правил вывода. В качестве структурной основы рассматривается порядок:

$$A: \ S + O + Adv + P,$$

где S – подлежащее; O – дополнение; Adv – обстоятельство; P – сказуемое.

Базовая структура служит формальной основой контролируемого фрагмента официально-делового стиля узбекского языка, а не описанием всех возможных предложений.

Предлагаемая модель состоит из трёх взаимосвязанных уровней.

1. Уровень предварительной обработки. На вход системы поступает предложение или фрагмент официального документа $X = (x_1, x_2, \ldots, x_n)$. На первом этапе выполняются токенизация, нормализация, выделение предложений, обработка пунктуации, предварительный морфологический анализ и идентификация потенциально значимых аффиксальных последовательностей. Для узбекского языка особенно важен морфологический анализ, поскольку грамматическая информация часто кодируется последовательностью аффиксов.

2. Нейронный модуль. Входное предложение токенизируется, каждый токен преобразуется в контекстный вектор $H = f_\theta(X)$. На основе H нейронный модуль выполняет морфологическую разметку, определение частей речи и признаков, снятие омонимии и предсказание синтаксических связей, формируя несколько кандидатов разбора y_i с вероятностями $P(y_i \mid X)$. Наиболее вероятный вариант не принимается автоматически – окончательный выбор происходит только после проверки формальным модулем.

3. Формальный модуль верификации. Формальный модуль получает от нейронной системы множество кандидатов $Y = \{y_1, y_2, \ldots, y_k\}$. Для каждого кандидата выполняется проверка

$$V(y_i) = \begin{cases} 1, & \text{если } y_i \text{ выводим по правилам } R = \{r_1, r_2, \ldots, r_{12}\}, \\ 0, & \text{иначе,} \end{cases} \tag{1}$$

где R – множество из правил вывода формальной грамматики, $V(y_i)$ – индикатор соответствия разбора y_i аксиоматической системе.

Если кандидат соответствует одной из допустимых конструкций, система сохраняет соответствующее доказательство. Итоговый выбор может быть представлен как задача оптимизации:

$$y^* = \arg\max_{y_i} \left[\lambda P_\theta(y_i \mid X) + (1 - \lambda) C(y_i)\right], \tag{2}$$

где $P_\theta(y_i \mid X)$ – нейронная оценка; $C(y_i)$ – оценка соответствия формальной системе; λ – коэффициент соотношения нейронной и формальной составляющих.

В строгом режиме $C(y_i)$ может выступать не как дополнительный балл, а как обязательное ограничение. В этом случае нейронная модель выбирает наиболее вероятный вариант только среди формально допустимых структур.

Рассмотрим архитектурную схему действий:

Входной документ → Предварительная обработка → Нейронный модуль → Формальная

проверка → Входной документ → Ранжирование и выбор → Объяснение результата

Нейронная модель работает совместно с формальной грамматикой, разделяя вероятностное распознавание и логическую верификацию. При неоднозначности выбирается формально допустимый вариант, даже если он менее вероятен. Система сохраняет полный след разбора для объяснимости. Предусмотрены строгий (только формальные конструкции) и расширенный режимы. Новизна подхода – в разделении функций: формальная система ограничивает пространство решений, нейронная – выбирает и ранжирует варианты внутри него:

Нейронное предложение → Формальная верификация →

→ Нейронное ранжирование → Объясняемый результат

Такой принцип позволяет использовать результаты ранее разработанной аксиоматической модели в современных системах NLP без отказа от её математической основы.

Для экспериментальной проверки модели целесообразно сформировать специализированный корпус официально-делового стиля узбекского языка. Корпус должен включать

нормативно-правовые документы, административные документы, официальные письма, постановления и распоряжения, договорные тексты и типовые государственные документы. Каждое предложение должно быть размечено как минимум на трёх уровнях:

$$\text{Морфология} \rightarrow \text{Синтаксис} \rightarrow \text{Тип конструкции}$$

Гибридная модель должна снизить число недопустимых разборов, повысить устойчивость к вариативности и омонимии, сохранить объяснимость, сократить пространство поиска и создать benchmark официально-делового узбекского языка.

Модель применима для анализа госдокументов, обработки нормативно-правовых текстов, проверки грамматики, генерации документов, поиска, извлечения отношений и создания корпусов; возможна интеграция с модулями сущностей и семантических ролей.

Перспективность подхода определяется возможностью переноса ранее полученных результатов формального моделирования грамматики в современные технологии нейросимвольного искусственного интеллекта и создания специализированных NLP-инструментов для официально-делового узбекского языка.

Литература

1. **Sharipov M., Mattiev J., Sobirov J., Baltayev R.** Creating a morphological and syntactic tagged corpus for the Uzbek language. – 2022.
2. **Elov B., Abdullayeva O., Primova M.** O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlashdagi morfologik, sintaktik va semantik tahlil metodlari // Uzbekistan: Language and Culture. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – DOI: 10.52773.
3. **Jurayeva N.V.** The formal model of the grammar of the Uzbek language // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2020. – Vol. 8, No. 4, Part II. – ISSN 2056-5852. – P. 129–133.
4. **Jurayeva N.V., Jurayeva U.V.** Формальные модели членов предложения грамматики узбекского языка в рамках официально-делового стиля // Universum: Психология и образование. – Декабрь 2020. – 12(78).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

MATEMATIK ANALIZ VA MATEMATIK FIZIKA TENGLAMALARINING ZAMONAVIY MASALALARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI. II qism

Termiz, 2026-yil, 21-22-sentyabr

Mas’ul muharrirlar:

Imamov Oybek Shanazarovich,

Amonov Bobur Baxtiyorovich

Musahhihlar:

Xo‘jaqulov J.R, Mamatmo‘minov D.T., Mirzayev F.S

Texnik muharrir:

Abdunazar BO‘RIYEV

Kompyuterda sahifalovchi:

To‘rabek KARAMATOV

Terishga: 15.09.2026-yilda berildi.
Bosishga 15.09.2026-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog‘ozi.
Times New Roman garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 28,25 Adadi 50 nusxada. 477 bet.
MANZILI:“TerDU NMM” bosmaxonasi,
Termiz shahri, A.Navoiy ko‘chasi 42-uy.